

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
VAZIRLAR MAHKAMASI
TOSHKENT ISLOM UNIVERSITETI**

ISLOM TARIXI
(Xulafoi roshidun davri – 632–661-yillar)
(O‘quv qo‘llanma)

“Toshkent islom universiteti”
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2013

Ushbu o‘quv qo‘llanma islom tarixining ilk davriga bag‘ishlangan bo‘lib, unda islom tarixi bilan shug‘ullangan tarixchilar, ularning asarları, G‘arb va Sharq tadqiqotchilarining ilmiy ishlari haqida ma’lumot to‘plangan. Shuningdek, islom dinining paydo bo‘lishi arafasida Arabiston yarimoroli va arablar hayoti, Makka tarixi va Ka‘ba ibodatxonasi, Quraysh qabilasi, Muhammad (s.a.v.)ning islomdan avvalgi hayoti, Makkadagi targ‘ibot davri, Madinaga hijrat, Makka va Madina o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushlar, chet mamlakatlar bilan diplomatik munosabatlar va boshqa mavzular o‘rin olgan.

Shuningdek, o‘quv qo‘llanmada islom tarixining Makka va Madina, al-Xulafo ar-roshidun davrida ilk islom davlatchiligining shakllanishi, soliqlar siyosati, tashqi yurishlari, arab-musulmon davlatchiligidagi diniy va dunyoviy prinsiplarining o‘zaro muvozanati va davlatdagagi ichki beqarorliklarning mohiyati haqida ma’lumotlar beriladi.

O‘quv qo‘llanma Toshkent islom universiteti talabalariga o‘quv jarayonida foydalanish uchun mo‘ljallangan. Undan tadqiqotchilar hamda islom tarixi bilan qiziquvchi kitobxonlar ham foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

Q.T. Zohidov, tarix fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

S.S. Agzamxodjaev, tarix fanlari doktori, professor

H.H. Yuldashev, tarix fanlari nomzodi

Ushbu o‘quv qo‘llanma Toshkent islom universiteti O‘quv-uslubiy kengashining 2013-yil 18-yanvardagi (1-sonli majlis bayonnomasi), Universitet Ilmiy Kengashining 2013-yil 21-sentyabrdagi majlisida muhokama etildi va nashrga tavsiya qilindi (3-sonli majlis bayonnomasi)

O‘quv qo‘llanma O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Din ishlari bo‘yicha o‘mitanigan 2013-yil 13-noyabrdagi 3158-raqamli tavsiysi bilan chop etildi.

KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, o‘zbek xalqi milliy va diniy qadriyatlarini to‘la o‘rganish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Ma’lumki, “sho‘rolar zamonida tarixiy haqiqatni bilish rag‘batlantirilmas edi, hukmron mafkura manfaatlariga xizmat qilmaydigan manbalar xalq ko‘zidan iloji boricha yiroq saqlanardi. Ahvol shu darajaga yetib borgan ediki, o‘z tariximizni o‘zimiz yozish huquqidan mahrum bo‘lib qoldik”¹. Milliy istiqlol o‘zbek xalqining qadim o‘tmishini, islom dini, urf-odatlar va tarixiy an’analarini aslidagidek, mafkuraviy aqidalarsiz, xolisona o‘rganishni asosiy vazifa etib qo‘ydi. Hozirgi kunda islom dini va uning tarixini o‘rganishda juda noyob bo‘lgan muhim tarixiy manbalar va asarlar, jumladan, Qur’oni karim, Imom Buxoriy, Imom Termiziyyining hadis to‘plamlari, Bahouddin Naqshband, Ahmad Yassavyi va Najmiddin Kubro hikmatlari, Burhoniddin Marg‘inoniy kabi allomalarining insonni yetuklikka chorlovchi diniy, ma’rifiy, madaniy, falsafiy, axloqiy va huquqiy asarlar o‘zbek tilida chop etilmoqda. Mustaqillikdan keyin islom dini va uning vujudga kelish tarixi, shariat va uning sohalari xususida ko‘plab kitoblar, ilmiy-ommabop asarlar va maqolalar yaratilmoqda. Mintaqamiz tarixi uchun ham muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan islomda ilk davlatchilik masalalarini o‘rganish juda muhim. Binobarin islom tarixida davlat hokimiysi va uni boshqarish tizimi muammosini o‘rganish, uning ijtimoiy-siyosiy manbalari va rivojlanishining asosiy yo‘nalishlari masalasi hozirgi davr uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Islomda davlat hokimiyatiga yondashuv masalasi Sharq va G‘arb islomshunos olimlarining diqqatini o‘ziga jalb etib kelgan. Ularning aksariyati asosan islom tarixi va musulmon davlatlari rivojlanishining umumiyligi muammolari bilan shug‘ullandilar. Ammo islom davlatchiligi, musulmoncha boshqarish shakli,

¹Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz keljak yo‘q // Karimov I.A. Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 142.

davlat hokimiyatining tarkibiy asosi masalalari hamon nazariy jihatdan chuqur va atroficha tahlilga muhtoj bo‘lib qolmoqda.

Shu bilan birga g‘oyaviy va tarixiy asoslarga tayangan holda O‘zbekistondagi “eksport qilingan” “yangi islom” g‘oyalariga va diniy-siyosiy partiyalarga qarshi kurashish muammosi etilgan hozirgi sharoitda bu mavzuni ilmiy hal etish Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash yo‘lidagi eng dolzarb masalalardan biridir. Chunki “Muqaddas islom dinimizni hayotimizdagi o‘rnini yaxshi anglamaydigan odamlar ham bu nozik, murakkab mavzuga bilar-bilmas aralashmoqda”².

Ushbu o‘quv qo‘llanmada islom tarixini chuqur o‘rganish uchun tavsiya etiladigan birlamchi manbalar va ularning mualliflari, ilk islom davlatchiligining barpo bo‘lishi, uning diniy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy shakllanish omillari, uning diniylik va dunyoviylik prinsiplarining o‘zaro muvozanati ochib berilgan.

² Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda // Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz. – T. 7. – T.: O‘zbekiston, 1999. – B. 352.

1-BOB. ISLOM TARIXIGA OID ILK MANBALAR TAHLILI

Tayanch iboralar: *din, islam, Payg ‘ambar, Mavarunnahrda islam, ibodat, manba, manbashunoslik, din tarixi, islam tarixi, masjid, siyra, tabaqot, jomi’, musnad, fihrist.*

1.1. SIYRA VA TARIX KITOBLARI

Mazkur davrning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va harbiy jihatlarini yoritishdagi asosiy muammo tarixiy asarlarning faqat VIII-XI asrlarda, ya’ni davrga nisbatan kechroq yozilganligidadir. VII asr voqealari ularning shohidlari – roviylar orqali yetib kelgan og‘zaki hikoyalarnasida bayon etiladi. Mazkur xabarlar aksariyat hollarda ulamolar va turli diniy firqa - guruh vakillari tomonidan jamlanganligi sababli ularga ortiqcha diniy va sub’yektiv talqin berilgan.

Ilk islam tarixini yaxlit holda o‘z ichiga olgan manbalarni tahlil etishda ularning mualliflari qaysi diniy guruhlar, ijtimoiy tabaqalarga tegishli ekanligiga alohida e’tibor berish zarur, chunki turli muhitlar (*murjiylar, umaviylar, shialar, abbosiyilar, xorijiylar* va boshqa harbiy-diniy guruhlar)ga mansub mualliflar tomonidan yaratilgan manbalar o‘rtasidagi tafovutli ma’lumotlarni qiyosiy o‘rganish haqiqiy voqelikni tiklashda katta ahamiyatga ega.

Islam tarixini yaxlit holda o‘z ichiga olgan manbalar – Abu Yusuf (vaf. 798 y.), Ibn Hishom (vaf. 828 y.), Ibn Sa’d (vaf. 845 y.), Xalifa ibn Xayyot (vaf. 854 y.), al-Buxoriy (vaf. 870 y.) al-Balazuriy (vaf. 896 y.), al-Ya’qubiy (vaf. 897 y.), Abu Ja’far at-Tabariy (vaf. 923 y.), al-Jahshiyoriy (vaf. 942 y.), al-Movardiyy (vaf. 1058 y.), Ibn al-Asir (vaf. 1234 y.), Ibn Kasir (vaf. 1372 y.), Ibn Xaldun (vaf. 1406 y.) asarlarini sanab o‘tish mumkin.

Manbalar guruhi son jihatidan ham, ularda jamlangan materiallarning to‘kisligi jihatidan ham ahamiyatlidir. Aksariyat asarlar IX-XI asrlarda yozilgan bo‘lib, ularda aks ettirilgan VII asr voqealari fath yurishlari ishtirokchilarining og‘zaki hikoyalari orqali bayon etilgan. VIII asrda ushbu hikoyalarga adabiy ishlov berilib yozilgan, ammo birinchi an’anaviy yozuvchilarning (Sayf

ibn Omir, Voqidiy, Madoiniy va h.k.) asarlari bizgacha yetib kelmagan. Ammo ular keyingi davr tarixchilari uchun muhim manba sifatida xizmat qildi.

Ilk islom tarixini hamda siyranavislik janri asoschilaridan biri **Abu Abdulloh Muhammad ibn Is'hoq** ibn Yasor ibn Xiya al-Muttalibiy al-Qurashiy al-Madaniy bo'lib, 699 yili Madinada tavallud topgan. Uning kuniyasi Abu Bakr bo'lgan degan noto'g'ri ma'lumotlar mavjud. Katta bobosi Xiyar (yoki bobosi Yasor) Xolid ibn Valid 633 yili fath etgan Ayni at-Tamrdagi monastirda ta'lim olgan qirqta yigittan biri bo'lib, asir olingandan so'ng Madinaga yuborilgan edi. Ba'zi sharqshunoslar Ibn Is'hoqni katta bobosi xristian bo'lganligi bois Injil va suryoniy tilidan boxabarligi hamda Payg'ambar (s.a.v.)dan oldingi davrga tegishli tarix va qissalarni yaxshi bilishida ham bu xonadon madaniyatining izlari borligiga ishora qilganlar. Biroq tarixiy manbalarda Ibn Is'hoqning Injil va Tavrotni Madinada o'qib, suryoniy tilini bir necha yil yashagani mobaynida Misrda o'rgangani va bu madaniyatdan o'sha yerda voqif bo'lgani aytildi. Ibn Is'hoqning otasi Is'hoq, amakilari Muso va Abdurahmon hamda ukalari Umar va Abu Bakrlar ham ilm bilan, xususan, hadis rivoyati bilan shug'ullanganlar.

Ibn Is'hoq dastlab otasi va amakilari boshliq ko'plab kishilardan hadis, siyar-mag'oziy, she'riyat, ayyom al-arab va nasab haqidagi ilmlardan tahsil oldi. Unga dars bergen Madinaning mashhur olimlari orasida Osim ibn Umar ibn Qatoda, Qosim ibn Muhammad ibn Abu Bakr, Yazid ibn Rumon, Muhammad ibn Ibrohim at-Taymiy, Abon ibn Usmon ibn Affon, Muhammad al-Boqir, Abu Salama ibn Abdurahmon ibn Avf, Abdulloh ibn Umarning mavlosi Nofe', Ato ibn Yasor, Abdurahmon ibn Asvad, Solim ibn Abdulloh ibn Umar va Ibn Shihob az-Zuhriylar bor. Ibn Is'hoqning aksariyati sahabalar avlodи bo'lgan 100 ga yaqin madinalik roviydan hadis oglani aytildi. U ba'zi sahabalarni ko'rishga muvaffaq bo'lgan, bu borada Anas ibn Molik³ (vaf.

³ Abu Hamza Anas ibn Molik ibn Nadir al-Ansoriy. Rasululloh (s.a.v.)ga sodiq xizmati bilan tanilgan va eng ko'p hadis rivoyat qilgan sahabalardan biri. Ko'p hadis rivoyat qilgani uchun "muksirun" deb atalgan yetti sahaboning uchinchisi bo'lib, u rivoyat qilgan hadislari takrorlari bilan birga 2286 taga etadi.

711-12 y.) bilan uchrashgani va Said ibn Musayyibga⁴ (636-710) ham bir muddat shogird tushgan.

Manbalarda Ibn Is'hoqning Madinadan chiqib Iskandariya va Iroqqa ketishi bilan bog'liq turli rivoyatlar keltirilgan. Uning xo'roz urushtirgani, Masjidi nabaviyning orqasida ayollarga yaqin joyda o'tirgani va ular bilan gaplashgani uchun ayblanib, Madina volisiy tomonidan ta'qib ostiga olingani bunga sabab bo'lgan. Madinada Ibn Is'hoqni tanqid qilganlar orasida ikki mashhur hadisshunos olim Hishom ibn Urva va Molik ibn Anasning ham bo'lishi e'tiborni tortadi. Hishom ibn Urva⁵, Ibn Is'hoqning o'z ayolidan hadis rivoyat qilishini to'g'ri emas, deb ayblagan. Ibn Is'hoq esa o'z zarariga so'z aytishiga qaramasdan, asariga undan ko'plab rivoyatlarni kiritgan.

Molik ibn Anas⁶ uni hadis rivoyati tufayli tanqid etmas, balki Rasululloh (s.a.v.)ning Xaybar, Banu Qurayza va Banu Nadir kabi g'azotlariga doir ma'lumotlarning ba'zi manbalari ishonchli emas, deb e'tiroz bildirgan. Ibn Is'hoq turli tanqid va ayblovlarga duchor bo'lsa-da, Buxoriy, Muslim, Abu Dovud, Termiziy, Nasoiy, Ibn Moja va Ahmad ibn Hanbaldek hadis daholari undan hadislar rivoyat qilganlar.

Hadis va siyar-mag'oziy sohalarida Ibn Is'hoqning ustozи bo'lgan Ibn Shihob az-Zuhriy: "Mag'oziy ilmini o'rganmoqchi bo'lganlar Ibn Ishoqqa murojaat etsin", der edi. Zuhriy va Sufyon ibn Uyayna: "Ibn Is'hoq yashab turgan muddatcha Madinada ilm yo'q bo'lmas"; Imom Shofe'iy esa: "Mag'oziyda chuqur ilmga ega bo'lmoqchi bo'lgan kishi Muhammad ibn Ishoqqa

⁴ Abu Muhammad Said ibn al-Musayyib ibn Hazan ibn Abu Vahb al-Maxzumi. Tobiylarning eng birinchilaridan, ko'plab sahabalardan hadis rivoyat qilgan. Hatto ayrim sahabalarning ham undan hadis eshitgani aytilgan.

⁵ Abu-l-Munzir (Abu Abdullo) Hishom ibn Urva ibn az-Zubayr ibn al-Avvom al-Qurashiy (61/681–146/763). Muhaddis tobe'yin. Abdulloh ibn Umar, Sahl ibn Sa'd, Jobir ibn Abdulloh va Anas ibn Moliklarni ko'rgan. Undan Ayyub as-Saxtiyoniy, Ma'mar ibn Roshid, Ibn Jurayj, Shu'ba ibn Hajjoj, Sufyon as-Savriy, Lays ibn Sa'd, Molik ibn Anas, Abdullo. ibn Muborak, Sufyon ibn Uyayna va Yahyo ibn Said al-Kattondek taniqli muhaddislar hadis rivoyat qilishgan.

⁶ Molik ibn Anas ibn Molik ibn Abu Omir al-Asbahiy. (711–795) Sunniylik oqimidagi to'rt buyuk mazhabdan biri bo'l mish molikiy mazhabi asoschisi. Muhaddis va mutlaq mujtahid.

muhtojdir” deb uni madh etganlar. Siyar sohasida uni eng buyuk olim sifatida e’tirof etgan Zuhriy, yuqori ilmiy saviyasi va bu borada Madinada jamlagan keng ilmi bois maqtov bilan tilga olgan, vaqtı-vaqtı bilan mag’oziyiga tegishli ba’zi narsalarni undan ham so‘rab turgan. Zuhriyning vafotidan so‘ng shogirdlari ham bir hadisda shubhaga tushganlarida Ibn Ishoqqa murojaat etganlar.

Zuhriyning aksincha, umaviylar sulolasi bilan munosabat o‘rnatmagan Ibn Is’hoq abbosiylar hukmronlikni qo‘lga kiritgach, Madinadan chiqib Xalifa Abu Ja’far al-Mansurning ukasi al-Jazira voliysi Abbas ibn Muhammadning yoniga bordi va o‘sha yerda besh yilga yaqin hadis rivoyati bilan mashg‘ul bo‘ldi. Shundan so‘ng Kufaga, keyin esa Hiyraga o‘tdi. Kufada ekanida ko‘plab kishilar undan mag’oziy darslarini olishdi. Ular orasida Imom Abu Hanifaning birinchi shogirdi Abu Yusuf ham bor edi.

Xalifa Mansurning (hukmronlik davri 754-775 yillar) huzuriga borganida, xalifa uni abbosiylar hokimiyat tepasiga kelishdan ilgari ham tanigani uchun o‘g‘li Muhammadga (al-Mahdiy Billoh) ustoz etib tayinlaydi. Shuningdek undan ilk davrdan boshlab o‘sha kungacha bo‘lgan voqeа-hodisalarini yoritib beruvchi bir tarix kitobi yozishini so‘radi. Ibn Is’hoq oldinroq Madinada jamlagan boy tarixiy ma’lumotlarga asoslanib talab qilingan kitobni yozadi va uni xalifaga taqdim etadi.

Biroq asar hajmi juda katta ekanligi bois xalifa talabiga ko‘ra, endi uni muxtasar holga keltirishga majbur bo‘ldi. Saroy kutubxonasiga qo‘yilgan ilk nusxasi roviy Salama ibn Fazlning qo‘liga tushib, u orqali naql naqsh etilgan. Ibn Ishoq Mahdiy bilan Xuroson va Rayga borib, bu yerlarda ham hadis rivoyatini davom ettirdi. 763 yilda Bag‘dod shahri qurilgach, xalifa bilan birga bo‘lgani tufayli o‘sha yerga kelib o‘rnashdi. Vafotigacha yana hadis rivoyati bilan mashg‘ul bo‘lib, al-Mag’oziy (jangnoma) dan ta’lim berdi. 768 (yoki 767, 770, 771) yilda o‘sha yerda vafot etdi va keyinchalik Horun ar-Rashidning onasi Xayzuron nomi bilan atalgan qabristonning sharqiy tomoniga, Abu Hanifa qabri yoniga dafn etildi.

Ibn Ishoqning eng muhim asari bo‘lgan “*Kitob al-mag’oziy* (*Siyrat Ibn Ishoq, al-Mubtada’ va-l-mab’as va-l-mag’oziy*)”

tarixchi hali hayotda ekanidayoq katta shuhrat qozonishiga, oltmisgaga yaqin roviy tomonidan rivoyat qilinishiga va keyingi avloddan har o‘nta olimning bittadan nusxaga ega bo‘lishiga qaramasdan, hozirgi kunimizgacha yaxlit holda yetib kelmagan. Ibn Sa’d asar nomini “*al-Mag’oziy*”, muallifini esa “*Sohib al-mag’oziy*” deb ataydi.

Ibn Is’hoq va uning zamondoshlari tomonidan Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti haqida yozilgan asarlar “*al-Mag’oziy*”, ba’zan esa mohiyatini bildirish maqsadida “*al-Mag’oziy va-s-siyar*” deb nomlangan. “*As-Siyra*” nomi Ibn Hishomdan so‘ng keng tus olgan va uning Ibn Ishoq tomonidan amalga oshirilgan ilmiy izlanishlarini yakunlovchi asari “*Siyrat Rasulillah*”, “*Siyrat Ibn Hishom*” va “*as-Siyra an-nabaviyya*” nomlari bilan tanilgan. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak, Ibn an-Nadim Ibn Is’hoqning asari haqida “*Kitob as-siyra va-l-mubtada’ va-l-mag’oziy*” deya so‘z yuritadi.

Yoxann Fukk va unga ergashgan ko‘plab tadqiqotchilar ham Ibn Is’hoqning asaridagi bo‘limlarni, Muhammad Hamidulloh keltirgan uzun nomda ham ko‘riganidek, “*mubtada’*”, “*mab’as*” va “*mag’oziy*” deya nomlaganlar. Ibn an-Nadim va Yoqut al-Hamaviy Ibn Is’hoqning “*Kitob al-xulafo*” (“*Axbor al-xulafo, Tarix al-xulafo*”) nomli bir asarining ham mavjud ekanini aytadi.

Ibn Sa’d ilk bora mag’oziyini bir joyga jamlagan va bu sohada kitob yozgan ilk muallif Ibn Ishoq bo‘lganini bildiradi. Fukk ham Ibn Ishoq haqida amalga oshirgan doktorlik ilmiy ishida uning al-Mag’ozisi Xalifa Mansurning amriga binoan Bag‘dod yoki Hiyrada emas, Iroqqa kelishdan oldin Madinada yozganini aytadi va asardagi ma’lumotlarning deyarli barchasi madinalik va misrlik roviylardan olingenini bunga dalil qilib ko‘rsatadi. Shuningdek oldin yozgan asarini Xalifa Mansurning juda katta hajmda deb baholashidan keyin balki qaytadan yoki tuzatib ikkinchi, hatto uchinchi marta qisqartirgan holda qayta qalamga olgan. Bu nusxalardan hech biri hozirgi kunimizgacha to‘laligicha etib kelmagan.

Abu Muhammad Abdulmalik ibn Hishom ibn Ayyub al-Himyariy al-Maofiri al-Misriy Basrada tavallud topgan bo‘lib, ko‘plab manbalarda Himyar qabilasining Maofiriy urug‘iga mansub ekani qayd etilgan.

Ibn Hishom ilmni Basrada olgan, keyin Misrga borib, vafot etguniga qadar Fustot shahrida yashadi. Lekin Ibn Is'hoqning “al-Mag'oziy” asarini rivoyat qilib bergen ustozni Ziyod ibn Abdulloh al-Bakkoiy bilan ko‘rishish uchun Kufaga yoki Basraga ham borgan bo‘lishi mumkin. Ibn Hishom 218 (8 may 833) yilning 13 rabiul-avvalida Fustotda vafot etadi.

Misrda Imom Shofe’iy bilan arab she’ri haqida suhbatlar qilgan Ibn Hishom oldinlari u bilan unchalik ko‘rishishni xohlamagan, lekin ko‘rishgandan keyin til, she’r va nasab ilmi borasida chuqur bilimga ega ekanini bilib, uni doimo maqtov bilan yodga olgan. Imom Shofe’iy ham Ibn Hishomning tilshunoslik va arab tili borasida yetuk olim ekanini e’tirof qilgan.

Ibn Hishom manbalarda tarix, axbor, ansob, she’r, gramatika va lug‘at olimi sifatida shuhurat topgan bo‘lsa ham, uning ustozlari, asarlari haqida ma’lumotlar yetarli emas. Ibn Is’hoqning “Mag'oziy” asarini qaytadan tartibga keltirgan Ibn Hishom mana shu asar bilan shuhurat qozondi. Asarni tayyorlar ekan, Ibn Ishoqdan rivoyat qilgan eng ishonchli roviylardan Ziyod ibn Abdulloh al-Bakkoiyning kufiy-bag‘dodiy deb mashhur bo‘lgan nusxasini asos qilib olgan holda qisqartirgan, kezi kelganda ba’zi ilovalar ham qilgan. Asar vaqt o‘tishi bilan uning nomi bilan “Siyrat Ibn Hishom”, “Tahzibu Ibn Hishom” deb ataladigan bo‘ldi. Kiftiy, Zahabiy, Ibn Kasir, Ibn al-Imod, Ibn Xallikon va Saxoviy kabi tarixchilar bu asarni Rasululloh (s.a.v.) hayotiga doir eng ishonchli va eng yaxshi siyra asari sifatida e’tirof etganlar.

“As-Siyyra an-nabaviyya” ko‘plab marta qayta bosilgan, sharhlangan va qisqartirilgan, nazmga solinib turli tillarga o‘girilgan. Asarning ilk nashri Misrda amalga oshirilgan (Bulaq, 1843-44). 1858-1860-yillarda esa sharqshunos Ferdinand Vostenfeld (Ferdinand Wüstenfeld) tomonidan 3 jilda nashr etilgan (Göttingen). Shuningdek, asarning ko‘plab tadqiqotlari bo‘lib, jumladan, Mahmud Sayyid Tahtoviy (Qohira, 1911), Mustafa as-Saqqa-Ibrohim al-Abyoriy – Abdulhafiz Chalabiy (Qohira, 1936, 1955), Muhammad Muhiddin Abdulhamid (Qohira, 1937), Muhammad Xalil Harros (Qohira, 1971), Toha Abdurauf Sa’d (Qohira, 1971); Muhammad Fahmiy as-Sarjoniy (Qohira, 1978), Umar Abdusalom Tadmuriy (Bayrut, 1987) va Majdiy Fathiy as-Sayyidning (Tonto, 1995) nashrlarini aytib o‘tish lozim.

As-Siyra an-nabaviyyaga to‘rtta mustaqil sharh yozilgan bo‘lib, ulardan uchtasi nashr etilgan. Eng keng qamrovli sharhi andaluslik muhaddis Abdurahmon ibn Abdulloh as-Suhayliyning (vaf. 1185) “*ar-Ravd al-unuf fi sharh as-Siyra an-nabaviyya li-Ibn Hisham*” nomli asaridir. Ilk marotaba Misrda bosilgan bu asar (Qohira, 1914) keyinchalik Abdurahmon al-Vakil tomonidan qayta nashr ettirilgan (Qohira, 1967-1970). Suhayliyning mazkur sharhi ikki marta qisqartirilgan. Ulardan birinchisi Muhammad ibn Ahmad ibn Usmon az-Zahabiyning “*Muxtasar ar-ravd al-unuf*” (Berlin Staatsbibliothek, nr. 9565), ikkinchisi Abu-l-Fath Muhammad ibn Ibrohim ibn Muhammad ibn Muqbil al-Bilbisiyning “*al-Ilmom bi-r-Ravd va siyrat Ibn Hisham al-mulaqqab bi-jala al-afkor bi-siyrat al-muxtor*” nomli muxtasaridir.

Vazir al-Mag‘ribiy nomi bilan tanilgan Abu-l-Qosim Husayn ibn Ali ibn Husayn (vaf. 1027 y.) Ibn Hishomning mazkur asarining yangi va ishonchli rivoyatini qalamga olarkan, ba’zi o‘rinlarda qisqa, biroq qimmatli ma’lumotlar keltirgan. Bu asarni Suhayl Zakkor “*as-Siyra an-nabaviyya l-Ibn Hishom bi-sharh al-Vazir al-Mag‘ribiy*” nomi bilan nashr ettirgan (Bayrut 1992). Shuningdek andaluslik olim Abu Zarr al-Xushaniy as-Siyra an- nabaviyyada kelgan g‘arib so‘zlarni yoritib beruvchi sharh yozgan.

Ibn Hishom asariga bitilgan sharhlarni tadqiq etgan Paul Bronnl (Paul Brönnle) *Die Commentatoren des Ibn Ishaq* (Ibn Ishoq sharhlovchilari) (1895, Germaniya, Halle universiteti) nomli doktorlik ishida al-Xushaniyning asarini ham tadqiq etgan va bu sharhni keyinchalik “*Osor al-lug‘a al-arabiyya: sharh as-siyra an-nabaviyya*” nomi ostida nashr ettirgan (Qohira, 1911, 1969; Istanbul, vaqtin noma’lum).

Ushbu qimmatli asar bugungi kunga qadar dunyoning ko‘plab tillariga 18-19 asrlardayoq tarjima qilingan va unga bag‘ishlab tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek sharqshunos, adabiyotshunos va tarixchilari ham ushbu asarga e’tiborni chetda qoldirmaganlar. Jumladan, A.Sattievning nomzodlik dissertasiyasi Ibn Hishomning “*Siyra*” asari balog‘iy-badiiy jihatlari tadqiqiga bag‘ishlangan. Tadqiqotchi dissertatsiyada asarni adabiyotshunoslilik nuqtai nazaridan tahlil qilgan. Tarixchi

A.Ahmedov esa, mazkur asarning ayrim ilmiy jihatlari tadqiqiga maqola bag‘ishlab, uni “Ibn Is’hoq Ibn Hishomning “*as-Siyra an-nabaviya*” asari haqida” deb nomlagan. Asar 2011-yili akademik N.Ibrohimov rahbarligida o‘zbek tiliga tarjima qilingan.

Xalifa ibn Xayyot. Uning “*Tarix*” asari bizgacha yetib kelgan asarlari ichida eng qadimiysidir. Chunki ungacha yozilgan solnomaga asarlar bizgacha yetib kelmagan. Ushbu asarda keltirilgan ma’lumotlarning aniqligi va ishonchhliligi alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, muallifning muhaddislar maktabiga mansubligi asarda keltirilgan ma’lumotlarning asliyligini ta’minlaydi. U asarida keltirilgan ma’lumotlarni isnodlariga alohida e’tibor beradi. Ibn Xayyot voliylar va qozilarni aniq ishlagan davrlarning shakllantirish maqsadida ularning jadvaliga alohida e’tibor qaratgan. Muallif xalifalikdagi ichki beqarorlik va fuqarolar urushiga sabab bo‘lgan xalifa Usmon ibn Affonning rahbarlik davrida yuzaga kelgan ichki fitnalarni keltirib chiqargan omillarga alohida to‘xtalib o‘tadi. Oqibatda uning bu tadqiqoti *ahl as-sunna va al-jamoa* qarashlarida ushbu hodisalarga xalifa Usmon ibn Affonni quvatlovchi fikrlar paydo bo‘lishiga sabab bo‘ladi. U o‘z kitobida muhaddislar tomonidan keltirilgan ko‘plab rivoyatlarni keltirgani uchun, uning asari ilk islom tarixini o‘rganuvchilar uchun asosiy ishonchli manba sifatida gavdalananadigan bo‘ldi. U tanlagan ma’lumotlar turli fikr egalarining qarashlarini bir nuqtada jamlay oldi.

Ahmad ibn Abi Ya’qub Is’hoq al-Ya’qubiy (vaf. 905 y.). Bag‘dodda tug‘ilgan. Shia oqimi imomiylik mazhabini vakili, tarixchi. Oilasining kelib chiqishi mavoliylardan (islomni qabul qilgan ajam xalq) bo‘lgan. Abbosiylar davrida davlat devonxonasiida kotib lavozimida ishlagan. U Armaniston, Xuroson, Misrda rasmiy devon kotibi vazifasida xizmat qilgan, geografiya va tarixga qiziqqan. Ya’qub o‘zining mehnat safarlarini davomida “*Kitob at-tarix*” va “*Kitob al-buldon*” asarlarini yaratgan. Muallif “*Tarix*” asarining ilk qismida insonning yaratilishi, Payg‘ambarlar tarixi, islomdan oldingi mamlakatlar va xalqlar tarixi haqida to‘xtalib o‘tadi. Kitobning keyingi

qismi islomdan oldingi johiliyat davriga bag‘ishlangan umumiy tarixning qisqacha bayonidir, ikkinchi qismi esa xalifalik tarixiga bag‘ishlangan. U Muhammad (s.a.v.)ning tug‘ilishi haqidagi hikoya bilan boshlanib, muallif guvoh bo‘lgan IX asrning oxirigacha hikoya qiladi. Mazkur qismda foydalangan manbalar ro‘yxatini keltirib o‘tadi. Ular 11 axboriy tarixchilar, 2 nafar munajjimlardan iborat. Shuningdek, al-Ya’qubiy yulduzlar va astrologiya ilmlarini ham o‘rgangan.

VII asrning birinchi yarmida Erondagi yurishlar tarixi birinchi to‘rtta xalifalarga bag‘ishlangan boblarda bayon etilgan. Har bir xalifani saylanish sanasini Yaqubiy burjlar bilan solishtiradi, bu esa nafaqat al-Ya’qubiyni astrologiya faniga qiziqishidan, balki uning yilnomasi sanalarini ishonchliligidan dalolat beradi. Har bir bobda xalifaning ichki siyosiy faoliyat va uning hokimligi davridagi yurishlar haqida qisqa ma’lumotlar beriladi. Shu bilan birga, zabit etilgan hududlar aholisi to‘lagan xaroj solig‘i miqdori haqida ham ma’lumotlar berilgan. Bob xalifaning vafoti, uning o‘rinbosarlari ro‘yxati va boshqa nufuzli qabiladoshlari haqidagi hikoya bilan yakunlanadi.

Al-Ya’qubiy o‘z asarini yozishda ba’zi ma’lumotlar bayonida qisqalikka amal qilsa, ba’zan chigalliklarga yo‘l qo‘yadi. U ta’lif etgan ma’lumotlarni birlamchi manbalarga asoslanib va ular asos qilib olgan mantlarning xatolardan qay darajada yiroq ekanligi, shuningdek roviylarning rivoyatlarini qanchalik haqiqatga mos kelishini tekshirish maqsadida tanqidiy nuqtai nazardan o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ta’kidlanganidek, al-Ya’qubiy o‘z ma’lumotlarini shialik nuqtai nazardan talqin etadi. Buni xalifalar Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affonlarning nomlari so‘ngida “*Roziyallohu anhu*” qo‘srimchalarisiz keltirganligida ham ko‘rish mumkin. Al-Ya’qubiy harbiy tarixiy voqealarni qisqa, qahramonlar o‘rtasidagi yakkama-yakka olishuvlarga to‘xtalmay hikoya qiladi. Muallif lozim bo‘lgan joyda musulmonlarni mahalliy aholi bilan tuzgan bitimlar, hududlarda xalifa o‘rinbosarlarining ma’muriy-xo‘jalik faoliyati haqida ham ma’lumot berib o‘tadi.

Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy (839-923).

Asli Tabaristonning Amul shahrida (hozirgi Eron) tug'ilgan. Tafsir, fiqh va tarix fani borasida imom darajasini olgan. Uning “*Tarix umam va al-muluk*” (Payg‘ambarlar va podshohlar tarixi) asari “*Tarix at-Tabariy*” nomi bilan ham mashhur. Shuningdek, u Qur’oni karimning 30 jiddli yirik tafsiri muallifidir. Uning ushbu ikki asari o‘z sohalarining enstiklopediyasi maqomini olgan. Tabariy o‘z asarlarini yozish jarayonida og‘zaki rivoyatlar bilan birga bizgacha yetib kelmagan tarixchilarning asarlaridan unumli foydalana olgan.

IX asrning ikkinchi yarmi – X asrning birinchi choragida yashab o‘tgan mashhur tarixchi at-Tabariy yilnomasining ahamiyati musulmon dunyosi tarixini birinchi uch asrini o‘rnii beqiyos. Bunga o‘rtta asr mualliflari uning asarlaridan manba sifatida ko‘p marotaba foydalanadilar. Oxirgi yuz yilda sharqshunoslar uning ijodiga alohida qiziqishlari bunga dalil bo‘ladi. At-Tabariyga tanish bo‘lgan voqealar hamma naqlini saqlab qolgan asarni yig‘indisi xarakteri axborotni og‘zaki yetkazish an‘analarini turliligi haqida tasavvur qilishiga imkon beradi. Shuning asosida ilk manbalarni tanqid yo‘nalishlarini belgilaydi. Tabariy axborotchilar avlodinini sinchiklab aytib beruvchi va voqealarni zid bo‘lgan naqllarida o‘quvchilar o‘zлari tushunishi uchun imkoniyat yaratish maqsadida isnodlarni to‘liqligini ta‘minlovchi tarixchi – an‘anachilar qatorida oxirgisi deb hisoblash mumkin.

X asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan, Somoniylar sulolasi rahbarlaridan Mansur ibn Nuhning vaziri Abu Muhammad ibn Muhammad Bal‘amiy at-Tabariy tarixini qisqartirib fors tiliga tarjima qildi. Fors tilidagi “*Tarixi Tabariy*” asari Yaqin va O‘rtta Sharqda mashhur bo‘ldi va boshqa sharq tillariga tarjima qilindi. Bal‘amiy tarjimasining tanqidiy matni bizgacha yetib kelmagan.

Shu bilan birga Tabariy asarlarining kompilyativligiga urg‘u berish muallifning manbaga ijodiy yondoshishini ahamiyatli darajada yo‘qotadi. XX asrda N.A. Mednikov va Yu.Velxauzen tadqiqotlari tufayli Tabariy o‘z manbalaridan

original foydalanganligi ma'lum bo'ldi. U o'z "tarix"ida o'zi eng ishonchli deb hisoblagan muallif yoki mualliflar guruhini ajratgan, aytish mumkinki, "o'zi uchun rahbar tanlagen". At-Tabariy goh Muhammad ibn Saidni, goh Ibn Sa'dni, goh Voqidiyni, goh Sayf ibn Umarni tanlaydi. O'z nuqtai nazarida ishonchli deb hisoblagan voqeа naqlini at-Tabariy aksariyat hollarda hikoya boshida keltiradi, keyin esa yakuniy xulosa qilmasdan boshqa naqllarni bayon qiladi.

Umar ibn Shabba an-Numayriy. Payg'ambar (s.a.v.) siyralari va islom tarixida yirik shaxslar deb tanilganlarning tarixini yaxshi o'rgangan olim. U ko'p asarlar yaratgan bo'lib, bizgacha uning "*Tarix al-Madina*" asari yetib kelgan. Ushbu asarda muallif al-Xulafo ar-roshidun asri, xalifalik poytaxti bo'lgan Madina shahrining plani, uning qurilish tartibi haqida qimmatli ma'lumotlar keltiradi. U ma'lumotlarni sinchiklab tekshirishi natijasida undan oldingi manbalar keltirgan rivoyatlarini hasan va sahih darajasiga ko'tarilgan. O'zi guvoh bir qancha bo'lgan ma'lumotlarni alohida rivoyat qiladi.

Ibn Shabba "*Tarix al-Madina*" asarida al-Xulafo ar-roshidun davri tarixini bat afsil bayon etgan bo'lsa, "*Tarix al-Basra*" esa kitobida mazkur mavzuni davom ettirgan. Uning Basra shahri tarixiga oid asari bizgacha yetib kelmagan. Ammo al-Hofiz ibn Hajar "*Fath al-boriy sharh sahib al-Buxoriy*" nomli asarida mazkur kitobdan "*Jamal*" voqeasini qamrab olgan ba'zi ma'lumotlarni keltirgan.

Ibn Shabbanning asarlarida berilgan ma'lumotlarni tahlil etish jarayonida shuni anglash mumkinki, muallif tarixiy jarayonni yoritish bilan birga, qadimgi arxitektura va islom davlatida yangi shaharlarning paydo bo'lishi, unda chet mamlakatlarda mavjud shahar qurilishi amaliyoti bilan solishtirishni maqsad qilgan.

Muallifning ushbu kitobidagi ma'lumotlar ishonchli bo'lishiga qaramasdan keyingi tadqiqotlarda iqtiboslar kam uchraydi. Aynan Ibn Shabba yoritgan davr bilan bevosita kompleks tarzda shug'ullangan O.G.Bolshakov tadqiqotida ham ushbu muallifga deyarli murojaat qilinmagan. Buning sababi Ibn Shabbanning "*Tarix al-Madina*" asari boshqa manbalarga nisbatan kech nashr etilganligini ko'rsatish mumkin.

Ali ibn al-Husayn ibn Ali Al-Mas’udiy (vaf. 956 y.) Bag’dodda tug‘ilib o’sgan. U o‘zining yoshlik chog‘larini tarixiy va geografik ma’lumotlarni to‘plash bilan o’tkazgan bo‘lib, uning oilasi sahoba ibn Mas’udga borib taqaladi. Al-Mas’udiy Shom, Falastin, Misr, Eron, Hindiston, Seylon, Madagaskar, Ozarbayjon, Mavarounnahr va xatto Xitoyga ilmiy safar qilgan. U asosan Antokiya, Damashq va Fustotda yashagan va Misrda vafot etgan. U o‘zining “*Muruj az-zahab va mado ‘in al-javhar*” asarini al-Xulafo ar-roshidun davri tarixini o‘rganishga bag‘ishlagan. Tarixchi az-Zahabiy uni mu’taziliya mazhabi vakili ekanligini ta’kidlaydi. Shuningdek ibn Hajar ham bu ma’lumotni ma’qullab, “Uning asarlarida mu’taziliy shialarining unsurlari sezilib turar edi”, degan fikrni bildirgan. Tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra ham u keltirgan ma’lumotlarda shia oqimini qo‘llab-quvatlovchi fikrlar aniq sezilib turishi ta’kidlanadi.

Abulfadl Abdurahmon ibn Abu Bakr ibn Muhammad Jaloliddin al-Xudariy As-Suyutiy (1445-1505) Uning otasi Kamoliddin as-Suyuti (vaf. 1451 y.) mashhur shofiy mazhabi faqifi edi. Kamoliddin as-Suyutiyni Misr tashqarisida ham mashhur bo‘lib, unga Makka shahri qoziligini taklif etganida, u rad etganligi fikrimizning isbotidir. Bu oilaga Misrning as-Suyut shahrida yashab ijod etganligi uchun “as-Suyuti” tahallusi berilgan.

Otasining vafotidan keyin olti yoshlik Jaloliddinni shayx Kamoliddin ibn al-Humamning o‘z qaramog‘iga olishi, uning kelajakda yetuk olim bo‘lib yetishishiga zamin hozirladi. U 1459 -yildan boshlab ilm olishga jiddiy kirishdi. Unga fiqh va arab tili grammatikasidan ko‘pchlik olimlar dars berdi. Ammo, meros ilmini o‘z davrining yetuk allomalaridan shayx Shihobiddin ash-Sharmasaxiy o’rgatgan. U 17 yoshga yetganda arab tilidan dars berishga ruxsat (ijoza) oladi va shu yilning o‘zida “*Sharh al-it‘i ‘oza va basmala*” asarini yozadi. 27 yoshida esa fatvo berish va undan ta’lim berishga ruxsatnomasi oladi.

Imom o‘z ilmiy faoliyatini 1461-yildan boshladи va 12 yil davomida 300 dan ortiq asar yozdi. U tafsir, hadis, fiqh, arab grammatikasi va boshqa fanlarga oid kitoblar yozdi. U ilm izlab Shom, Hijoz, Yaman, Hindiston va Sharqiy Afrika o‘lkalarida bo‘ldi.

Tarixchilarning fikricha, imom as-Suyutiylar musulmon mualliflari orasida eng ko‘p asar yozgan tarixchi hisoblanadi.

“*Tafsir al-Jalolayn*” – Qur’onga yozilgan ilk tafsirlardan biri bo‘lib, uni Jaloliddin al-Mahalliy va Jaloliddin as-Suyutiylar yozganligi uchun shunday nom berilgan.

Shuningdek allomaning «*ad-Durul mansur fi tafsir al-ma’sur*», «*al-Itqon fi ulum al-Qur’on*», «*Tadrib ar-rovi*», «*Jomi’ as-sag ‘ir*», «*Asbab an-nuzul*», «*al-Ashboh va an-nazair*», “*Tarix al-xulafo*” asarlari Qur’onshunoslik va islom tarixini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ibn al-Asir, Ali Abu Hasan ibn Muhammad al-Jazariy (1160-1233/1234) arab tarixchilaridan biri. Mousil, Iyerussalim va Damashqda ta’lim oladi. Salohiddin Ayubiy bilan salbchilarga qarshi kurashish bilan birga, Bag‘dod xalifalarining diplomatik topshiriqlarini bajargan. Uning uyiga o‘z davrining etuk tarixchilari, adiblari va allomalari to‘plangan bo‘lib, o‘z davrining yetuk allomasi Ibn Xallikon (1211-1282) uning do‘sti edi. U “*at-Tarix al-bohir fi ad-davla al-atabikiya*”, “*al-Komil fi tarix*”, “*al-Lubbob fi tahzib al-ansob*”, “*Asad al-g‘oba fi ma’rifati sahoba*” asarlarini yozgan.

Ibn Kasir, Abu al-Fido Ismoil ibn Umar ibn Kasir al-Busraviy (1301- 1372/73) fiqh, tafsir, hadis va tarix bo‘yicha taniqli allomalardan biri hisoblanadi. U Suriyaning Busra shahri yaqinidagi Majdal qishlog‘ida dunyoga kelgan. Ibn Kasir otasidan erta yetim qoldi va ilm izlab Damashqqa boradi va o‘z davrining yetuk kishilaridan bo‘lgan Burxoniddin al-Fazariy (vaf. 1329 y.), Is’hoq al-Amidiy (vaf. 1325 y.)lardan ta’lim oldi. U talabalik chog‘laridanoq fiqh va tarixga oid ilk manbalarni o‘rgangan taniqli olimlar qatoriga kirib Damashq madrasalarida dars ham berdi. Az-Zahabiyning vafotidan keyin Damashqdagi “*Ummu Solih*” madrasasini boshqardi. Uning asarlari hozirgi davrgacha tafsirshunoslik va islom tarixini o‘rganishda o‘z mavqeini saqlab qolmoqda. Ibn Kasir “*Tafsir al-Qur’on al-azim*”, “*al-Bidoya va an-nihoya*”, “*as-Siyra an-Nabaviyya*” asarlarini yozishda at-Tabariy, Ibn Abu Xatim, ibn Atiyning tafsirlari va Ibn Hanbalning hadis to‘plamlaridan keng foydalangan. Ibn Kasir musulmon olamida keng yoyilgan ma’lumotlarga tanqidiy yondoshib, ulardagi isroiliyot an’alarining ta’sirini ko‘rsatib berishga harakat qilgan.

Abu al-Qosim Abd ar-Rahmon ibn Abdulloh **ibn Abd al-Hakam** al-Misriy (187/802–257/871 yillar). Misrdagi faqihlar xonadoniga mansub bo‘lib, otasi Abdullo ibn Abd al-Hakam (155/772–214/829 yillar) molikiylik mazhabi bilimdonlaridan bo‘lib, molikiylikka oid ko‘plab asarlar yozgan. Uning uchta aka-ukalari ham muhaddis va faqih bo‘lishgan. Ibn abd al-Hakam ko‘p asarlar yozgan bo‘lib, ulardan eng mashhuri “*Futuh Misr va Ifriqiya*” asaridir. Asar xalifa Umar ibn Xattob davrida Misrning zabit etilishi bilan bog‘liq qator ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Misrdagi harbiy qarorgohlar joylashgan yerlar, xaroj, uning miqdori va yig‘ilish tartibi, Amir al-Mu’minin ko‘rfazining qazilishi, Amr ibn al-Os va Abdulloh ibn Sarh voliyligi davrida Misrdagi boshqaruvtizimi, olib borilgan janglar tafsilotlari haqida to‘xtalib o‘tadi. U odatda asosiy rivoyatlarga tayanib, so‘ngra boshqa qo‘sishimcha ma’lumotlar yoki qarama-qarshi fikrlarni bayon etadi. Al-Misriy o‘z odatiga ko‘ra isnodlarni jamlaydi va uning aksariyat isnodlari to‘g‘ridir. Shuningdek, uning ma’lumotlari ishonchli roviylar tomonidan bo‘lib, mashhur axboriylardan ko‘p rivoyatlar keltirmagan.

Uning ikki akasi 833 yili boshlangan “*mihna*” sinovlarida o‘z e’tiqodlarida qolganligi uchun xalifa Vosiq tomonidan qatag‘on qilingan. Ibn Abd al-Hakamning o‘zi ham Misr volysi tomonidan uy-joyi musodara qilingan. Bundan ko‘rinib turibdiki, xalifalikda ro‘y bergen e’tiqodiy va ma’naviy tazyiqlarga qaramay muallif o‘z asarlarini ishonchli tarzda, hech qanday soxta ma’lumotlarsiz ta‘lif etgan.

Sayf ibn Umar, al-Asadiy at-Tamimi (vaf. 715 y.) – Bag‘dodda yashab o‘tgan arab tarixchisidir. U “*Jamal*”, “*al-Futuh al-kabir*” va “*ar-Ridda*” asarlarining muallifi. At-Tamimi banu Tamim qabilasidan bo‘lganligi sababli bo‘lib o‘tgan voqealarni *asabiya* (qabila-urug‘chilik) g‘oyalari asosida yoritib, o‘z qabilasiga yon bosgan va muhaddislar tomonidan uning rivoyatlari qabul qilinmagan. Ammo u voqe-a-hodisalarini ustalik va izchillik bilan tasvirlab bera olganligi, ba’zi xollarda bat afsil ma’lumotlarni faqat keltirganligi uchun tarixchilar e’tiborini qozongan.

Abu Mixnaf, Lut ibn Yahyo al-Azdiy (vaf. 774 y.) – Kufalik bo‘lib, shialikka moilligi kuchli bo’lgan. At-Tabariy arab yurishlarini boshlanishini bayon etishda Abu Mixnafning “*Futuh ash-Shom va al-Iraq*” asarlaridagi ma’lumotlardan foydalangan.

al-Madoiniy, Ali ibn Muhammad (752 – 839) tarixchi va adabiyotshunos. Basrada tug‘ilgan, Madoinda yashab “*al-Madoiniy*” taxallusini olgan va Bag‘dodda vafot etgan. U Payg‘ambar (s.a.v.) siyrasi, xalifalar tarixi, arab yurishlari va shoirlar haqida ko‘plab ma’lumotlar to’plagan va axboriylarning ustozi deya talqin etilgan. At-Tabariy “*Jamal*” va “*Siffin*” voqealari haqidagi ma’lumotlarni al-Madoiniydan keltirgan.

Al-Voqidiy, Muhammad ibn Umar (747-822 yillar) ilk tarixchilardan. Madinada tug‘ilgan. Qozilik ishlari bilan Bag‘dodga ko‘chib kelgan va u yerda vafot etgan. Uning asarlari: “*al-Maq‘oziy*”, “*Fath Ifriqiya*”, “*Fath al-a‘jam*”, “*Fath Misr va al-Iskandariya*” va “*Fath ash-Shom*”. At-Tabariy xalifa Usmon ibn Affoning o‘ldirilishi tarixini yoritishda asosan al-Voqidiyning ma’lumotlaridan foydalangan, uni Sayf ibn Umar, Umar ibn Shabba va Ibn Ishoq xabarlari bilan boyitgan.

Abu Ma’shar as-Sinadiy, faqih, muhaddis va tarixchi Najih ibn Abdurahmon (vaf. 787 y.). Madinada yashagan va Bag‘dodda vafot etgan. U “*Kitob al-maq‘oziy*” asarini yozgan. At-Tabariy haj amirlari, urushlar, jangchilar, mintaqa hokimlari haqidagi ma’lumotlarni ushbu tarixchidan olgan.

1.2. TABOQOT VA DAVLAT BOSHQARUVIGA OID ASARLAR

Muhammad (s.a.v.) hayoti va ilk islom tarixini mukammal yoritish maqsadida siyrashunoslik bilan bir qatorda, tabaqot⁷ janri ham rivojlandi. Arab tarixshunosligida tabaqot biografik janrnning maxsus taromog‘ini tashkil etib, avlodlar bo‘yicha, ma’lumotlarni tadrijiy (Payg‘ambar sahabalari, ularning shogirdlari va b.) joylashtirilgan. Shuningdek, ma’lumotlarni hududiy tamoyil asosida, ya’ni shaharlar, alohida mavzelar va xalifalikni tashkil etgan viloyatlar (ba’zan butun islom dunyosi tegrasida) bo‘yicha taqsimlangan.

⁷ Tabaqot – (tabaqaning ko‘pligi) ma’lum bir vaqt oralig‘ida yashagan shaxslar, “avlodlar tarjimai holi”.

Tabaqot janri hadis ilmi ehtiyojlarini qondirishga mo’ljallangan. U isnodning haqqoniylik darajasini aniqlashda ma’lumotnomalarini bajargan. Islomning dastlabki davrida tabaqot asosan hadis bilimdonlari va faqihlarga bag‘ishlangan. Biroq madaniy ehtiyoj va ilm-fan taraqqiyoti keyinchalik turli kasb va darajadagi shaxslarning (shoirlar, adiblar, kotiblar, vazirlar, tilshunoslar, tabiblar, donishmandlar, va’zonlar, qorilar, faqihlar, sufylar va b.) avlodlarini xronologik tartibdagi tabaqotlari paydo bo‘lishiga imkon berdi.

Shuningdek, bizgacha tabaqot janrida yetib kelgan eng ilk asar **Ibn Sa’dning** “*Kitob at-tabaqot al-kubro*” asaridir. Asarda hadislar rivoyat qilgan 4250 shaxsnинг tarjimai holi keltirilgan bo‘lib, sahoba, tobe’in va ulardan keyingi shaxslardan to muallifning ustozlarigacha bo‘lgan hadis rivoyat qiluvchilar haqidagi ma’lumotlar keltirilgan. Muallif xalifalar, amirlar, qo‘mondonlar va boshqa taniqli shaxslar, ularning martabalari, xalqiy va hulqiy sifatlari, kiyimlari va odatlarini to‘liq bayon etadi. U siyosiy, ijtimoiy va madaniy tarix borasida aniq ma’lumotlar beradi. Asarda sahoba va tobe’inlarning tarjimai hollari haqidagi ma’lumotlar keyingi tarixchilarga (*mutaxxirin*) nisbatan ko‘proq berilgan. Ibn Sa’d ishonchli muhaddislarning ma’lumotlariga tayanganligi uchun bu asarning ahamiyati katta hisoblanadi. Shuningdek, muallif Hishom ibn al-Kalbiy va Muhammad ibn Umar al-Voqidiy kabi xabarlari zaif tarixchilardan ham ma’lumotlar olganligi uchun tanbehqaga uchragan. Buning natijasida ba’zi tadqiqotchilar orasida muallifning asarlari al-Voqidiyning zaif ma’lumotlari bilan to‘la degan, fikrlar uchrab turadi. Lekin, al-Voqidiyning tabaqot janriga bag‘ishlangan asaridagi ma’lumotlarni Ibn Sa’d o‘z asariga ishonchli deb hisoblaganlarini olgan xolos. Ammo Ibn Nadimning fikri asosida Ibn Sa’dning bu asarini al-Voqidiyning ma’lumotlari asosida yozilgan kitob deyish, unga nisbatan adolatsizlik bo‘ladi. Chunki, Ibn Sa’d boshqa ko‘plab manbalardan ham unumli foydalana olgan. Xatto uning “*at-Tabaqot al-kubro*” asarida keltirilgan ustozlari soni 60 dan ortadi. ularning ko‘pchiligi taniqli muhaddislardir. Uning Abi Nuaym al-Fazl ibn Dakin,

Affon ibn Muslim, Ubaydulloh ibn Muso al-Absiy va Ma'n ibn Iso al-Ashja'iylardan naql qilgan ma'lumotlar al-Voqidiynikidan ko'proqdir. Shu bilan birga muallif ulardan tashqari ko'plab ishonchli muhaddislardan rivoyat qilganligi uning asaridan ma'lum. Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, ibn Nadimning Ibn Sa'dga nisbatan bildirgan fikriga to'laligicha qo'shilib bo'lmaydi.

Tabaqot janrining yana bir yirik vakillaridan biri Ahmad ibn Yahyo ibn Jobir **Al-Balazuriy** bo'lib, Bag'dodda o'sib ulg'aygan. Uning aksariyat oila a'zolari kotiblik bilan shug'ullanganlar. Tabiiyki, unga ham bu kasb meros bo'lib qoldi. U ilm izlash maqsadida ko'plab shaharlarga ilmiy safarlar uyuشتirdi. Tarixchilar orasida uning nisbasi al-Balazuriy haqida ba'zi noaniqliklar uchrab turadi. Masalan, Ibn an-Nadimning fikricha u balazur o'simligining urug'idan bilmasdan, yeb olgan va uning oqibatida ruxiy xastalikka chalingan va shu tufayli unga al-Balazuriy nisbasi berilgan. Ammo Yaqutiy Jahshiyorining fikrini ma'qullab, uning bobosi ham shu nisba bilan nomlanganligini ta'kidlaydi. Ahmadga al-Balazuriy nisbasining berilishiga asosiy sabab, uning bobosi o'rta asrlardan Toxariston tarkibiga kirgan Afg'onistonning Bag'lon viloyatidagi "Balazur" nomli yerdan arab yurishlari natijasida Bag'dodga kelib qolganligini ta'kidlaydi. Aynan mana shu dalil uning oilasida qo'sh tillik muhit mavjudligiga dalolat qiladi. Shuningdek "Futuh al-buldon" asarida keltirgan forsiy atamalar va Erondag'i viloyatlarning forscha nomlari to'g'ri talqin qilinganligi bu fikrga dalil bo'la oladi. Shuningdek, uning fors tilidan ko'plab asarlarni arab tiliga tarjima qilganligi tarixiy haqiqatdir. Jumladan, "Ahd Ardasher" (Ardasher vasiyati) kitobini tarjima qilgan va uni nazm holatiga keltirgan. U to'plagan ma'lumotlarning aniqligi va tarixiy jarayonlarning kengligi jihatidan at-Tabariyning asarlaridan keyingi o'ringa qo'yiladi. Lekin uning "Ansob al-ashrof" asaridagi rivoyatlarning saralanganligi, isnodlarning ishonchliligi "siqat" va "sidq" ahli keltirgan rivoyatlar bilan muvofiq kelishi jihatidan at-Tabariyning tarixidan ko'ra ishonchliroqdir. "Ansob al-ashrof" asari nasablar bilan birga, islam tarixini ham o'z ichiga olgan. Asarning boshlanishida

Quraysh qabilasi urug‘lari, oilalar va boshqa arab qabilalarining kelib chiqishi yoritiladi. Al-Balazuriyning ustozlari haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilinsa, ularning aksariyati muallif vafotidan taxminan 20 yildan ko‘proq vaqt oldin vafot etganliklari ma’lum bo‘ladi. Bu esa, o‘z navbatida, al-Balazuriy ushbu kitobini kasal bo‘lishidan ancha ilgari yozganligiga dalolat beradi. Shuningdek, u keltirgan rivoyatlar boshqa asar mualliflari Ibn Sa’d va Xalifa ibn Xayyot ma’lumotlari bilan qiyoslansa, ularni sunnat va tarix asarlarida keltirilgan aniq va ishonchli ma’lumotlar bilan movofiq ravishda ko‘rish mumkin. Shuning uchun uning asarida keltirilgan rivoyatlar orasida zaif va noto‘g‘ri ma’lumotlar uchrasa muallifga emas, balki uning roviysiga taalluqlidir. Shu bilan birga, uning “Fitnalar haqidagi hodisalar”ni bayon etishda ishonchli muhaddislar tomonidan rivoyat qilingan ma’lumotlarga tayanib yozilganligini ta’kidlash mumkin. Ular “*Sahihayn*” dagi Imom al-Buxoriy va Imom Muslimning ustozlari Affon ibn Muslim, Ahmad ibn Ibrohim ad-Davraqiy, Ali ibn al-Madiniy, Amr ibn Muhammad an-Noqid, Abu Bakr ibn Abi Shayba va Abu Haysama kabilardir. Shuningdek, u Qosim ibn Salom, Ali ibn Muhammad al-Madoiniy, Muhammad ibn Sa’d, Ibn al-A’robiy, Ali ibn Abdulloh al-Madiniy, Mus’ab az-Zubayriy, Muhammad ibn Habib al-Bag‘dodiy va Amr ibn Shabbalar kabi o‘zining bag‘dodlik ustozlarining asarlaridan foydalangan.

Al-Balazuriyning tarix kutubxonasidagi yana bir asari “*Futuh al-buldon*” bo‘lib, Misrning to‘liq fath etilishini alohida qism sifatida o‘z ichiga olgan. Shuningdek asarda zabit etilgan yerlardagi iqtisodiy, idoraviy va madaniy hayotga oid muhim ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar asnosida zabit etilgan o‘lkalardagi tub aholi va arablar orasidagi o‘zaro munosabatlar, fotihlar tomonidan ta’sis etilgan soliqlar va aholining haq-huquqlari bayon etiladi. Asar Misrdagi mahalliy manbalarga tayanib yozilganligi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Islom huquqshunosligining ilk faqihlaridan va abbosiyalar sulolasi “*Qodi al-quddor*” – bosh sudya lavozimida ishlagan **Abu Yusuf** Ya’qub ibn Ibrohim al-Ansoriy al-Kufiyidir. U Iroqning Kufa shahrida arab millatiga mansub oilada tug‘ilgan.

13 yoshida Kufaning qozisi Ibn Abi Laylo (vaf. 765 y.)ning shogirdi, 22 yoshida taniqli imom va faqih, hanafiylik mazhabini asoschisi Abu Hanifa ibn Nu'monga (699-767) yaqin yordamchi – shogird bo'lgan. Abu Hanifaning vafotidan so'ng u asos solgan fiqhiy mazhabning ba'zi unsurlariga aniqlik kiritdi va uning butun islom olamiga keng tarqalishida yetakchi rol o'ynadi. U Abbosiylar xalifa Mahdiy (775-785) davrida Kufa shahriga, Xorun ar-Rashid davrida Bag'dodga chaqirilib, islom tarixida bиринчи маротаба maxsus “*Qodi al-quddot*” (qozilar qozisi), ya'ni Bosh qozi lavozimi ta'sis etildi va unga Abu Yusuf tayin etildi. Uning vazifasiga xalifalik tarkibiga kirgan turli o'lkalarga qozilar tayin etish, ularning ishlarini nazorat qilish va da'volarni (appelyatsiya) qayta ko'rib chiqish amaliyoti kirgan. Tabiiyki, Abu Yusuf viloyatlardagi qozilik lavozimlariga hanafiylik mazhabini tarafdarlarini tayin etgan.

Abu Yusuf xalifa Xorun ar-Rashid iltimosiga ko'ra “*Kitob al-xarof*” asarini yozadi. Unda tezlik bilan rivojlanib borayotgan xalifalik davlati iqtisodiyotida soliqlar siyosatining islom huquqshunosligiga mos ravishda olib borilishi batafsil yoritilgan. Ushbu asarda *zakot*, *xarof*, *jizya*, *ushr* va boshqa soliq turlari, ularning miqdori, kelib chiqish tarixi va boshqa ma'lumotlar to'plangan. Abu Yusufning bu kitobi islom soliqchiligidida ilk qo'llanma bo'ldi. Asar rus tiliga A.Xismatulin tomonidan sharhli tarjima qilingan.

al-Movardiylar Abu al-Hasan Ali ibn Muhammad (974-yil Basrada tug'ilib, 1058-yili Bag'dodda vafot etgan) arab-musulmon faylasufi. U hayotining ko'p qismini Bag'dodda o'tkazdi va o'sha davrning mashhur faqihlaridan ta'lim oldi. U xalifalikning turli viloyatlarida qozilik qildi, jumaladan, Bag'dodning bosh qozisi lavozimida ishladi. Xalifa al-Qodir (991-1031) unga shof'iylilik mazhabining qisqacha sharhini yozib berishni topshirgan bo'lsa, xalifa al-Qoim Biamrilloh (1031-1075) esa uni Erondagi buvayhiylar va saljuqiylar bilan diplomatik aloqalar olib borishiga mas'ul qilib tayinlagan. Uning “*Odob ad-dunya va ad-din*”, “*al-Ahkom as-sultoniya*”, “*at-Tafsir al-Qur'on al-karim*”, “*Daloil an-nubuvva*”, «*al-Iqno*», “*Qonun al-vazora*”, “*Kitob an-nasihat al-mulk*” kabi asarlari etika, davlat

boshqaruvi, tafsirshunoslik, kalom, fiqh va boshqa fanlarni o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

Siyrashunoslik va tabaqot bilan birga “*al-Fihrist*” janri paydo bo'ldi. Fihrist fors tilidan o'zlashtirilgan atama bo'lib, bu janr bibliografik xarakterga ega, unga bag'dodlik “Varroq” (kitobfurush) **Ibn Nadim** asos solgan. Muallif o'z asarini 988-yili yakunladi. Mazkur asar 10 bobdan iborat bo'lib, unga arab xalifaligi hududiga kirgan mamlakatlar xalqlarining falsafa, filologiya, ilohiyot, fiqh, kimyo, tarix, geniologiya, afsonalar va she'riy namunalarini jam etilgan.

1.3. ZAMONAVIY TADQIQOTLAR

Ilk arab-musulmon davlatining shakllanishi va rivojlanishi ko'p davrlar mobaynida dunyo tarixchilarining e'tiborini tortib kelmoqda. Bu sohani o'rganishda ayniqsa, Rossiya islomshunos tadqiqotchilarining hissasi katta.

Rossiyada islomshunoslik bo'yicha tadqiqotlar asosan Pyotr I davridan boshlandi. Pyotr Angliya, Gollandiya va boshqa bir qator G'arb davlatlarining ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi yutuqlari bilan tanishgan paytda, ayniqsa, uning Angliya, Gollandiyaga uyushtirgan rasmiy tashriflari davrida, G'arb davlatlaridagi islomshunoslik markazlarida qilinayotgan ishlar e'tiborini tortdadi.

Pyotr I Usmonli turk imperiyasining boshqaruv uslublarini o'rganishida islomshunoslik sohasini rivojlantirishni bosh maqsad qilib qo'yadi. Pyotrga islomni o'rganishda yordam bergen birinchi islomshunos olimlardan biri moldavan Dmitriy Kantemir (1673-1723) edi. Kantemir bu sohada o'zining birinchi lotincha “De religione et statu Imperii Turcici” (Turk imperiyasining dini va davlati) nomli asarini yozadi. Bu asarga XIX asrga kelib I.Ilminskiy tomonidan «Muhammad dinining tizimi» deb nom beriladi. Kitob dastlab 1722 - yilda Peterburgda bosmadan chiqadi. Kantemir qur'onshunoslik sohasida ham mehnat qilgan. U Pyotr topshirig'iga binoan Qur'oni lotinchaga o'giradi.

Yekaterina davriga kelib, islom diniga, islomshunoslikka bo'lган munosabat keskin o'zgardi. Yekaterina Rossiya

hududida yashaydigan musulmonlarga yengillik yaratish, murosa qilish yo‘lini tutdi. Shuningdek u islomshunoslik sohasini rivojlantirishda bir qator Germaniya islomshunoslik markazlari, masalan, Gettingen Universiteti bilan aloqalar o‘rnatdi. Bu davr islomshunosligining o‘ziga xosligi shundaki, bu davrda islom diniga ilmiy yondashuv sifatida emas, balki musulmonlar bilan murosa yo‘lini tutishlik maqsadida qaraldi.

Rossiyada islomshunoslik bo‘yicha uyg‘onish davri XIX asr boshlariga to‘g‘ri keladi. 1804 - yili, Aleksandr I davriga kelib, Rossiyada oliv o‘quv yurtlarida musulmon sharqi va sharq o‘lka xalqlari madaniyati, dini, tilini o‘rganish va o‘rgatish, Rossiya hukumati tomonidan ishlab chiqilgan. «Sharqshunoslik» sohasida milliy kadrlar tayyorlash dasturini Rossiya hayotiga tadbiq etilishi, Sharq xalqlarini o‘rganishda tub burilish yasadi. Shunga ko‘ra, Peterburg, Qozon, Xarkov universitetlari va Moskva Lazarevskiy instituti qoshida Rossiyaning “sharqshunoslik”, “islomshunoslik” markazlari barpo etildi.

Hozirgi davrda O.G. Bolshakov o‘z tadqiqotlarida asosiy e’tiborni Muhammad (s.a.v.)ning faoliyati, u zot asos solgan davlatning tashqi siyosati va arab istilolariga qaratdi. V.V. Bartold, P.A. Gryaznevich esa arab-musulmon davlatining teokratik asosi va davlat boshqaruvi prinsiplari masalalarini yoritdi. M.B. Piotrovskiy, S.M. Prozorov, E.A. Rezvan va Rizouddin ibn Fahriddin shuningdek, yevropalik olimlardan T. Arnold, A.X. Akseki, F.H. Berki, F. Bul, M. Uott, U. Myuir va L. Kaetani islom tarixi, Muhammad (s.a.v.) hayoti, vafotidan so‘ng Arabiston yarimorolidagi beqarorlik (*ar-Ridda* harakati), musulmon jamoasining bo‘linish jarayonlarini yoritish bilan cheklandilar. Davlatdagagi madaniy-ma’rifiy harakatlar, arab yozuvining shakllanishi borasida A.B. Xalidov, G.E. fon Gryunebaum, U.B. Fisher, V.A. Kremer samarali faoliyat ko‘rsatdilar. Istilo etilgan hududlardagi aholi hayoti borasida A.A. Vasilev, F. Donner va M.V. Krivov tadqiqotlarini sanab o‘tish mumkin. Sharq mamlakatlari tadqiqotchilari Akram Diyo al-Umariy, Abd al-Mun’im Mojid, Hasan va Ali Ibrohim Hasan, Muhammad Rido, Amir Ali, Muhammad Akramxon, Muhammad al-Xudariy, Abd

al-Vahhab an-Najjar kabilar o‘z asarlarini tadrijiy tizimda islom tarixi va arab istilolarining bayoniga bag‘ishlagan.

O‘zbekiston tarixnavisligidagi umumjahon tarixi sohasiga oid islomshunoslardan Mutalib Usmonov Payg‘ambar (s.a.v) hayoti, Makka va Madinadagi diniy-siyosiy va ijtimoiy sohadagi islohotlari bo‘yicha, Arabiston yarimorolining islomdan oldingi tarixi, Arabistondagi qadimgi davlatlar, ularning rahbarlari, udumlari bo‘yicha qimmatli ma’lumotlar bergenlar.

Oxirgi yillarda arab tilida bitilgan manbalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ancha jadallahshdi. Jumladan Ibn Hishomning “as-Siyyra an-Nabaviyya” asarining akademik tarjimasi N.I. Ibrohimov boshchiligidagi, Abulhasan al-Movardiyning “Adab ad-dunya va ad-din” asari Abdulloh Ismoil Mahdum tomonidan tarjima qilindi. Shuningdek, qadimgi Arabiston etnografiyasi va tarixi, Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti va faoliyati, Qur’oni karim, chahoryorlar tarixi va diniy-siyosiy oqimlar bo‘yicha tadqiqotlar olib borilmoqda.

Takrorlash uchun savollar

1. *Islom tarixi bo‘yicha qanday birlamchi manbalarni bilasiz?*
2. *Siyranavislik qanday fan?*
3. *Tabaqot janri nimani o‘rganadi?*
4. *Islom tarixini Rossiyada qachondan o‘rgana boshlangan?*

Mustaqil ish mavzulari:

1. *Asarmualliflarining diniy, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini manbada aks etishi.*
2. *O‘zbek islomshunoslarning islom tarixi bo‘yicha qilgan tadqiqotlari.*
3. *Toshkent islom universiteti Manbalar xazinasida saqlanayotgan islom tarixiga oid manbalar katalogini tuzish.*

Qo‘sishimcha adabiyotlar

1. Абу Йусуф Якуб ибн Иброҳим ал-Куфи. Китаб ал-харадж / перевод с арабского и комментарии А.Э. Шмидта; супракоммент. к пер. А.С. Боголюбова; подготовка к изданию А.А. Хисматулин. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001.
2. Ибн Ҳишом ал-Маъфирий, Абдумалик. Ас-Сийра ан-набавийя. Биринчи жилд. 1-2 китоблар. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: “Sharq”, 2011.
3. Ислам: Историографические очерки / Под общей ред. С.М. Прозорова. – М.: ГРВЛ, 1991.
4. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
5. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Муҳаммадий: 2 жилдли. – Тошкент, 1991
6. Халидов А.Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М.: ГРВЛ, 1985.
7. Колесников А.И. Завоевание Ирана арабами (Иран при “праведных” халифах). – М.: ГРВЛ, 1982.

2-BOB. MARKAZIY ARABISTONDAGI QADIMGI DAVLATLAR

Tayanch iboralar: *Qarnov, Main, Sabo, Nabotiy, Tadmur, Laxmiy, G'asson, Xadramavt, Makka, Ka'ba, hilf, ahlof, Saqif, hilf al-fudul.*

2.1. ARABISTON YARIMOROLIDAGI QADIMGI DAVLATLAR

Main davlati Yamanning Javf deb nomlangan hozirgi Sanodan sharqroqda vujudga kelgan. Davlatning birinchi siyosiy markazi – Qarnov, keyin Main shahri bo‘lgan, diniy markaz sifatida esa Yasil shahri xizmat qilgan. Tarixchilarining fikricha, bu davlat miloddan avvalgi XIV–VIII asrlarda hukm surgan.

Sabo davlati Janubiy Arabistonning qadimgi davlatlari ichida eng mashhuridir. Qadimgi Yaman tarixi va madaniyatini o‘rganuvchi soha tarixshunoslikda “*sabeistika*” nomini olgan. Sabo haqidagi sanasi ko‘rsatilgan aniq ma’lumotlar Ossuriya podsholariga tegishli yozuvlarda uchraydi. Saboliklarning kelib chiqishi haqida har xil taxminlar bor: ba’zilar ularni asli habashlar deb hisoblasalar, boshqalar shimoldan ko‘chib kelgan qabilalar, deb hisoblaydilar.

Nabotiyalar davlati haqida arab axboriyları deyarli hech qanday ma’lumot bermaydilar. Bu davlat miloddan bir necha asr avval Arabiston yarimorolining shimoli-g‘arbiy qismida, antik mualliflar “*Arabie Petrae*” (Toshloq Arabiston) deb atagan joyda vujudga kelgan.

Tadmur (Palmira) davlati Nabotiyalar va umuman shimoliy arablar haqidagi hikoyalar yana boshqa bir qadimgi arab davlati bilan bog‘lanib ketadi. U ham bo‘lsa Damashqdan sharqroqda vujudga kelgan arab manbalarida Tadmur, grek-lotin manbalari-da esa “*Palmira*”, “*Palmerina*” nomlari bilan mashhur bo‘lgan davlatadir.

Laxmiylar davlati. Hira shahrining nomi siryoniycha (oromiycha) “*hitra*” – chodir so‘zidan olingan. Hira shahri Kufadan janubroqda, qadimgi Bobildan uncha uzoq bo‘lmagan

joyda vujudga kelgan. III asr oxirlaridan Hira taxtida Laxmiylar sulolasidan bo‘lgan podshohlar o‘tirgan. Arab adabiyotlarida bu sulolaga mansub 20 dan ortiq vakillarni ko‘rish mumkin.

G‘assoniylar davlati o‘zining vujudga kelish vaqtini va Arabiston yarimorlining ijtimoiy-siyosiy va diniy hayotida tutgan o‘rnini jihatidan Hira davlatiga o‘xshab ketadi. Ayni vaqtida Suriyaning janubi – Havron va al-Balqoga asli Arabistonning janubidan chiqqan Azd qabila urug‘idan bir qavm ko‘chib kelib, G‘asson suvi chiqadigan joyda o‘rnashib qoladi. Ana shu qavm keyinchalik g‘assoniylar nomini olgan. O‘rta asr arab tarixiy adabiyotida G‘assoniylar podsholarning soni, ularning nomlari va hokimlik qilgan yillari xususida yakdillik yo‘q.

Kinda davlati Najdnинг aksariyat qismini o‘z ichiga olib, g‘arbda Hijoz bilan shimolda Shomning bir tarafni va Iroq bilan chegaradosh bo‘lgan. Janubda esa kindiylar Umon va Hadramavtdagi qabilalar bilan nufuz uchun kurashib kelgan. Kinda laxmiylar va g‘assoniylar singari barqaror hokimiyatiga ega emasdi. Davlatdan ko‘ra ko‘proq uni qabilalar ittifoqi yoki konfederatsiyasi, deb atash to‘g‘riroq bo‘lar edi.

2.2. MAKKA SHAHAR-DAVLATI

VI asrning oxiri – VII asrning boshlarida Arabiston yarimorolidagi qabilalar o‘rtasidagi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot darajasi bir xil emas edi. Yaman va yarimorolning shimoliy qismida joylashgan shaharlarda nisbatan rivojlangan davlatchilik hukm surgan bir paytda, ichki Arabistoda ko‘chmanchi chorvachilik bilan hayot kechirayotgan arab qabilalari esa qadimiy madaniyat markazlariga qaraganda tarixiy taraqqiyotning quyiroq bosqichida bo‘lib, ancha orqada qolgan edi.

Markaziy Arabiston qabilalari doimo tarqoq holatda bo‘lib, ular asosan chorvachilik bilan shug‘ullangan. Dehqonchilikda esa, ko‘proq xurmo, arpa va bug‘doy yetishtirilar edi. Ko‘chmanchi arablarda asrlar davomida qabila tizimi o‘zgarmay, tom ma‘nodagi davlat tizimi mavjud bo‘lmagan. Qabilalar urug‘larga, urug‘lar esa oilalarga bo‘lingan.

Har bir qabila a'zolari o'ziga boshliq saylar, uni *sayyid* yoki *shayx*, ba'zi joylarda *amir* yoki *malik* deb ham nomlaganlar. Qabila a'zolarini esa o'zaro jamoa va qondoshlik birlashtirardi. Ba'zi markaziy shaharlar ma'lum bir qabila tomonidan boshqarilgan. Masalan, Makkada *Quraysh*, Toifda *Saqif* qabilalari boshqaruvchi edilar.

Arab qabilalarining o'ziga xos nizomlari bo'lib, u barcha mayda qabilalarni birlashtirgan va «*asabiyya*» (*qabila birdamligi*) aqidasini o'z ichiga olgan. Mazkur nizom qabilaning tarkibidagi urug'lar qabilalarning urf-odatlariga asoslangan qoidalardan iborat yozilmagan qonun edi.

V-VI asrlarda Arabiston yarimorolidagi Fassoniylar, Laxmiylar, Kinda va Himyar davlatlarining barchasi inqirozga yuz tutganligi va butkul yo'qolib ketishi Makkaning nafaqat diniy, balki siyosiy-iqtisodiy markazga aylanishi uchun omil bo'ldi. Ammo Makkaning keskin rivojlanishida Qusayy⁸ va uning avlodlari amalga oshirgan islohotlar katta hissa qo'shdi. Shahar idorasining markazi *Dor an-nadvada* joylashgan bo'lib, u birinchi navbatda Quraysh qabilasi oqsoqollarining maslahat kengashi (*Malo*) vazifasini bajargan. Unga Qusayy urug'idan bo'lgan har qanday yoshdagи kishi, boshqa urug'lardan esa faqat 40 yoshdan oshgan kishi a'zo bo'lishi mumkin bo'lgan. Harbiy holatlarda *Dor an-nadva* ustiga Quraysh qabilasining bayrog'i tikilgan.

Islomdan oldin Makkada hajga kelayotganlarga xizmat ko'rsatish va qabila birligini saqlash, urug'lar o'rtasida xusumat chiqishining oldini olish maqsadida *Malo* quyidagi lavozimlarni joriy qildi:

as-Siqoya – Ka'baga hajga keluvchilarni suv bilan ta'minlash⁹;
ar-Rifoda – Hojilarni oziq-ovqat bilan ta'minlash maqsadida Makka aholisiga maxsus soliq joriy etilgan;

al-Imora – Ka'ba ibodatxonasida odob saqlashni joriy qilish;

⁸ Qusayy – Muhammad payg'ambarning beshinchi bobosi.

⁹ Mazkur vazifa xususida Qur'on karimda ham oyat keltirilgan: «(*Ey mushriklar*) sizlar hojilarga suv berishni va *Masjid al-haromni obod qilishni - Alloh va oxirat kuniga iyomon keltirgan hamda Alloh yo'lida kurashgan zotlar* (*ning amallariga*) teng, deb bildingizmi?! ...». Qur'on. 9:19

al-Hijoba – Ka’ba darvozasini ziyyoratchilariga olib-yopish;
al-Mashvara – Maslahat sudi;
al-Ashnoq – xunga to‘lanadigan molni to‘plash;
al-Qubba – qabila qurol-aslahasi saqlanadigan chodir;
al-A’inna – otilq lashkar qismi;
as-Sifora – boshqa qabilalar bilan muzokaralar olib borish;
al-Aysor – kamon o‘qi bilan Ka’badagi sanamlarning eng ulug‘i Hubal oldida fol ochish;
al-Hukuma – qabila a’zolari o‘rtasidagi tortishuvlar va nizolar bo‘yicha hukm chiqarish;
al-Amvol al-muhjara – xudolarga atalgan mollar.

Mazkur vazifalar Quraysh qabilasining *Hoshim*, *Umayya*, *Nayfal*, *Abd ad-dor*, *Asad*, *Taym*, *Mahzum*, *Adi*, *Jumah* va *Sahm* urug‘lari o‘rtasida taqsimlangan edi. Makka fathidan (630 y.) so‘ng Muhammad (s.a.v.) Ka’ba xizmati bilan bog‘liq “*as-sidona*” va “*as-siqoya*” dan boshqa hamma lavozimlarni bekor qilishi, Arabiston yarimorolida yangi shakllanayotgan musulmon jamoasining eski qabilachilik tizimidagi ba’zi vazifalarning saqlanib qolganligini ko‘rasatadi.

Arabiston yarimorolining ayrim tumanlarida yahudiy va xristianlarning yashaganligi tarixdan ma’lum. Xususan, yahudiylik Yaman arablari o‘rtasida qadimdan keng tarqalgan. Yahudiylikka e’tiqod qiluvchi qabilalar Markaziy va G‘arbiy Arabistonning ayrim vohalarida ham mavjud edi. Jumladan Madina shahridagi *Banu Qaynuqo*, *Banu Nadir* va *Banu Qurayza* qabilalarini keltirish mumkin. Xristianlik ham Arabiston yarimorolining deyarli barcha yerlari – shimoliy va janubiy qismida, Shom orti, Falastin va Mesopotamiyada yashaydigan arab qabilalari o‘rtasida keng tarqalgan edi.

Islom paydo bo‘lishi arafasida Arabiston yarimorolida yakka xudolik g‘oyasi, ya’ni haniflik vujudga kela boshladi. Ular sanamlarga sig‘inmas, xristianlik va yahudiylik diniga e’tiqod qilmay, yagona ilohga sig‘inar edilar. Qur’onnинг 9 ta surasi (2:135; 3:67,95; 4:125; 6:79,161; 10:105; 16:120,123; 22:31; 30:130; 98:5)da haniflar zikr etilgan. Bu suralarning mazmuniga ko‘ra, haniflar yahudiy ham, xristian ham, mushrik ham emas. Ular Ibrohim (a.s.)ni o‘ziga o‘rnak qilib olgan, ya’ni

unga ergashgan va izdosh bo‘lgan kishilardir. Islom arafasida ba’zilar rohib libosini kiyganlarni hanif deb hisoblardi, ammo Muhammad (s.a.v.) ularni haniflarga muxolif deb bilgan.

Yamanning habashistonliklar tomonidan bosib olinishi makkaliklar uchun yana bir savdo markazini ochdi. Ta’kidlanganidek, yirik sultanatlar bilan siyosiy, iqtisodiy suh tuzishga muvaffaq bo‘lgan Makka zodagonlari turli hududlarga savdo karvonlari yubora boshladilar.

Abd Manofning to‘rt farzandi Abd Shams – Habashiston, Hoshim – Suriya, al-Mutallib – Yaman va Naufal esa Iroq bilan iqtisodiy va siyosiy aloqalarni kuchaytirishga mas’ul edilar. Keyinchalik esa, Banu Mahzum Janubiy Arabiston bilan savdo aloqalariga bosh bo‘ldi.

Makkaning iqtisodiy yuksalishida diniy omil, ya’ni Ka’ba ziyyaratgohi asosiy rol o‘ynagan. Chunki, Yaman hukmdori Abraha al-Ashram San’oda “*al-Qullays*” cherkovini qurdirgani va Ka’bani buzish uchun Makkaga fillardan tashkil topgan qo‘sish bilan bostirib kelishidan asosiy maqsad, diniy markazni Arabiston yarimorolining janubiga ko‘chirish edi. Bundan iqtisodiy va diniy omillarning qorishib ketganligini yaqqol ko‘rish mumkin. Masalaning ikkinchi tomoni esa, Yamandan sotib olingan tovarlarni katta ustama haqqi evaziga ko‘chmanchi arablarga va Shom hududlariga sotish yamanliklarni ancha ranjitgan edi.

Makkani Quraysh qabilasining ulug‘lari boshqarar edilar. Professor A. Hasanovning fikricha, tipologik jihatdan Makkaning idora usulini qadimgi Afinadagi respublika tizimi bilan qiyoslash mumkin. Qadimgi Afinada ham dastlab bir qancha e’tiborli urug‘lar – *fil* va *fratriyalar* boshliqlaridan tashkil topgan aristokratiya asosiy rolni o‘ynagan. Ammo sudxo‘rlarning qudratiga barham berilgach, yetakchilik xalq majlisi – «*ekklesiya*» qo‘liga o‘tgach, barcha amaldorlar, hatto ularning eng yiriklari – *arxontlar* va *strateglar* ham ekklesiya tomonidan tayinlangan va uning oldida hisobot bergen. Makkada ham V-VI asrlarda shahar boshqaruvi *Dor an-nadvada* joylashgan to‘laligicha «*Oqsoqollar kengashi*» (Malo) qo‘lida bo‘lgan edi. Farq shuki, Afina xalq majlisida ovoz berishda butun *demos*, ya’ni barcha erkin aholi qatnashgan bo‘lsa, Makka Dor an-nadvasida faqat *Malo* – zodagonlar, qabila va urug‘ boshliqlari qatnashgan.

Albatta Makka shahar-davlatining idorasi nizolarsiz kechgani yo‘q. Qusay vafotidan keyin Makka urug‘lari ikki lagerga bo‘lindi: Abd Manof va Abd ad-Dor tarafdlorlari. Abd Manof va uning avlodlarini Asad, Zuhra, Taym, al-Horis urug‘lari qo‘llab-quvvatlagan bo‘lsa, Abd ad-Dor urug‘iga Mahzum, Sahm, Jumah, Odi urug‘lari qo‘sildi. Har ikkala tomon alohida ittifoq – Abd Manof tarafdlorlari “*Hilf al-Mutayyibin*¹⁰”, Abd ad-Dor esa “*al-Ahlof*¹¹”ni tuzdilar.

Ammo yuqoridaqitit ittifoqlar Makka shahar-davlatini tashqi dashman xavfidan himoya qila olmadidi. Makkada bir tomondan Quraysh va Kinona qabilasi, boshqa tomondan Qays va Ilon qabilalari o‘rtasida “*al-Fujor*”¹² urushi bo‘lib o‘tdi.

Makkadagi ichki tartibsizliklar va tashqi dashman xavfi shahar iqtisodiy hayotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmadidi. Karvonlar va savdogarlarning erkin savdo qilishlari uchun qulay sharoit va ichki tartib-intizom asosiy o‘rin egallagan. “Makka shahrida ichki savdoni rivojlantirish, bu yerga kelgan savdogarlarning xavfsizligini ta’minalash maqsadida yana bir ittifoq – “*Hilf al-fudul*”¹³ tuzilgan edi”.

Manbalarda ta’kidlanishicha, keyingi harakatlarda Payg‘ambar (s.a.v.)ning o‘zi ham qatnashgan. Bundan Payg‘ambar (s.a.v.)ning yoshligi aynan qabilalararo urushlar va ularning tinchlik sulhi bilan yakunlanishiga guvoh bo‘lganligi va keyinchalik uning hayotida bunday siyosiy va diplomatik munosbatlar o‘z ifodasini topganligini ko‘rish mumkin.

¹⁰ حلف المطين – Muattar islilar ittifoqi. Bir idishdagisi xushbo‘y moddaga qo‘lni botirib, so‘ng Ka‘ba devoriga surtganlar. To‘liqroq ma’lumot olish uchun qarang: Ibn Hishom. – T.1. – B. 103-104.

¹¹ الاعداف – Qasam ichganlar. So‘yan qurbanliklarining qoniga qo‘llarini botirib, Ka‘ba devoriga surtganlar.

¹² حرب المغار – Noqonuniy urush. Urushning “al-Fujor” (noqonuniy, harom) deb atalishiga urush harom qilingan oylarda Makkada bo‘lib o‘tganligiga dalolatdir.

¹³ حلف القصوى – al-fujor urushi tugagandan keyin Quraysh qabilasi urug‘lari Banu Hoshim, banu al-Muttolib, banu Asad, banu Zuhra va banu Taym o‘zaro do‘stlik va birdamlilik ittifoqini tuzdilar. Bu ittifoqning tuzilishiga Muhammad payg‘ambar guvoh bo‘lgan. Ibn Hishomning baugh‘idashicha, ushbu ittifoqning bunday nomlanishiga sabab, Quraysh qabilasidan bir paytlar bir bitim tuzilgan bo‘lib, Fadl ibn Fudola, Fadl ibn Vado‘a va Fadl ibn Qudo‘a ismli kishilar amalga oshirganlar. Mazkur ittifoq ham aynan avvalgisiga o‘xshagani uchun unga ham shu nom berilgan (Ibn Hishom. – T.1. – B. 105).

Muhammad (s.a.v.) o‘z davrida musulmonlarni eski arab qabilachilik unsurlaridan voz kechishlariga qancha undamasin, uning ba’zi ko‘rinishlari saqlanib qoldi. Masalan, Muoviyah ibn Abu Sufyon davrida Madina hokimi al-Valid ibn Utba ibn Abu Sufyon Vodi al-Qurodagi Zu al-Marva yerlarini Payg‘ambar (s.a.v.)ning nabirasi al-Husayn ibn Alidan tortib oladi. Shunda al-Husayn “*Allohga qasamki, yo haqqimni berasan yo qilichimni olib, Rasulluloh (s.a.v.)ning masjidlariga borib, Hilf al-fudul ahlini chaqiraman*”, deydi. Demak, johiliyat davrida bo‘lib o‘tgan ushbu ittifoq Makka aholisi orasida katta ahamiyat kasb etganki, islom dini paydo bo‘lgandan keyin ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Garchi al-Husayn va uning yonida bo‘lganlar mazkur ittifoq tuzilganda hali tug‘ilmagan bo‘lsalarda, ushbu ittifoqning tuzilishi va uning ma’nosи og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan yoki bundan oldin ham qurayshliklar orasida bir necha bor qo‘llanilgan ko‘rinadi.

2.3. MUHAMMAD (S.A.V.)NING MAKKADAGI TARG‘IBOT DAVRI

Muhammad (s.a.v.)ga bobosi Abd al-Muttolibning vafotidan keyin unga amakisi Abu Tolib vasiylik qila boshladidi. Payg‘ambar (s.a.v.) ilk rasullik davrida Ka’ba ichiga kirib namoz o‘qib, aholini islomga da’vat qilishiga qurayshiyilar qarshilik qilmadilar. Makka zodagonlarining Payg‘ambar (s.a.v.) va uning tarafdarlariga qarshiligi sof tavhid g‘oyasiga muvofiq kelmaydigan sanamlarga sig‘inishdan batamom voz kechishga da’vat qila boshlagandan keyin yuz berdi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning bu harakatini qurayshilar o‘z ota-bobolari sig‘inib kelgan but-sanamlarga qarshi kurash deb tushundilar. Payg‘ambar (s.a.v.)ning bu “chegaradan” o‘tishi oqibatida uning targ‘ibotiga qarshilik qila boshladilar.

Payg‘ambarlikning ilk davrida Quraysh qabilasi zodagonlari Muhammad (s.a.v.)ning diniy ibodatlariga mone’lik qilmay unga e’tibor ham bermadi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning sof tavhid g‘oyasi asosida sanamlarga sig‘inishdan voz kechish ta’limotini ilgari surishi, Quraysh zodagonlarini unga qarshi kurashishlariga

asosiy sabab bo'ldi. Chunki, uning sanamlarga sig'inishga qarshi targ'iboti diniy, siyosiy va iqtisodiy markaz – Ka'ba panteoni sohiblari Quraysh qabilasining Arabiston yarimorolidagi gegemonligiga barham berar edi.

Muhammad (s.a.v.) 13 yil davomida Makka shahrida islom diniga targ'ibot olib bordi. Ma'lumki, Makka Arabiston yarimorolidagi o'z davrining yirik imperiyalari Vizantiya, Eron va Habashistonning diqqat markazida turgan yirik savdo markazlaridan biri edi. Ushbu sultanatlarning shaharga nisbatan katta qiziqishi, asosan, xalqaro savdo yo'llarini o'z nazoratlari ostiga olish uchun qilgan harakatlari bilan bog'liq edi. Vizantiya imperatorlarini asosan Sharqiylar viloyatlardan keladigan soliqlar qiziqtirsa, Sosoniyalar esa iqtisodiy va savdo aloqalarini o'z nazoratidan qochirmaslikka harakat qilar edi. Ular quruqlikdan hamda Fors ko'rfazi orqali dengiz yo'llarini, Xitoy, Hindiston va Seylondan keladigan karvonlarni kuzatar edilar. Forsiyalar Vizantiyaliklarga tinchlik paytida ipak matolar, ziravor hamda dorivorlarni qimmat narxga sotardilar. Urush paytida esa savdoni umuman to'xtatib qo'yardilar.

Yuqorida Makkaning idora usulini qadimgi Afinadagi respublika tizimi bilan qiyoslandi. Shuni ta'kidlash kerakki, Vizantiya, Eron, Habashiston, Yaman va boshqa yirik davlatlardan farqli o'laroq Makka shahar-davlatida muayyan yagona rahbar faoliyat olib bormagan. Balki Makka zodagonlari Muhammad (s.a.v.)ning rasulligini tan olish, uning Makka shahar-davlatida yakka hokimligi, malik yoki podshohligini tan olish, deb hisoblagan bo'lishlari mumkin.

Ibn Xaldunning fikricha, johiliya arablari dunyoviy rahbarni tan olmas, faqat diniy rahnomoga itoat qilardilar. Shuning uchun makkaliklar so'ngi paytgacha Muhammad (s.a.v.)ning na diniy va na dunyoviy rahbarligini tan oldilar. Demak Payg'ambar (s.a.v.)ning diniy targ'iboti quraysh zodagonlarining ildiziga bolta urish bilan barobar edi. Chunki ularning butun Arabiston yarimoroli qabilalari ustidan gegemonligi zaminida birinchi navbatda ko'p xudolik yotar edi.

Makkada yangi tashkil topgan musulmonlar jamoasiga nisbatan tazyiqning kuchayishi, Muhammad (s.a.v.)ni o'z

tarafdarlarining erkin hayot kechirishlari uchun Makkadan uzoqroqdan joy izlay boshlashga undadi. U musulmonlarni aholisi va davlat rahbari xristian diniga e'tiqod qiluvchi Habashistonga hijrat amalga oishirildi.

Bu hijrat islomshunos tadqiqotchilar orasida ba'zi ixtilofli fkrlarga sabab bo'lib kelmoqda. Avalo uning necha marotaba bo'lganligi. Manbalarda mazkur hijratni ikki marta amalga oshirilgani zikr etiladi. 615-yili 15 kishidan iborat muhojirlar Makka ahli islomni qabul qila boshlabdi, degan fikr bilan o'z uylariga qaytganlar. Ammo ularning barchasi ham o'z uylariga kira olmaganlar. Chunki qurayshiyalar banu Abd al-Muttolibga qarshi siyosiy va iqtisodiy embargo e'lon qildilar. Bu borada tadqiqotchi M.Uott tarixchilarning bu fikrini ma'qullamaydi. Uning fikricha, Habashistonga umumiy hijrat bir marotaba bo'lib, "ikkinci" deb atalayotgan hijrat oldingisining davomi bo'lgan xolos. U o'z fikrini ma'qullah maqsadida at-Tabariyning Habashistonga ikkinchi bosqichda hijrat qiluvchilarga nisbatan qo'llagan "tataba'a" (bir-birini ketidan ketuvchi, uzlusiz) so'zini asos qilib oladi. Shuningdek, Habashistonga birinchi hijrat qilgan Abu Sabr o'z ukasi Xoliddan ikki yildan keyin qaytgan.

Ammo vaziyatning musulmonlar uchun yanada keskinlashganini ko'rib, qaytadan Habashistonga qaytganlar. Ikkinci hijratda esa (616 y.) 80 dan ortiq erkak va 18 ayol hijrat qilganlar. Habashiston negusining makkalik muhojirlarini o'z himoyasiga olishi, o'sha davrda ham "siyosiy boshpana" tushunchasi mavjud ekanligidan dalolat beradi.

Makkada qolgan boshqa musulmonlar esa, hijrat qilganlarga qaraganda ancha mushkul ahvolda yashardilar. Chunki quraysh qabilasi Abu Tolib boshliq banu Abd al-Mutolib urug'ini Muhammad (s.a.v.)ning o'z himoyasiga oglani sababli, unga iqtisodiy va siyosiy cheklov (boykot) e'lon qilib, o'zaro bitim tuzdilar. Bitim shartlariga ko'ra banu Hoshim urug'ining banu Abd al-Mutolib qavmi bilan boshqa qabila va urug'lar quda bo'lmaslik, ularga oziq-ovqat mahsulotlar sotmaslik va ulardan biron nima sotib olmaslik shartlari qo'yilgan edi.

619-yili Payg'ambar (s.a.v.)ni o'z panohiga olgan Abu Tolib sakson yoshida vafot etdi. Abu Tolibdan keyin uning ukasi Abd

al-Uzza ibn Abd al-Mutolib (Abu Lahab¹⁴. vaf. 624 y.) o‘z himoyasiga oldi. Ammo qurayshiyalar unga Muhammad (s.a.v.)ni o‘z da‘vosidan qaytishini yoki uni o‘z himoyasidan chiqarishini talab qila boshladilar. Ammo Abu Lahab o‘z qaroridan qaytmadi. Qurayshiyalar Payg‘ambar (s.a.v.)dan marhum Abd al-Mutolib qayerda ekanligini bildirishini talabetganlarida, bobosini do‘zaxda ekanligini aytgan Muhammad (s.a.v.) tahminan 1 oychagina davom etgan Abu Lahabning siyosiy himoyasidan chiqdi. O‘z urug‘ining himoyasidan mahrum bo‘lgan Payg‘ambar (s.a.v.) o‘zi va tarafdorlari uchun xavfsiz hudud izlay boshladi. Uning Toif shahriga borishi ijobjiy natija bermay, aholi toshbo‘ron bilan qarshi oldi. Buning o‘ziga yarasha siyosiy, diniy va iqtisodiy sabablari bor edi, albatta. Shu o‘rinda professor A. Hasanovning fikri biz uchun muhimdir: “Hijozda gegemonlikni saqlash vazifasi makkaliklar uchun faqat badaviylar bilan emas, boshqa shaharlar bilan ham do‘stona aloqada bo‘lishni taqozo qilardi. Makkaga eng yaqin shahar – Toif – deyarli yo‘ldosh shaharga aylanib qolgan, bu ikki shahar arab adabiyotida “Makkatoni”, ya’ni ikki Makka degan nomini olgandi”. Shuningdek, “Toifda yashagan saqif qabilasi qurayshning eng ishonchli ittifoqchilaridan edi”.

Bu borada Toif shahrining diniy holatini ham o‘rganish o‘rinli. G.E.fon Gryunebaumning fikricha, al-lot sanami Toif ahli uchun eng muqaddas hisoblangan. Demak Muhammad (s.a.v.)ga Toif shahridan boshpana berilmasligi uchun siyosiy va diniy sabablar yetarli bo‘lgan. Shuningdek, saqifiylar o‘z iqtisodiy va siyosiy manfaatlarini Makkadan quvilgan shaxs orqasidan poymol qilishni istamasliklari aniq edi.

Toifdan qaytgan Muhammad (s.a.v.) Makkaga yolg‘iz kirishga botina olmadi. Chunki shaharga uni o‘z himoyasiga oluvchi biror nufuzli odamsiz kirish xavfli edi. U Xiro tog‘ida to‘xtab, ana shunday kimsani izlay boshladi. Bir necha odamlar undan yuz o‘girdilar va nihoyat Mut‘im ibn Adiy uni o‘z urug‘i panofiga oldi. Mut‘im ibn Adiy banu Novfal urug‘ining sayyidalaridan edi. Bu voqeя payg‘ambarlikning o‘ninchи yili zu-l-qa‘da oyining 23 chisida, ya’ni 619-yil 12-iyulga to‘g‘ri keladi.

¹⁴ Abu Lahab (olov otasi, do‘zaxga tushuvchi) laqabi Qur’ondagi 111 sura nozil bo‘lgandan keyin paydo bo‘ldi.

Banu Novfalning Makka zodagonlari orasidagi obro‘-e’tibori haqida M.Uott quyidagi fikrni beradi, “Novfal urug‘i kam sonli bo‘lishiga qaramay, uning ulug‘lari Makkada o‘z nufuzlariga ega edilar. Abd Shams urug‘i bilan yaqin aloqada bo‘lib, banu Maxzumga ittifoqdosh (axlof) bo‘lib, unga qaram bo‘lmaganlar. O‘z shaxsiy manfaatlariga qarab banu Asad va banu Amir bilan ham aloqada bo‘lar edilar.”

Shu o‘rinda Mut’imning Muhammad (s.a.v.)ni himoya qilish uchun o‘z farzandlarini qurollantirib, Quraysh ulug‘lariga ochiqdan-ochiq qarshi chiqib, Payg‘ambar (s.a.v.)ni Ka’ba oldida namoz o‘qishiga va so‘ngra uni uyiga kuzatib qo‘yishi masalasini ko‘rib chiqish lozim. Haqiqatdan Muhammad (s.a.v.) Xiro (nur) g‘orida turib e’tiborli urug‘ boshliqlaridan al-Axnas ibn Shariq va Suhayl ibn Amruga uni o‘z himoyasiga olishni so‘rab odam yuborgan. Ammo, ular rad javobini bergenlar. Demak, Mut’imning bu himoyaga rozilik berishiga asosiy sabab, bu voqeadan biroz avvalroq Makka zodagonlari tomonidan Banu Hoshimga qarshi tuzilgan ittifoq quraysh va boshqa tashqi qabilalarning ko‘plab urug‘lari tomonidan tanqidga uchrab, buzilgan edi. Demak, Mut’imning Payg‘ambar (s.a.v.) ni o‘Idirishni o‘z oldiga maqsad qilgan boshqa urug‘larga qarshi chiqib, Muhammad (s.a.v.)ni o‘z himoyasiga olishi, Makkada ichki siyosiy beqarorlikni boshlanganligidan dalolat beradi.

Banu Novfalning himoyasiga o‘tgan Payg‘ambar (s.a.v.) bir oydan keyin Makka tashqarisidan hajga keluvchilarni islom diniga da‘vat qila boshladi. Bir yildan keyin Yasrib shahridan kelgan hojilar ushbu dingga nisbatan qiziqishlarini izhor qildilar va islom tarixida “Aqoba bay’ati” (Makka va Mino o‘rtasidagi tepalik nomi) atamasi paydo bo‘ldi. Keyingi yili Yasribdan ancha ko‘payib kelgan hojilar Muhammad (s.a.v.) ni Yasribga taklif qildilar.

Demak Payg‘ambar (s.a.v.)ning Makkada o‘z diniy faoliyatini olib bora olmaganligiga asosiy sabab, quraysh zodagonlari Makkada o‘z gegemonliklarini saqlab qolish uchun kurash olib borganliklari asosida bo‘ldi. Buning zamirida asosiy e’tibor

Makkada keng yoyilgan vassaniylik (ko‘p xudolilik) g‘oyasini saqlab qolishga emas, balki asosiy e’tibor qurayshning Arabiston yarimorolida o‘z gegemonligini saqlab qolishga qaratildi. Makka zodagonlari Muhammad (s.a.v.)ni diniy rahnamo emas, siyosiy raqib sifatida qabul qildilar. Xulosa qilib aytganda, Makka shahar davlati uchun ikkinchi rahbarning paydo bo‘lishi qurayshiylar uchun siyosiy tanazul muqarrar bo‘lishini angladilar. Shunday holatda Payg‘ambar (s.a.v.) o‘zi tug‘ilib o‘sgan joyi Makkadan boshqa shaharga chiqib ketishni ma’qul ko‘rdi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Arabiston yarimorolidagi qadimgi davlatlardan qaysilarini bilasiz?*
2. *Makka shahrining geografik joylashuvi va tabiatи haqida nimalar bilasiz?*
3. *“Hilf al-fudul”ning ma’nosi nima?*
4. *Payg‘ambar (s.a.v.)ning Toifga hijrati qanday natija bilan tugadi?*
5. *Aqoba bay’ati ma’nosi nima?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Makkada Muhammad (s.a.v.)ga tazyiqning kuchayish sabablari.*
2. *Musulmonlarning Habashistonga hijrati.*
3. *Madinalik musulmonlar bilan tuzilgan sulhlar (Aqoba bay’ati).*
4. *Fujjor urushi.*
5. *Ahloflar va hilf al-Mutoyyibin sulhlari.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Бартольд В.В. О Мухаммеде // Сочинения. – Том VI. – М.: Наука, 1966. – Б. 630-650.
2. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
3. Ибн Хишом ал-Маъфирий, Абдумалик. Ас-Сийра ан-набавийя. Биринчи жилд. 1-2 китоблар. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: “Sharq”, 2011.
4. Мюллэр А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллэр. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство АСТ», 2004.
5. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Мұхаммадий: 2 жилди. – Тошкент, 1991
6. Уотт М.У. Мұхаммад в Мекке. – СПб.: Диля, 2006.
7. Усмонов М. Қуръони карим ва жаноби Расулуллоҳнинг амаллари. – Т.: Нур, 1992.
8. Ҳузарий Мұхаммад. Нур-ул яқин / М. Солиҳнинг араб тилидан ўғирган матн асосида Э. Усмон ўзбекчалаштирган. – Т.: Чўлпон-Камалак, 1992.
9. Ҳасанов А. Қадимги Арабистон ва илк ислом: I китоб. Жоҳилия асри. – Т.: Тошкент ислом университети, 2001.

3-BOB. MADINAGA HIJRAT

Tayanch iboralar: *Aqaba, hijrat, ashob, muhojir, ansor, as-sahifa, bay'at, al-Madina, Yasrib, polis, Aus, Xazraj, Qaynuqo', Nazir, Qurayza.*

3.1. MADINA SHAHAR-DAVLATI

Makkadan taxminan 350-400 km. shimolda Madina shahri joylashgan. Ptolemey o‘zining “*Geografiya*”sida bu shaharni “*Yatrippa*”, Vizantiyalik Stefan esa “*Yatrippa polis*” (shahar-davlat) deb atagan. Madina shahri “*Yasrib*” nomi bilan Qur’onda ham zikr kilinadi. Qur’onda uchraydigan shaharning yangi “*al-Madina*” nomi hijratdan so‘ng paydo bo‘ldi.

Yasrib tarixi ham shu hijratdan taxminan bir asr oldin, ya’ni VI asr boshlarida ishonchli tus oldi, deyish mumkin. Bu paytda Yasrib bir necha qishloqlarga bo‘linganligi haqida ma’lumotlar bor. Har bir qishloq o‘z navbatida yana ikki qismga bo‘linib, birinchisi u yoki bu urug‘ga qarashli yerlar va uylarni o‘z ichiga olgan bo‘lsa, ikkinchisi utm (ko‘pligi otom) deb atalgan, devor va darvozalari bor qo‘rg‘ondan iborat edi. Katta urug‘lar bir necha utmgaga ega bo‘lishlari mumkin edi. Tashqi hujum xavfi tug‘ilganda yoki urug‘ erkaklari urushga ketganlarida ayollar, yosh bolalar va qariyalar utmgaga berkinardilar. Bundan tashqari urug‘ning g‘allasi, qurol-yarog‘ va qimmatbaho buyumlari ham utmlarda saqlanardi. O‘z utmiga ega bo‘limgan, ochiq mahallada yashaydigan mayda urug‘lar ham yo‘q emasdi. Ammo bunday urug‘lar ham albatta boshqa yirik urug‘ning homiyligida bo‘lmog‘i zarur edi.

Yasrib aholisi asosan yahudiylar va arablardan iborat edi. Yahudiylar katta-katta guruh bo‘lib yashardilar. Har biri ikki mingdan ortiq odamga ega bo‘lgan uchta yahudiy qabilasi ma’lum: *banu Qaynuqo*, *banu Nadiyr*, *banu Qurayza*. Arab adabiyotida bundan tashqari 20 dan ortiq mayda va nisbatan yirik yahudiy urug‘lari nomi keltiriladi. Bu fikrga Payg‘ambar (s.a.v.) ning “*as-sahifa*” shartnomasida keltirilgan yahudiy urug‘larining nomlari dalil bo‘la oladi.

Yasribning islomdan oldingi arab aholisiga kelsak, ular asosan 2 ta qabilani tashkil qilardi: *banu Aus* va *banu Xazraj*. Aus va Xazraj qabilalari o‘z navbatida 5 tadan yirik va bir qancha mayda urug‘larga bo‘linib, ularning umumiy soni 40 dan ortib ketgandi. Bundan tashqari Yasrib atroflarida Aus va Xazraj bilan xomiylilik asosida bog‘liq bo‘lgan bir qancha mayda arab urug‘lari yashagan.

Ko‘p sabablarga ko‘ra va ularning ichida eng muhimi – aholisi yakkayu-yagona etnik unsuridan tarkib topgani tufayli Makkaning idorasi islomdan oldingi 2 asr davomida barqaror shaklda bo‘lgan bo‘lsa, Yasribda, aksincha, bu amri-mahol narsa edi. Bir qabila qo‘lida hosildor yerlarning to‘planib qolishi, qolaversa, etnik-diniy qarama-qarshiliklar doimo nizo chiqishini taqozo qilardi.

Modomiki, Yasribda yahudiy va arab qabilalari tarixan oldinma-keyin paydo bo‘lgan ekan, ularning o‘zaro munosabatlari ham har xil bosqichlarda o‘tadi. Bular, birinchidan, yahudlarning o‘zaro munosabatlari, ikkinchidan, yahudlar va arablar munosabati va nihoyat, uchinchidan, ikki arab qabilasi – Aus va Xazraj o‘rtasidagi munosabatlar.

Yasribdagi yahudiy va arab qabilalarining o‘zaro munosabatida tarqoqlik haqida professor A.Hasanov quyidagicha fikr bildiradi: “Dastlabki davrlarda yahudiy qabilalari mahalliy aholiga qarshi bir-birini qo‘llab-quvvatlaganlar, ammo o‘rnashib olgandan so‘ng ular orasida raqobat boshlanganga o‘xshaydi. Nadir va Qurayza qabilalari keng miqyosda dehqonchilik bilan shug‘ullangan holda Qaynuqo qabilasining na yeri va ekini bo‘limgani va faqat hunarmandchilik bilan shug‘ullangani bejiz bo‘lmasa kerak. Ko‘rinib turibdiki, hijra arafasida yahudiy qabilalari o‘rtasida inoqlik yo‘q edi”. Shuningdek, yahudiy qabilalari o‘ratasidagi beqarorlik borasida Qur’on oyatlari dalil qilib keltiriladi.

Aus va Xazraj qabilalarining Yasribga ko‘chib kelgan davrida bu yerda ulardan oldin o‘rnashib qolgan yahudiy qabilalari bilan munosabatlari tinch, do‘stona bo‘ldi. Yasribning yahudiy va arab qabilalari dastlab “*jivor*” (qo‘shnichilik), so‘ng “*hilf*” (ittifoq) asosida keldilar. Keyinchalik ikkala tomon ham ko‘plab utm

qurishga kirishganligi ular orasida bir-biriga ishonch yo‘qolgani va munosabatlar keskinlashganidan dalolat beradi.

Xazraj qabilasining ba’zi urug‘lari Shomga ko‘chib ketgan va G‘assoniylar yerida yashardilar. V asr oxirlarida ana shu urug‘larning madadi bilan Aus va Xazraj qabilalari Yasribda ustunlikka erishdilar. Yasrib arablari va yahudiyлari o‘rtasidagi nizolar diniy yoki siyosiy tusga ega bo‘lmagan. Bu kurash mahalliy xarakterga ega bo‘lib, asosan, yer va suvgaga ega bo‘lish uchun olib borilgandi. VI asr boshlarida Yasrib arablari ham o‘zaro kelisholmay qoldilar. Deyarli 120 yil davom etgan bu nizoda ba’zi yahudiy qabilalari Aus tarafida turgan bo‘lsalar, boshqalari Xazraj tarafini oldilar.

Ko‘rinib turibdiki, Yasrib shahri ziddiyatlar va ixtiloqlar bilan to‘la edi. “*Buos*” kuni har ikkala tomon juda katta zarar ko‘rdi: aholining yuqori tabaqalaridan ko‘plab kishi qatl etildi; yong‘in va talon-taroj natijasida uylar va xususiy mulklar vayron bo‘ldi. Betaraf mavqeda bo‘lgan kichik urug‘lar nizolardan manfaatdor emasdi. Umuman, “*Buos*” kunidan so‘ng ko‘pchilik yasribliklar tinchlikka, ittifoqqa mayl bildira boshladilar. Xazraj qabilasidan bir nufuzli kishini shaharning umumiy hokimi sifatida tan olish masalasida hamma qabila va urug‘ vakillari orasida muzokara ham ketardi. Shunday vaziyatda Yasribga Muhammad (s.a.v.) boshchiligidagi musulmonlarning hijrasi (622 yil) yuz berdi.

3.2. MADINAGA HIJRAT

Payg‘ambar (s.a.v.) targ‘iboti 620 yilning iyul oyida Yasrib shahridan Makkaga ziyyarat uchun kelganlarga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Hajdan qaytib borganlar orqali Yasrib aholisi o‘rtasida bu targ‘ibot haqida ijobjiy fikr yoyila boshladidi. Buning sababi shundaki, Makkadan 350 kilometr shimolda joylashgan Yasrib vohasida yashaydigan Aus va Hazraj nomli arab qabilalari o‘rtasida doimo ziddiyatlar mavjud edi. Bundan tashqari, bu ikki qabila bilan o‘sha vohada qo‘shni bo‘lib yashaydigan uchta yahudiy qabilasi Banu Qaynuqo, Banu Nazir, Banu Qurayza o‘rtasida ham tez-tez to‘qnashuvlar bo‘lib turar edi. Qabilalar orasidagi ixtiloqlarniadolat yo‘li bilan hal etish uchun o‘rtada turadigan bir tadbirkor shaxsga ehtiyoj sezilar edi.

621 va 622-yillardagi haj mavsumlarida Yasrib vakillari Muhammad (s.a.v.) bilan Makka yaqinidagi Aqaba deb nomlangan joyda ikki bor uchrashadilar. Bu uchrashuvlarda ma'lum darajada kelishuv yuz bergen va bu tarixiy manbalarda I va II Aqaba ahdnomalari, deb nom olgan. Lekin bu ahdnomalar yozma emas, faqat og'zaki, o'zaro qasamyod qilish bilan mustahkamlangan edi.

Aqaba uchrashuvida (621 yil iyul oyining ikkinchi yarmida) yasribliklardan etmis kishi bilan ahd qilinib, ular Payg'ambar (s.a.v.)ni Yasribga rahbar sifatida taklif qiladilar. Payg'ambar (s.a.v.) bu taklifni qabul qilib, Yasribga ko'chib borish va u yerda adolat o'rnatishga va'da beradilar va o'z izdoshlaridan o'n ikki kishini Yasrib ahliga islom ta'limotini tushuntirish uchun ular bilan birga jo'natadilar. Natijada Yasribda Payg'ambar (s.a.v.) tarafdarlari ko'payib boradi.

Aqaba uchrashuvi 622 yilning 14 iyulida yuz beradi. Uchrashuvda Muhammad (s.a.v.) Yasribga ko'chib borsa, qabilalar vakillari uni yagona rahbar va Payg'ambar sifatida e'tirof etishga va'da beradilar. Muhammad (s.a.v.) esa bunga javoban ular bilan o'z taqdirini tamomila bog'laganligini aytadilar. Yasribliklar rahbari Payg'ambar (s.a.v.)ga shunday savol bergen: "Ey, Allohnинг elchisi! Biz bilan u yerdagи qabilalar orasida ma'lum munosabatlarimiz bor, biz endi o'sha aloqalar ni uzamiz. Lekin, Alloh senga o'z qabilangga qaytishga farmon bersa, unda sen bizni o'z holimizga tashlab ketmaysanmi?" Bu savolga Payg'ambar (s.a.v.) quyidagicha javob beradi: "Yo'q, endi uzilish ham, ajralish ham uzil-kesildir. Sizlar – men bilan, men – sizlar bilan. Sizlar kim bilan jang qilsangiz, men ham ular bilan urushaman, sizlar kim bilan yarashsangiz, men ham yarashaman".

Yasribliklar jo'nab ketgach, Muhammad (s.a.v.) ham ko'chish taraddudini ko'ra boshlaydilar. Taxminan ikki oy mobaynida u o'z tarafdarlarini birin-ketin Yasribga jo'natadilar. Makka zodagonlari musulmonlarning jo'nab ketayotganini sezib qolishgach, Muhammad (s.a.v.)ning ortidan kuzata boshlaydilar. Rivoyatlarga ko'ra, Abu Lahab boshchiligidagi bir guruh dushmanlar Payg'ambar (s.a.v.)ni qatl etishni rejalashtiradi va uning iziga tushadi.

Bu paytga kelib Muhammad (s.a.v.) tamoman yashirinib yashashga majbur bo‘ladilar. Avvaliga Abu Bakrning uyiga boradilar, so‘ng u yerdan ikkalalari kechasi yo‘lga chiqib, g‘orga yashirinadilar. Xavf-xatarning kuchayganini sezib Abu Bakr oldindan uzoqroq yaylovdagi necha tuyani saqlab qo‘ygan, o‘z xizmatkori orqali Yasribga ketishda yo‘l ko‘rsatadigan badaviyni ham topib qo‘ygan edi. Qidirish bir oz tinchigandan keyin, 622-yil 8-sentyabr kechasi to‘rttalalari tuyaga minib yo‘lga chiqadilar.

Orqadan izlariiga tushish xavfining oldini olib, ular avval janubga – Yaman yo‘liga qarab jo‘naydilar. Makkadan ancha uzoqlashgach, aylanma yo‘l tutib, dengiz sohiliga tushadilar va orqaga qaytib shimal tomonga yuradilar va al-Usfonga yaqinlashgandagina karvon yo‘liga chiqadilar. Shu sababli karvonlar odatda 8-10 kunda bosadigan yo‘lni 16 kunda bosib, 24-sentyabr kuni Yasribning janubiy chegarasidagi Qubo manzilgohiga etib boradilar. Bu yerda Muhammad (s.a.v.)ni bir necha kundan buyon kutib o‘tirgan makkalik musulmonlar va Yasribning obro‘li kishilari qarshi oladilar.

Bu ko‘chish islom tarixida hijrat (Madinaga hijrat) deb nom oladi. Oradan 16 yil o‘tgach (Muhammad (s.a.v.) vafotidan 6 yil keyin) xalifa Umar ibn al-Xattob 638-yildan boshlab, qamariya hisobiga (354 kunlik yil) asoslanadigan hijriy yil hisobini amaliyotga kiritadi. Bu kalendar bo‘yicha 622-yil 16-iyulidan hijriyning 1 yili boshlanadi.

Makkadan ko‘chib borganlar islom tarixida “*muhojirlar*” (ko‘chib kelganlar), yasriblik musulmonlar “*ansorlar*” (yordamchilar) deb nom oladi. Ulardan Muhammad (s.a.v.)ga eng yaqin turgan va maslahatchi bo‘lgan bir guruhi “*sahobalar*” (arabcha ko‘pligi “as’hab” – safdoshlar) deb ataladilar. Yasrib ilgari ham ba‘zan Madina (shahar) deb atalar edi. Endi uning Yasrib nomi tarixiy bo‘lib qoladi, *Madina an-Nabi*y (payg‘ambar shahri) nomining qisqargan shakli sifatida Madina deb nom oladi. Arab-musulmon adabiyotida Makka va Madina shaharlari islomning muqaddas markazlari sifatida “*Makka al-mukarrama*” va “*al-Madina al-munawvara*” deb ataladigan bo‘ldi.

Hunarmandchilik jihatidan Yasrib Makkadan ustun edi. Agar shahardagi ichki ahvol barqarorroq bo‘lganda, Yasrib umuman

Hijozda hukmronlikka erishishi mumkin edi. Shahar ahli buni tushunib yetgan, ko‘rinadi. Ichki nizolarni bartaraf qilishga qodir shaxs, ya’ni “*hakam*” Yasrib aholisi ichidan chiqmagach, ular tashqaridan bunday shaxsning kelishiga va shahar-davlat taqdirini o‘z qo‘liga olishiga rozi bo‘ldilar.

3.3. MADINADA TUZILGAN “AS-SAHIFA” (MADINA KONSTITUTSIYASI)

Muhammad (s.a.v.) Madinaga etib kelgach, muhojirlar uchun muxolifatda bo‘lishi mumkin bo‘lgan guruhlar bilan shartnomaga tuzishi, musulmon jamoasi (*umma*)ning xavfsizligini ta’minalash bilan birga qabila va urug‘ boshliqlaridan siyosiy va harbiy hokimiyatni o‘z qo‘liga olish ko‘zda tutildi. Hijratdan so‘ng Madinada muhojirlar, ansorlar, arab (*al-Avs* va *al-Xazraj*) qabilalari, yahudiy (*Banu Qayniqo*, *Banu Qurayza*, *Banu Nadir*) qabilalaridan iborat to‘rt jamoa mavjud bo‘lgan.

Manbalarda ahdnama (*as-sahifa*)¹⁵ matni saqlanib qolgan bo‘lib, uning asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat: Mazkur to‘rt guruh bir jamoadan iborat, ular bir kuch sifatida jangga kiradi, asir tushganchilarni tovon to‘lab, qaytarib olish bilan bog‘liq xarajatlarni ham o‘rtada qiladi. Ular o‘z oralarida hech kimni qarovsiz qoldirmaydilar, mu‘minlar bir-birlariga qaram bo‘lgan xizmatchilar bilan uning egasi roziligesiz ahdnama tuzmaydi. Mu‘minlar bir bo‘lib, har bir qonunbuzar va jinoyatchiga qarshi chiqadi, hatto jinoyat qilgan odam ulardan birining qarindoshi bo‘lsa ham, uning tarafini olmaydi. Barcha mu‘minlarning himoyachisi Allohdir, mu‘minlar esa bir-birlariga himoyachidir. Hamma mu‘minlar jang to‘xtagach, dushman bilan tinchlik sulhini birga tuzadi. Birgalikda yurishga chiqqan qurolli guruhlar navbatma-navbat jangga kiradilar. Mu‘minlar o‘ldirilgan shaxs uchun bir-birlaridan tovon yoki qasos olish huquqiga egadirlar. Lekin qasos uchun qon to‘kmasdan, uning o‘rniga tovon olish ma‘qulroqdir. Hamma guruhlar islom dushmanlari bo‘lgan qurayshiylargacha qarshi kurashadi, hech kim ularning na molini va na jonini himoya qilmasligi kerak. Bu ahdnomani buzgan shaxs

¹⁵ 2- ilovaga qarang

Allohnning qahriga uchraydi, uning tavbasi qabul qilinmaydi. Ahdnomada tilga olingan masalalar bo'yicha ihtilof paydo bo'lsa, ular buni hal qilish uchun Allohga va Muhammad (s.a.v.) ga murojaat qilishlari kerak.

Keyinroq, hijratning birinchi yili musulmon jamoasining ko'pgina arab qabilalari tarkibiga kiruvchi yoki ular bilan ittifoqda bo'lgan yahudiylar o'rtasida o'zaro munosabatlarni muvofiqlashtiruvchi shartnoma ham imzolandi. Bitim matni avvalgisiga mansubdir. "Yahudiylar musulmonlar urishayotganda xarajatni barovar qoplaydi; *Banu Avf* yahudiylari – ularning mavlolari va o'z dindorlari bilan bir jamoadir, (lekin) yahudiylar dini boshqa, musulmonlar dini boshqadir; agar kimdir adolatsizlik yoki jinoyat sodir qilsa, uning o'zi va oilasi aybdor sanaladi". Keyingi o'rnlarda shu iboralar bilan *Banu Avf* yahudiylarining ayni shu huquqlarga ishora qilingan holda *Banu an-Najjor*, *al-Karis*, *Sa'ida*, *Jusham*, *al-Avs* va *Sa'laba* yahudiy qabilalari sanab o'tiladi. Ular musulmonlarga dushmanlariga qarshi jangda yordam berishga kelishganlar. Biroq, Payg'ambar (s.a.v.)ning ruxsatisiz jangga kirish huquqiga ega bo'limganlar. Taxmin qilish mumkinki, shunday shartlar yahudiy qabilalari *Banu Qaynuqo*, *Banu Nadir* va *Banu Qurayza* bilan tuzilgan shartnomalarda qayd etilgan. Lekin ular bizgacha etib kelmagan, chunki Muhammad (s.a.v.) mazkur qabilalarni Madinadan chiqarib yuborgandan keyin ular bilan tuzilgan shartnomalarni bekor qilgan.

Ta'kidlash lozimki, shartnoma imzolanayotgan vaqtida Payg'ambar (s.a.v.) musulmon va yahudiylarni garchi har hil dinga e'tiqod qilsa ham bir jamoaga mansub dindorlar (*al-mu'minun*) deb hisoblagan. Chunki, Muhammad (s.a.v.) ularni Muso payg'ambarga berilgan ahdga e'tiqod qilishlariga ishonar edi. Shartnoma mazkur qoida asliyligini isbotlaydi, chunki keyingi sektalashuvchilarni hech birining xayoliga yahudiylar va musulmonlarni bir jamoaga kiritish to'g'risida fikr kelmagan bo'lar edi.

Muhammad (s.a.v.) tomonidan tuzilgan mazkur shartnoma (*al-hilf*) Madinadagi turli dinlarga e'tiqod qiluvchi qabilalarni

siyosiy jihatdan birlashtirishga xizmat qildi. Shuningdek, islom dinini qabul qilgan qabila va urug‘larning millati va irqidan qat’iy nazar bir jamoa (*umma*)ga birlashishi Payg‘ambar (s.a.v.) oldida katta imkoniyatlar ochdi. Mazkur jamoa a’zolari o‘rtasidagi diniy birodarlik esidan mavjud bo‘lgan qondoshlik aloqalaridan ustun bo‘ldi. Bu o‘zaro hamkorlik va kafolat prinstiplarini o‘rnatdi. Jamoa diniy-siyosiy xarakterga ega bo‘lib, har bir shaxsning jamoa oldida o‘z huquq va burchlari mavjud edi. Yahudiylar jamoasi umumiy manfaatlarda musulmonlar bilan teng bo‘lib, huquqlar kafotlangan edi.

Bu shartnomalar puxta o‘ylangan, siyosiy arbob tomonidan yaratilgan hujjatdir. U yangi jamoaning tuzilishiga ehtiyyotkorlik bilan bilan yondoshdi: alohida qabilalarning avvalgi aloqa va majburiyatlari saqlab qolindi, mahalliy yo‘lboshchilarining obro‘sni kamsitilmadi. Qabilalarda yuzaga kelgan kelishmovchiliklarni faqat Muhammad (s.a.v.) hal qilish huquqiga ega edi. Shu bilan birga siyosiy birdamlikning tamomila yangi asoslari vujudga keldi: tashqi dushmanga birdamlik bilan kurashish va jamoaning barcha a’zolarini himoya qilish; jinoyatchining faqat o‘zi javobgarligi; bu uni qabila himoyasidan mahrum qilib, vohadagi vaziyatni uzoq vaqt keskinlashtirib kelgan qabilalar o‘rtasidagi urushlarga chek qo‘yar edi.

Payg‘ambar (s.a.v.)ning Madina aholisi bilan tuzgan shartnomasi “*Madina konstitutsiyasi*¹⁶” – vazifasini o‘tay boshladi.

VII asr boshidagi ijtimoiy taraqqiyot darajasiga ko‘ra, mazkur ahndoma o‘z davri uchun g‘oyat muhim tarixiy hujjat ekanligini e’tirof etish mumkin. Ushbu shartnoma muhojirlar bilan Madinadagi mavjud qabilalar orasini birlashtirish, turli nizolarni qonuniy va tinch yo‘l bilan hal qilishda muhim rol o‘ynadi. Mazkur hujjat Yasribda musulmonlar mavqeini mustahkamlash va ularning safini kengaytirishda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Payg‘ambar (s.a.v.) barcha musulmonlar tomonidan yagona

¹⁶ Tadqiqotchi Muhammad Hamidulloh bu shartnomani «Insoniyat tarixidagi birinchi konstitutsiya», – deb atagan.

diniy, siyosiy va harbiy yo‘lboshchi sifatida e’tirof etilgach, u turli qabilalarni yagona jamoa doirasida birlashtirdi.

Muhammad ibn Abdulloh tarqoq holdagi, aniq bir qonunni tan olmaydigan badaviy hayot tarzini boshidan kechirayotgan qabilalarni umumiy bir Madina davlatiga birlashtirish borasida katta faoliyat ko‘rsatdi. Tabiiyki, u markazlashgan davlatning islomiy hukmlarga asoslangan o‘ziga xos qonunchiligini ham ishlab chiqdi va amaliyotga kiritdi. Islom dini olg‘a surgan hamma uchun bab-baravar prinstiplar, millatlarning etnik kelib chiqishiga qaramay, din oldida hammaning teng huquqliligi payg‘ambar (s.a.v.) oldida katta imkoniyatlar tug‘dirdi. Natijada islom bayrog‘i ostida bir necha arab qabilalari birlashdilar. Muhammad (s.a.v.) markazlashgan Makka-Madina davlatiga asos solishida Madinaga hijrat qilinishi davlatchilik rivojida tub burilish yasadi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Madina shahrining hijratdan oldingi nomi nima edi?*
2. *Hijratdan oldin Madinada qaysi qabilalar joylashgan edi?*
3. *Muhammad (s.a.v.)ning Madinaga hijrati qachon bo‘ldi?*
4. *“as-Sahifa”ning ma’nosи nima?*
5. *“as-Sahifa”da bayon etilgan bandlar haqida nimalar bilasiz?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Madinaga hijrat qilinishining siyosiy-ijtimoyi va iqtisodiy omillari.*
2. *“as-Sahifa”ning tuzilish sabablari.*
3. *Madina yahudiylarining shahardan chiqarib yuborilishi.*
4. *Madinada “umma” jamoasining shakllanishi.*
5. *Madinada shakllangan “Ahl as-suffa” jamoasi.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
2. Ибн Хишом ал-Маъфирий, Абдумалик. Ас-Сийра ан-набавийя. Биринчи ва иккинчи жиллар. 1-4 китоблар. (Пайгамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: “Sharq”, 2011.
3. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство АСТ», 2004.
4. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Мұхаммадий: 2 жылдли. – Тошкент, 1991
5. Уотт М.У. Мұхаммад в Медине. – СПб.: Диля, 2007.
6. Усмонов М. Куръони карим ва жаноби Расулуллоҳнинг амаллари. – Т.: Нур, 1992.
7. Хузарий Мұхаммад. Нур-ул яқин / М. Солиҳнинг араб тилидан ўғирган матн асосида Э. Усмон ўзбекчалаштирган. – Т.: Чўлпон-Камалак, 1992.
8. фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258) / Пер. с англ. И.М.Дижура. – М.: ГРВЛ, 1988.
- Muhammad. Encyclopedia of Seerah. The Muslim Schools Trust. London. 1981.

4-BOB. ISLOM TARIXIDAGI ILK JANGLAR

Tayanch iboralar: *Badr, Uhud, Handaq, o'lja, xums, g'anima, asir, banu Nazir, banu Qurayza, banu Qaynuqo, Abu Jahl*

4.1. BADR JANGI

Bu jang Muhammad (s.a.v.) rahbarligida musulmonlarning Badr qudug'i yaqinida (Madinadan 150 km janubiy-g'arbda) Makka ko'shinlari bilan qilingan (624 y. 15 yoki 17 mart) bиринчи yirik jang hisobolanadi. Makkadan Falastin va Suriya yerlariga olib boradigan yirik karvon yo'li Madina yaqinidan o'tar edi. Bu yo'l Makka hokimlari va savdogarlari uchun katta iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan. Musulmonlar bu yo'ldagi Makka karvonlarini bosib olishga, Makka zodagonlari esa karvonlarni himoya qilishga uringan. Badr qudug'i yonida madinaliklar makkaliklarning savdo karvoniga xujum qilganlar. Manbalarda ko'rsatilishicha, jangda musulmonlar tomonidan 80 muhojir, 230 ansor, makkaliklar tomonidan Abu Jahl rahbarligida 850 kishi qatnashgan. Makkaliklar engilgan, katta talafot ko'rgan. Makkaliklarning 50 dan ortig'i halok bo'ldi, yana shunchasi asir olindi. Ular o'z yo'lboshchisi Abu Jahldan ham judo bo'lishdi. Musulmonlardan faqat 14 kishi halok bo'ldi. Kuchlar nisbati kam bo'lishiga qaramay musulmonlar qozongan g'alaba Muhammad (s.a.v.)ning siyosiy va diniy obro'larini oshirib yubordi, Madina va butun Arabiston yarimorolida faol harakat boshlab yuborishga asos soldi. Jangda katta o'lja, jumladan 30 ot, 150 tuya, ko'p qurol, anjomlar qo'lga kiritildi. Muxammad (s.a.v.) bu o'ljalarni jang ishtirokchilariga taqsimlab, uning beshdan bir qismini o'zları olganlar. Islom an'anasida o'lja taqsimlashda uning beshdan bir qismi davlat xazinasiga tushishi, piyoda askarga bir hissa, otliq askarga ikki hissa berilishi ana shundan boshlangan. Keyinchalik bu shariatda qonunlashtirilgan. Badr jangida mushriklar ustidan qozonilgan g'alabaning barcha xalqlar uchun ahamiyati haqida H. Karomatov quyidagi xulosaga kelgan: «Musulmonlar Badr

jangida g‘alaba qozonadi. Abu Jahl o‘ldiriladi. Musulmonlar safi kundan-kunga ortib boradi. Badr jangining ahamiyati nafaqat arablar, balki kelajakda butun dunyo tarixiga ham o‘z ta’sirini o‘tkazadi». Bu fikrni G‘arb tadqiqotchisi V. Irving ham ma’qullab: «Badr jangi o‘ta muhim ahamiyat kasb etdi. Chunki, undan so‘ng qator g‘alabalar boshlandiki, ular jahon taqdirini o‘zgartirdi. Bu jangda ilk marotaba musulmonlar o‘z dushmanlari ustidan g‘alaba qozondilar. Badr jangidan keyin Qiblaning xristianlik va yahudiylilik vatani Quddus (Iyerusalim)dan Ka’baga ko‘chirilishi, musulmonlarni Makkani butunlay fath etishga undadi.

4.2. UHUD JANGI

(Uhud – Madina shahri yaqinidagi tepalik nomi) – 625-yil 23-martda Uhud tepaligida musulmonlarning makkaliklar bilan bo‘lgan jangi. Badr jangida makkalik mushriklar mag‘lubiyatga uchragach, musulmonlardan o‘ch olmoqchi bo‘lishgan. Makkaliklar 3000 ga yaqin jangchidan iborat bo‘lib, jumladan 200 ta otlik askar, 800 tasovut kiygan jangchi, Muhammad (s.a.v.)ning esa 700 ta piyoda askarlari bo‘lib, shulardan 100 tasida sovut bo‘lgan. Makkaliklar jang maydonida yaxshi mavqeni egallagan edi. Payg‘ambar (s.a.v.) ham askarlarini kerakli joyga joylashtirib tepalik tomonini qo‘riqlash uchun 50 ta kamonchini qo‘yib, ularga bu yerdan hech yerga siljimaslikni tayinlaganlar. Jang dastlabki paytda musulmonlar foydasiga hal bo‘la boshladi. Ular ayni dushmanni ta’qib etadigan paytda g‘animat (o‘lja) to‘plashga tushdilar. Kamonchilar ham o‘ljasiz qolib ketmaslik niyatida, o‘z turgan joylarini tashlab ketdilar. Bundan foydalangan makkaliklarning Xolid ibn Valid boshchiligidagi otliq qo‘smini musulmonlar qo‘smini orqa tomoniga o‘tib hujum qildi. Bu jangda musulmonlar ko‘p talafot ko‘rdilar. Muhammad (s.a.v.) qurshovda qolib, yaralanganlar, 70 dan ortiq kishi halok bo‘lgan. Makkaliklar esa, 19 kishisini boy berdi. Musulmonlar bu jangda raqib ustidan g‘alaba qozonamiz deb o‘ylashgan edi. Musulmonlar muvaffaqiyatsizlikka uchraganligining sababi Qur‘on oyatlarida bayon etilgan (3:145/152 - 169/175).

4.3. XANDAQ JANGI

Muhammad (s.a.v.) rahbarligidagi musulmonlarning makkalik mushriklar o‘rtasidagi jang 627-yilda makkalik zodagonlar rahbari Abu Sufyon 10 mingga yaqin askar bilan kelib Madina shahrini qamal qiladi. Payg‘ambar (s.a.v.) tarafdorlari Madina atrofiga Salmon al-Forsiy tavsiyasi bilan xandaq qazib shaharni himoya qiladi. 3 haftalik qamaldan keyin Abu Sufyon qo‘sishinlari Madinani ololmay orqaga qaytadi, musulmonlar g‘olib chiqadi. Bu islom tarixida “Xandaq jangi” deb nom olgan.

Xandaq jangi (627 y.)da Abu Sufyon boshliq Makkaliklarning orqaga chekinishga majbur bo‘lishi va musulmonlarning jangsiz g‘alabasi, Madina jamoasining Arabiston yarimorolidagi mavqeini yanada kuchaytirdi. Shundan so‘ng Muhammad (s.a.v.) Madina atrofidagi badaviy qabilalarini Madina jamoasi hukmronligiga bo‘ysundirish uchun harbiy harakatlar boshladi. Shuningdek Madina jamoasining ichki hayoti, davlat boshqaruvi tizimi jiddiy mustahkamlandi. Madina jamoasi ichidagi tartib va qonunchilikni boshqarish, axloqiy-huquqiy normalarni takomillashtirish davom etdi.

Shuni ta’kidlash lozimki, Makka-Madina raqobati davrida Muhammad (s.a.v.) hech qachon hujumkor (agressiv) mavqeni egallamagan. Bu Badr, Uhud, Xandaq janglari hamda Makkaning olinishida yaqqol namoyon bo‘ldi. To‘g‘ri, 624 yili islomda ilk bor jihodga, ya’ni «*Zulmga uchraganlari uchun (unga qarshi) kurashayotganlar»ga, muayyan hollarda dushmanga qarshi kurash olib borishga ruxsat berildi. Ayni vaqtida musulmon jamoasi «*Sizlarga qarshi urushayotganlar bilan Alloh yo‘lida jang qilingiz, (ammo) o‘zingiz (hech qachon birinchi bo‘lib) tajovvuz qilmangiz. Alloh tajovuzkorlarni yoqtirmaydi*»,— deb ogohlantirildi.*

Madinada yangi tashkil topayotgan musulmon jamoasi – ummaning siyosiy mavqeini orta boshlashi boshqa din vakillarining noroziliga olib keldi. Bir paytning o‘zida

musulmonlar jamoasiga muxolif – munofiqlar (*al-munofiqun*) toifasi shakllana boshladi. Ular Xazraj qabilasi sayyidi Abdulloh ibn Salul boshchiligidagi Madinada musulmonlar jamoasining hukronligiga norozilik bildirib chiqdilar. Bu shaxslar harakati qoralanib, Qur’oni karimda maxsus oyatlar nozil bo‘ldi.

Madina ahdnomasi amalda ko‘p o‘tmay yahudiy qabilalar tomonidan buzila boshlandi. Badr jangidan keyin musulmonlar bilan o‘rtadagi shartnama buzilganligi, ya’ni ularga qarshi dushmanlik qilgan yahudiy *Banu Qaynuqo* qabilasi 624-yili Madinadan ko‘chirib yuborildi. *Banu Nadir* qabilasi boshliqlari Makka zodagonlaridan bo‘lmish Abu Sufyon bilan til biriktirgani hamda Madinadagi musulmonlardan bir guruhini o‘ldirmoqchi bo‘lganligi uchun 625 yilning sentyabr oyida Xaybar hududiga haydab yuborildi. Xandaq jangida musulmonlarga qarshi harakat qilgan uchinchi yahudiy qabilasi *Banu Qurayza* vakillariga 627-yili qarshi jang qilindi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Islom tarixidagi ilk Badr jang qaerda bo‘lib o‘tdi?*
2. *Uxud jangida qaysi taraf g‘olib bo‘ldi ?*
3. *Kimning maslahati bilan Madina atrofida xandaq qazildi?*
4. *Nima uchun Madina yahudiylari shahardan chiqarib yuborildi?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Badr jangining islom tarixida tutgan o‘rni.*
2. *Uxud jangi.*
3. *Xandaq jangi g‘alabasining Madina musulmonlar jamoasi uchun ahamiyati.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
2. Ибн Ҳишом ал-Маъофирий, Абдумалик. Ас-Сийра ан-набавийя. Биринчи ва иккинчи жиллар. 1-4 китоблар. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: “Sharq”, 2011.
3. Мюллэр А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллэр. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
4. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Муҳаммадий: 2 жилдли. – Тошкент, 1991
5. Уотт М.У. Мухаммад в Медине. – СПб.: Диля, 2007.
6. Усмонов М. Куръони карим ва жаноби Расулуллоҳнинг амаллари. – Т.: Нур, 1992.
7. Ҳузарий Муҳаммад. Нур-ул яқин / М. Солиҳнинг араб тилидан ўгирган матн асосида Э. Усмон ўзбекчалаштирган. – Т.: Чўлпон-Камалак, 1992.
8. фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258) / Пер. с англ. И.М.Дижура. – М.: ГРВЛ, 1988.
9. Muhammad. Encyclopedia of Seerah. The Muslim Schools Trust. London. 1981.

5-BOB. DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING KENGAYISHI

Tayanch iboralar: *Hudaybiya, Makka fathi, Muqavqis, Negus, Najoshiy, Irakliy, Xisrav Parvez.*

5.1. HUDAYBIYA SULHI

Handaq jangining g‘alabasidan ruhlangan, Ichki Arabiston hududida siyosiy, harbiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlagan Muhammad (s.a.v.) va Madina jamoasi Makkaga *umra* ibodatini (627-yil may – 628-yil aprel) bajarish uchun 1400 kishilik ziyoratchilar bilan yo‘lga tushadi. Makka zodagonlari ularni Makkaning g‘arbidan 14,5 km uzoqlikdagi *al-Hudaybiya* nomli pasttekislikda sulk tuzishga majbur etadilar. Mazkur shartnomada mustaqil Madina jamoasining ilk rasmiy hujjati edi.

Shartnomaning matni manbalarda saqlanib qolgan va uni asl matniga yaqin deb e’tirof etiladi. Uning shartlari bo‘yicha har ikki tomon o‘n yil mobaynida bir-biriga urush qilmaydilar. Karvonlarga hujum qilmaydilar. Har ikki tomon boshqa qabilalar va davlat rahbarlari bilan ittifoq tuzishlari mumkin. Bu yil musulmonlar Makkaga kirmay, Madinaga qaytib ketishlari, keyingi yilga hajga kelishlari mumkin. Qurayshiylardan biron kimsa musulmonlar tomoniga o‘tsa, u qaytarib beriladi, musulmonlardan birontasi Makkaga qaytsa u qaytarib berilmaydi.

Hалигача Muhammad (s.a.v.)ning hокимиятини тан олмаган Makka zodagonlarining uni teng tomon sifatida e’tirof etib, muzokara olib borishga qaror qilishining o‘zi Madina jamoasi va Payg‘ambar (s.a.v.) uchun g‘oyat katta siyosiy yutuq, g‘alaba edi.

Al-Hudaybiya shartnomasi musulmonlar uchun murakkab vaziyatda tuzildi. Musulmonlar orasida shartnomadagi bandlarga norozilik kuchli bo‘ldi. Ammo, Muhammad (s.a.v.)ni bu shartnomada mutlaqo qoniqtirdi. Chunki, Quraysh zodagonlari uni Allohning elchisi deb tan olmasalarda, Madinadagi mustaqil jamoa (*umma*) rahbari sifatida o‘zlariga teng taraf bilib, ilk bora e’tirof etishi va muzokara olib borishga qaror qilishining

o‘zi Madina jamoasi hamda Payg‘ambar (s.a.v.) uchun katta siyosiy g‘alaba edi. Buning boisi albatta, Musulmonlar jamoasi va Quraysh o‘rtasidagi tinchlik sulhi Madina musulmonlariga Arabiston yarimorolida erkin harakat qilishlariga imkoniyat yaratar edi. Bu voqeani musulmonlar uchun aniq g‘alaba ekanligiga Qur‘oni karim guvohlik beradi.

Bu ahdnomaning matni ilk manbalarda, jumladan, Ibn Ishoq, Ibn Hishom “Siyra”sida keltirilgan. Uning shartlari bo‘yicha har ikki tomon o‘n yil davomida bir-biri bilan urushmaydi, karvon va guruuhlariga o‘zaro hujum qilinmaydi, har ikki tomon xohlagan boshqa guruuhlar bilan o‘zaro ahplashaveradi. Bu yil musulmonlar Makkaga kirmay orqaga qaytadilar, lekin yangi yildan boshlab Muhammad (s.a.v.)ga o‘z odamlari bilan hajga kelishga yo‘l ochib beriladi, ular uch kun davomida haj qilguncha makkaliklar o‘zlarini chetga olib turadilar. Lekin musulmonlarda faqat yo‘l quroli (qilich) bo‘ladi, xolos.

Ahdnomaga Payg‘ambar (s.a.v.)dan tashqari guvohlar sifatida Abu Bakr, Umar ibn Hattob, Abd ar-Rahmon ibn Avf va boshqalar, makkaliklardan muzokaraga kelgan Suhayl ibn Amr va Mikraz ibn Hafs imzo chekadi, Ali ibn Tolib kotiblik qildi.

5.2. MUHAMMAD (S.A.V.)NING DIPLOMATIK SIYOSATI

Al-Hudaybiyadan keyin Ichki Arabistonda Madina qo‘sishinlarining qo‘shti qabilalarni zabit etish harakati kuchaydi. Muhammad (s.a.v.) asosiy kuchni shimolga – Suriya yerlariga qaratdi. Natijada Xaybar va Fadak hududlari Madina hukmronligiga bo‘ysundi. Payg‘ambar (s.a.v.) Madina hukumati rahbari sifatida qo‘shti mamlakat podshohlari bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishga kirishdi. U Vizantiya impyeratori Irakliyga (610-641), Eron shohanshohi Xisrav II Parvezga (590-628), Habashiston negusi Najoshiyga (vaf. 660 y.), Misr hokimi Muqavqisga (639-642), Bahrayn podshosi Munzir ibn Soviyoga, Yamomaning amiri Hamza ibn Aliga maktublar yozadi.

Manbalarda xatlarning mazmuni mazkur hududlar rahbarlari va aholisini islom dinini qabul qilishi shart qilib qo‘yilgani qayd

etiladi. Lekin, hali davlat bo‘lib shakllanmagan jamoa rahbari sifatida Muhammad (s.a.v.) o‘z davrining yirik imperiyalari rahbarlariga birinchi marotaba bunday mazmundagi maktublar yo‘llashi mantiqqa zid. Chunki Muhammad (s.a.v.)ning Rasullulloh ekanligi bilan birga usta siyosatchi va diplomat bo‘lganligini e’tirof etish shart. To‘g‘iri bunday mazmundagi maktublar yuqoridagi manzillarga yuborilgan ammo, aynan hudaybiya sulhidan keyinoq emas, balki Makka fathidan Payg‘ambar (s.a.v.)ning vafotiga qadar yuborilgan bo‘lishi kerak.

Tadqiqotchi Muhammad Hamidulloh Payg‘ambar (s.a.v.) va dastlabki to‘rt xalifa tomonidan yozilgan maktublar va hujjatlarning 269 tasini to‘plab, franstuzchaga tarjima qilib Parijda nashr etgan.

Payg‘ambar (s.a.v.)ning Hiraqlga yozgan maktubi vizantiyaliklar Eron askarlarini Falastindan surib chiqarib, Quddusni ozod qilgan, undagi eng yirik ibodatxona ustiga qaytadan salb o‘rnatayotgan vaqtida, ya’ni 629 yil kuzida borgan. Buni xuddi o‘scha vaqtida savdo ishlari bilan Quddusga kelgan Abu Sufyon tasdiqlagan. Abu Sufyon u vaqtida hali islomni qabul qilmagan va islomga ashaddiy dushman edi. Binobarin, u o‘z dushmani foydasiga xizmat qiladigan ma’lumotlarni atay o‘ylab chiqarishi mumkin emas edi.

Eron shohanshohi Xisrav II Parvezga jo‘natilgan maktub 627 -yilning oxiri yoki 628-yilning boshlariga taalluqli bo‘lishi kerak. Chunki 628-yilning yozida u o‘ldirilgan va o‘rniga o‘g‘li Kovad II taxtga chiqib, yarim yilcha hukmronlik qilgan. Bu maktubni ham hamma vaqt soxta deb kelingan. Lekin kutilmaganda 1963-yilda Livanning vafot etib ketgan tashqi ishlar vaziri Anri Faraonning shaxsiy kolleksiyasida ana shu maktubning asl nusxasi topildi. Arab olimlarining aniqlashlaricha, maktub juda qadimiy bo‘lib, eski pergamentga bitilgan.

Muhammad (s.a.v.)ning Misr hokimi Muqavqis (manbalarda uning yunoncha nomi Georgiy)ga yozgan maktubi hali tortishuv bo‘lib kelayotgan bo‘lsa-da, lekin uning Payg‘ambar (s.a.v.) huzuriga 628-yil may-iyun oylarida elchi va karvon jo‘natgani rad etib bo‘lmaydigan dalildir. Bu karvonda bir muncha sovg‘alar bilan birga Misr qibliylaridan bo‘lgan Mariya va

Sirena (arab manbalarida Mar'yam va Sirin) ismli opa-singil qul ayollarini Muhammad (s.a.v.)ga tortiq qilib jo'natgan. Mariyani Payg'ambar (s.a.v.) o'ziga xizmatkor joriya qilib olib qolgan, Sirenani yaqin do'sti shoir Hasson ibn Sobitga tortiq qilib bergen.

630-yilning mart-aprellarida Payg'ambar (s.a.v.) Mariyadan bir o'g'il farzandlik bo'lgan. Uning ismini Ibrohim deb qo'yilgan, lekin go'dak bir yarim yoshlarga etganda 631 yilning iyulida qo'qqisdan kasallanib vafot etgan. Oxirgi o'g'ilining vafot etganidan g'oyat qayg'urganligi va bu ham kasaliklarini og'irlashtirgani manbalaridan ma'lumdir.

Demak Muhammad (s.a.v.)ning diplomatik aloqalari va boshqa hukmronlar bilan yozishmalari tarixiy faktlardan iborat. Lekin ulardan qaysilarining matni bizgacha etib kelgan yoki kelmagan, qaysi biri asl nusxa, qaysinisi ko'chirma ekanini aniqlash ilmiy tadqiqotlarning vazifasi bo'lib, ularning qay tarzda hal etilishi va isbotlanishi Muhammad (s.a.v.) faoliyati va maktublarining umuman tarixiy rolini inkor etolmaydi.

Hudaybiyadan keyingi davrda Madina qo'shinlarining yurishlari ancha kuchayadi, Muhammad (s.a.v.) bu davrda shimol tomonga – Suriya erlariga ko'proq yurishlar qiladilar, chunki o'sha tomonlarga ko'chib ketgan yahudiy qabilalari boshqa badaviylarni ham Madinaga qarshi kurashga da'vat qilar edi. Shu sababdan boshlangan yurish natijasida shimoldagi Haybar va Fadaq vohalari qo'lga olinadi, tor-mor qilingan bir necha qabila yanada shimolroq erlarga chekinadi. Bu g'alaba ta'sirida ko'p qabilalar Madina bilan munosabatlarini yaxshilash yo'liga o'tadilar.

5.3. HUDAYBIYA SULHINING MAKKALIKLAR TOMONIDAN BUZILISHI VA MAKKA FATHI

629-yilning mart oyida Hudaybiya ahdnomasi bo'yicha hajga borish muddati keladi. Muhammad (s.a.v.) 2000 kishi bilan hajga jo'naydi. Hamma hojilar ehrom kiyib olib yo'lga chiqishadi. Makkaliklar ahdnama asosida Payg'ambar (s.a.v.) va musulmon jamoasiga haj qilish uchun Ka'bani bo'shatib beradilar. Haj tamom bo'lgach, ular orqaga qaytadilar. Bu tadbir Muhammad

(s.a.v.) obro'sining yanada oshishiga sabab bo'ladi, makkaliklar musulmonlarning o'z Payg'ambariga qanday chuqur ehtirom bilan bo'ysunayotganliklarini o'z ko'zlarini bilan ko'radilar, hamda qanday qudratga ega ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Bunga ishonganlardan mashhur harbiy sarkarda Holid ibn Valid birinchi bo'lib islomni qabul qiladi. Uning orqasidan Amr ibn al-Os ham islomni qabul qilgach, Abu Sufyon eng obro'li qurayshiylardan ajralib, amalda yakkalanib qolayotganini birinchi bor his qiladi.

629-yil voqealaridan bir necha katta va kichik yurishlarni e'tiborga olmaganda, Makka zodagonlarining rahbari va musulmonlarning eng katta dushmani bo'lib kelgan Abu Sufyonning Muhammad (s.a.v.) bilan muzokara olib borish maqsadida Madinaga kelishini eng muhim voqealardan biri, deb hisoblash mumkin. Chunki oxirgi dushman bo'lgan Abu Sufyonning bo'yin egib Madinaga kelishi, mohiyatan Payg'ambar (s.a.v.) va musulmonlar hokimiyatining Arabiston yarimorolida to'la g'alabasi, degan so'z edi.

Muzokaralardan Makkaning zaiflashgani, Payg'ambar (s.a.v.) ixtiyoriga o'tishga tayyor ekanligi, faqat ko'p qon to'kilmasin, degan umid bilan kelgani ma'lum bo'ladi. U qaytib borgandan keyin Makka zodagonlari bir munkha bezovtalik bilan Muhammad (s.a.v.)ning yurish qilib kelishini va uning oqibatlarini kutadilar.

Muhammad (s.a.v.) Madinaning o'zidan va atrofidagi qabilalardan to'plangan ko'p kishilik lashkar bilan 630-yil yanvar oyining boshida Makkaga yurish boshlaydi. Uning yagona tirik qolgan amakisi al-Abbos yo'lga chiqib Payg'ambar(s.a.v.) ni kutib oladi va islomni qabul qiladi. Makka deyarli jangsz olinadi, chet-chetlarda yuz bergan to'qnashuvlarda o'n beshga yaqin makkalik, musulmonlardan ikki yoki uch kishi halok bo'ladi, xolos.

G'alabadan so'ng kuzatib turgan Makka ahli oldida Muhammad (s.a.v.) shaharni ko'radi, Ka'bani ziyyarat qiladi, u yerdag qabilalar sanamlarini olib chiqib sindirishni buyuradi, Ka'ba devorlaridagi ilgarigi sanamlarga sig'inishga xos bo'lgan tasvirlarni o'chirtiradi. Keyin u erda namoz o'qiydi. Ka'ba oldidagi baland zinaga ko'tarilib, Ka'bani tamoman islom ibodatxonasiga aylanganini va hech qanday mushriklarning endi unga kiritilmasligini e'lon qiladi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Nima uchun sulh “al-Hudaybiya” nomini oldi?*
2. *“al-Hudaybiya” sulhida keltirilgan shartlarni bilasizmi?*
3. *Muhammad (s.a.v.) qaysi mamlakatlarning hukmdorlariga maktublar yozdi?*
4. *Makka fath etilishiga nimalar sabab bo‘ldi?*
5. *Makka qachon fath etildi?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Hudaybiya sulhining islom tarixida tutgan o‘rnini.*
2. *Hudaybiya sulhidan keyingi Madina jamoasining siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy xayoti.*
3. *Muhammad (s.a.v.) tomonidan chet mamlakatlar rahbarlariga yozilgan maktublar.*
4. *Makka fathi.*

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
2. Ибн Ҳишом ал-Маъфирий, Абдумалик. Ас-Сийра ан-набавийя. Иккинчи жилд. 3-4 китоблар. (Пайғамбар (а.с.)нинг тарих ва ҳаёт йўллари). – Т.: “Sharq”, 2011.
3. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
4. Соғуний Алихонтўра. Тарихи Муҳаммадий: 2 жилдли. – Тошкент, 1991
5. Уотт М.У. Мухаммад в Медине. – СПб.: Диля, 2007.
- фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258) / Пер. с англ. И.М.Дижура. – М.: ГРВЛ, 1988.
6. Muhammad. Encyclopedia of Seerah. The Muslim Schools Trust. London. 1981.
7. Richards D.S. Papers on Islamic History: Islamic Civilisation. 950-1150. – Oxford, 1973.
8. Robinson F. Islamic World. – Cambridge: University Press, 1996.

6-BOB. MARKAZLASHGAN MAKKA-MADINA DAVLATIGA ASOS SOLINISHI

Tayanch iboralar: *Kohin, aqid, shoir, nassob, qozi, xatib, hotim al-anbiyo, xalifa, al-Xulafo ar-roshidun, Abu Bakr, Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib.*

6.1. DAVLAT BOSHQARUVINING SHAKLLANISHI

Madina shahar-davlatining hijratdan keyingi taraqqiyoti yangi din – islomning dunyoga kelish jarayoni bilan bir vaqtida kechdi. Davlat paydo bo‘lishi va rivojlanishida diniy omillarning ta’siri murakkab fenomen sifatida tadqiqotchilar diqqat-e’tiborini hozirgacha o‘ziga jalb qilib kelmoqda. Yangi shakllanayotgan davlat tizimida teokratik g‘oyaning o‘rni, davlatchilikka kiritilayotgan dunyoviy unsurlarning qay an’analarning davomi sifatida qaralishi – bugungi kundagi tadqiqotlarning dolzarb masalalaridan bo‘lib qolmoqda.

Ma’lumki, Muhammad (s.a.v.), yangi din targ‘ibotchisi bo‘-lish bilan bir qatorda, jamoa boshlig‘i-dunyoviy rahbar sifatida faoliyat olib bordilar. U “arab tarqoqligiga” barham berib, ichki Arabistonda markazlashgan davlatchilikka tamal toshini qo‘ydilar. Dunyoviy hokimiyat vazifalarini – *aqid* (harbiy qo‘mondon), *sayyid* (qabila ulug‘i), *malik* (podshoh), *qozi* (hakam) mansablarini o‘z shaxlarida birlashtirdi.

Ba’zi G‘arb tadqiqotchilarning fikricha, Muhammad (s.a.v.) islomdan avvalgi jamiyatda ma’naviyat sohasida faoliyat olib borgan *kohin*, *shoir*, *xatib*, *nassoblarning* ham vazifalarini bajargan. Ammo, Qur’onda zikr etilishicha, Payg‘ambar (s.a.v.) *kohin* bo‘lmaganligi, Qur’on oyatlari esa *qohinning* va *shoirning* so‘zi emasligi bayon etilgan. To‘g‘ri, islomdan oldin har bir arab qabilasi o‘zining yoki bir necha *kohiniga*, ya’ni diniy arbobiga ega bo‘lgan. Qabila a’zolari diniy va dunyoviy masalalarda *kohinlar* bilan maslahatlashar edilar. Ammo, qadimgi Arabiston yarimorolidagi diniy holat bilan Muhammad (s.a.v.) davridagi yakka xudolik g‘oyasi o‘rtasidagi farqni hisobga olib, aynan *kohin* deb atash, noto‘g‘ri. Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) ilk

davrda Makka aholisiga o‘zini *kohin* deb tanishtirganida, unga bu darajadagi omma ergashmasligi aniq edi.

Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng jamoa-davlatni teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o‘zgarishlar ro‘y berishi muqarrar edi. Birinchidan, Payg‘ambar (s.a.v.) davrining oxirlarida *vahy* poyoniga etgan edi. Chunki, islom ta’limotiga binoan, Muhammad (s.a.v.) – payg‘ambarlarning so‘nggisi – muhri (*Xotim al-anbiyo*) edi. Demak siyosiy va ijtimoiy jarayonlarni bevosita ilohiyat amri ila boshqarish, unga tub o‘zgartirishlar kiritish bundan so‘ng mumkin bo‘lmay qoldi, boshqa so‘z bilan aytsak, islom tarixida teokratiya davri tugay boshladi. Bunday sharoitda, islom rasmiy din sifatida e’tirof etilgan jamiyatda dunyoviylik va diniylikning mutlaqo yangi muvozanati jadallik bilan shakllana boshladi. Bu jabhada, albatta, birinchidan, ummaning qisqa vaqt ichida shakllantirgan o‘z an’analari, ikkinchidan, avval ichki Arabiston davlatchilik unsurlari, keyinchalik, arab istilolari natijasida, boy Yaqin Sharq an’analari o‘zaro ta’sir jarayoniga kirishdi.

Xalifalik maxsus diniy institut hisoblanmay, u ko‘proq dunyoviy komponentlarni o‘zida mujassamlashtirgan edi. Payg‘ambar vafotidan so‘ng muhojirlar va ansorlar o‘rtasidagi asosiy tortishuv mamlakatga yo‘lboshchi (*amir*) – xalifa saylash masalasida bo‘ldi. Shu yerning o‘zida hukmronlikning boshqa vazifalari (qozilik va moliyaviy masalalar bo‘yicha) muhojirlar o‘rtasida taqsimlandi. Xalifalikning dunyoviy vazifasi, birinchi navbatda, davlatni boshqarish, ya’ni amirlik deb belgilandi. Yangi zabit etilgan mamlakatlardagi mavjud davlatchilik an’analaring rastional unsurlari Arab davlatining boshqaruv tizimlariga jadal kirib keldi. Buning natijasida xalifa asosan davlat apparatini tuzish va boshqarish, siyosiy masalalarga rahbarlik qilishga o‘zining asosiy e’tiborini qaratdi.

Ushbu to‘rt xalifa yangi vujudga kelgan davlat vositasida hech qanday tartib va intizomni bilmaydigan Arabiston yarimorolidagi badaviy qabilalarini yagona davlat hukmiga bo‘ysundirib, o‘z zamonasining kuchli sultanatlari sanalmish Sosoniylar va Vizantiya imperiyalariga tahdid solish imkoniga ega bo‘ldilar. Mana shu tarqoq yashaydigan qabilalar kuchlarini birlashtirish

natijasida Sosoniylar sultanati kabi yuksak taraqqiyotga ega bo‘lgan imperiyaning to‘rt yuz yillik tarixiga yakun yasaldi. Vizantiya imperiyasining arkalarini larzaga soldi. Iroq, Suriya va Misr kabi qadimgi madaniyat o‘choqlari Arab xalifaligi tarkibiga qo‘sib olindi.

Demak, xalifalar faoliyatida sof dunyoviy vazifalar – davlatni boshqarishda qarorlar qabul qilish va ularning ijrosini nazorat qilish funkstiyalarining muntazam ortib borganligini ko‘ramiz. Davlat apparati tezda shakllanib, bir maromda ishlaydigan tizimga aylana bordi.

Davlat apparati shakllanib borishi bilan fuqaroviylar jamiyat (*umma*) ham o‘zgara bordi. Bu borada turli siyosiy kuchlarning paydo bo‘lganligini birinchi navbatda qayd etish lozim. Shuningdek, diniy manba – Qur’on va Payg‘ambar (s.a.v.) hadislarini o‘rganishga bo‘lgan moyillik kuchaya boshladи. Bu esa, o‘z navbatida, diniy avtoritetlar – *mufassirlar*, *muqrilar*, *muhaddislar*, *faqihlar* qatlaming shakllanishiga olib keldi. Bu vaqtidan e’tiboran, diniy masalalar bo‘yicha ijtimoiy fikrni asosan dunyoviy funkstiyalar bilan band bo‘lgan xalifalar emas, balki diniy an‘ana va matnlarni chuqur biluvchi ulamolar shakllantirar edilar. Shu davrdan boshlab, hokimiyatning ikki tarmog‘i – dunyoviylik va diniylik o‘rtasidagi qaramaqarshi turish boshlandi. Diniylik bayrog‘i – ulamolar qo‘lida, dunyoviylik esa – xalifalar amalida bo‘ldi. Har ikki guruh o‘z iddiolarini diniy iboralar va shiorlar niqobi ostida olib bordilar. Bu kurash ilk xalifalar davridan shu kunimizgacha islom jamiyati va ta’limotining tarixini belgilab kelmoqda.

6.2. XALIFALIK INSTITUTINING SHAKLLANISHI VA SAYLOV USULLARI

Islom jamoasi-davlati duch kelgan avvalgi muammolardan biri Payg‘ambar (s.a.v.)ga o‘rinbosar (*xalifa*)ni tayinlash va unga qasamyod (*bay’at*) keltirish bo‘ldi. Islomdan avvalgi davr arablariga *xalifa* so‘zi eskidan ma’lum bo‘lib, u *malik* (podshoh) ning *voliysi* (viloyat hokimi) ma’nosida qo‘llanilgan.

Manbalar Muhammad (s.a.v.)ning o‘rinbosariga bay’at qilish arablarning islomdan oldin qabila ulug‘ini (*sayyid*) saylash jarayoniga o‘xhash tarzda olib borilganligiga guvohlik beradilar. Bu amalga Payg‘ambar (s.a.v.) ham rioya etgan: islomni qabul qilgan (ya’ni *ummaga* bo‘ysingan) qabila a’zolaridan shunday qasamyodlarni qabul qilgan. Bu amaliyot hech qanday diniy an’ana bo‘lmay, balki, sof dunyoviy unsur ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Bahs etilayotgan davrda xalifa tayinlash uslublarining bir turli bo‘lmay, balki xilma-xilligi ham bu fikrimizni tasdiqlaydi. Keyingi davr tadqiqotchilar bu saylash usullarini shartli ravishda to‘rt turga bo‘ladilar: 1) umumiy saylov; 2) nomzod usuli; 3) xususiy saylov; 4) “qilich haqqi” yo‘li bilan hokimiyatga kelish.

Birinchi – umumiy saylov turida xalifalikka nomzod masjidda barcha jamoa a’zolaridan bay’at oladi. Bunga misol tariqasida Abu Bakr (632–634) va Ali ibn Abu Tolib (656–661) saylanishlarini kiritish mumkin.

Ikkinchi saylov shakli bilan Umar ibn al-Xattob (634–644) xalifalikka tayinlangan edi. Unga ko‘ra, eski xalifa o‘zi tanlagan kishini valiahd sifatida o‘z o‘rniga qoldiradi va bu qaror *umma* tomonidan qabul etiladi.

Uchinchi xususiy usul – eski xalifa tomonidan saylov uchun tanlangan sanoqli kishilar (*shuro*) ichidan birini xalifalikka tayinlash. Usmon ibn Affon (644–656) mazkur usulda xalifalikka o‘tirdi.

To‘rtinchi yo‘l (qilich haqqi) orqali Ali ibn Abu Tolib hokimiyatdan olinib, uning o‘rniga Muoviya (661–680) davlat rahbari bo‘ldi.

Manbalar xalifalikka tayinlash tafsilotlari ham turli bo‘lganligi haqida xilma-xil ma’lumotlar beradilar. Masalan, Abu Bakrni xalifa etib saylash jarayonida avval Banu So‘idaning guzarida to‘plangan *umma* yetakchilar qasamyod (*bay’at al-xossa*) etganlar. So‘ngra, ertasi kuni barcha jamoa qasamyod (*bay’at al-omma*) etganlar. Bunda Madina ahli masjidda Abu Bakrga birma-bir bay’at qilgan bo‘lsalar, atrofdagi arab qabilalari Madina hukmronligiga va Abu Bakrning rahbarligiga qasamyodni vakillar orqali izhor etganlar.

Bay’atni erkaklar nomzodning qo‘lini siqish orqali, ayollar esa og‘zaki (qo‘l bermay) izhor etganliklari e’tiborga molik. Islomdan oldingi davrda bu so‘z bozor ahli orasida rasman savdo bitimini anglatgan, uni tuzish – qo‘l qisish yo‘li bilan ifodalangan.

Demak, qasamyod qilish (*bay’at*) amali eski arab an’analari qatoridan sof dunyoviy amal sifatida o‘zlashtirilib olinib, bir necha bosqich o‘zgartirishlardan so‘ng yangi davlatchilik amaliyoti sirasiga kiritildi. Undan so‘ng ilk jamoa (*umma*) amaliyoti sifatida ulamolar tomonidan sakrallashtirilib, keyinchalik yolg‘iz sof diniy hodisa sifatida talqin etila boshlandi.

6.3. RAHBARLIK TITULLARINING O‘ZGARISHI

Qur’onda va na hadislarda Muhammad (s.a.v.)dan keyin davlat boshqaruvi kimning qo‘lida bo‘lishi, uning tuzilishi haqida hech qanday ma‘lumot yo‘q. Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan keyin jamoa-davlat rahbari lavozimini “*al-xalifa*” deb atay boshlandi. Abu Bakr rahbarlik lavozimiga tayinlangach, uni “*Xalifatu rasulillohi*”, ya’ni “*Allah rasulining o‘rinbosari*” deb atadilar. Ma‘lumki, Muhammad (s.a.v.) *malik* (podoshoh) unvonini o‘ziga olmagan, lekin uning *umma* ichida bajargan vazifalari *malik* darajasidagidan qolishmagan. Madina masjididagi *minbar* *malik* hokimligidagi taxt ramzi vazifasini o‘tagan. Lekin, Abu Bakr Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng minbarning pastki qismida o‘tirgan. Bu bilan u payg‘ambarlik darajasiga da’vosi yo‘qligini ta’kidlamoqchi bo‘lgan. Bu amaliyot xalifa Usmon tarafidan buzilgan: uchinchi xalifa Payg‘ambar (s.a.v.) kabi minbarning yuqori qismiga o‘tirgan. Ammo, uning bu xatti-harakati ulamolarning keskin qarshiligiga uchraydi. Chunki bu davrda diniylik sohasini to‘la egallagan ulamolar dunyoviy hokimiyat – xalifalikning bu sohani zabit etishga bo‘lgan navbatdagi urinishini shu tariqa qaytardilar.

Abu Bakrdan so‘ng rahbarlikka saylangan Umar ibn al-Xattob mantiq bo‘yicha Abu Bakrning o‘rinbosari, ya’ni “*Xalifatu xalifati rasulillohi*” deb ataldi. Hokimiyatning bu turda uzatilishi (xalifadan xalifaga) Madina jome masjidida minbarga yangi kelgan har bir xalifaga qo‘srimcha neshin yasash amalida ham ko‘rishimiz mumkin.

Umar ibn al-Xattob davrida davlat shakllanish jarayonlarining tezlashishi natijasida xalifa bajarayotgan vazifalar ichida dunyoviylik jihatining ko‘payib ketishi oqibatida bu mansab diniy hissiyoti kuchli fuqarolar tarafidan bir tomonlama, ya’ni dunyoviy deb qabul etila boshlandi. Shunday bir holatda xalifa o‘zini “yarim diniy” atama – “*Amir al-mu’minin*” (Musulmonlar amiri, ya’ni *amir* dunyoviy ma’noni anglatuvchi atama bo‘lsa, *mu’munun* (mo‘minlar) atamasi musulmonlar jamoasiga ishorat edi) deb atashlarini ma’qul ko‘rdi.

Usmon ibn Affon o‘ldirilganidan so‘ng boshlangan birinchi fuqarolar urushi (656-661) davrida bu ikki atama (*xalifa* va *amir al-mu’minin*) hokimlarning salbiy xatti-harakatlari oqibatida jamiyat a’zolari, ayniqsa uning dindor qismi vakillari – ulamolar ko‘z oldida o‘z ishonchini, salmog‘ini yo‘qotdi. Xalifa Ali ibn Abu Tolib tarafdorlari uni “*Imom*” deb atay boshladilar. Demak, endilikda xalifaning vazifalaridan biri – jamoa namoziga boshchilik qilish amalidan olingan atamasi davlat rahbari siymosiga “diniy tus” berish (uning hokimiyatini sakrallashtirish) maqsadida foydalanila boshlandi. Bu esa davlat rahbari funkstiyalarining orasida diniylikka nisbatan dunyoviylik unsurlarining yanada ortib borganligining nishonidir.

6.4. YANGI BOSHQARUV TIZIMLARINING PAYDO BO‘LISHI

Markaziy boshqaruв apparatidagi mansablar masalasida ma’lum siljishlar yuz berdi. Masalan, ilk davrda ba’zi diniy matnlarni yozib oluvchilar sifatida kotiblar zikr etiladilar (Zayd ibn Sobit, Ali ibn Abu Tolib, Usmon ibn Affon). Lekin kitobatga avvalgi davrda katta ehtiyoj yo‘q edi. Davlat kanselyariyasi kengaya borishi bilan kotiblar mehnatiga talab kuchaya bordi. Kotiblar haqidagi ishonarli ma’lumotlar Umar ibn al-Xattob davriga tegishlidir: uning hukmronligi paytida kotiblarga muayyan maosh tayinlanadi. Kotiblar mansabi ham ular vazifasi murakkablashib borganligi sababli ixtisoslasha boradi. Umaviylar davriga kelib, kotiblarning soni beshtaga etdi: *maktublar kotibi, xarojlar kotibi, harbiy kotib, shurta xizmati kotibi, qozilik kotibi*.

Boshqaruv tizimining shakllanishida xalifa Umar ibn al-Xattob davrida *devonlarning*¹⁷ joriy etilishi muhim rol o'ynadi. Devon tizimi Sosoniylar davlati an'analaridan o'zlashtirildi. Unda bir necha bo'limlar mavjud edi. Jumladan, Askarlar devoni da askarlar nomi, qabilalar tarkibi va ularning har biriga beriladigan maoshlar belgilandi. *Xaroj devonida* “*Bayt al-mol'*”ga topshiriladigan soliqlar qayd etib borilgan. Bu davrda devonning doimiy tarkibini o'z ichiga oluvchi ro'yxat tuzilgan bo'lib, unda kirim va chiqim, shuningdek, davlatdan maosh olish huquqiga ega bo'lgan kishilar ro'yxati qayd etildi. Devon tizimi markaziy hokimiyat tarkibida joylashdi. Istilo qilingan yerlardagi kirim-chiqimni nazorat qilish esa bevosita voliylar zimmasida edi. Bu tizim vositasida Umar davlat xizmatchilariga, avvalo harbiy xizmatchilarga haq to'lash tizimini takomillashtirib, tartibga solishga muvaffaq bo'ldi.

Soliq va xaroj devonlaridagi hisob-kitob ishlarni olib borish uchun tayinlangan xodimlar Iroq va Eronlik bo'lganliklari uchun fors tilida, Shomda Vizantiya (yunon) tilida, Misrda kopt (qibtiy) tilida olib borilgan. Askarlik va maoshlar devonida ish faqat arab tilida yuritilar edi. Voliylarning soliq va xaroj devonlari ishlardan xabardor bo'lib turishlari uchun arab va mahalliy tillarni biladigan tarjimonlar kerak bo'lgan.

Keyinchalik bu tizim rivojlanib bordi. Xalifa Usmon ibn Affon davrida siyosiy tizimda turli ziddiyatlarning paydo bo'lishi Ali ibn Abu Tolibni davlat boshqaruviga *Devon al-mazolim (sud qarorlarini qayta ko'rish)* tizimini kiritishga majbur etdi. Bu devon ijroiya organlarining g'ayriqonuniy harakatlari ustidan tushgan shikoyatlarni o'rganish, soliqlar, diniy idoralar faoliyatini nazorat qilish, qozilar chiqargan qarorlar ijrosini tekshirish bilan mashg'ul bo'ldi. Bu esa, o'z navbatida, davlat tribunal sudyalari ishlaring faollashishiga olib keldi. Buning oqibatida avvalroq kiritilgan institut fuqarolar jamiyatni sudyalari – qozilar ahamiyati ikkinchi darajali mavqega tushib qoldi.

Davlat apparatining jadal turda faollashuvi yana bir organ – *al-hisba* (jamiyat a'zolarini nazorat qilish) tizimini keltirib chiqardi.

¹⁷ Devon – fors tilida “ro'yxat”, “qayd qilish” yoki “daftar” ma'nolarini anglatadi.

Al-Movardiyning fikricha, bu tizim Umar ibn al-Xattob davrida ish boshlagan bo‘lsada, *al-hisba* istilohi abbosiy xalifa al-Mahdiy (775-785) davrida paydo bo‘ldi. Bu muassasa mutasaddilari bozorlardagi tosh-taroz, fuqarolar o‘zaro iqtisodiy, mulkiy munosabatlari, ahloq normalarini rioya qilishlari va hokazolarni nazorat ostiga oldi.

Yangi tashkil topgan davlat, albatta, ijtimoiy xavfsizlik masalalariga katta e’tibor bera boshladi. Bu borada shurta (polistiya) tizimining tashkil etilishi muhim qadam bo‘lib qoldi. Tadqiqotchi Hasan Ibrohimning fikricha, davlat tarkibiga birinchi bo‘lib *shurta* (polistiya) tizimini Ali ibn Abu Tolib kiritgan. Ammo tarixchilar Abu Ja’far at-Tabariy va Xalifa ibn Xayyot Usmon ibn Affon davridayoq “Misr shurta sohibi” va “sohib ash-shurat” (shurtalar boshlig‘i) faoliyat ko‘rsatganligini zikr etadilar. Ibn Xaldunning fikricha, shurta xizmati Umar ibn al-Xattob davrida *bayt al-mol* va qamoqxonani ko‘riqlash, da’vogarlarni qozi xuzuriga keltirish va jinoyatchilarga nisbatan chiqarilgan hukmlarni ijro etish bilan shug‘ullanganlar. Bu davrdagi shurta xodimi qoziga tobe’ bo‘lib, *jilvoz*¹⁸ deb atalgan. Garchi Umar davrida shurta tizimining ilk ko‘rinishlari paydo bo‘lgan bo‘lsada, uning to‘la shakklangan tizim darajasiga chiqishi Usmon ibn Affon davrida amalga oshirilgan.

Viloyat hokimlari mansabi ham ilk islom davrida asta-sekin shakllana boshladi. Avvaliga, Muhammad (s.a.v.) islomni qabul qilgan qabila yoki shahar ahliga din asoslarini o‘rgatish uchun mu’allim tayinlar edi. Keyinchalik Madina nazorati ostiga o‘tgan qabila va shaharlarda mu’allimlar mansabi omil mansabi bilan o‘zgartirildi. Ular siyosiy mavqega ega bo‘lmadilar. Lekin, Abu Bakr davriga kelib, bu omillar yoniga alohida sadaqalar omili mansabdori qo‘sildi. Ular orasida xaroj omili davlat uchun eng ahamiyatlisi hisoblanib, doim voliy yonida bo‘lgan. Ular Madina davlati tarkibidagi shahar va qabilalarga tayinlanib, xaroj to‘plar edilar. Umar ibn al-Xattob davrida Madina davlati tarkibiga ko‘plab hududlarning kirishi bilan omillarning ustidan voliy tayinlana boshladi. Hududlardagi voliyalar shaharlarga omillarni o‘zlarini tayinlar, ammo, xaroj omili xalifa tomonidan tayinlangan.

¹⁸ جلواز – politsiyachi.

Umaviylar omil mansabiga siyosiy ahamiyat berib, uni amir deb atay boshladilar. Ular xalifa mansub bo‘lgan urug‘dan tayinlanib, faoliyat doiralariga bir qator siyosiy va harbiy vazifalar kiritildi.

Voliy tayinlanishi ikki – umumiy va xususiy turda yuz bergen. Umumiy tayinlash ixtiyoriy va majburiy holda amalga oshirilgan. Majburiy voliylik xalifa tomonidan belgilangan. Bunda voliy faqat siyosiy boshqaruvni o‘z qo‘liga oladi. Diniy masalalarga bog‘liq ishlar xalifa ixtiyorida bo‘ladi. Maxsus voliylik haqida al-Movardiy bunday deydi: bunda voliyning vakolati siyosat, jamiyatni himoya qilish kabi vazifalar bilan chegaralanadi, qozilik, hukm chiqarish, xaroj va soliq yig‘ish ishlariga aralashmaydi.

Omillarning ilk davrdagi rahbarliklari umumiy edi. Keyinchalik uning xususiyashib borgani kuzatiladi. Masalan, Amr ibn al-Osning Misrga amirligini umumiy deb atash mumkin. Keyinchalik Umar ibn al-Xattob Abdulloh ibn Sa‘dни xaroj yig‘ishga tayinlaganidan so‘ng uning voliligi maxsus bo‘lib qoldi. Keyinroq alohida qozi tayinlanishi bilan voliyning hukumati qo‘shinga qo‘mondonlik va namozga imomlik bilan chegaralanib qoldi.

Voliylik muddati chegaralanmagan bo‘lib, voliyning o‘z vazifasini qanday bajarishi va viloyatdagi ijobjiy o‘zgarishlarga qarab belgilanar edi. Muoviya ibn Abi Sufyon Damashqda yigirma yil voliy bo‘lgan. Ba’zi voliylar bir yil ham o‘tirmas edilar. Yangi xalifa oldingi hukmdor tarafidan tayinlangan voliylarni qayta tasdiqlagan.

Voliylar vazifalari qatoriga kanallar qazib suv chiqarish, ko‘priklar qurish, shaharlar loyihalashtirish, yo‘llar qurish, masjid va bozorlar bino qilish, aholi yashashi uchun yerlar ajratish, ekinzor yerlarni kengaytirish maqsadida qo‘riq yerlar ochish kabi ishlar kirgan.

Voliy viloyat ishlarini boshqarishda shurta boshlig‘i, xaroj omillari, bayt al-mol hodimlari, devonlar ishchilari kabi xodimlarning yordamiga tayanar edi. Ba’zida bayt al-mol mas’uli voliydan mustaqil bo‘lib, to‘g‘ridan to‘g‘ri xalifaga bo‘ysunar edi. Boshqaruv tizimi Umar davridayoq shakllanib, voliy, qozi, devon kotibi va omillar vazifalari aniq belgilangan edi. Ushbu tartib Usmon va Ali davrida saqlanib qoldi.

Ilk davrda xalifalarga poyloqchilik zarurati tug‘ilmagandi. Xorijiyalar Muoviya ibn Abi Sufyonni o‘ldirmoqchi bo‘lganlaridan keyin Umaviylar xalifaligi davrida “*al-hijoba*”, ya’ni poyloqchilik lavozimiga zarurat tug‘ildi.

Boshqaruv apparati geografik, strategik nuqtai nazar va o‘sha davrning boshqaruv an’analari ta’sirida, ba’zan qabilalarning joylashuviga qarab shakllandi.

Xalifalik tarkibiga kirgan hududlarda islomiy idora usuli o‘rnatildi, ammo ba’zi hududlarda eski davlat boshqaruvidagi lavozim nomlari o‘zgarmadi. Masalan, Misrda: *al-mudir*¹⁹, *al-muhofiz*²⁰, *al-ma’mur*²¹ yoki *noib al-mudir*, *al-xavli*²² yoki *al-mufattish az-ziro iy*²³ lavozimlari saqlanib qoldi.

Voliylar hududlardagi iqtisodiy ishlar bilan shug‘ullanar, mojaroli ishlarni hal etish uchun esa alohida qozilar tayinlangan edi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Payg‘ambar va xalifalarga qasamyod etish arablarning qaysi unsurlariga asoslangan edi?*
2. *Payg‘ambar o‘rinbosarlari qanday saylov usullari bilan tayinlanganlar?*
3. *Qaysi xalifa davridan boshlab “Amir al-mu’minin” atamasi qo‘llanila boshlandi?*
4. *Bay’at al-xossa va bay’at al-omma nima ma’noni bildiradi?*
5. *Davlat boshqaruviga oid qanday mansablar paydo bo‘ldi?*

¹⁹ ”المدير“ – Viloyat (provinsiya) boshlig‘i - boshqaruvchi.

²⁰ ”المحافظة“ – ma’muriy - teritorial o‘lchov birligi. Boshlig‘i «المحافظ» deb atalgan. Viloyat (provinsiya) boshlig‘i - gubernator.

²¹ ”النائب“ – ma’muriy teritorial o‘lchov birligi. Boshlig‘i ”النائب“ deb atalgan.

²² ”الخولي“ – dala qarovuli yoki bog‘bon.

²³ ”المفتش الزراعي“ – dala ekinlari taftishchisi (revizor).

Mustaqil ish mavzulari

1. *Xalifalik institutining tashkil topishining siyosiy-ijtimoiy va diniy omillari.*
2. *Bay'at amaliyotining paydo bo 'lishi.*
3. *Xalifalik titullarining almashish sabablari.*
4. *Davlat boshqaruvida yangi vazifalarning paydo bo 'lishi.*
5. *Devon al-mazolim.*

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
2. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
3. Уотт М.У. Мухаммад в Медине. – СПб.: Диля, 2007.
4. фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258) / Пер. с англ. И.М.Дижура. – М.: ГРВЛ, 1988.
5. Richards D.S. Papers on Islamic History: Islamic Civilisation. 950-1150. – Oxford, 1973.
6. Robinson F. Islamic World. – Cambridge: University Press, 1996.
7. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
8. Humphreys R.S. Islamic History. A Framework for Inquiry. – London, New York: I.B. Tauris, 1991.
9. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira.

7-BOB. RIDDA VOQEASI, DINDAN QAYTISH VA MUTANABBIYLIK HARAKATLARI

Tayanch iboralar: *mutanabbiy, ar-ridda, kohin, dajjal, Yamoma, kazzob, Asad, Musaylima, Tulayxa ibn Xuvaylid, Asvad al-Ansiy, Sajoh.*

7.1. SOXTA PAYG‘AMBARLAR (MUTANABBIYLAR) HARAKATI

Muhammad (s.a.v.)ning Madinaga qilgan hijratidan so‘ng (622-yil) arab-musulmon davlati jadal sur’atlarda shakllana boshladi. Yangi vujudga kelayotgan davlat ideologiyasi sifatida o‘zini namoyon qilgan islom dini ham shiddat bilan rivojlana boshladi. Bu ikki jarayon yonma-yon va bog‘liqlikda kechdi. Payg‘ambar (s.a.v.)ning 632-yil yuz bergan vafotidan keyin davlatchilik shakllanishidagi jarayonlar mutlaqo yangi tus oldi. Madina shahar-davlati siyosiy rahbariyatida birinchi mavqeni egallahsga erishgan Abu Bakr as-Siddiq faoliyati bu voqealarda yetakchi rolni o‘ynadi.

Abu Bakrning (632–634) siyosiy rahbar sifatidagi birinchi vazifasi davlat birligini tiklab, uni mustahkamlashdan iborat bo‘ldi. Unga qarshi turgan kuchlar ko‘pchilikni tashkil qildi. Bu kuchlarning harakati arab-islom adabiyotida “*ar-Ridda*” nomini oldi. *Ridda* so‘zining lug‘aviy ma’nosi “orqaga qaytish”, “chechinish” ma’nolarini anglatib, musulmon adabiyotida bu ibora “dindan qaytish” xususiy ma’nosida qo‘llaniladi. *Ridda* harakatida asosiy ishtirok qilgan kuch sifatida islom manbalarida “soxta payg‘ambarlar” – *mutanabbiylar* ko‘rsatiladi. Lekin bu yerda ikki nozik jihat borki, ular bu davr siyosiy voqealarini to‘g‘ri anglashga chalkashliklar kiritib, tadqiqotchilarni noto‘g‘ri yo‘lga boshlash xavfi mavjud. Birinchidan, *ar-Ridda* “arab tarqoqligini” qayta tiklash yo‘lidagi siyosiy harakat – Madina hukmronligidagi markazlashgan davlatga qarshi xuruj edi. Ikkinchidan, mutanabbiylarning aksari Payg‘ambar (s.a.v.)ning hayotlik vaqtidayoq bosh ko‘tardilar. Demak, barcha manbalarda va ulardan so‘ng – ko‘p sonli tadqiqotlarda “diniy” jarayon sifatida talqin etilgan bu harakat amalda aniq siyosiy maqsadlarni ko‘zlagan.

Shu jihatdan Abu Bakrning “arab tarqoqligi” namoyondalari bo‘lgan “soxta payg‘ambarlar”ga qarshi olib borgan siyosatini yangi yondashuv yordamida qayta ko‘rib chiqish zaruriyati paydo bo‘ladi. Bu voqealarni yolg‘iz “diniy qobiq”dan ajratib, o‘sha davr siyosiy jarayonlarining tashkiliy qismi sifatida yangicha tahlil qilish mazkur davr voqealarini chuqurroq va atroficha tushunish imkonini yaratadi.

Tulayha ibn Xuvaylid. Payg‘ambar (s.a.v.) hayotining oxirgi kunlarida Talha ibn Xolid (vafoti 642 yil. Musulmon mualliflari talqinicha, Tulayha ibn Xuvaylid), avval islom dinini qabul qilganiga qaramay, o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan edi. Ammo, manbalarda keltirilishicha, Tulayha ibn Xuvaylid Banu Asad urug‘idan bo‘lib, bu davrda u eski din ruhoniysi – *kohin* edi.

Tulayhaning kohin, ya’ni o‘z qabilasining diniy rahnamosi bo‘lganligini hisobga olinadigan bo‘lsa, uning islomni qabul qilib, keyin murtadd bo‘lganligi haqidagi manbalarning ma’lumoti uni obro‘sizlantirish uchun foydalaniłgan uslublaridan biri bo‘ligi mumkin.

Tulayha o‘z tarafдорлари bilan Makka atrofidagi Sumayro shahriga yaqinlashganida, Payg‘ambar (s.a.v.) unga qarshi Diror ibn al-Azvarni yuboradi. Ammo Payg‘ambar (s.a.v.) vafoti haqidagi xabarni eshitgan Diror o‘z askarlarini orqaga qaytargan.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan so‘ng Tulayha ibn Xuvaylidning siyosiy mavqeい kuchaya boshladi. Uni *Banu al-Asad*, *Banu G‘atafon*, *Banu Havozin*, *Banu Kinona* va *Toy* qabilalari qo‘llab quvvatladilar va u bilan birlashdilar. Ibn Xaldun Tulayhaga bir qancha *yahudiy* qabilalari vakillari kelib qo‘shilganliklari haqida qimmatli ma’lumot beradi. Shu davrgacha tadqiqotchilar diqqat-e’tiboridan tashqarida qolib kelayotgan bu fakt arab-musulmon davlati paydo bo‘lish tafsilotlarini chuqurroq tushunishda qo‘l keladi. Chunki mutanabbiylar atrofiga Madinaga muxolif bo‘lgan siyosiy kuchlarning jipslashishi nafaqat diniy shior, balki birgalashib umumiyl dushmaniga qarshi harakat qilish manfaatlari asosida yuz berdi.

Bunday jiddiy xavfni bartaraf etish maqsadida Abu Bakr Tulayhaga qarshi Xolid ibn al-Valid boshchiligidagi qo'shin yuboradi. Jang Tulayhaning Shomga qochishi, tarafdarlarining halok bo'lishi va aksariyatining asir olinishi bilan yakunlanadi.

Keyinchalik u islomni qabul etgan va Iroqqa qarshi bo'lган arab yurishlarida faol ishtirok etdi.

Musaylima al-Kazzob Muhammad (s.a.v.) hayotlik davridayoq payg'ambarlik da'vosi bilan chiquvchilardan yana biri yamomalik Musaylima edi. Arab tarixchilarining habar qilishlaricha, avval Muhammad (s.a.v.) huzuriga *Banu Hanifa* qabilasidan kelgan bir guruh elchilar orasida Musaylima ham bo'lган. O.G. Bolshakov arab-musulmon tarixchilari tomonidan Musaylimaning hanifiylarga bu davrdagi yetakchilik roli afsonaviylashtirib yuborilgan, degan xulosaga kelgan. To'g'ri, Ibn Hishom Musaylimani *Banu Hanifa* vakillari orasida bo'lib, ot-tuyalarga qarab turganligi, lekin muzokaralarda ishtirok etmaganligini qayd etib o'tadi. M.B. Piotrovskiy Ibn Hishomning fikriga qo'shilib, Musaylimaning faoliyati keyinroq siyosiy tus olgan, degan xulosaga kelgan.

Musulmon mualliflari Musaylimani Payg'ambar (s.a.v.)ga aynan taqlid qiluvchi targ'ibotchi sifatida ta'riflaydilar. Ammo shu o'rinda Abu Rayhon Beruniyning ma'lumoti biz uchun qimmatli va muhimdir. U Musaylima ibn Habibni mazdakiylardan bo'lganligini xabar qiladi. Tabiiyki, Musaylima *Banu Hanifa* qabilasi ichida o'zgacha faoliyat olib borgan. Xususan, unda mazdakiylar ta'limotida bo'lganidek siyosiy jihat oldingi qatorlarda edi. Bu haqda al-Beruniyda keltirilgan xat mazmuni yaq-qol dalolat beradi: "Allohning elchisi Musaylimadan Allohning elchisi Muhammadga! Salom senga. Hukmronlikda (*amr*) men senga sherik bo'ldim. Erning yarmi – bizga (*Banu Hanifaga*), yarmi esa – Qurayshga".

Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyingi davrda yangi siyosiy rahbarlar faoliyatida mutanabbiylik jihatni muhim ahamiyat kasb eta boshladi. Buni *Banu Hanifa* siyosiy rahbarligiga oddiy amir Havza ibn Ali o'rniga soxta payg'ambar Musaylimaning kelishida ko'rishimiz mumkin. Musaylima atrofiga o'z qabiladoshlarini

birlashtirib, Madina uchun jiddiy siyosiy raqibga aylandi. Shu davrda paydo bo‘lgan va o‘z zamonasi siyosiy voqeligini aks ettiruvchi Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan naql etilgan hadisda Musaylimaning Yamoma hukmdori sifatida e’tirof etilishi uning kuchli siyosiy mavqega ega bo‘lganligidan dalolat beradi. Tabiiyki, uni bartaraf etish Abu Bakrning asosiy vazifalaridan biriga aylandi.

Sajoh. Kuchayib kelayotgan Madina shahar-davlatining hukmronligiga qarshi qabilalar umumiylar harakatini birlashtirish hissi ba’zi rahbarlarda paydo bo‘la boshladи. Buni Musaylima va Sajoh o‘rtasida bo‘lib o‘tgan voqealarda ko‘rishimiz mumkin. Lekin O.G. Bolshakov va M.B. Piotrovskiylar bu ikki mutanabbiy orasidagi aloqalar haqidagi manbalar ma’lumotini “o‘rta asr arab hikoyachilarining uydirmasi”, deb inkor etadilar.

Ma’lumki, Sajoh (vafoti 675 y.) *Banu Tag‘lib* qabilasining siyosiy kurashiga boshchilik qilgan mutanabbiy ayol edi. U *Banu Xuzayma* qabilasidan harbiy mag‘lubiyatga uchragach, o‘z odamlarini Yamomaga boshlaydi. Sajoh Yamoma hukmdori Musaylima bilan muzokaralar olib borishga majbur bo‘ladi. Bu ittifoqni mustahkamlash ramzi sifatida ikki rahbar nikohga kiradilar. Aynan shu ma’lumot ko‘p tadqiqotchilar tarafidan shubha ostiga olinadi. Bu voqeanning yuz bergenligini Yamomaning yillik g‘allasining yarmi Musaylima tomonidan Sajohga mahr etib berilganida o‘z tasdig‘ini topadi. Ammo, “tarqoqlik psixologiyasi” *Banu Tag‘lib* va *Banu Hanifa* qabilalarining umumiylar dushman – Madina shahar-davlatiga qarshi birlashib harakat olib borish imkonini yo‘qotishga olib keldi. Mutanabbiylarning bu ramziy nikohi mazkur arab qabilalarining birlasha olmaganliklari oqibatida yo‘qqa chiqdi.

Ibn Sayyod. Tarixiy manbalar, ulardan so‘ng tadqiqotchilar mutanabbiylar orasida madinalik Ibn Sayyod faoliyatiga etarli darajada e’tibor bermaydilar. Faqat, ba’zi tadqiqotchilar o‘z maqolalarida uning Madina shahrida mutanabbiy sifatida faoliyat olib borganligini qayd etadilar. Ammo u haqda chuqrarroq ma’lumot olish uchun tadqiqotga manbalarni, xususan, hadis

to‘plamlarini jalg qilish mumkin. Jumladan, Imom Buxoriyning “al-Jomi’ as-sahih” asarida Ibn Sayyod haqida bir hadis uchraydi. Hadisda bildirilishicha, “Rasululloh “Banu Mag‘ola qo‘rg‘onida bir yahudiy ayol o‘g‘il tug‘ibdi, uning bir ko‘zi tep-tekkis, ya’ni umuman yo‘q, ikkinchisi esa bo‘rtib chiqqan emish” degan xabarni eshitib, “U Dajjol bo‘lmasin, tag‘in!” degan xavotirlik bilan o‘sha tomon yo‘lga chiqdilar. Ibn Sayyod uning kunyasi bo‘lib, asl ismi “Softy” va o‘zi yahudiylardan edi. Ular Ibn Sayyodni oldida bolalar bilan o‘ynab yurganda uchratishdi. Rasululloh uning orqasiga turtib: “Sen mening Allohnинг rasuli ekanligimga shahodat keltirasam?” – dedilar. Shunda Ibn Sayyod u zotga qarab: “Men sizni ummiyilar rasuli ekanligingizga shahodat keltiraman”, - dedi. So‘ng: “Siz o‘zingiz mening Allohnинг rasuli ekanligimga shahodat keltirasizmi?” - dedi. Rasululloh unga: “Men Allohga va uning rasullariga iymon keltirganman”, - dedilar. Keyin, unga: “nimalar ko‘rasan?” – deb aytdilar. Ibn Sayyod: “rost va yolg‘on (tushlar) ko‘raman”, – dedi. Rasululloh: “Shaytonning senga o‘zi yetkazadigan habarlarni chalkashtirgan”, – dedilar. So‘ng, ul zot yana: “Men bir narsani qo‘nglimga yashirdim” – dedilar. Ibn Sayyod: “Bu – Dux...”²⁴, – dedi. Ul zot: “(Akillama), daf bo‘l!” - dedilar. Shunda Umar: “Yo Rasululloh, menga ijozat bering, uning bo‘ynini uzib tashlay!” – dedi. Rasululloh: “Agar u (dajjol) bo‘lsa, unga kuching etmas, basharti u Dajjol bo‘lmasa, uni o‘ldirishdan biror xayriyat yo‘q”, – deb aytdilar.

Payg‘ambar (s.a.v.)ning Ibn Sayyodni o‘ldirishga ijozat bermaganligining boisi u payg‘ambarlik da’vosini qilgan bo‘lsa-da, hali balog‘atga yetmagan edi.

Demak, Ibn Sayyod, Madinada mutanabbiylik faoliyatini olib borganligi haqida manbalar biror jiddiy ma'lumot berilmaydi. Lekin, shunga qaramasdan, mazkur hadis Abu Bakr davrida keng quloch yozgan mutanabbiylik harakatining oddiy jamiyat a’zolari tomonidan qabul qilinishi haqidagi jarayonga yangi tafsilotlar beradi. Xususan, tub o‘zgarishlar asrida yashagan

²⁴ Payg‘ambar nazarda tutgan narsa aynan “ad-Duxon” surasi bo‘lib, Ibn Sayyod uning nomini to‘liq aytishga ulgurmadi.

Arabiston yarimoroli aholisi orasida bo'lajak Dajjolni kutish kayfiyatlar kuchli edi.

Zu-t-Toj Laqit. Umon hududida *mutanabbiylik* shiori ostida isyon ko'targan Zu-t-Toj Laqit ibn Malik al-Azdiyni O.G. Bolshakov oddiy podshoh deb hisoblaydi. To'g'ri, umonliklar Muhammad (s.a.v.) davridayoq *sadaqani jarima* deb tushunganlar. Lekin Laqit ibn Malik Arabiston yarimorolida o'sha paytda vujudga kelgan vaziyatga mos ravishda siyosiy mafkurani diniy mafkura bilan uyg'unlashtirishga harakat qilgan. Buni at-Tabariyning ma'lumoti tasdiqlaydi: Laqit ibn Malik ham payg'ambarlikni da'vo etgan. Umon hududi Madina shahar-davlati uchun Sosoniylar imperiyasiga qarshi strategik ahamiyatga ega edi. Shuning uchun, Abu Bakr Umonga birdaniga uch qo'shin – al-Muhojir ibn Abi Umayyani, uning orqasidan Ikrima ibn Abi Jahl (vaf. 634 y.) boshchiligidagi askarlarni, so'ng Huzayfa ibn Mihsan (vaf. 656y.)ni Himyar hududidan yubordi. Bundan ko'rish mumkinki, Abu Bakr Laqit va uning Umondagi tarafdarlarini yirik siyosiy raqiblar sifatida qabul qilgan.

7.2. ZAKOTNI INKOR ETISH VA DINDAN QAYTISH HARAKATI

Madina shahar-davlati hukmronligiga qarshi harakat faqat mutannabbiylik shiori ostida emas, balki boshqa ko'rinishlarda ham namoyon bo'ldi. Bu haqdagi ma'lumotlarni Abu Bakr askarlar yuborganligi haqidagi xabarlar orasidan topishimiz mumkin. Aynan 632-yil oktyabr oyida (11 hijriy yil sha'bon oyida) Abu Bakr lashkarlarni 11 guruhga bo'lib, joylardagi isyon va harbiy harakatlarni bartaraf etish uchun yuboradi. Shulardan faqat 3 tasi (Xolid ibn al-Valid (vaf. 642 y.) – Tulayha ibn Xuvaylidga, undan so'ng esa Tubahga – Malik ibn Nuvayroga qarshi; Ikrima ibn Abi Jahl (vaf. 634 y.) – Yamomaga Musaylimaga qarshi; Shurahbil ibn Hasana (vaf. 639 y.) – Ikrima ibn Abi Jahlga yordamga) *mutanabbiylarga* qarshi yuboriladi.

Shuningdek, zakot to'lamay qo'ygan qabilalarga qarshi al-Muhojir ibn Abi Umayya – avval Yamanga, al-Asvat al-Ansiyning tarafdori Qays ibn Makshuxga qarshi, so'ngra esa

– Hadramavtga – Kinda ahliga qarshi; Huzayfa ibn Muhsin al-G‘atafoniy – *Banu Dabbo* qabilasiga yuborildi.

Ammo, qolgan 6 harbiy qo‘sinni (al-Alo‘ ibn al-Hadramiy (vaf. 642 y.)ning Bahrayn viloyatidagi dindan qaytgan qabilalarga; Xorija ibn Huzofa (vaf. 660 y.)ni *Banu Sulaym* va *Havozin* urug‘iga qarshi; Amr ibn al-Osni *Banu Qudo‘a* qabilasiga; Xolid ibn Sa‘id ibn al-Os (vaf. 635 y.)ni Shom chegarasiga; Suvayd ibn Muqarinni Yamanning Tihoma viloyatiga; Arfaja ibn Xarsamaning Mahra ahliga qarshi) faoliyati tadqiqotlarda etarli darajada o‘z aksini topmagan. Biz ularning tahliliga batafsil to‘xtash lozimligini joiz deb hisobladik.

Bahraynda Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng yangi siyosiy vaziyat vujudga keldi. Bir siyosiy guruh al-Hatm ibn Dubay‘a boshchiligidida Madina hukmronligini qabul qilmaslikka, boshqa guruh – *Banu Abd al-Qays* qabilasi boshlig‘i al-Jorud rahbarligida Madina hokimiyatiga sodiq qolishga qaror qildilar. Bahraynda ichki beqarorlik kuchaydi. Bu holatda Abu Bakr tomonidan yuborilgan al-Alo‘ ibn al-Hadramiy al-Jorudga yordamga keldi va Bahrayndagi holatni o‘z foydasiga hal qildi.

Yamanda *ar-Ridda* harakati unchalik katta ko‘lamda bo‘lgan emas, chunki yamanliklar Abu Bakr ga bay’at bergenlar va zakotlarini o‘z vaqtida yuborganlar.

Ammo, Abu Bakr Yaman ahlidan Qays ibn Abdyag‘usga qarshi al-Muhojir ibn Abi Umayyani yuborganligi manbalarda o‘z aksini topgan. Mazkur Qays *mutanabbiy* al-Asvat al-Ansiyning eski tarafдорлари bilan aloqa bog‘lab, San’oni Madina ittifoqdoshi Fayruz qo‘lidan olib qo‘ydi. Najronda esa, Amru ibn Ma’dikarib (vaf. 641 y.) Madinaga qarshi isyon boshladi.

Al-Abno ‘lar(yamanlik fors va arab chatishma avlodlari) rahbari Fayruz, al-Muhojir kelgunga qadar, o‘z kuchlari – Yamanning *Ak* va *Aqil* qabilalari yordamida Qaysni San’odan siqib chiqardi. Qays esa Ma’dikarib bilan birlashib, Najronda harakat boshladi. Shunday og‘ir bir holatda al-Muhojir Madinadan, Ikrima ibn Abi Jahl esa Umordan yetib kelib, isyonchilarni butunlay tor-mor qildilar.

Ayni shu paytning o‘zida Yamanning sharqida joylashgan Hadramavtda ham Madinaga qarshi siyosiy harakat avj olgan edi. Bu yerda Banu Amr ibn Muoviya qabilasi to‘rt rahbar va Kinda qabilasi al-Ash’as ibn Qays boshchiligidagi isyon ko‘tardilar. Hokim Ziyod ibn Labidga yordam berish uchun Abu Bakr al-Muhojir ibn Abi Umayya va Ikrima ibn Abi Jahlni yubordi. Uzoq davom etgan janglar Madina askarlarini foydasiga hal bo‘ldi.

Abu Bakr amalgalasiga qarshi olib borgan harakatlari tadqiqotlar doirasida kam ko‘rilgan masaladir. Banu Sulaym ahlini Madina ta’sir doirasiga kiritish uchun Abu Bakr unga qarshi qo‘mondon Torifa ibn Hojiz boshchiligidagi qo‘shinni yuboradi. Bu haqda al-Balazuriy o‘zining “*Futuh al-buldon*” asarida quyidagi ma’lumotlarni keltiradi: “Bajir ibn Iyos ibn Abdulloh ibn Sulamiy Abu Bakrdan quvvat so‘rab kelganda, unga qurol-aslaha bilan yordam bergen. Bajir Abu Bakrdan yordam olgach, muslimmonlarga qarshi kurasha boshladi. Abu Bakr unga qarshi Torifa ibn Hojizni yuboradi. Banu Sulaymga qarshi jang Bajirning asir olinishi bilan tugaydi. Torifa Bajirni Abu Bakr oldiga yuborgan vaqtida xalifa uni yoqib yuborishni buyurgan”. Demak, bu isyon mahalliy ahamiyatga ega bo‘lgan ko‘p sonli voqealardan biridir. U Abu Bakr arab qabilalari qarshiliginini sindirish borasidagi faoliyatining naqadar keng miqyosda bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Islomshunoslikda isbotlangan faktlardan biri shuki, Muhammad (s.a.v.) yangi din da’vatini *mushriklar* (ko‘p xudolik e’tiqodidagi arablar), ya’ni arab qabilalari orasida yoygan. Abu Bakr ham Payg‘ambar (s.a.v.) ishini davom ettirib, o‘z vazifasini faqat qabilalarini Madina hukmiga qayta bo‘ysindirishda deb bilgan. Ammo bu kontekstda Abu Bakr tomonidan Xolid ibn Sa‘idni Shom va Amr ibn al-Osni esa *Banu Qudo‘a* yerlariga yuborganligi katta ilmiy ahamiyat kasb etadi. Darhaqiqat, mazkur ikki qabila yashab turgan hududlar Vizantiya imperiyasiga qarashli edi. Lekin, shu bilan bir qatorda, ushbu qabilalar arab qabilalari deb ham sanalardilar. Bu jihatdan, ular Abu Bakr tarafidan *ar-Ridda* obyekti deb qaralishi mumkin edi. Demak, arab qabilalarini islom, ya’ni Madina hukmronligiga

bo‘ysundirishni Abu Bakr bevosita o‘z vazifalaridan deb bilgan. Bu xulosa arab istilolari boshlanishi, islom dinining Arabiston yarimoroli tashqarisiga yoyilishiga turki bo‘lgan ilk sabablardan birini aniqroq tushunishga yordam berishi mumkin.

Vizantiya imperiyasi yosh arab davlati uchun o‘ta jiddiy raqiblardan bo‘lib, Madina unga qarshi chiqishga jazm qilolmas edi. Ammo Abu Bakrning Vizantiyaga tobe Shom hududlariga harbiy qo‘sish yuborishini qanday izohlash mumkin. Bu g‘oyat og‘ir va o‘ta nozik masalani echishda bir jihatni e’tibordan chiqarmaslik lozim.

Ma’lumki, 613-614-yillarda bo‘lib o‘tgan urush natijasida Eron Vizantiyaga tegishli bo‘lgan Suriya va Falastin yerlarini bosib olib, bu yerdagi o‘ttiz mingga yaqin arablardan bo‘lgan mudofaachilarni qirib tashlagan edi. Bu yerlarga ichki Arabistondankeyinchalik yangi qabilalarko‘chibkelib joylashgan, degan ehtimol mavjud. Bu siyosiy jihatdan qarovsiz qolgan arab qabilalari ustidan nazorat o‘rnatish zaruratini Muhammad (s.a.v.) ham sezgan. Xuddi shu yo‘nalishda Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan Mu’taga qo‘sish yuborilishini izohlash mumkin. Abu Bakr zamonida esa ana shu qabilalar ustidan nazorat o‘rnatish orqali Arabiston yarimoroli shimolining xavfsizligini ta’minlash muhim vazifalardan biri bo‘lib qoldi. Usoma ibn Zayd (vaf. 674 y.) boshchiligidagi qo‘sinni shimoliy hududlarga yuborilishini aynan shu ma’noda talqin qilish mumkin. Xuddi shu xulosani Usoma boshchiligidagi qo‘sinni Rum (Vizantiya) yerlariga kuzatayotgan Abu Bakrning askarlarga aytgan so‘zлari tasdiqlaydi:

“Xiyonat qilmang, ahdlaringizni buzmang, yosh bolalarga, qariyalarga, ayollarga qo‘l ko‘tarmang, mevali daraxtlarni sug‘urib tashlamang, o‘t qo‘yib kuydirmang, qo‘y, mol va tuyalarni faqat eyish uchungina so‘ying, cherkovda ibodat bilan mashg‘ul bo‘lgan rohiblarni o‘z hollariga qo‘ying, ularga ozor bermang. Olloh nomi bilan ish yuriting va Ollohdan madad tilang”.

Mazkur 11 qo‘mondon safari vaqtini aniqlash Abu Bakrning zu-l-Qassadagi janglarining aniq sanasini belgilashda yordam berishi mumkin. Manbalar Usoma ibn Zaydning Madinaga

qaytgandan so‘nggina bu qo‘mondonlar yo‘lga otlanganlari haqida xabar beradilar. Ma’lumki, Usoma Madinaga 632-yil sentyabr oyida qaytib keldi. Shu davrda Abu Bakr Madina yaqinidagi *zu-l-Qassa* nomli yerda Madina shahar-davlatiga bo‘ysunmay qo‘ygan Tay va G‘atafon qabilalariga qarshi jang qilish uchun shaxsan o‘zi otlandi. Shu asosda *zu-l-Qassa* jangi 632-yil sentyabr oxirida yuz berdi, deb hisoblash mumkin.

Demak, Abu Bakr siyosiy rahbar sifatidagi o‘z faoliyatini Madina nazoratidan chiqib ketgan qabila va hududlarni yangi vujudga kelayotgan davlat hukmronligi ostiga qaytarishdan boshladi.

Manbalarda “*ar-Ridda*” nomi bilan mashhur mazkur jarayon ko‘p hollarda “sof diniy”, ya’ni “islom diniga qabilalarni qaytarish” harakati sifatida talqin qilinadi. Ammo tadqiqotlar Madina shahar-davlatiga qarshi chiqqan rahbarlardan faqat 5 kishi mutanabbiylikni da’vo qilganliklarini ko‘rsatadi. Qolganlari sof siyosiy shiorlar ostida harakat qildilar.

Bu ma’lumotlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, hali ham Muhammad (s.a.v.) davridagi kabi faqat diniy rahnamo sifatida e’tirof etilgan shaxsgina davlatning boshlig‘i bo‘lishi mumkin. Demak, Abu Bakr zamonida davlat o‘zining teokratik xarakteri tusini saqlab qoldi. Ammo, oliv hokimiyat uchun kurash borgan sari oshkora siyosiy tus ola boshladi.

Avvalgi tadqiqotlarda kam e’tibor berilgan turli manbalarda zikr etilgan *ar-Ridda* voqealari tafsilotlarining tahlili Madinaga qarshi bo‘lgan siyosiy-harbiy harakat qamroving kengroq, jiddiyroq bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Abu Bakrning barcha arab qabilalarini Madina shahar-davlati nazorati ostiga olish yo‘lida olib borgan janglari boshqa imperiyalar hududiga ko‘chdi va arab yurishlariga aylanib ketdi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Ridda deganda nimani tushunasiz?*
2. *Mutanabbiylar kimlar?*
3. *Nima uchun Musaylima “kazzob” (yolg‘onchi) laqabini oldi?*
4. *Abu Bakr tomonidan ahli riddaga necha guruh askar yuborilgan?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Mutanabbiylik harakati vakillari.*
2. *Zul qassadagi jang mohiyati.*
3. *Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan keyin Hijozdagи arab qabilalarining diniy, siyosiy ahvoli.*
4. *Musaylima va Sajoh o‘rtasidagi munosabatlar.*

Qo‘srimcha adabiyotlar

1. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira.
2. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
3. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
4. Richards D.S. Papers on Islamic History: Islamic Civilisation. 950-1150. – Oxford, 1973.
5. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
6. Пиотровский М.Б. Пророческое движение в Аравии в VII в. // Ислам. Религия, общество, государство. – М.: ГРВЛ, 1984. – Б. 19-27.
7. Пиотровский М.Б. Мухаммед, пророки, лжепророки, кахины // Ислам в истории народов Востока. – М.: ГРВЛ, 1981. – Б. 9-18.
8. Резван Е.А. Тулайха // Ислам: энциклопедический словарь. – М.: ГРВЛ, 1991. – Б. 238.

8-BOB. YANGI TASHKIL TOPGAN ARAB-MUSULMON DAVLATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR

Tayanch iboralar: *sadaqa, zakot, jizya, ushr, anvatan, sultan, as-savofiy, xaroj, jizya, misoha, muqota'a, muqosama.*

8.1. ZAKOT

Yangi davlatning moliyaviy qudratini shakllantirish va uni rivojlantirishda soliqlar muhim o'rin tutadi. Ma'lumki, rivojlangan soliq tizimi davlat qudratini ta'minlaydi. Muhammad (s.a.v) ham Madina shahar-davlati iqtisodiy tizimini shakllantirish harakatini boshlab berdi. Ilk davr soliq tizimida Madina hukmiga bo'ysindirilgan qabilalarning mol-mulkları asosiy o'rın tutdi. Lekin Payg'ambар (s.a.v) davrida (622–632) chorva-moldan davlat foydasiga olinadigan soliq mavhum – goho “*sadaqa*”, goho “*zakot*” deb atalib, bu termin-atamalar ilk davrda sinonim so‘zlar sifatida qo'llanildi.

Qur'onning tarixiy oyatlaridan qadimda yahudiy va nasroniy jamoalar uchun ham diniy soliqlar qo'llanilganligini ko'rish mumkin. Demak, Arabiston yarimoroli, Vizantiya va Sosoniylar davlatlaridagi xristianlik va yahudiylilik dinlariga e'tiqod qiluvchi aholi uchun islom paydo bo'lishidan oldin bunday soliq turi ma'lum bo'lган. Qadimda xristianlik diniga e'tiqod qiluvchi aholi oylik daromadining o'ndan birini (desyatina) soliq sifatida cherkovga olingan. Yahudiylarda esa diniy majburiyat sifatidagi soliq “*solihlik*” (*sedaka*) deb atalgan. Islom dinida ham zakot solig'i musulmonlarning boy tabaqalari uchun diniy majburiyat sifatida joriy etildi. Xristianlik va yahudiyligidan farqli o'laroq zakot solig'i musulmonlardan yiliga bir marta yig'ib olinadigan bo'ldi. Avvaliga Muhammad (s.a.v.) va xalifa Abu Bakr davrida (632–634) zakot solig'i Qur'onda buyurilganidek, faqat *faqirlar, miskinlar, sadaqa [zakot] yig'uvchilar, ko'ngillari islomga oshno qilinuvchi kishilar, qu'llarni ozod qilish uchun, qarzdorlar va musofirlarga tarqatildi.*

Muhammad (s.a.v.) zakot solig'idan tushgan mablag'ning ma'lum qismini musulmon bo'limgan arab qabilalarining

shayxlari, e'tiborli kishilarga nafaqa sifatida berib turgan. Bundan asosiy maqsad ularning qabiladoshlari orasida islom diniga nisbatan hurmat hissini uyg'otish edi. Ammo, Qur'onda zikr etilgan mazkur etti toifaning ichidagi *ko'ngillari islomga oshno qilinuvchi kishilar* (*muallafatu-l-qulubihim*)ga nafaqa berish hukmining bekor (*mansux*) qilinishi masalasida biroz noaniqliklar mavjuddir. Masalan, ushbu toifaga Abu Bakr davrida zakot solig'idan tushgan mablag' hisobidan nafaqa (mukofot) berish hukmi bekor qilingan degan xulosa mavjud. Biroq, bu fikrga biroz oydinlik, aniqlik kiritish maqsadga muvofiqdir. Chunki, tarixiy manbalarning xabar berishicha, Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan keyin Arabiston yarimorolida yuz bergan *ar-Ridda* harakati natijasida ko'plab islomni qabul qilgan arab qabilalari Abu Bakrغا zakot solig'i to'lashdan voz kechdilar. Abu Bakr zakot solig'i to'lamagan ba'zi qabilalarning musulmon bo'limgan sayyidlariga *muallafat al-qulubihim* nafaqasini berishdan bosh tortdi. Ammo, qabilasi o'z vaqtida zakot solig'ini to'lab borgan qabila sayyidlariga nisbatan mazkur statusni saqlab qoldi. Masalan, Ibn Sa'dning ma'lumot berishicha, Abu Bakr musulmon bo'limgan Adiy ibn Hotim (vaf. 687 y.)ga yig'ilgan zakotdan 30 tuyani hadya qilgan. Keyinchalik, xalifa Umar ibn al-Xattob davriga kelib, islom davlatining ta'sir doirasi Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqdi va uning nufuzi etarli darajada mustahkamlandi. Shu sababdan, islom davlati uchun Muhammad (s.a.v.) va Abu Bakr davrlarida yig'ilgan zakot solig'i hisobiga yashovchi musulmon bo'limgan rahbarlar (*muallafat al-qulubihim*) yordamiga ortiqcha zarurat qolmadı. Shu holatda davlat boshi Umar ibn al-Xattob bu toifaga nafaqa to'lashni uzilesil to'xtatdi. Demak, Umar ibn al-Xattob Qur'on oyatlarida zikr etilgan *ko'ngillari islomga oshno qilinuvchi kishilarga* nafaqa berishni to'xtatish haqidagi hukmi bu oyatning amalda mansux qilinishida asosiy rol o'ynadi.

8.2. XAROJ

Muhammad (s.a.v.) davrida sug'oriladigan yerlar, xurmozorlardan olinadigan soliqlar butunlay boshqa turda bo'lib, bosib olingan yerlar Madina shahar-davlati tomonidan o'zining

avvalgi egalariga yangidan ijara sifatida rasmiylashtirib berilgan. Davlat ularga hech qanday natura yoki pul solig'i solmas, balki hosil pishgandan so'ng esa uning ko'proq (50 %dan to 75 % gacha) qismini ijara haqi sifatida yig'ib olar edi. Keyinchalik istilolar (*fath*) natijasida Arabiston yarimoroli tashqarisida joylashgan katta hajmdagi sug'oriladigan yerlar bosib olini boshlandi. Davlat xo'jaligi tobora murakkablashib borganligi sababli Umar ibn al-Xattob davriga kelib soliq tizimiga bir necha yangiliklar kiritildi. Ulardan eng asosiyisi *xaroj* bo'lib, u qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan olini boshladi.

Davlat soliq tizimida Muhammad (s.a.v.) davrida chorvamoldan olinadigan zakot tushum miqdori sug'oriladigan yerdan olinadigan *xaroj* tushum miqdoridan tobora ozayib borganligi sababli zakot davlat solig'i sifatida o'z mavqeini yo'qota boshladi. Asosiy davlat solig'i mavqeini xalifa Umar davriga kelib *xaroj* egallay boshladi. Chunki umumiylar hajm jihatidan *xaroj* davlat kirimining asosini tashkil etdi. Zakot esa har bir musulmonning davlat oldidagi emas, balki uning yaratgan oldidagi diniy majburiyatga – nochor musulmonlar uchun beradigan diniy soliqqa aylana boshladi. Tabiiyki, uni taqsimlash jamoa diniy sudyasi – qozining ixtiyorida bo'ldi.

Shuningdek, Umar ibn al-Xattob davriga kelib, yetishtirayotgan hosilning soliq miqdorini yer o'lchov birligiga qarab belgilash joriy etila boshlangan. Masalan, har *jarib* (1592 m²) bug'doyzordan – 4 dirham, arpazordan – 2 dirham, paxta va kunjut uchun – 5 dirham, *al-forsiy* navli xurmoning har bir tupi uchun – 1 dirham, uzumzordan – 10 dirhamdan *xaroj* solig'i tayin etilgan. Payg'ambar (s.a.v.) va Abu Bakr davrlarida zakot chorva-mol solig'i ma'nosida tushunilgan va uning miqdori molning ($\frac{1}{40}$) ulushini tashkil qilgan. Keyinchalik *xaroj* turlari rivojlangan davrda mol-mulkning ($\frac{1}{10}$) hajmida yig'ib olinadigan *xaroj* turiga *ushr* nomi berildi.

Islomdan avvalgi arablar amaliyotida biror hududni kuch bilan (*anvatani*) bosib olish davomida aholi punktlaridagi ekinzorlarni o'zaro mulk qilib bo'lib olish odad tusiga kirgan edi. Muhammad (s.a.v.) ham shu odatga ergashgan holda Xaybarni zabit etish (628

yil) davomida egalari urushda halok bo‘lgan ekinzorlarni istiloda qatnashgan askarlarga bo‘lib bergen edi.

Davlat mustahkamlana borgach, bu amaliyotdan voz kechila boshlandi. Umar ibn al-Xattob Sosoniylar va Vizantiya imperiyalari hududlaridagi podshohlar, ularning oilalari, amaldorlar hamda urushda o‘lganlar, qochib ketgan yer egalarining ekinzorlarini davlat mulki hisobiga o‘tkazdi. Bu yangi yerlar musodara qilinmaydigan *as-savofiy* yerlar deb nom oldi. Ayniqsa as-Savod, Shom viloyatlari arab davlati tasarrufiga kiritilgach, savofiy ekinzorlar hajmi ortib ketdi. Ular davlat tasarrufiga kiritilib, ijaraga berila boshlandi. Umar davrida davlat amaliyotida eski amaliyotni davom ettirmoqchi bo‘lgan qo‘mondonlarning xatti-harakatlari keskin to‘xtatildi.

Demak, Umar ibn al-Xattob Muhammad (s.a.v.) tomonidan ta’sis etilgan askarlarning *al-fay* ulushini bekor qilib, uning o‘rniga yangi institutni joriy etdi. Bu – askarlik devoni edi. Bu esa o‘z navbatida har bir askarga davlat tomonidan muayyan maosh to‘lab turishni taqozo qildi.

Markazlashib kelayotgan davlatning iqtisodiy rivojlanishida *xaroj* (yerdan olinadigan mahsulot solig‘i) instituti muhim o‘rin tutadi. Avvalgi davrida Arabiston yarimorolidagi dehqonchilik rivojlangan biror hudud (*sulhan*) istilo etilganda, undagi dehqonlarning ekinzorları o‘z egalarida qoldirilib, ularga *jizya* solig‘i o‘rniga *xaroj* solig‘i tayin etilgan. Bu holatni Muhammad (s.a.v.)ning Hajar aholisi bilan sulh tuzib, ularga *xaroj* tayin etishi misolida ko‘rishimiz mumkin. Demak, *xaroj* solig‘ini birinchi bo‘lib arab davlatchiligi tarixida Muhammad (s.a.v.) tatbiq etgan. Ammo, Umar ibn al-Xattob davriga kelib, davlatchilikning tezlik bilan rivojlanib borishi sharoitida *anvatan* yoki *sulhan* istilo etilgan yerlarning har ikkisiga ham ekinzorlar hosillaridan olinadigan *xaroj* solig‘i tayin etila boshlandi.

Arab xalifaligi amaliyotida *xarojning* uch turi shakllana boshladi: *misoha*, *muqota’*, *muqosama*. Birinchi turdag'i soliq (*misoha*) olish tartibi quyidagicha bo‘lgan: ishlov berilgan yer bir necha qismga bo‘linib, uning ma’lum bir qismida yetishtirilgan hosil davlatga to‘lig‘icha natural holda soliq qilib olingan.

Ikkinchи turdagи soliq (*muqota ’a*) esa katta yerdan foydalanish uchun bir necha yil oldin, belgilangan pul miqdori bilan olingan. Uchinchi turdagи soliq (*muqosama*) yerda yetishtirilgan umumiy hosilning bir qismi holida davlat foydasiga olingan.

8.3. JIZYA

Yangi shakllanayotgan soliq tizimida musulmon bo‘lmagan aholidan jon boshi hisobida olinadigan *jizya* solig‘i muhim o‘rin tutdi. *Al-Jizya* instituti Arab xalifaligi o‘tmishdoshlari – Sosoniylar (224–651) va Vizantiya imperiyalari davlat tizimida ham mavjud bo‘lgan. Bu imperiyalar hududida yashagan johiliya davri arablari mazkur jon solig‘ini *joliya* deb ataganlar. Davlat namoyandalari bu soliqni yiliga uch marta yig‘ib olganligi ma’lum. Shohan-shoh Xusrav Anushirvon (531–579) xristianlar, yahudiylarning ba’zi toifalariga bu soliqni joriy qilgan. Ammo, boshqa dinlarga e’tiqod qiluvchilar orasidan zodagon xonadonlar vakillari, voliylar, otliq askarlar, haram (ibodatxona) xizmatchilari, sudyalar, dehqonlarning raislari va devon kotiblari bu soliqdan ozod etilganlar.

Jizya instituti ham yangi davlat tarafidan o‘zlashtirila boshlandi. Avvaliga ushbu soliq yangi din tarafidan Qur’onda sakrallashtirildi: *Allohga va oxirat kuniga ishonmaydigan, Allah va uning Rasuli harom qilgan narsalarni harom sanamaydigan, haq din [islom]ni din qilib olmaydigan ahli kitoblardan iborat kishilarga qarshi – to ular o‘zlarini past tutib, jizya [soliq] ni naqd bermagunlaricha – jang qilingiz!*²⁵ Yangi davlat bu soliq evaziga musulmon bo‘lmagan jamoa a’zolarini (*ahl az-zimma*) urushda talafot ko‘rmasliklarini, mol-mulki, uylari, hayotlari, ibodat yerkinliklari va cherkovlarining himoyasini ta’minalashga va’da berdi. *Ahl az-zimma* statusiga avvalgi davrda boshqa dinlar vakillari orasidan *ahl al-kitob*, ya’ni xristianlar, yahudiylar va sobiyalar ega bo‘ldilar. Lekin xristianlar va yahudiylar masalasida aniqlik mavjud bo‘lsada, sobiy termini mavhum bo‘lib qoldi. Sobilar aslida mandeizm diniga e’tiqod qilgan oromiylardan bo‘lib, qadimda Iroqning shimolida tarqoq holda yashaganlar.

²⁵ Qur’on, 9: 29.

Ularga Qur’onda yahudiy va xristianlar bilan *ahl al-Kitob* sifatida ta’rif berilgan. Madina davlati hukmi Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqqach, aqida jihatdan turli bo‘lgan ikki diniy firqa a’zolari o‘zlarini Qur’ondagi “*sobilar*”ga bog‘lashga harakat qila boshladilar. Ular ikki toifa: 1) Ioann Cho‘qintiruvchi (*Ioann Krestitel*) jamoasi xristianlari va 2) Shimoliy Mesopotamiyadagi Harron jamoasi edilar. Biroq tadqiqotchi Muhammad Shafiq G‘irbol ikki tarixchi ash-Shahrastoniy (vaf. 1253 y.) va Abu Abdulloh ad-Dimashqiyning (arab geografi, vafoti 1327 y.) ma’lumotlariga asoslanib, bu firqani *ahl al-Kitoblardan* emasligini, ular yulduzlarni Alloh bilan olam o‘rtasidagi vosita bilib, ularning timsollariga sig‘inganliklarini yozadi. Shuningdek, *sobilar* farishtalar va yulduzlarga sig‘inuvchilar, deb ham ta’rif berilgan. Ammo, M.B. Piotrovskiyning fikricha, Qur’ondagi *sobilar* aslida yahudiy-xristian sektalaridan birining a’zolari ekanligi haqida xulosa chiqaradi, chunki “*sobi*” atamasi bobil-oromiy tilida “*sb*” so‘z o‘zagi – “cho‘qintirmoq” ma’nosini anglatadi. Demak, xalifalar Harron *sobilarining* haqiqatdan ham xristianlikning bir oqimi sifatida qabul qilganlar. Ularning kelib chiqishi va diniy e’tiqodiga unchalik e’tibor bermaganlar va Qur’ondagi oyatlar asosida ularga “*ahl al-Kitob*” sifatida “*ahl az-zimma*” huquqiy statusini berib, ulardan *jizya* olganlar. Shuningdek, *sobilar* Umaviylar (661–750) va Abbosiylar (750–1258) davrida ham xalifalar saroyida kotib, tabib, tarjimon va boshqa arboblar sifatida faoliyat olib borganlar.

Arab istilolari Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqqandan so‘ng, soliq tizimida zardushtiyalar masalasi paydo bo‘ldi. Lekin arab istilolari davrida Eron hududida yashagan aksariyat zardushtiyalar o‘z dinlarini vaqtincha saqlab turish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bunga sabab avvaliga arab qo‘mondonlari mahalliy viloyatlar marzbonlari bilan sullh shartnomalarini tuzib, ularidan harbiy o‘lponlar olish bilan chegaralandilar. Bu chora sharqiy yo‘nalishda istilolarni davom ettirish va bosib olingen hududlarda tinchlikni ta’minlash uchun etarli bo‘ldi. Marzbonlar esa yangi hukmdorlar uchun o‘lponni eski Sosoniylar davridagi soliq yig‘ish tartibi asosida aholidan yig‘ib olishni davom ettirdilar.

Lekin zardushtiylargalara arablar tomonidan bo‘lgan eski adovat va salbiy munosabat boshqa din va hudud vakillariga nisbatan ham kuchliroq edi. Chunki zardushtiylik arab qabilalarida ularni uzoq davr mobaynida qiyagan Sosoniyalar davlatining rasmiy dini sifatida nafrat hissini uyg‘otar edi. Zardushtiylarni arab istilochilar “otashparastlar” (*al-Majus*) deb atab, ularni olovga sig‘inishda aybladilar. At-Tabariy, al-Balazuriy va an-Nisoburiy kabi arab tarixchilar payg‘ambar Zaratushtrani “*Mutanabbiy*” (yolg‘onchi payg‘ambar) sifatida, zardushtiylarni esa butparastlar sifatida tasvirlaydilar. Lekin xalifa Umar ibn al-Xattob davrida soliq tizimini mukammallashtirish vaqtida zardushtiylar masalasi yana bir bor ko‘tarildi. Ularning son jihatidan ko‘pligi va davlat xazinasiga keltirishi mumkin bo‘lgan salmog‘i hisobga olinib, zardushtiylargalarga ham *ahl az-zimma* statusi berildi. Bu zimmiyalar uzoq vaqtlar davomida xazinaga katta daromad keltirib turdilar.

Davlatning *jizya* masalasiga dunyoviy va diniy jihatdan ikki xil yondashuvi uning Banu Tag‘lib²⁶ qabilasiga qo‘llagan chorasiida yorqin namoyon bo‘ladi. Ma‘lumki, Banu Tag‘lib arablari islom paydo bo‘lishidan avvalgi davrlardan beri xristian dinida edilar. Lekin shunga qaramay boshqa arab qabilalari bilan birgalikda arab-islom istilolarida (*fath*) ishtirok etdilar. Yangi din talablariga binoan ular *jizya* to‘lamoqlari lozim edi. Lekin davlat rahbarlari (Umar ibn al-Xattobdan boshlab) mazkur qabila a’zolarining Arab xalifaligi davlati manfaatlari uchun olib borilgan urushlarda asosiy harbiy kuch sifatida qatnashganliklarini hisobga olib, ularga istisno tariqasida engillik yaratdilar: Banu Tag‘libning xristian dinidagi a’zolari *jizya* o‘rniga ikki barobar zakot to‘lashlari lozim deb topildi.

Ammo, bu qaror Banu Tag‘lib uchun ikkinchi yangi muammoni keltirib chiqardi. *Jizya* solig‘i ayollar va bolalardan olinmas edi. Banu Tag‘lib aholisi *jizya* o‘rniga to‘lanadigan *zakot* solig‘i sifatida qabila ayollari ham erkaklar qatori ikki barobar zakot, savdo mollaridan ham – ikki barobar *ushr* to‘laganlar. Shu bilan bir qatorda tag‘libiyalar xalifalikdagi boshqa *zimmiyalar* kiyib yurishi zarur bo‘lgan kiyimlar va bo‘yinga osiladigan qo‘rg‘oshin muhrdan ozod qilinganlar.

²⁶ Furot va Dajla daryolarining quyi tarafida yashaydigan arab-xristian qabilasi.

Demak, Umar ibn al-Xattob xristianlar uchun (*jizya* o‘rniga) faqatgina muslimmonlardan olinishi kerak bo‘lgan zakotni joriy qildi. Bundan xalifalikning iqtisodiy siyosatida diniylikdan ko‘ra ko‘proq dunyoviylik unsurlari ustun kela boshlaganini yaqqol ko‘rish mumkin.

Avvalgi davrda soliqlar miqdori muayyan tarzda belgilanmagan edi. Bosib olingan hududlardan olinadigan soliqlarning miqdori Umar ibn al-Xattob hukumati tomonidan ishlab chiqila boshladi. Birinchi navbatda *jizya* solig‘i to‘lovchilar uch toifaga bo‘lindilar:

- 1) boyalar – 48 dirham;
- 2) o‘rtahollar – 24 dirham;
- 3) kambag‘allar – 12 dirham.

Birinchi toifani yuqori tushumga ega bo‘lgan sarroflar, gazlama sotuvchilar, yirik savdogarlar, katta yer egalari, tabiblar, ikkinchi toifani esa hunarmandlar, tikuvchilar, bo‘yoqchilar va kosiblar tashkil qildilar. Uchinchi toifani kam daromadli aholi tashkil etdi. *Jizya* solig‘i ishga yaroqsizlar, qariyalar, nogironlar, ko‘zi va aqli ojizlar, rohiblar, ayollar va bolalardan olinmagan. *Jizya* aholidan har yilda bir marta yoki har oyda qisman to‘lab borish orqali yig‘ib olingan.

Jizya institutini shakllantirishda Umar ibn al-Xattob istilo etilgan hududlardagi iqtisodiy ahvolni hisobga olgan. Shimoliy Arabiston aholisining Yaman aholisiga nisbatan iqtisodiy qudrati yuqoriligi bois Iraq va Suriyaning boy tabaqalari 48 dirham o‘rniga 50 dirhamdan *jizya* to‘laganlar.

Demak, *jizya* solig‘i tizimining to‘liq shakllanishiga Umar ibn al-Xattob xalifalik davriga kelib erishildi. Xazinaga *jizya* hisobidan kelib tushadigan kirimning umumiylajmiy hajmida ham ancha o‘zgarishlar yuz berdi. Masalan, pokistonlik tadqiqotchi Sh. Nadviy «Xalifa Usmon davriga kelib har bir *ahl az-zimmadan* olinadigan *jizya* miqdori oshib ketdi», – degan fikrni bildiradi. Ammo, manbalarda yakka kishi boshidan olinadigan *jizya* solig‘ining miqdori Usmon va Ali davrlarida (644–661) o‘zgarishsiz saqlanib qolganligi qayd etilgan. Ayni vaqtida zimmiylardan olinadigan *jizya* solig‘idan *bayt al-molga* kelib tushadigan kirimlar umumiylajmiy miqdori jiddiy tarzda oshdi. Buning

sababi Umar davrida boshlangan yurishlar Usmon ibn Affon davrida nihoyasiga etdi. Yurishlar natijasida Xuroson, Toxariston, Ifriqiya (Tunis), Ozarbayjon, Armaniston va boshqa mamlakatlar markazlashgan arab davlati tasarrufi ostiga kiritildi. Demak, *Bayt al-mol* tushumlarining ko‘payishi aynan mana shu yangi bosib olingen hududlardagi *ahl az-zimma* hisobidan bo‘ldi.

8.4. USHR

Arab-musulmon davlati byudjetining yuksalishidagi asosiy manba rolini *ushr* (arab tilidan so‘zma-so‘z: *o‘ndan bir*) solig‘i o‘ynadi. *Ushr* solig‘i yig‘ilgan hosilning $\frac{1}{10}$ qismiga teng. Aksariyat manbalarda *ushr* solig‘i ba’zan alohida, ba’zan *xaroj* solig‘ining tarkibiy qismi sifatida talqin etiladi. *Ushr* solig‘i xalifa Umar ibn al-Xattob davrida o‘zining aniq ko‘rinishiga ega bo‘ldi. Bu davrga kelib, markazlashgan islom davlatining soliq siyosatida boj va savdo *ushri* paydo bo‘ldi. Bu soliq urush olib borilayotgan davlat (*balad al-harb*) dan Madina davlati tasurrufidagi hududlarga tijorat uchun qatnaydigan kemalar va yakka savdogarlarning tovarlari hisobidan olingen. Shuningdek, boj *ushrining* foiz qiymati ham savdogarning diniy e’tiqodiga qarab belgilangan: musulmonlardan ushrning choragi ($\frac{1}{4}$), ya’ni 2,5 % yoki 5 dirham yoki yarim misql oltin, zimmiylardan ushrning yarimi ($\frac{1}{2}$), ya’ni 5 % yoki 10 dirham yoki bir misql oltin, musulmonlar urush e’lon qilgan hududdan kelganlar (*ahl balad al-harb* yoki *harbiy*) uchun esa o‘ndan bir ($\frac{1}{10}$), ya’ni 20 dirham yoki ikki misql ushr olingen. Shuningdek, ushr solig‘ining nisobi 20 misql tilla yoki 200 dirham etib belgilangan. Bundan ushrga ham zakotning nisobi asosiy mezon qilib belgilanganini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, islom davlati hududiga kirib kelayotgan bug‘doy va yog‘ mahsulotlariga musulmonlarda ehtiyojning kattaligi uchun yarim ushr, mosh, no‘xot, yasmiq, loviyalarga – to‘liq ushr tayin etilgan.

Yangi barpo etilgan Kufa va Basra shaharlarining bozorlarida savdogarlarga yer haqi va boj solig‘i tayin etilmagan. Yangi qurilgan harbiy lagerlarda askarlarning o‘zlari yashamaganlar. Ular o‘z oilalarini birga olib yurish imkoniyatiga ega bo‘lganlar. Shahar tashqarisidan keltiriladigan kundalik oziq-ovqat va

boshqa tovarlarga ehtiyoj katta bo‘lganligi tabiiy. Shuningdek, Kufa va Basra shaharlari o‘sha davrda *balad al-harbga* yaqin yerda joylashganligi va xalifa Umarning buyrug‘iga binoan har bir chetdan kelgan tijoratchi uchun boj solig‘i (*ushr*) joriy etilgan. Tarixchilarning xabar berishlaricha, Umar ibn al-Xattob Iroq va Shom hududlari uchun *ushr*, ya’ni boj solig‘ini to‘plash uchun as-Sari ibn Ismoilni tayinlagan. Demak, Kufa va Basra shaharlaridagi bozorlardan ham boshqa shaharlardagidek, boj va boshqa soliqlar o‘z o‘rnida va muayyan tarzda olingan.

Manbalar boj solig‘iga Umar ibn al-Xattob xalifaligi davrida asos solinganligini xabar beradi. Basra voliysi Abu Muso al-Ash’ariy (vaf. 665 y.) xalifaga maktub yo‘llab, musulmonlar *balad al-harb* hududlariga tijorat uchun kirsalar, mollarining o‘ndan birini soliq sifatida olayotganliklarini yozadi. Unga javoban xalifa: musulmonlardan qancha olayotgan bo‘lsalar, *balad al-harb* aholisidan – 10%; *ahli zimmadan* – 5%; musulmonlardan esa – 2,5% *ushr* solig‘i olish lozimligi haqida buyruq beradi.

Shuningdek, Furot daryosi yoqasida joylashgan Manbij savdogarları Umar ibn al-Xattobdan tijorat uchun markazlashgan arab-musulmon davlati tarkibiga kirgan hududlarda ushr solig‘i evaziga savdo qilishga ruxsat so‘raydilar. Xalifa sahabalar bilan kengashib, ularning taklifiga rozi bo‘ladi.

Demak, savdo va boj ushrini Umar ibn al-Xattob ta’sis etdi. Muhammad (s.a.v.) va Abu Bakr davrida boj solig‘i mavjud bo‘lmagan. Ko‘rinib turibdiki, Umar bu soliq turini ham yangi davr voqeligidan kelib chiqib, joriy etdi.

Shuningdek, zabit etilgan hududlarning yangi dinni qabul qilgan dehqonlari o‘z ekinzorlaridan *xaroj* solig‘i o‘rniga *ushr* solig‘i to‘laganlar. Lalmikor va ariqlardan sug‘oriladigan yerlardan ushr, quduq, hovuz, meshlarda sug‘oriladigan yerlardan esa yarim ushr olingan. Bu misollardan Umar ibn al-Xattobning davlat hukmi doirasini yangi hududlarga kengaytirishda soliqlar siyosatidan unumli foydalana olganligini ko‘rish mumkin.

8.5. BAYT AL-MOL INSTITUTINING TASHKIL TOPSHI

Yangi rivojlanib kelayotgan davlatning iqtisodiy tizimi shakllanishida “*Bayt al-mol*” (davlat g‘aznasi, pul va boshqa

qimmatbaho buyumlarni saqlash uchun ombor) ning tashkil topishi asosiy rol o‘ynadi. Bu muassasada daromad manbalari va ularni qaerlarga sarf etish borasidagi ma’lumotlar saqlangan. Bayt al-molga keladigan soliqlarning hammasi ham faqat pul shaklida bo‘lmay, balki natural soliqlar – don, qoramollar, matolar va qurol-aslaha turlari ham mavjud edi.

Manbalardan Muhammad (s.a.v.) davrida o‘lja uchun keltirilgan mollar saqlanmasdan, o‘sha kuniyoq askarlarga va sahobalarga bo‘lib berilganligi xabar qilinadi. Abu Bakr davrida Madina davlati tasarrufining kengaya borishi va *ar-Ridda* harakati orqali boshlangan arab yurishlari natijasida davlat g‘aznasiga kelib tushadigan soliqlar miqdori oshib bordi. Avvaliga Abu Bakr davlat g‘aznasini o‘z uyida, keyinchalik masjidda saqladi. Markazlashgan Madina davlati boshqaruvi Umar ibn al-Xattob qo‘liga o‘tgach, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy shakli avvalgi holatini tubdan o‘zgartirdi. U zabit etilgan hududlarning davlat boshqaruvidagi iqtisodiy tizimlarni islom davlati amaliyotiga kiritdi. Shuningdek, Umar ibn al-Xattob devonlar tizimini eroniylardan o‘zlashtirgach, bu devonlarni bir yerga birlashtirish maqsadida bayt al-mol muassasasini tashkil etdi. Shiddat bilan rivojlanib borayotgan davlatdagi qurilishlar, davlatning harbiy salohiyatini oshirish, ijtimoiy ta’minot, iqtisodiy islohotlarni davlat o‘z tasarrufi doirasida ushlab turishi uchun qoplanadigan mablag‘lar va hukumatning boshqa sarflari uchun ketadigan xarajatlar bayt al-moldan olina boshlandi. Bularning hammasi bayt al-molga Umar ibn al-Xattob davrida asos solinganligini ko‘rsatadi. Ammo, tarixchilarning asarlarida bayt al-molni xalifa Umar ibn al-Xattob boshqaruvining qaysi yili tashkil etilganligi haqida aniq bir ma’lumot berilmaydi. Tarixchi at-Tabariyning xabar berishicha, 636 yili Umar devonlar tizimini ta’sis etgach, bayt al-mol muassasasi vujudga kelgan. Al-Balazuriyning ma’lumot berishicha esa, Umar bayt al-molga 641 yili asos solgan va unga Abu Hurayra as-Sudusiy (vaf. 676)ni mas’ul etgan. Bu ikki buyuk tarixchilarning bir-biriga zid ma’lumoti tadqiqotlarda bir qancha chalkashliklarni yuzaga keltiradi. Shu o‘rinda avval Umar ibn al-Xattobning *bayt al-molga* asos solishi, devonlar tizimi bilan bir paytda kechganligini unutmaslik kerak.

Xalifa Umar devonlar tizimini musulmon askarlarga moyanalar ta'sis etishdan boshladi. Demak, avval islom qo'shinlarining maxsus askarlik devonini qachon tashkil etilganligini aniqlash bu masalaga oydinlik kiritishi mumkin. At-Tabariyning xabar berishicha, 638 yili Ktesifon (*Madoin*) shahri zabit etilgandan so'ng, sharhnomaga asosida zimmiyalar tomonidan to'langan soliqlar hisobidan birinchi marotaba askarlarga maosh berilgan. 640 yili bosib olingen mamlakatlardagi aholi soliqlarni doimiy ravishda to'lay boshlaganlardan so'ng askarlar muayyan maosh bilan ta'minlana boshlaganlar. Al-Balazuriyning fikrini oydinlashtirishda tarixchi Xalifa ibn al-Xayyotning ma'lumoti o'ta muhimdir. Asli bahraynlik Abu Hurayra as-Sudusiy xalifa Umar ibn al-Xattob tomonidan al-Bahrayn viloyatiga 641 yilda voliy etib yuboriladi. Bu dalilni quvvatlashda al-Jahshiyoriyning ma'lumoti asos bo'la oladi: Abu Hurayra birinchilardan bo'lib al-Bahrayn viloyatining aholisi to'lagan 500 ming dirham soliqni Madinaga xalifa Umar ibn al-Xattob huzuriga olib kelgan. Demak, birinchidan, Abu Hurayra as-Sudusiyning bayt al-mol institutiga umuman aloqasi bo'ldigan. Ikkinchidan, Ibn Sa'dning ma'lumot berishicha, Madina davlatiga zabit etilgan yerlardan kelayotgan tushumlarning oqimi 638 yildan ko'payta boshlagan. Shunday qilib, shu sanani bayt al-molning ta'sis etilishi bilan bog'lash mumkin. Chunki, shu sanada Sosoniylar imperiyasi uchun strategik va iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lgan poytaxt Ktesifon shahri arablar tomonidan to'liq zabit etildi.

8.6. BAYT AL-MOL XARAJATLARI

Davlatdagi tushumlarning oshishi bilan bir qatorda uning xarajatlari ham oshib bordi. Buni xalifa Umar ibn al-Xattobning arab davlatchiligiga umuman yot bo'lgan hukumat ishchi-xodimlari, davlatning ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami va diniy avtoritetga muayyan tarzda moyanalar berish misolida ko'rish mumkin.

Xalifa Umar ibn al-Xattob aholiga moyana va nafaqa tayinlashida aholining Payg'ambar (s.a.v.)ga (qarindosh) yaqinligi va islom dini oldidagi xizmatiga muhim ahamiyat berildi. Markazlashgan davlat tomonidan aholiga tarqatila

boshlangan moyanalarning shakli, umumiy hajmi va tarqatilish uslubini tahlil etish mazkur davlatning ijtimoiy-iqtisodiy tarixini chuqurroq tadqiq qilishda alohida ahamiyat kasb etadi. Umar ibn al-Xattob Payg‘ambar (s.a.v.)ning ayollariga – 12 ming dirham, Badr jangi qatnashchilariga – 5 ming dirham, Habashistonga 615 yili hijrat qilganlar va Uhud jangida qatnashganlarga 4 ming dirham, Yarmuk, Qodisiya, Jalula va Nihovandning olinishida qatnashgan jangchilarga 2 ming dirham, Makka fathi davrida islomni qabul qilganlarga 2 ming dirham, Makkadan Madinaga hijrat qilgan ayollarga 3 ming dirham, Makka aholisining har biriga 800, yo‘l ko‘rsatuvchilarga 300-400, muhojir va ansorlarning xotinlariga 200-600, boquvchisiz etim qolgan bolalarni o‘z qaramog‘iga olgan kimsalarga 100 dirhamdan maosh tayin etish bilan birga kundalik ehtiyojiga qarab, davlat g‘aznasidan oziq-ovqat belgilangan. Shuningdek, urushlarda o‘lgan askarlarning bevalariga – 500 dirhamdan, hamda marhum askarlarning jangovorlilik darajasiga qarab ularning maoshlari ikki minggacha ko‘tarilgan. Avvaliga Umar ibn al-Xattob chaqaloqlarning faqatgina ko‘krakdan chiqqanlariga nafaqa belgilagan. Nafaqa olish niyatida ko‘plab ayollar o‘zbolalarini erta emizishdan chiqarganlar. Buning natijasida jamiyatda go‘daklar o‘limi ko‘paygan va bunday xavfning yanada kuchayishining oldini olish maqsadida, har bir yangi tug‘ilgan chaqoloq uchun 100 dirham, katta bo‘lishiga qarab – 200 dirhamgacha nafaqa tayin etilgan.

Askarlarga to‘lanadigan moyananing hajmi piyoda askarlar yiliga – 1300–1400 dirham, otiqlar – 1600–1800 dirham, qo‘mondonlarga – 7000–9000 dirham maosh tayin etilganligi xabar beriladi. Shuningdek, arab bo‘lmagan jangchilarga o‘rtacha 550 dirham maosh belgilangan. Shuningdek, askarlar maoshdan tashqari har oy oziq-ovqat (*rizzq*) bilan ham ta‘minlab turilgan. 1 *irdob* (36 litr yoki 25 kg) bug‘doy, *kist* (1 litr) o‘simlik moyi, yana shuncha sirkva biroz asal va eritilgan yog‘ berilgan.

Umar ibn Xattob davrida qozilarga ham maosh tayin etgan bo‘lib, uning hajmi turlicha bo‘lgan. Masalan, qozilardan Sulaymon ibn Robi’ga har oyda 500 dirham, Basra viloyatining qozisi Shurayhga 100 dirham va kunlik ehtiyojiga qarab dondun berilgan. Ilk arab xalifaligi davrida qozilarga tayin etilgan maoshlar 100 dan 500 dirhamgacha bo‘lgan qiymatni tashkil etgan.

8.7. PUL BIRLIKLARI VA VAZN O‘LCHOVLARI

Umar ibn al-Xattob tayin etgan moyanalar va maoshlar Sosoniylar imperiyasi tomonidan zarb etilgan dirham tangalarda berilgan. Makka va Arabiston yarimorolida pul ishlab chiqarilmaganligi uchun arablar VII asrning 60-yillariga qadar asosan Vizantiya imperiyasining tilla va Sosoniylar davlati va Yamanning kumush tangalaridan, ba’zi hollarda esa Afrika va Yamandan keladigan oltin qumlaridan ham foydalanganlar. Ularni tortib olishda dinordan²⁷ vazn birligi sifatida foydalanganlar. Tadqiqotchi Ali Ibrohim Hasanning fikricha, islomdan oldingi davr arablari Tabariston, Xorazm va Bag‘lon davlatlarida zarb etilgan dirham tangalarni ishlatganlar. Tabariston dirhamlarining vazni sakkiz doniqqa, Xorazm dirhamlari – to‘rt yarim doniqqa va Bag‘liy dirhamlar esa to‘rt doniqqa teng bo‘lgan.

Vizantiyada ishlab chiqariladigan tilla (nomisma) tanganing og‘irligi yaxlit 4,45 gramni tashkil etib, old qismida imperatorning surati zarb etilgan. Kumush tangalar pul muomalasida katta ahamiyatga ega emas edi. Bozorlarda kundalik savdoda asosan mis tangalar (*fils*) ishlatilardi.

Arabiston yarimorolining katta qismi «dirham zonası»da bo‘lib, Yarim orolning shimoli-g‘arbi esa «tilla zonası» hududiga kirar edi. Shu ikki zonaning kesishgan joyi Makka shahri edi. Makka bozorlarida dinor (*nomism*) va dirham ishlatilardi.

Vizantiyada zarb etilgan dirhamlarning juda yupqaligi va ishlatish jarayonida eyilishning osonligi savdogarlarni dirhamlarni tortib olishga majbur etardi. Shuning uchun savdogarlar dona-

²⁷ Dinor – yunoncha so‘z (Deni) bo‘lib, o‘n (10) ma’nosini anglatadi.

dona ishlatiladgan paytlarda to'liq dirhamlardan foydalanan edilar. Makkada dinor bilan dirham o'rtasidagi farq 1 dinorga 10 dirhamni tashkil etgan. Xalifa Umar davriga kelib dinorning kursi 12 dirhamga ko'tarilgan.

Markazlashgan islom davlati Umaviylar sulolasiga o'tgach, tanga pullarini zARB qila boshladilar. Ular tilla dinorni Dimashqda, xalifalikning boshqa viloyatlarida esa faqat kumush tangalar zARB etilar edi. ZARB qilingan joyiga qarab dirhamning og'irligi turlicha bo'lgan: Damashq dirhami – 3,086 gr; Iroq dirhami – 3,125 gr; Suriya dirhami – 3,14 gr. Dirham og'irlilik birligi sifatida ham foydalanilib, 2,125 grammni tashkil qilgan. Dinor esa oltindan tayyorlangan tanga bo'lib – 4,233 gramm og'irlikni tashkil etgan.

Umaviylar davriga kelib, arablarda yagona pul birligi tayin etildi. Vizantiya va Sosoniyalar imperiyalarining tangalaridagi yozuvlar va ramzlar arabchaga almashtirildi. Tangalarga islomning aqidasi «*Lo iloha illa-l-loh, Muhammad rasulu-l-loh*» iborasi, xalifaning nomi va qaysi davlatda zARB etilganini naqsh qilib yozildi.

Arab xalifaligi tarkibiga kirgan hududlardagi soliqlarni tayin etishda maydon o'lchov birligi, vazn va sig'im o'lchov birliklaridan foydalanilar edi. Bosib olingen hududlardagi o'lchov birliklari davlatning asosiy etalonini tashkil etdi. Masalan, Misr aholisi ishlatadigan *irdobb*²⁸, *qist*²⁹, *jarib*³⁰ va boshqa o'lchov birliklari davlat miqyosida ishlatila boshlandi. Shuningdek, arablarda qadimdan boshoqli o'simliklar va sochiluvchan jismlarni o'lhash uchun *mudd*³¹, *so*³², *maxtum*³³, *qafiz*³⁴, vazn

²⁸ اربد – Irdobb – Misrdan keng tarqalgan boshoqli o'simliklar uchun o'lchov birligi 90 litr yoki bug'doyning 69,6 kilogrammga teng.

²⁹ سقط – suyuqliklar sig'im o'lchov birligi = 1,2 litr.

³⁰ جريب – maydon o'lchov birligi = 1592 M².

³¹ مذ – sochiluvchan jismlar uchun sig'im o'lchov birligi = 1,15 litr (Xismatulin A.A.). Arabiston yarim orolida 1,053 litr; Misrda 2,5 l. (Nadiradze. – B. 250).

³² صاع – Boshoqli o'simliklarni o'lchov birligi – 4 mudd yoki 4,2125 litr (taxminan 2,5 kg).

³³ مختوم – sochiluvchan jismlar uchun sig'im o'lchov birligi: maxtum xoshimi = 17 litr, maxtum Xajjaja = 4,2 litr.

³⁴ قفیز – sochiluvchan jismlar uchun sig'im o'lchov birligi = 55 litr.

o‘lchov birliklari *vasq*³⁵, *dirham*³⁶, *misqol*³⁷, *ratl*³⁸, *uqqa*³⁹, *uqiya*⁴⁰, *hoshimiy rub*⁴¹, *qintor*⁴², maydon-yer o‘lhash uchun esa *doniq*⁴³, *qiyrot*⁴⁴, *faddon*⁴⁵, *ziro*⁴⁶ kabi o‘lchov birliklari ma’lum edi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Xaroj deganda nimani tushunasiz?*
2. *Jizya kimlardan olingen va uning qiymati qancha bo ‘lgan?*
3. *Ushr qanday soliq turi?*
4. *Dinor va dirham pul birlklari haqida nimalar bilasiz?*
5. *Qanday vazn o‘lchov birliklarini bilasiz?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Ahl az-zimma statusi.*
2. *Chet davlatlardan o‘zlashtirilgan soliqlar turlari.*
3. *Pul birlklari.*
4. *O‘lchov birlklari.*
5. *Boshqa din vakillarining diniy majburiyatları.*

³⁵ – وَسْقٌ – vazn o‘lchov birligi, tuyu ko‘tara oladigan yuk = 275 kg.

³⁶ – در هم – 3,13 gramga teng kumush tanga, vazn o‘lchovi = 3,125 gr.

³⁷ – مِثْلٌ – vazn o‘lchov birligi = 4,235 gramm. Misr misqoli – 4,68 gr. Damashq misqoli – 4,62 gr. Iroq misqoli – 4,3 gr. (Nadiradze. – B. 250).

³⁸ – رُطْلٌ – vazn o‘lchov birligi = 406 kg.

³⁹ – عَقْدٌ – 6,240 kg.

⁴⁰ Uqiya – vazn o‘lchovi = 37,44 gr.= unsiya.

⁴¹ رَبِيعُ الْهَشَمِيُّ – vazn o‘lchov birligi = tax. 2 kg.

⁴² – قَنْطَارٌ – vazn o‘lchov birligi = 44, 928 kg.

⁴³ – دَانِقٌ – mayda pul birligi 1/6 dirham. Misr kvadrat o‘lchov birligi. 1/6 qirotga teng. Pul birligi sifatida ham qo‘llanilgan.

⁴⁴ Misr er o‘lchov birligi. $\frac{1}{24}$ fadanga teng (1 fadan 6368 kv m. ga teng.)

⁴⁵ – فَدَانٌ – er o‘lchov birligi 1830 yilgacha – 6368 M² teng, 1830 yildan keyin 4200,833 M².

⁴⁶ – نَرَاعٌ – er o‘lchov birligi – 54 sm.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Абу Йусуф Йаъкуб ибн Иброҳим ал-Куфи. Китаб ал-харадж / перевод с арабского и комментарии А.Э. Шмидта; супракоммент. к пер. А.С. Боголюбова; подготовка к изданию А.А. Хисматулин. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001.
2. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira.
3. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633 (1989).
4. az-Zahabiyy, Muhammad ibn Ahmad. Ta’rix al-islom. ‘Ahd al-xulafo‘ ar-roshidin. – Bayrut: Dor al-kitob al-hadis, 1987.
5. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
6. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
7. Хрестоматия по истории Халифата / Перевод Л.И. Надирадзе. – М.: МГУ, 1968.
8. Robinson F. Islamic World. – Cambridge: University Press, 1996.

9-BOB. ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGI RIVOJIDA HARBIY OMILNING O'RNI

Tayanch iboralar: *devon askar, xums, askar, amir, askar fil-l-layl, jaysh, abno, al-xamis, amir al-bahr, sot as-savoriy, al-karodis, an-nuqabo.*

9.1. ASKARLIK DEVONINING TASHKIL TOPISHI

Madina davlatining hukmronlik doirasini kengaytirish maqsadida islom dinini qo'shni hududlarga yoyish xitobi bilan arab yurishlari boshlandi. Muhammad (s.a.v.) va xalifa Abu Bakr davrlarida davlat tarkibida muntazam armiya tizimi mavjud emas edi. Uning harbiy kuchini islomni qabul qilgan erkaklar tashkil etar edi. Ba'zi hollarda esa ularga boshqa ittifoqdosh qabilalarning ko'magi asqotardi. Hududlardagi erkaklar davlat rahbarining buyrug'i bilan jangga borar, urush tugagach, yana o'z turmushlariga qaytar edilar.

Zabt etilgan hududlarda askarlar dehqonchilik va hunarmandchilik bilan mashg'ul bo'lib, o'zlarining harbiy salohiyatlarini yo'qota bordilar. Shuningdek, ko'plab askarlarning mahalliy aholi bilan chatishib ketish holati ham yuz bera boshladi. Askarlar orasidagi bunday parokandalikning oldini olish va shiddat bilan kengayib borayotgan davlatning harbiy salohiyatini oshirish maqsadida xalifa Umar ibn al-Xattob tomonidan armiyaga xos yangi nizom ishlab chiqildi va maxsus askarlik lavozimi ta'sis etildi.

Ko'plab manbalarda Arabiston yarimoroli uchun noan'anaviy bo'lgan askarlik mansabining tashkil etilishi haqida aniq sanalar berilmaydi. Ammo, bu sanalar musulmon davlati harbiy qo'shinlarini istilo etilgan hududlar – Eron, Iroq, Misr mamlakatlariiga kira boshlaganlaridan keyingi hayot tarzlarini o'zgartirishlari bilan bog'liq. Demak, askarlik lavozimining tashkil topishi Madina shahrida *bayt al-mol* muassasasining paydo bo'lishi va askarlarga birinchi bo'lib moyanalar berilishi sanasi bilan bog'liqdir.

Ma'lumki, xalifa Umar ibn al-Xattob davlatning harbiy tizimiga bir qator o'zgartirishlar kiritib, askarlik devonini tuzdi va shu devon asosida jangchilarga maosh bera boshladi. Davlatdag'i har bir askar maxsus tashqi ko'rinishi, harbiy quro'l-yarog' va o'z statusiga ega bo'ldi. Bu o'rinda birinchi tadbirlar qatorida Umar ibn al-Xattob tomonidan harbiy nizomga "Tungi posbonlik" (*askar fi-l-layl*)ni kiritilishini zikr etmoq lozim. Shuningdek, keyinroq xalifa Abd al-Malik ibn Marvon (Umaviy xalifalarining beshinchisi 685 y.) xalifalikda majburiy xizmat turini joriy etdi. Shuningdek, xalifaning yollangan jangchilar guruhi ham mavjud bo'lib, u 40 ming jangchidan tashkil topgan edi. Demak, davlatning harbiy kuchlari xalifa Umar ibn al-Xattob davridayoq o'z mavqeい va muntazam harbiy askarlariga ega bo'la boshlagan.

Ilk davrda askarlar ko'ngilli jangchilardan iborat bo'lib, davlat tomonidan hech qanday mablag' olmaganlar. Ular janglardan tushgan o'ljalarning $\frac{1}{5}$ (*al-xums*) foizi bilan kifoyalanar edilar. Xalifa Umar ibn al-Xattob askarlarning moddiy manfaatlarini qondirish maqsadida "Askarlik devoni" tashkil etib, askarlarni ilk bora maosh bilan ta'minlay boshladi. Mazkur devonda jangchilarning nomi, ularning vazifalari va maoshlari miqdori qayd etilar edi. Umar ibn al-Xattob davrida askarlarning maoshlari miqdori turlicha bo'ldi. Xalifalik Ali ibn Abu Tolib qo'l ostiga o'tgach, askarlar maoshi teng qilib belgilandi. Askarlarning yangi shakllanayotgan davlat harbiy kuchlari tarkibi, ularning soni va islomda tutgan mavqelari berilayotgan maoshlariga sezilarli darajada ta'sir etdi.

Yangi shakllanayotgan davlat harbiy kuchlarini jangga yarog'lilik holatini saqlashning asosiy omillaridan biri maosh bo'lsa, ikkinchisi turar joylari masalasi edi. Umar ibn al-Xattob istilo etilgan hududlardagi jangchilarning Arabiston yarimoroliga yaqin hududlarda istiqomat qilishlari uchun harbiy shaharlar barpo etishga buyruq berdi. Natijada Iroq hududida – Basra va Kufa shaharlari, Misrda – Fustot shaharlari paydo bo'la boshladi. Bunday shaharlarning qurilishi, xalifalikning harbiy-strategik salohiyatini oshirib, davlat hududini istilo etilgan mamlakatlar hisobiga kengaytirishda asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Shuningdek, Umar ibn al-Xattob ichki harbiy tizimlarni

takomillashtirish maqsadida, Madina shahri yaqinida ko‘plab harbiy garnizonlar qurdirdi. Madinadan 6,5 kilometr uzoqlikda joylashgan ar-Rabaza hududida askarlar uchun ulov va oziq-ovqat zaxirasi saqlanadigan ombor qurildi. Harbiy zaxiralardan yana biri an-Naqiy nomli yerda bo‘lib, u Madinadan 30 kilometr uzoqda joylashgan edi. Xalifa Usmon ibn Affon davrida esa ularning soni yanada ko‘paydi. Harbiy garnizonlar askarlarning doimo jangovorlik salohiyatini oshirish, harbiy qurol-asлаha, otulov, oziq-ovqat va suv zaxiralarini tayyor turishini ta’minlar edi. Yangi tashkil etilgan shaharlarda harbiy askarlarning hayoti bir muncha o‘zgardi. Askarlar o‘zlariga biriktirilgan harbiy lagerlarga o‘z oilalarini ham olib ketish huquqiga ega bo‘lganlar. Ularning oilalari alohida kvartallarda yashaganlar. O‘zga yurtda harbiy xizmatda bo‘lgan askarga oilasini ziyorat qilishi uchun to‘rt oyda bir marotaba rasmiy ijozat berilgan. Harbiy bo‘linmadagi intizomni saqlash maqsadida muayyan jarimalar joriy etilgan.

Ali ibn Abu Tolib davriga kelib, islom davlati poytaxti Madina, Damashq va Kufa shahriga bo‘lindi. Ali ibn Abu Tolib Kufa shahrining havfsizligini ta’minlash maqsadida unga muxolifatda bo‘lgan Suriya bilan chegaradosh hududlarga ko‘plab harbiy postlar va katta qal’alar qurdirdi.

9.2. HARBIY SOHADA BOSHQARUV TIZIMINING SHAKLLANISHI

Islomdan oldin Arabiston yarimorolidagi qabilalar tizimida qo‘singa qabila rahbari boshchilik qilar edi. Bu holat Muhammad (s.a.v.) davrida ham saqlanib qoldi. Ilk davrda qo‘singa Payg‘ambar (s.a.v.)ning o‘zi qo‘mondona bo‘lar, ba’zi hollarda esa o‘z o‘rniga boshqa sarkarda tayinlangan. Roshid xalifalar davriga kelib, davlat tasarrufining kengayishi xalifalarni bevosita qo‘sinni o‘zlarini boshqarishlariga imkoniyat bermadi. Ular davlat harbiy kuchlarini boshqarish uchun maxsus bosh qo‘mondonlar tayin eta boshladilar. Bosh qo‘mondonga xalifaning noibi mansabi berildi. Abu Bakr *ar-Ridda* harakati uchun 11 qo‘mondonna tayin etdi. Bu esa o‘z o‘rnida davlatda yangi unvonlar sarkarda, qo‘mondon, oliy qo‘mondon lavozimlarining ta’sis etilishiga olib keldi.

Avtoritar tizimga asoslangan davlat idorasida xalifaning noibi mansabining paydo bo‘lishi va istilo etilgan hududlarda bosh qo‘mondonning mutloq rahbarlikni o‘z qo‘liga olishi, davlat boshqaruvida harbiy tizim asosiy mavqega ega bo‘la boshlaganini ko‘rish mumkin. Bu albatta davlat harbiy sohada yangi paydo bo‘layotgan dunyoviy unsurlarning ilk kurtaklari edi.

Davlat harbiy kuchlari tarkibida bir nechta harbiy unvonlar ta’sis etildi. Jumladan, *Amir al-jaysh* – qo‘shin boshlig‘i va *umaro al-karodis* – bo‘linma boshliqlari; Karodis bo‘linmalari otliq suvoriylardan iborat bo‘lib, har bir kurdusda mingta otliq mavjud bo‘lgan. Kurduzlarning o‘z sarkardalari, bayroqlari va jang maydonida o‘z hududlari bo‘lgan. *Umaro at-ta’abi* (safarbarlik (mobilizastiya) bo‘limi boshliqlari, *an-nuqabo-* (birligi: *naqib*) kapitan, *al-urafo* (birligi: *arif*) har bir askar guruhiga *arif* (serjantga to‘g‘ri keladigan harbiy unvon) tayin etilib, askarlar maoshini tarqatishga mas’ul bo‘lganlar.

Sarkardalarning jang olib borish usullari istilo etilgan hududlardagi harbiy tizimlar ta’sirida yanada takomillashdi. Qadimda arablarda muayyan jang nizomi va qonun-qoidalari mavjud bo‘lmagan. Ular johiliyat davrida jangni ikki xil tartibda olib borar edilar: olg‘a borish va chekinish. Payg‘ambar (s.a.v.) davrida esa saf-saf bo‘lib jang qilish usuli paydo bo‘ldi. Yangi tashkil topayotgan davlatning stivilizastiya o‘choqlaridan bo‘lgan Eron va Vizantiya hududlariga kirib borishi, arab-larga eronliklardan harbiy kuchlarni besh qismga bo‘lib jang qilish tizimini o‘zlashtirish imkonini berdi. Harbiy kuchlarni besh guruhga bo‘lganliklari uchun qo‘shtinning nomi “beshlik” (*al-xamis*) deb ataldi. Birinchi guruh o‘rtada joylashib, oliv qo‘mondon tasarrufi ostida bo‘lgan. Bu guruh “*qalb al-jaysh*” qo‘shtinning markazi, o‘ng tarafdag‘i otryad – *maymana*, chap tomondag‘i guruh esa – *maysara* – deb atalgan. Oldingi safdan suvoriyalar o‘rin olgan bo‘lib, *al-muqadimma*, orqadagi guruh *soqat al-jaysh* ya’ni, askarlarning orqa tomoni – deb atalgan.

Davlat hududining kengayishi natijasida harbiy kuchlar safiga boshqa qabilalarni jalb eta boshladilar. Har bir qabila jang maydonida harbiy birlikni (rota) tashkil etganlar. Bu esa

o‘z navbatida katta shaharlardagi idoraviy va ijtimoiy tizimning ham asosini tashkil etgan. Islom dinini qabul qilgan jamoalar o‘zlarining eski harbiy bo‘linmalarini saqlab qolgan holda islom qo‘sishlariga qo‘silib jang qilishga ruxsat berilgan va ularning nomlari devonga kiritilgan. Ular Vizantiya imperiyasidagi *al-Hamro*, San’odagi *al-Abno* va Sosoniylar imperiyasidagi *ad-Diyolima*, *al-Qayqoniy* va *al-Asovira* jamolari edi.

Arablar jang qilish borasida dengiz urushidan umuman yiroq edilar. Chunki harbiy kuchlarning asosiy qismini ko‘chmanchi badaviylar tashkil qilar edi. Ular dengizda jang qilish xususida tasavvur ham eta olmas edilar.

Damashq viloyatiga hokim etib tayinlangan Muoviya ibn Abi Sufyon xalifa Umar ibn al-Xattobga maktub yo‘llab, dengizdan Vizantiyaga qarshi hujum qilishga ruxsat so‘raydi. Xalifa Umar ibn al-Xattob dengiz urushiga hali tayyor bo‘lмаган arab harbiy kuchlariga kemalarda jang qilishga ruxsat bermaydi. Arab-musulmon davlati boshqaruvi Usmon ibn Affonga o‘tgach, Muoviya ibn Abi Sufyon xalifaga Vizantiya hududiga harbiy kemalardan turib jang qilish taklifini takrorladi. Usmon ibn Affon hech bir jangchini majbur qilmaslik sharti bilan rozilik berdi. Shu tariqa davlat harbiy tizimida dengiz floti vujudga keldi. Dengizdagi har bir kemadagi qo‘sishlarning o‘z rahbari tayin etilgan. Uni “*Amir al-bahr*” (*dengiz amiri, admiral*) deb ataganlar. Xalifa Usmon ibn Affon harbiy dengiz flotiga Abdulloh ibn Qays (vaf. 673 y.)ni birinchi admiral etib tayinladi.

Arablar yunonliklardan dengiz harbiy kuchlari tizimini tez o‘zlashtirdilar. Misr voliysi Abdulloh ibn Sa’d Konstantinga qarshi O‘rta Er dengizida jang olib borgan. Bu jangda Vizantiyaliklar tomonidan 1000 harbiy kema, musulmonlar tomonidan esa 200 harbiy kema qatnashdi. Tarixda bu jang “*Zot as-savoriy*” (Machtalar jang) nomi bilan qoldi. Shu yil arablar Kiprni bosib oldilar va Vizantiya imperiyasining hududlariga qarshi janglar olib borish imkoniyatini qo‘lga kiritdilar. Arablar vizantiyaliklardan dengiz sirlarini yanada ko‘proq o‘rganishga harakat qila boshladilar. Natijada harbiy san’atning bu sohasiga qattiq kirishgan arablar evropaliklardan o‘zib ketdilar, –

deb yozadi V. Kremer. Uning fikricha, hozir dengizchilar qo'llaydigan harbiy dengiz flotiga oid ko'plab terminlar arab tilidan o'zlashtirilgan.

Askarlarning harbiy quroq-yarog'ini zamonaviylashtirish masalasi musulmon davlatining eng dolzarb muammolaridan biri edi. Davlatning harbiy qo'shin tarkibi otliq va piyoda askarlardan iborat edi. Piyodalar qilich, qalqon va uzun nayza bilan qurollangan bo'lib, uzun nayzali jangchilar frontning oldi va orqa tarafdan kelishi mumkin bo'lgan dushman hujumini qaytarish uchun xizmat qilgan. Kamonchilar o'rta, o'ng va chap tarafda joylashib, qo'shining eng dolzarb kuchi hisoblanar edi. Arab askarlari Shom va Hindistonda yasalgan qilichlardan foydalanan edilar. Ba'zi arab qabilalari esa, Yaman qilichlarini afzal ko'rganlar. Uzun nayza Bahrayndan keltirilar edi. Qisqa nayzadan suvoriylar foydalanganlar. Kamonchilar Usfuriy, Masihiy va Kinoniy kamon va o'qlarini afzal bilardilar. Oriflar o'z askarlariga sopqon (rogatka) dan otish mashqini o'rgatar va qattiq nazorat olib borar edilar. Davlatning harbiy kuchlari yirik harbiy qurollardan ham foydalanan edilar: *manjaniq* – yog'ochdan yasalgan tosh otish uchun maxsus moslama bo'lib, 28 qismidan iborat bo'lgan. Bu quroldan Muhammad (s.a.v.) ilk marotaba Toif urushida foydalangan. *Dabboba* – toshbaqa ma'nosini anglatadi. Har tarafi berkitilgan, devorlarni teshuvchi va zarba beruvchi arava. *Dabr* – yog'ochdan tayyorlangan, atrofi esa teri bilan qoplangan bo'lib, undan askarlar qal'aga zarba berishda foydalanganlar. Manbalarning xabar berishicha, *manjaniq* va *dabbobadan* Suriya shaharlarini olishda keng foydalilanilgan.

Askarlarning kiyimlari tizzadan pastga tushadigan zirhlisovut, qattiq gazlamadan tikilgan ishton va etik edi. Otliq suvoriylar Sovut kiymaganlar. Boshqa kiyimlari esa piyodalarnikidan burgut patlari bilan bezalgan temir dubulg'a bilan farq qilgan xolos.

9.3. ARAB YURISHLARI, ULARNING SABAB VA NATIJALARI

Chet mamlakatlarni zabt etish hisobiga Roshid xalifalar davrida uning sarhadi ancha kengaydi. Madina shahridda

yuzaga kelgan *ar-Ridda* harakati xalifa Abu Bakrni tashqi istilolarga undadi. U 633 yili Xolid ibn al-Valid rahbarligidagi qo'shinni Sosoniyalar imperiyasiga qarshi yubordi. O'sha paytda Sosoniyalar imperiyasida ichki ziddiyatlar kuchaygan, to'rt yil ichida shahansohlar to'qqiz marta almashdi. Har bir zodagon shahanshoh bo'lish payida edi. Ichki kelishmovchiliklar bilan band bo'lган "vorislar" arablarning ko'rfazda paydo bo'lганlarını payqamadilar ham.

Avvalo harbiy harakatlar Furot daryosining o'ng qirg'og'iga qaratildi. al-Ubulla⁴⁷ va al-Hira⁴⁸ shaharlari (*anvatan*) istilo etildi. 633 yil yozida ikki daryo va sahro oralig'i islom davlati tasarrufiga o'tdi. 634 yilning boshlarida arablar Furot daryosining so'l qirg'og'iga qarshi yurish boshladilar.

637 yili Qodisiya jangida musulmonlarga qarshi forsiylarning asosiy harbiy kuchi birlashgan «Rustumning buyuk qo'shini» jalb etildi. Arablarning qattiq intizom va aniq boshqaruvi g'alabani ta'minladi.

Qodisiyadagi g'alaba Eron davlati poytaxti Ktesifon (Madoin) taqdirini hal etdi. Ktesifon aholisi islom davlatiga *jizya* to'lash sharti bilan suluh tuzildi. 638 yili musulmonlar Mosul shahrini zabit etdilar. 642 yili Nihovandda Fors o'lkasidagi eng yirik jang bo'lib o'tdi. Nihovandning olinishi arablar uchun ar-Rayy (hozirgi Tehron), Qazvin, Qumis va Ozarbayjonning olinishiga zamin tayyorladi. 644 yili Hamadon, Qum, Koshon, Isfahon shaharlari zabit etildi. 651 yili arablar butun Eron hududini qo'lga kiritib, hozirgi Afg'oniston tomon yo'l oldilar.

Sosoniyalar imperiyasiga qarshi harbiy harakatlar bilan bir paytning o'zida musulmon qo'shinlari Vizantiya imperiyasiga qarashli bo'lган hududlarga ham yurish boshladilar. O'sha davrda Vizantiya hukumati jiddiy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan edi. Eron bilan urush (604–629-yillar) Vizantiya imperiyasining harbiy kuchlarini ancha kuchsizlantirib qo'ygan edi. Shom hududini zabit etish Muhammad (s.a.v.) davrida (630 y.) boshlangan edi. Abu Bakr xalifalikka saylangach, 633 yili Usoma

⁴⁷ Dajla daryosi sohilida joylashgan shahar.

⁴⁸ al-Hira – Kufa shahrining janubida (3 mil) joylashgan shahar. Laxmiylar davlatining poytaxti.

ibn Zayd qo'mondonligi ostida Shom viloyatiga birinchi bor askar yubordi. Suriya viloyati hududiga ikkinchi bor 634 yil Xolid ibn al-Valid boshchiligidagi qo'shin (9 ming) yuborildi. Abu Bakr davlat rahbari sifatida Vizantiya imperiyasining ichki ixtiloflari va Eron davlati bilan kelishmovchiliklaridan unumli foydalana oldi. Chunki, bu kelishmovchiliklar Vizantiya davlatining byudjeti va harbiy salohiyatiga salbiy ta'sir etib Suriya, al-Urdunn va Falastin shaharlari himoyachisiz qolgan edi. Birinchi jang Falastin yaqinidagi Ajnodin nomli yerda bo'lib o'tdi. Jang musulmonlar foydasiga hal bo'ldi. Shundan so'ng Yarmuk, O'lik dengiz sohilidagi Rafaq, G'azo, Sabsatiya, Noblus, al-Lad, Amvos, Bayt Jabrin va Yofo hududlarining ba'zilari *anvatan*, boshqalari *sulhan* istilo etildi. 635 yili musulmonlar Damashqni olti oy qamal qildilar va *jizya* to'lash asosida sulh tuzdilar. Ahdnama shartlariga ko'ra, shahar aholisi muayyan soliqqa tortildilar va ularga hayot, mulk daxlsizligi va ibodat erkinligi ta'minlandi. Hamma cherkovlar o'z egalarida qoldirildi.

Tadqiqotchi M. Krivovning ta'kidlashicha, musulmonlar Damashq aholisi bilan sulh tuzgach, ularga diniy erkinlik berdilar. Ammo, ko'p o'tmay o'z ahdlarini buzdilar. Xristian cherkovlarini masjid sifatida foydalana boshladilar. Bu masalani tahlil qilishda quyidagi voqealarни dalil sifatida keltirish o'rnli. Musulmon qo'shnlari Baalbekni istilo etganlaridan so'ng, qo'mondonlar Shimolga ichkari kirmadilar, chunki imperator Irakliy 80 ming kishilik qo'shin bilan kelayotganini eshitgach, Vizantiya imperiyasi tarkibidagi hamma musulmon harbiy kuchlarni Yarmuk hududiga to'pladilar. 636 yili Irakliyning arman, yunon, slavyan va arab-xristianlardan tashkil topgan katta qo'shni musulmonlar joylashgan lagerga etib keldi. Yarmukdagi birinchi jang Vizantiya jangchilarining tor-mor bo'lishi bilan yakunlandi. Irakliy o'z qo'shnlarini qayta tiklash uchun ko'p vaqt va katta mablag' kerak bo'lganligi uchun bunday urinishni foydasiz sanab, Antokiyadan Konstantinopolga chekindi. G'alabani qo'lga kiritgan musulmon qo'mondonlar o'z viloyatlariga qaytdilar: Amr ibn al-Os – Falastinga, Shurahbil ibn Hasana – Iordaniyaga, Abu Ubayda ibn Jarroh va Xolid ibn al-Valid yarim yil oldin qoldirib ketgan Damashq shahriga yo'l

oldilar. Vizantiya qo'shinlarining Damashqdan panoh topgan mag'lub askarlari shahar eshiklarini ochmadilar. Shahar aholisi ularning bu harakatini yoqlab, ularga ko'mak bera boshladilar. Damashq shahri 70 kun qamal qilindi. Shu asnoda musulmon askarlari Damashqdagi qo'zg'oltonni bostirdilar. Eski sulhga amal qilmaganliklari uchun xristian cherkovlarining ma'lum qismi masjid sifatida foydalanish va aholining uylarining bir qismi musulmon askarlarining istiqomat qilishlari uchun olib qo'yildi. Demak, Damashqdagi aholi musulmon qo'mondonlari bilan tuzilgan birinchi shartnoma (*ahd*)ga amal qilmaganliklari uchun ularni jazolash maqsadida cherkovlar va turar joylari olib qo'yilgan.

637 yili Suriya atrofidagi hududlar to'lig'icha musulmonlar qo'liga o'tdi. 638 yili Quddusning to'la zabit etilishi xristian, yahudiy va musulmonlar uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi. Suriya viloyati islom davlati hukmiga bo'ysundirilgach, Armanistonga qarshi yurish boshlandi. Ararat tog'idan o'tgan arab qo'shnulari 642 yili Araksa vodiysiga kirib bordilar va Armaniston poytaxti Dvinni zabit etdilar. Ko'p yillik yurishlar natijasida musulmonlar 658 yili Armanistonni butunlay va Gruziyaning bir qismini qo'lga kiritdilar. Kavkaz tog'tizmalaridan o'tib Xazar yerlariga etib bordilar.

Iyerusalim istilo etilgach, Amr ibn al-Os qo'shnulari Misrga qarshi yurish boshladi. Misr aholisi Vizantiya hukumatining iqtisodiy (soliq) va diniy siyosatidan norozi edi. 640 yili Amr ibn al-Os o'z qo'shini bilan Nilga etib bordi va Fayum vohasini zabit etdi. Amr ibn al-Os Geliopolis shahrida dushman askarlarining parokandaliklaridan foydalanib, Vizantiya harbiy kuchlarini tor-mor etdi. 642 yili Iskandariya istilo etildi. O'sha paytning o'zida Vizantiya hududlarida bo'lib o'tayotgan ichki ziddiyatlar va hukumatning guruhlarga bo'linib ketishi, Afrika qit'asidagi hududlarda ham aholi bilan hukumat o'rtasida iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy kelishmovchiliklarning kuchayishiga olib kelgan edi. Vizantiya hukumati bilan 11 oy mobaynida Misrdan o'z askarlarini olib chiqib ketish sharti bilan tinchlik sulhi tuzildi. Shartnomada Vizantiya hukumatining Misrga qayta harbiy kuch yubormasligi va musulmonlarning cherkovlarni egallamasliklari

hamda mavjud boshqaruv tizimini saqlab qolishlariga kelishildi. Misrda Fir'avnlar davrida mavjud bo'lgan Qizil dengiz va Nil daryosini tutashtiruvchi kanal Umar ibn al-Xattob buyrug'i bilan qayta tiklandi. 648 yili musulmon qo'shinlari Shimoliy Afrikaga Karfagen hududiga kirib bordilar. Arablarning Shimoliy Afrikadagi hukmronligiga Liviya va Tripoli shaharlari qo'shildi.

Yangi shakllanayotgan davlatning harbiy kuchlari tomonidan iqtisodiy va siyosiy qudrati, harbiy salohiyati yuksak bo'lgan ikki yirik imperiyani zabit etib, islom davlati hukmronligiga bo'sundirilishida, bu sultanatlardagi ichki diniy-siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar asosiy rol o'ynadi. VII asr boshlarida xristian olamida yuzaga kelgan tarafkashlik ikki imperiya tarkibidagi xristian aholining beqarorligiga olib keldi. Vizantiya imperatori Irakliy Evtixiy *monofelit*⁴⁹ mazhabi homisi bo'lib, imperiya tarkibidagi *monofisit*⁵⁰larni bid'atchilar (*epecs*) sanab, ularni din dushmanlari hisoblagan. Monofisitlik tarafdozlari imperator tomonidan qattiq ta'qibga olina boshlangan. Shuningdek, monofisitlar imperator ta'qibidan qochib, Suriya yaqinidagi qishloqlarga va Eron hududiga kirib kelganlar.

Tadqiqotlarda musulmon qo'shinlarining Vizantiya va Sosoniylar hududlariga kirib borishlarida arab-xristian aholi musulmonlarga qattiq qarshilik ko'rsatganlar va imperator Irakliya sodiq ekanliklarini bildirganlar, degan xulosalar mavjud. Ammo, manbalarning ma'lumot berishicha, Sosoniylar imperiyasi tarkibidagi *Banu an-Namr* va *Banu Tag lib* arab-xristian qabilalari musulmonlar tarkibida forsiylarga qarshi kurashganlar. Shuningdek, al-Balazuriyning xabar berishicha, Vizantiya imperiyasi hududida Antokiyada Irakliya qarshi musulmonlar bilan birga Jabal ibn Ayhama boshliq arab-xristian qabilasi qatnashgan. Mosul shahrini zabit etishda ko'plab hokimlar Eron davlatiga bo'ysunishdan bosh tortib, fotihlar tomoniga o'tib ketdilar. Bu yerlardagi aholi arab-xristian bo'lib, musulmon qo'shinlariga deyarli qarshilik ko'rsatmadilar. Demak, musulmon qo'shinlarining Suriya va Eron hududidagi xristian diniga e'tiqod qiluvchi aholining aksariyatini arab millatiga

⁴⁹ Iso Masih targ'ibotida insoniy va ilohiy tabiat mavjud, deb bilguvchilar.

⁵⁰ Iso Masihda faqatgina ilohiy tabiat mavjud, deb bilguvchilar.

mansub bo‘lganligini hisobga olinsa, o‘rtadagi to‘qnashuvlar keskin bo‘lman. Vizantiya imperiyasi tarkibidagi monofisit oqimidagi arab-xristianlar qabilalari istilochilar bilan bir tilda gaplashganlari uchun ularni o‘z himoyachilari sanaganlar. Al-Balazuriy arab-xristianlar aholining istilochi arablarga qarata: “Sizlarning adolatli hukumatingiz bizning boshimizdan o‘tkazgan zulmlar va tahqirlanishlarimizdan ko‘ra yoqimlidir”, deganlarini xabar beradi. Ammo, arab tarixchisi al-Balazuriyning bu ma’lumoti “Arab-musulmon qo‘sishinlarini chet davlatlarni bosib olishlarini ijobjiy yoqlash uchun yozilgan mubolag‘a”, deb hisoblanishi mumkin. U holda musulmon bo‘lman tadqiqotchilar nazarida ham islam davlati tarkibiga qo‘sib olingan hududlardagi xristianlar, yahudiylar va zardushtiyalar hayoti oldingiga nisbatan bir muncha yaxshilanganligi qayd etib o‘tilgan.

Shuningdek, ba’zi tadqiqotlarda musulmon qo‘sishinlarining Vizantiya va Eron hududlariga yurishlarida hech qanday diniy (islomiy) element mavjud bo‘lman. Arablar uchun zabit etilayotgan hududlardagi aholining islam dinini qabul qilishlari ularni asosiy maqsadi bo‘lman, degan fikrlar mavjud. Ammo, birlamchi manbalarning xabar berishicha, istilo etilayotgan hudud rahbariga musulmon qo‘sishinlarining qo‘mondoni maktub bilan murojaat etib, uning islam dinini qabul qilishi yoki islam hukumatiga jon solig‘i (jizya) to‘lashlarini taklif etgan. Shuningdek, arab-musulmon qo‘sishinlarining Eron hududiga qilgan yurishlarini kompleks tadqiq etgan A.I. Kolesnikovning fikricha, zabit etilayotgan hudud rahbari (*marzbon, dehqon, mo‘bad* xristian diniga e’tiqod qiluvchi hududlarda episkop, jamoa boshlig‘i)ga yo‘llangan maktubda “*Bismillah*”, yuboriluvchining ismi, mansabi, kirish qismidan keyin shartnomaning asosiy qismi boshlangan. Maktubda ikki banddan iborat shart: shu hudud aholisining islam dinini qabul qilishlari yoki siyosiy bo‘ysunish, ya’ni *jizya* to‘lash. Demak, islam davlati harbiy yurishlar siyosatida asosiy e’tibor *ahl al-harbning* islam dinini qabul qilishiga qaratilgan.

Misrda musulmon qo'shinlariga qarshilik sustligining alohida sabablari mavjud edi. Misrdagi hukmron Vizantiya imperiyasi qo'shinlarining tarkibi ancha katta sonni tashkil etar edi. Qo'shinni haddan ortiq ko'p bo'limlarga bo'lish va har bir bo'limning besh sardordan iborat qismlarga bo'linishi, harbiy kuchlardagi beqarorlik, shaxsiy adovat, umumiyligini maqsadga erishishda hamjihatlik va muvofiqlikning yo'qligi, harbiy layoqatsizliklarning barchasi tashqi dushmanga qarshilikning sustlashishiga olib keldi.

Arab-musulmon qo'shinlarining Suriya, Falastin va Misrda to'la g'alaba qozonishiga mazkur hududlardagi tub aholining Arabiston yarimoroli bilan etnik aloqadorligi, harbiy kuchlarning zaifligi, mohir qo'mondonlarning etishmasliligi va davlat ma'muriyatining, fuqarolar boshqaruvinining kuchsizligi hamda Misrdagi ijtimoiy tabaqalanishning rivojlanganligi asosiy sabab bo'ldi.

Agar islam o'zida diniy ko'rinishini siyosiy kuchga aylantirmagan taqdirda, u Arabiston yarimorolining bir-biriga qarshi diniy ta'limotlar ta'sirida o'tkinchi diniy-axloqiy ta'limot sifatida ko'p o'tmay yo'qolib ketar edi. U shu yo'l bilan o'z dushmanlari ustidan g'alaba qozonib, besh qit'a xalqlariga islam ta'limotini tarqata oldi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Islomdan oldin arablar qanday jang qilish usullaridan foydalanganlar?*
2. *Islom tarixida dengiz floti qachon tashkil topdi?*
3. *Arablar qanday qurollardan foydalanganlar?*
4. *Askarlik devoni qaysi davrda paydo bo'ldi?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Ilk islam tarixida harbiy tizimning tashkil topishi.*
2. *Askarlik devoni.*
3. *Ilk islam tarixidagi harbiy unvonlar.*
4. *Islom tarixida harbiy salohiyatning yuksalish sabablari.*
5. *Arab yurishlarida ijobiy natijalarga erishish sabablari.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abd al-Aziz Solim. Tarix ad-daula al-arabiya. – Iskandariya. Shabob al-jomi'a, s.y. – T. 2.
2. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira. s.y.
3. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633. (1989).
4. Большаков О.Г. История халифата. Том 2. Эпоха великих завоеваний. 633-656. (1993)
5. Большаков О.Г. История халифата. Том 3. Между двух гражданских войн. 656-696. (1998)
6. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
7. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
8. Donner F. The Early Islamic Conquests. – New York: Princeton University Press, 1977.

10-BOB. ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGI RIVOJIDA MADANIY-MA'RIFIY OMILLARNING O'RNI

Tayanch iboralar: *Basra, Kufa, Fustot, al-harom, al-hijr, kufiy xat, hijoziy xat, arab xat turlari*

10.1. YANGI SHAHARLAR QURILISHI

Islom bayrog‘i ostida birlashgan arab qabilalari tomonidan turli qo‘sni mamlakatlarni zabit etish natijasida mutlaqo yangi geosiyosiy holat vujudga keldi. Qadimiy boy an’analarga ega bo‘lgan Misr, Suriya, Mesopotamiya, Eron kabi madaniyat o‘choqlari istilo etilib, markazlashgan davlat ichiga birlashtirildi. Natijada, tarixiy stivilizastiyalar o‘rtasida bevosita muloqot boshlanib, yangi islom madaniyati shakllana boshladi. Ichki Arabiston hududida shaharlar mavjud bo‘lishiga qaramasdan, hajmi va ahamiyati jihatdan yangi bo‘lgan markazlar vujudga kela boshladi. Ularning shakllanishida arablar bilan bir qatorda boshqa xalq vakillari ham faol qatnashdilar. Yangi shaharlar qurilishi davlatning harbiy-siyosiy mavqeini mustahkamlashda muhim o‘rin egalladi. Chunki, chet davlatlarni zabit etish evaziga yangi tashkil topayotgan davlat hududini kengaytirish asosiy maqsad etib qo‘ylgan edi. Natijada Basra (636 y.), Kufa (638 y.) va Fustot (640 y.) shaharlari asosan arab qo‘sini shirlari uchun harbiy lagerlar maqsadida barpo etildi.

Basra shahrini arablar 636 yili al-Ubulla va Xuziston viloyatlarini bosib olish davrida harbiy lager sifatida qamishdan engil uylar qurib, undan foydalana boshlagan edilar.

Arab-musulmon davlatining yangi qurilgan shaharlaridan biri Kufa bo‘lib, bu shahar ham davlatning harbiy salohiyatini oshirish va musulmon davlati hukmronligini Sosoniylar imperiyasiga tegishli bo‘lgan hududlarida to‘liq o‘rnatish maqsadida barpo etildi.

Kufa Bag‘doddan 150 km. janubda, Furot daryosining g‘arbiy sohilida joylashgan shahardir. Askarlar Basra shahrining nam havosidan aziyat chekkanlaridan so‘ng, Sa’d ibn Abi Vaqqosning

amaliy harakati bilan Kufa shahri bino qilina boshladi. Kufa shahrining qurilishi Basra shahrining qurilishidan 2 yil o‘tgach, ya’ni 638 yili boshlandi.

Shuningdek, arablar harbiy maqsadda qurgan shaharchalardan biri Fustot bo‘lib, u hozirgi Qohira hududidagi eski shahar qismidir. Avvaliga Fustotning o‘rnini kenglik joy bo‘lib, Nil daryosi va Muqattam tog‘i orasidagi ekinzordan iborat edi. Bu yerda qadimda Ahmoniyalar qurgan qo‘rg‘ondan boshqa inshoat bo‘limgan. Qo‘rg‘onning shimoliy va sharqiy tomoni xurmozor va daraxtzorlardan iborat edi. Qo‘rg‘on bilan tog‘ o‘rtasida bir nechta qibtiylarning xristian cherkovlari, asketrohiblar uylari mavjud edi. Tadqiqotlarda shaharning “Fustot” – deb nomlanishi haqida bir necha fikrlar mavjud. Masalan, Ibn Qutayba (arab tarixchisi va adabiyotchisi. vafoti 889 y.) ning fikricha, arablar har bir shaharni *Fustot* deb ataganlar. Tadqiqotchi Hasan Ibrohim Evropa tadqiqotchisi Batlerning fikrini ma’qullab, Fustot nomi “*Fossatum*” – “o‘ralgan shahar” – ma’nosini angalatadi. Arablar bu atamani Iskandariya shahrining zabit etilishi paytida vizantiyalik askarlardan o‘zlashtirganlar, degan fikrni ma’qullaydi. Shaharning “*Fustot*” – deb nomlanishi haqidagi at-Tabariyning fikricha, Amr ibn al-Os Iskandariyaga yurishi paytida shu yerbosha harbiy chodirlar tikkan va u yerda ma’lum muddat yashagan. Demak, shaharchaning *Fustot*, ya’ni *chodir* deb atalishiga sabab musulmon qo‘sishinlarining u yerda chodir tikib istiqomat qilganliklaridan kelib chiqqan bo‘lishi ham mumkin.

Musulmonlar chet hududlarni zabit eta boshlagach, ularning uy-joy qurilishi borasidagi uslublarini tez sur’atda o‘zlashtira boshladilar. Qadimdan arablarning binolari o‘ta sodda bo‘lib, umuman oyna qo‘yilmas, uylar faqat devorlardan iborat bo‘lar edi. Shaharlarning arxitekturasi va ularni bezatish bilan bog‘liq qurilish masalalarida xalifa Umar ibn al-Xattob arabcha uslubning bir necha noqulayliklaridan voz kecha boshladi. Shuningdek, Kufa shahrining yo‘l va binolarning joylashishida Sosoniylar imperiyasi shahar qurilishining muayyan o‘lchovlari o‘zlashtirildi. Magistral yo‘llar – 40 gaz (20 metr), ikkinchi darajali yo‘llar – 30 va 20 gaz, kichkina ko‘chalar – 7 gaz. Kvartallarning uzunligi

60 gazni tashkil etardi. Bu o‘lchovlar xalifa Umar tomonidan tasdiqlangan. Arabiston yarimoroli uchun xos bo‘lmanan bunday o‘lchovlarni Umar ibn al-Xattob qanday qilib Kufa shahriga joriy qilganligi muammosi o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda. Bu Vizantiya va Eronga tegishli bo‘lgan yerlarni zabit etilishi natijasida u yerlardagi muhandis va ustalarining Madina davlati hukmronligi ostiga o‘tgan hududlarga maxsus olib kelinishi natijasi bo‘lishi kerak. Chunki, bu o‘lchovlar vizantiya-rim shahar qurilishiga xos bo‘lgan magistral yo‘llarning 40 qadamdan etib belgilanganligidir. O.G. Bolshakovning fikricha, yangi qurilgan shaharlarning barpo bo‘lishi borasida Kufa shahrining qurilishiga oid materiallar saqlanib qolgan xolos. Avvalo shahar markazida masjid va hokim uchun qabulxona qurilgan. Turli soliqlar uchun omborxona sifatida shaharning eski xarobalaridan foydalanildi. Shuningdek, masjid va qabulxonadan tashqari maydon bozor sifatida foydalanilardi. Shuningdek, tarixchi at-Tabariyning xabar berishicha, shahardagi masjidning mehrob qismiga muhandis-quruvchi Ruzba ibn Buzurgmehr tomonidan asos solingan. Kufa shahrining qurilishida Abu Xayoj ibn Molik al-Asadiy shaharning ko‘chalari va yo‘llarini rejalashtirdi. Forsiy quruvchilar masjidlarni, *dor al-imora* va yo‘llarni qurdilar. Umuman olganda, Kufa shahrining arxitekturasi va aholi istiqomat qiladigan kvartallarning qurilishi bilan bog‘liq bo‘lgan hamma o‘lchovlar shu shaxslar bilan bog‘liq bo‘lishi ham mumkin.

Tez orada Kufa ham Basra singari ilmiy, siyosiy va harbiy jihatdan Madina davlati uchun strategik ahamiyatga ega bo‘la bo‘lgan shahar sifatida maydonga chiqdi. Kufa shahri o‘z tomonidan Ozarbayjon, Hamadon, ar-Rayy, Isfahon, Mosul kabi shaharlarga voliyilar tayin eta boshladi.

Basra shahrining arxitekturasi ham Arabiston yarimoroliga notanish tusda barpo etildi. U shahar ilk davrda qishloq ko‘rinishida bo‘lib, unda masjid, amirlik hovlisi va katta maydon atrofiga askarlar mahallalari qurildi. Har bir qabila uchun alohida masjid va qabriston barpo etildi. Basra shahri qurilganiga ko‘p yillar o‘tmasdan arab olamidagi eng muhim tijorat va siyosiy markazlaridan biriga aylandi. Ayniqsa, Hind, Xitoy o‘rtasidagi

dengiz savdo yo‘li uchun ahamiyatli bo‘ldi. Basra aholisining aksariyatini *Rabi'a* va *Mudar* qabilalari tashkil etar edi. Keyinchalik Hind va Xitoydan bir qancha aholi ko‘chib kela boshladi.

Tarixchilarning ta’kidlashlaricha, avvaliga musulmonlar Basra va Kufa shaharlarini qamishdan qurdilar. 638 yil oktyabrnoyabr oylarida bo‘lib o‘tgan yong‘in natijasida qamishdan qurilgan 80 ta katta uylar yonib ketdi. Qish oylari bo‘lganligi tufayli Basrada qamish etishmovchiligidan xalifa Umar Basrani tuproqdan ya’ni xom g‘ishtdan qurishlarini buyuradi. Demak, xalifaning bu shaharlarni g‘ishtdan qurishga buyurishi o‘sha paytda davlat byudjetining istilo etilgan hududlardan kelib tushayotgan turli soliqlar evaziga boyigani va davlatning harbiy salohiyatini yanada oshirishga e’tibor qarata boshlaganidan dalolat beradi.

10.2. MADINA SHAHRIDAGI ICHKI QURILISHLAR

Madina shahar-davlatining yirik markazlashgan imperiyaga aylanishi Arabiston yarimorolidan tashqaridagi hududlarda yangi shaharlar qurishni taqozo etish bilan birga davlat poytaxti bo‘lmish Madina shahrida ham ko‘plab yangi ma’muriy binolar qurilishini taqozo eta boshladi. Shuningdek, Payg‘ambar (s.a.v.) davridan qolgan osori atiqalarni qayta ta’mirlash ishlari ham yo‘lga qo‘yildi. Ma’lumki, bu qurilishlar xalifa Umar ibn al-Xattob shaxsi bilan bog‘liq bo‘ldi.

Ba’zi manba va tadqiqotlarda islom davlatining markazlaridan bo‘lmish Madina va Makka shaharlaridagi asosiy masjidi haromlarning qaysi davrda kengaytirganligi masalasi muammo bo‘lib qolmoqda. Masalan, tarixchi az-Zarkashiy Makka va Madinadagi *al-Masjid al-haromni* xalifa Usmon ibn Affon davrida kengaytirilgan, degan fikr mavjud. Shuningdek, Sa’d Abd al-Aziz ar-Roshid o‘zining tadqiqotida Muhammad (s.a.v.) Madinaga hijrat qilgach, Madinadagi *al-Masjid an-Nabaviyni* qurdirgan. Abu Bakr va Umar o‘z davrlarida bu masjidlarni buzib kengaytirishga botina olmaganlar. Faqatgina Usmon ibn Affon davridagina musulmonlarning bu masjidga sig‘may

qolganligi uchun kengaytirilgan, degan xulosaga keladi. Ammo, birlamchi manbalarning xabar berishicha, bu masjidlar hududlarining kengayishi ilk bora Payg‘ambar (s.a.v.) davriga to‘g‘ri keladi. Ma’lumki, bu davrda davlat ahamiyatiga molik bo‘lgan binolardan faqatgina masjidlar barpo etildi. Ilk bora, Muhammad (s.a.v.) tomonidan 628 yili Madinadagi *al-Harom* masjidи qurildi. Masjid avvaliga usti ochiq faqatgina devorlar bilan o‘ralgan holga keltirildi. Masjidga uchta eshik o‘rnatildi. Madinada hijratning 16-17 oylarida Qiblaning o‘zgarishi tufayli janubiy tomondagi eshik yopilib, masjid biroz kengaytirildi va masjidning uzunligi va kengligi 100 ziro‘(54,4 metr) qilib belgilanadi. Shuningdek, masjidning qibla, Payg‘ambar (s.a.v.) ning xonadoni tarafi baland devor bilan o‘raladi. Davlat boshqaruvi Umar ibn al-Xattob qo‘liga o‘tgach, 638 yili Madinadagi Payg‘ambar (s.a.v.) qurdirgan *al-Harom* masjidи ikkinchi bor kengaytirildi. Masjidдаги yog‘och ustunlar g‘isht, Janubiy, ya’ni Qibla tomondagi ustunlar esa toshdan yasalgan ustunlarga almashtirildi. Masjid G‘arb tomonidan 20 ziro‘(10,8 metr), Shimoldan 30 ziro‘ (16,2 metr), Janubdan 10 ziro‘ (5,4 metr) kengaydi. Masjidning umumiy uzunligi 140 ziro‘ (75,6 metr), umumiy kengligi esa, 120 ziro‘ (64,8 metr)ni tashkil etdi. Madinadagi *al-Harom* masjidining uchinchi marta kengaytirilishi Usmon ibn Affonning xalifalik davriga to‘g‘ri keladi. 649 yili Masjid g‘arbiy tomonidan 10 ziro‘, Shimoliy tomonidan 20 ziro‘, janubiy tomonidan 10 ziro‘ga kengaydi. Natijada masjidning uzunligi shimoldan janubga 160 ziro‘, kengligi sharqdan g‘arba 130 ziro‘ni tashkil etdi. Masjid binosi baland devorlar bilan o‘ralib, ularga naqsh o‘yildi. Shuningdek, Makkadagi Ka‘ba kompleksining qayta ta’mirlanishi va kengayishi ham xalifa Umar ibn al-Xattob davrida amalga oshirila boshlandi. U 638 yil Makkada bo‘lgan tabiiy ofat natijasida Ka‘bani nurab ketgan qismini yangilash va shu bilan birga haram kompleksini qayta ta’mirlashni (638 y.) buyurdi. Ka‘ba yonidagi *Maqom Ibrohim* yangi yerga ko‘chirilib, *al-Hijr* kengaytirildi. Atrofdagi xonadonlar buzilib, Ka‘ba masjidига qo‘sish rejalaشتirildi.

Shuningdek, haramni tog‘lardan tushishi mumkin bo‘lgan turli toshqinlardan himoya qilish uchun damba qurildi. Umar ibn al-Xattob hajga keladiganlarning yo‘lini oson qilish maqsadida Madina-Makka yo‘lini kengaytirganligi hamda hojilar va savdogarlarning yo‘lda dam olishlari uchun karvonsaroylar qurdirgan. Madinada zakot va turli soliqlardan tushgan don-dunlarni saqlash uchun esa maxsus *Dor ad-daqiq* binosi, Misrdan keladigan oziq ovqatlar uchun ombor qurilgan. Demak, Madinadagi masjidning birinchi kengayishi Payg‘ambar (s.a.v.) davrida bo‘lib, *Masjid al-harom* hamda, *Masjid ar-Nabaviy* kapital ta’mirlanishi va kengaytirilishi xalifa Umar ibn al-Xattob davrida amalga oshirildi. Shuni ta’kidlash kerakki, Umar ibn al-Xattob masjidlarni ta’mirlashda Muhammad (s.a.v.)ning o‘gitlariga to‘liq amal qilgan holda ganch, naqshlarsiz, sodda va pastqam holatini saqlab qolishga harakat qilgan. Ammo, Usmon ibn Affon xalifaligi davriga kelib, masjidlarni bezash va ularni baland qilib qurish odat tusiga kirdi. Masjidlar qurilishi borasida ham Umar ibn al-Xattob davridan boshlab, arab arxitekturasi o‘rniga Eron va Yunon arxitekturasi o‘zlashtirilganligini ko‘rish mumkin.

Tadqiqotlarda arablar Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqa boshlagach, Suriya viloyati hududlarida bir qancha masjidlar barpo etdilar, degan xulosa mavjud. Ammo, tarixchilarning xabar berishlaricha, arablar Vizantiya va Sosoniylar imperiyalariga tegishli bo‘lgan hududlarni istilo eta boshlagach, *ahl az-zimmaga* yangi cherkov, sinagoga yoki otashxonalar qurishni man etdilar. Shuningdek, bu hududlarda mavjud bo‘lgan ibodatxonalarning qisman yoki to‘lig‘icha musulmonlar uchun masjid sifatida qo‘llay boshladilar. Bu ibodatxonalardan islom shariati asosida foydalanish uchun diniy unsurlarni islomiy ramzlarga almashtirdilar xolos. Demak, arablar ilk davrda o‘zлари barpo etgan Kufa, Basra va Fustot shaharlarida masjidlar qurdilar. Ammo, istilo etilgan hududlardagi musulmon bo‘lмаган aholining ibodatxonalaridan masjid sifatida foydalandilar. Umaviylar davriga kelib, Suriya va boshqa mamlakatlarda katta masjidlar qurila boshladi.

Shuningdek, Suriya viloyatidagi *Qosiyun* masjidisi⁵¹, *Halab shahri*⁵², *al-Masjid al-aqdam*⁵³, Quddusdagi *al-Masjid al-Aqso*⁵⁴, *al-Masjid al-abyad*⁵⁵, *Jahannam* vodiysi⁵⁶ va *ar-Rabi'a al-adaviya* qabristoni⁵⁷ Qur'onda zikr etilgan payg'ambarlar va muqaddas shaxslar bilan bog'lanib, islom an'analarini asosida musulmon qadamjolariga aylantirildi. Demak, zabit etilgan hududlardagi xristan va yahudiy dinlari uchun muqaddas bo'lgan qadamjolarning islomlashuv jarayonlari amalga osha boshladi.

10.3. ARAB XATINING SHAKLLANISHI VA QUR'ONNING JAMLANISHI

Har bir xalqning madaniy yuksalishi va sivilizatsiyasining baholanishida yozuv muhim o'rinni tutadi. Arab yozuvni IV asrda oromiy-nabotiy yozuv asosida paydo bo'ldi. Bu yozuv Hijozda tarqalgandan so'ng, *hijoziy* deb nomlandi. Makka shahrida Madina shahar-davlatiga qaraganda yozuv ilgariroq paydo bo'lgan. Buning sababi savdo-sotiq rivojlangan sharoitda dehqonchilikka asoslangan jamiyatdan ko'ra yozuvga ehtiyoj ko'proq bo'ladi. Islom dini tarqala boshlagan davrda Arabiston yarimorolida *hijoziy* xat turi keng qo'llanilar, vahy, Abu Bakr sahifalari va Usmon mushafi shu xatda bitilgan edi. Usmon mushafi har xil yordamchi shakl va nuqtalardan xoli yozilgan. Unga *juz*'lar, *hizblar* va boshqa ko'rsatkichlarning alomatlari qo'yilmagan. Kufa yozuvni paydo bo'lguncha *Mushaf* va boshqa hujjatlar ana shu xatda yozilgan. *Kufiy* yozuvni *hijoziy* xatinining

⁵¹ Rivoyatlarga ko'ra bu masjid yaqinidagi g'orda Ibrohim payg'ambar tug'ilgan va bu masjidning o'zida 700 yoki 7000 payg'ambar qabrlari mavjud.

⁵² Halab shahrini ba'zida Halab Ibrohim, ya'ni Ibrohim payg'ambarning bir-necha qo'yilgan, yo'lovchilarni ularning sutidan mehmon qilib turganligi uchun *Ibrohim suti* nomi bilan mashhur.

⁵³ Damashqdan 2 milya janubda joylashgan masjid. Bu masjidda Muso Payg'ambarning qadam izlari qolgan tosh saqlanadi.

⁵⁴ Falastinda joylashgan masjid. Makka va Madina shaharlaridan keyingi haram kompleksi, ilk qibla.

⁵⁵ Falastin yaqinidagi ar-Ramla shahridagi Oq masjid. Bu masjidning janubiy davozasi yoniga 300 ta payg'ambar qabri mavjud.

⁵⁶ Vodiy jahannam. Rivoyatlarga ko'ra, Iso al-Masihning ruhi shu erdan osmonga ko'tarilgan.

⁵⁷ Rivoyatlarga ko'ra bu erga Iso payg'ambarning onasi Maryam dafn etilgan.

naqsh bilan bezatilganidir. *Kufiy* xati o‘zining shakli jihatidan chiroyli va qulay bo‘lganligi sababli Qur‘on va boshqa ko‘plab asarlar *kufiy* xatida bitila boshladi.

Arabiston yarimorolida xat-yozuv mavjud bo‘lsada, u mukammal emasligi, arab bo‘lmanahohi uchun o‘rganishning qiyinligi bilan ajralib turgan. Arab istilolari Arabiston yarimorolidan tashqariga chiqqan davrda ham islam davlati hukumatiga oid hujjatlar zabit etilgan hudud tilida olib borildi. Masalan, devon ishlari Misrda qibtiy, Shomda yunon, Iroqda esa fors tillarida yuritildi. Ma’lumki, xalifa Umar ibn al-Xattob devonlar tizimini xalifalik tizimiga eronliklardan o‘zlashtirdi. Avvalo, eronliklar uchun devonlar tizimi qadimdan ma’lum bo‘lib, uni boshqa tilda olib borilishi bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqarar edi. Ikkinchidan, arablar tomonidan zabit etilishiga qaramasdan o‘z yozuvlarini saqlab qolgan Shom va Misrda hukumatga oid hujjatlar Arabiston yarimorolidagi mavjud *hijoziy* yozuvning noqulayliklaridan voz kechish maqsadida amalga oshirildi. Chunki, hijoziy yozuvida 22 harf mavjud bo‘lib, harflarning bir-biriga qo‘sish orqali yasaladigan tovushlar tabiiyki, arab bo‘lmanahohi uchun talaffuzida noaniqliklar yaratadi.

Aholining kundalik madaniy-iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadigan vositalardan biri pul muomalasiadir. Arab-musulmon davlati Vizantiya va Sosoniylar imperiyasiga tegishli hududlarni zabit etganlaridan keyin ham bu davlatlarda qadimdan mavjud bo‘lgan tilla va kumush tangalar saqlanib qoldi. Bu tangalardagi zardushtiylik va xristian dinlariga oid ramzlar saqlanib qoldi. Bu tangalar Umaviy xalifa Abd al-Malik ibn Marvon (686–705) davrigacha shu holatda zarb etilaverdi. Demak, yangi tashkil topayotgan davlatda istilo etilgan hududlarni islamlashtirish bilan birga arabblashtirish tizimi bir hilda amalga oshirilmadi. Buning asosiy sabablaridan biri arab yozuvining boshqa yozuvlardan noqulayligi va kechroq, ya’ni IV asrdan keyin paydo bo‘lgani bo‘lsa, ikkinchidan, zabit etilgan hududlarda yashovchi tub aholining madaniyati arab madaniyatiga nisbatan avvalroq rivojlanganidir.

Qur'on – islom dinining asosiy manbasi va qadimiy adabiy-tarixiy va madaniy yodgorlik hisoblanadi. U VII asrdagi arablar hayoti va ijtimoiy holatini o'zida aks ettiradi. Unda diniy-falsafiy tasavvurlar va rivoyatlar, qabila-urug'chilik hayat tarziga xos an'ana, urf-odat va marosimlar, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy va axloqiy qonun-qoidalar, oila-nikoh, ajdod va avlodlarga munosabat, mulkchilik va vorislik, savdo-sotiq va qarz-muomalalariga xos ko'rsatmalar o'z ifodasini topgan.

Ma'lumki, Muhammad (s.a.v.) davrida Qur'oni karim etti xil lajhada (610–632-yillar) nozil qilingan. Abu Bakr to'plam holiga keltirgan Qur'onda ham etti *qiro'at* mayjud edi. Payg'ambar (s.a.v.) vafotidan so'ng arab istilolari natijasida turli mintaqaga musulmonlarining Qur'on tilovati bir-biridan farq qilib, turli tortishuvlarga sabab bo'la boshladи. Hududlardagi aholi Qur'on tilovatini o'sha yerdagi qorilardan o'rganar edilar. Tabiiyki, bu qorilar biron-bir lajhaga mansub bo'lganlar. Masalan, Hims va Damashq ahli – Mu'oz ibn Jabal (vaf. 639 y.), Iroq ahli Ubayy ibn Ka'b, Kufa ahli Abdulloh ibn Mas'ud (vaf. 652 y.), butun Suriya ahli esa Ubayy ibn Ka'b (vaf. 650) va boshqalar esa Abu Muso al-Ash'ariy (vaf. 665 y.) qiroatida tilovat qilar edilar. Bu esa Ozarbayjon istilosiga davridagi katta ixtilof tug'ilishiga sabab bo'ldi. Xalifa Usmon ibn Affon etti lajhadagi Qur'on to'plamlarini yig'ib, yagona Quraysh lajjasiga asoslangan mushafni yozdirtirdi.

Yurishlar natijasida arablarning ajam xalqlar bilan chatishib ketishi Qur'on tilovatida har xil ohanglarni vujudga keltirdi. Bu esa o'z navbatida arab tilining talaffuzi buzilishiga va Qur'on ma'nolarining o'zgarishiga olib keldi. Tarixchilarining ma'lumotlariga ko'ra, ilk arab xalifaligi davrida arab yozuvi va grammatiskasiga oid deyarli hech qanday islohot o'tkazilmagan. Ammo, Ali ibn Abu Tolib ko'rsatmasi bilan Abu-l-Asvat ad-Duvaliy (605–688) tomonidan arab tili grammatikasi “*annahv*” ishlab chiqilgan. Lekin, uning mukammal emasligi va foydalishiga noqulayligi amalda yaxshi natija bermagan. 673 yili Iroq voliysi Ziyod ibn Abihi (vaf. 689 y.) arab tilida “*annahv*” (sintaksis) darsligini yozdi va darslik keyingi yangi

darsliklar tuzish uchun namuna vazifasini bajardi. Birinchi marta arab tilida *i'rob* (qisqa unli) harakatlarni ifodalovchi nuqtalardan foydalanildi. Natijada «*a - -*», «*i - -*», «*u - -*» qisqa unlilar paydo bo‘ldi. Bunday nuqtalar matn yozuvidagi siyohdan boshqa rangda bo‘lib, arab yozuvining takomillashtirish uchun qilingan birinchi islohot bo‘ldi. Arab tilining takomillashuvidagi ikkinchi islohot esa, Umaviylar xalifaligi davrida, xalifa Abd al-Malik ibn Marvon amalga oshirdi. Ibn Marvon ajamiy qorilarning Qur’on o‘qilishidagi ba’zi xatolarga chek qo‘yish maqsadida «ج», «ح», «ش»، «ي»، «ت»، «ث»، «ص»، «ض»، «ظ» va «س»، «خ» va «ض»، «ظ» kabi shakli o‘xhash harflarga nuqtalar qo‘yishni joriy qildi. Nuqtalar harfning bir bo‘lagi sifatida qabul qilinib, harf bilan bir xil siyohda yozildi. Demak, arablar nuqta va harakat belgilarini hijriy birinchi asrning ikkinchi yarmidan, ya’ni umaviylar davridan ishlata boshladilar.

Qur’oni karim xalifa Abu Bakr davrida to‘planib, Usmon davrida yozma holga keltirilgan ekan, uning holati Muhammad (s.a.v.) davrida qanday holatda bo‘lganligi masalasi muhimdir. Bu borada ba’zi tadqiqotlarda ilk davrda Qur’onni musulmonlar yodlab olar, yozma nusxalari esa, hijratdan so‘ng paydo bo‘la boshladi, degan xulosalar uchraydi. Ammo, tarixiy ma‘lumotlar Qur’onning nozil etilgan oyatlarini sahabalar yozib yurganliklari va uni boshqalarga tarqatganliklari haqida Umar ibn al-Xattobning Qur’on oyatlari bitilgan matoni o‘qiganligi va islom dinini qabul qilganligi (616 y.) dalil bo‘ladi. Demak, Qur’on oyatlarini musulmonlar hijratdan oldin ham yozma holatga keltira boshlaganlar.

M. Usmonovning fikricha, Usmon ibn Affon xalifalik davrida Qur’ondagi sura va oyatlar ketma-ketligi tartibga solinib, hozirgi shaklga keltirgan. Uzun suralar kitobning boshida, qisqa suralar uning oxiridan o‘rin olishi, tadqiqotlarda aniqlanishicha, qadimiy arablarning va umuman Old Osiyodagi somiy xalqlarning an’anasi bilan bog‘liq bo‘lgan. Xilma-xil yozuvlar, rivoyatlar va adabiy asarlar to‘planib kitob qilinganda, katta hajmdagi asarlar birinchi o‘rinda, kichiklari keyin joylashtirilar edi. Zayd ibn Sobit (vaf. 665 y.) ham Suhufni to‘plab dastxat qilishda ana shu an’anaga amal qilgan bo‘lishi kerak.

Muhammad (s.a.v.) va ilk xalifalar davrida Qur’oni karimdan tashqari tarixiy ma'lumotlar og‘zaki bo‘lib, bir muncha kechroq kitobga tushirildi. Ba’zi sahabalarga Payg‘ambar (s.a.v.) hadislari doirasida tarixiy hodisalarni yozib borganlar. Tarixiy ma'lumotlarga ko‘ra, Abu Bakr Anas ibn Molikka (vaf. 711 y.) Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan sanalgan sadaqalar taqsimotini yozib bergen. Umar ibn al-Xattob o‘z davrida Utba ibn G‘azvon (vaf. 638 y.)ga Payg‘ambar (s.a.v.)ning ba’zi sunnatlarni yozib bergen edi. Ali ibn Abu Tolib huzurida hadislар yozilgan sahifalar saqlangan. Shuningdek, islom davlatida hadis maktabining rivojlanishida Sa’d ibn Uboda al-Ansoriy (vaf. 636 y.), Abdulloh ibn Abi Avfiy, Samura ibn Jundub (vaf. 682 y.), Abu Hurayra (vaf. 676 y.), Abu Muso al-Ash’ariy (vaf. 665 y.), Jobir ibn Abdulloh al-Ansoriy (vaf. 700 y.) va Abdulloh ibn Amr ibn al-Oslarning yozma holiga keltirgan Muhammad (s.a.v.) hadislari asosiy rol o‘ynadi. Demak, Muhammad (s.a.v.) vafoti bilan Alloh tomonidan yuboriladigan ilohiy vahiyilar to‘xtadi. Yangi shakllanib kelayotgan davlatni Payg‘ambar (s.a.v.) davridagidek va uning sunnatlariga to‘kis amal qilgan holda boshqarishga harakat qilish xalifalarning asosiy vazifalari edi. Natijada hadis va ko‘rsatmalarini to‘plash va ularni yozma holga keltirish majburiyati yuzaga kela boshladi.

10.4. TA'LIM SOHASINING RIVOJLANISHI

Rivojlanib borayotgan davlat o‘z hukmronligi doirasidagi aholining ta’lim sohasidagi muammolarini ham hal etishga harakat qila boshladi. Xalq ta’limi sohasini og‘ishtirmaslik maqsadida uning iqtisodiy himoyasini xalifalik o‘z zimmasiga oldi. O‘qituvchi bilan ta’minalash va dars xonalarini jihozlash uchun *bayt al-moldan* mablag‘ ajratila boshlandi. Umar ibn al-Xattob davriga kelib, muallimlarga 15 dirhamdan oylik maosh tayin etildi. Sa’d ibn Abi Vaqqos (vaf. 670 y.) Madina bolalariga o‘qish va yozishni o‘rgatish uchun Iroqdan maxsus muallim keltirdi.

Al-Xulofo ar-roshidun davrida kichik maktablar va odob o‘rgatuvchi ustozlarning mavjud bo‘lganligi haqida ma'lumotlar etarli. Ammo, Madinadan tashqaridagi ta’limiy harakatlarning

qay tarzda bo‘lganligi haqida to‘liq ma’lumot mavjud emas. Biroq Toifda boshlang‘ich maktab bo‘lganligi, unda Jarir ibn Haya as-Saqifiy ta’lim bergenligi haqida ma’lumot saqlangan. Madinada *Dor al-qurro* – “*qorilar uyi*” bo‘lib, u Badr jangidan keyin shakllangan. Biroq uning ob’ekti, tutgan o‘rni, vakolati, vazifalari jihatidan bu yerda asosan qur’onshunoslik mактабига asos solinganligini faraz qilish mumkin.

Ilk davrda ta’lim uchun vakillar yuborish harakati faol bo‘lganligi to‘g‘risida ma’lumotlar mavjud. Biroq Abu Bakr davridagi *ar-Ridda* harakati tufayli sahrolarga muallimlar yuborilganligi haqida ma’lumotlar etarli emas. Keyinchalik, Umar ibn al-Xattob davrida sahrolarga muallim yuborish yana faollashdi.

Musulmonlarni Qur’on va din ilmlarini o‘rganishga jalg‘ etish maqsadida pul mukofotlari tayin etilganligi masalasi o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy va madaniy aspektini ochib berishda xizmat qiladi. Tadqiqotchi Abd al-Aziz Solih al-Halabiy tarixchi Abu Ubaydaning (vaf. 865 y.) ma’lumotiga asoslanib, xalifa Umar Qur’on o‘rganuvchilarga maosh tayin etishni *omillarga* buyurganini zikr etadi. Ammo, al-Balazuriyning xabar berishicha, Kufa amiri Sa’d ibn Abi Vaqqos Qur’on o‘rganuvchilarga 2000 dirhamdan mukofot tayin etganda xalifa Umar Qur’on o‘quvchilarga mukofot bermaslikni amr etgan. Har ikkala tarixchining bir-biriga zid ma’lumotini tahlil qilish mobaynida shunday xulosaga kelish mumkin: avvalo Umar ibn Xattob xalifaligining ilk davrlarida, ya’ni *ar-Ridda* harakati endi to‘xtagan paytda arablar orasida moddiy rag‘batni kuchaytirish va Qur’oni yod olganlarga mukofot berilishi mantiqan to‘g‘ridir. So‘ngra esa musulmonlar islom dinini to‘liq o‘zlashtirganlarida Qur’on o‘qish, yod olish yaxshi amallaridan bo‘lganligi sababli ularga moddiy rag‘batlantirish shart emasligini ta’kidlagan. Demak, har ikala ma’lumot ham o‘z davri nuqtai nazaridan asoslidir.

Musulmonlar Qur’on, uning tafsiri va hadis ilmlarini o‘rganish bilan birga, zabt etilgan davlatlarning tili, adabiyoti, urf-odatlari va ular o‘rganayotgan ilmlarni o‘rganishga ham harakat qila boshladilar. Savdo va hunarmandchilik, jamiyat hayotidagi

o‘zgarishlar turli muammolarni keltirib chiqardi. Ularning echimini topish ilm-fanning rivojiga turtki berdi. Arab-musulmon davlatining kengayishi va aholining ko‘payishi, shaharlar sonining oshishi va umumiy taraqqiyot darajasi arab tilidan boshqa tillarni o‘rganishni taqozo eta boshladi. Musulmonlar boshqa millat va davlat aholisini istilo eta boshlagach, Arabiston yarimorolidan tashqarida yashovchi xalqlarning tillariga muhtojlik sezaga boshlandi. Vahiy kotiblaridan Zayd ibn Sobit forsiy, rumiy, habashiy, oromiy, ibroniylar va suryoniy tillarida yozar va o‘qir edi. Ibn Sa‘dning xabar berishicha, Zayd ibn Sobit Payg‘ambar (s.a.v.)ning buyrug‘i bilan yahudiy tilini o‘rgangan.

Tarix sohasi esa, Payg‘ambar (s.a.v.) siyrasi va avvalgi payg‘ambarlar qissalari bilan yonma-yon olib borildi. Musulmon bolalarga Qur‘on suralari o‘qitilganidek, Payg‘ambar (s.a.v.) hayoti ham o‘rgatila boshladi. Ali ibn Abu Tolib Himyariylar davlati tarixini o‘rganishga qiziqar edi.

Nasab ilmi musulmonlarga johiliyat davridan ma’lum edi. Nasab ilmiga bo‘lgan ahamiyat Payg‘ambar (s.a.v.) va ilk arab xalifalari davrida ham diniy, ijtimoiy, harbiy hamda idoraviy ehtiyojlar tufayli yo‘qolmadidi. Islom qabilaviy tarafakashlik hamda nasablar bilan faxrlanish kabi odatlarni harom qilgan bo‘lsada, nasab ilmi – uylanish, meros kabi shar‘iy hukmlar tatbiqida muhim o‘rin tutdi. Muhaddislar uchun roviylarning nasablarini ajratish, harbiy jihatdan esa, har bir qabila alohida harbiy birlikni tashkil qilish, shuningdek, shaharlardagi ijtimoiy, boshqaruva tizimining asosini tashkil etdi. Demak, Umar ibn al-Xattob davrida tashkil etilgan askarlik devoni nasablar qayd etilgan birinchi to‘plam vazifasini o‘tadi.

Qadimda arablar yozishda yassi tosh, tuyalarning kurak suyagi, daraxt po‘stloqlari, gazlama matolar, terilar va papirusdan foydalanganlar. Yozishda terining *ar-riqq*⁵⁸, *al-odim*⁵⁹, *al-qadim*⁶⁰ kabi turlari qulay hisoblangan. Sahobalar Qur‘oni karim suralarini uzoq saqlanadigan bo‘lganligi uchun

⁵⁸ الرق – oq yupqa teri.

⁵⁹ الأديم – har qanday teri. Ba’zida qizil teri, oshlangan teri deb nomlangan. Mana shu teri Muhammad payg‘ambar davrida keng foydalanilgan. Kur’oni ham shu teriga yozilgan.

⁶⁰ القضيم – oq teri, oppoq sahifa.

ar-riqq terisiga yozishga *ijmo'* qilganlar. Tadqiqotlarda, Muhammad (s.a.v.), Abu Bakr va Umar ibn al-Xattob davrida yozishda yassi toshlar, suyaklar va terilardan foydalilanilgan, qog'oz va papirusning paydo bo'lishi hijratning II asriga to'g'ri keladi, degan xulosa mavjud. Ammo, evropalik tadqiqotchi V. Fisherning fikricha, Arabiston yarimorolida 642 yilda aynan *hijoziy* yozuvida yozilgan papirus topilgan. Misrlik tadqiqotchi Solih Ahmad al-Uliy Abu Bakr Qur'oni jamlashda papirusdan foydalangani va Misr davlat kutubxonasida shu papiruslardan biri saqlanayotganini ma'lum qiladi. Shuningdek, Qur'oni karim oyatlarida ham "qog'oz" – (*qirtos*) so'zi zikr etiladi. Tarixiy manbalarning ma'lumot berishicha, Usmon ibn Affon davrida o'z uyi yonida toza qog'ozlar (papirus) saqlash uchun maxsus qog'ozxona (ombor) tashkil etilgan. Papirus asosan Misrda tayyorlanib, uning bir o'rami (14,5 metr) 1,5 dinorga baholangan. Tadqiqotchi A.B. Xalidovning fikricha, Xitoyda ishlab chiqarilgan qog'oz Sosoniylar davlatiga VI asrning oxirlarida olib kelina boshlangan. Demak, papirus Arabiston yarimorolida islomdan oldin ma'lum bo'lgan. Xitoy qog'ozi esa, Sosoniylar davlati orqali arablarga etib kelgan bo'lishi kerak.

10.5. KIYINISH VA TAOM MADANIYATI

Har bir xalq va millatning madaniy jihatini yoritishda, shu davlat aholisining kiyimlari va taomlar tayyorlash san'ati muhim o'rinn tutadi. Tashqi ko'rinish har bir xalqning madaniy saviyasini belgilab beradi. Muhammad (s.a.v.), Xulafo ar-roshidunlar davrida arablarning liboslari bir muncha sodda edi. Arablarda o'troq aholi chakmon (*ash-shamla*) va tuyu yungidan to'qilgan *abo* nomli kiyim kiyar edi. Badaviy aholi esa to'piqqacha tushadigan qabo kiyib, bellarini charm kamar bilan bog'lar edilar. Urush yoki sovuq paytlarida *qabo* ustidan *abo* ham kiyganlar. Shuningdek, sholvor va kalta chopon ham kiyar edilar. Bosh kiyimi asosan salsa bo'lib, uning hajmi yoshga, egallab turgan mansabi, ilmiy darajasiga qarab farqlangan. Salla ustidan bo'yinni quyoshdan to'sish maqsadida elkagacha tushib turadigan mato (*at-taylson*) yopilgan. Albatta aholining kiyinishi ijtimoiy daraja, moddiy imkoniyat va vazifa nuqtai nazaridan

turlicha bo‘lgan. Ulamolar yoki kotiblar va askarlarning *kisva* (xalat yoki chopon) lari o‘z lavozimlariga qarab turlicha edi. Qabila shayxlari va shunga o‘xshash amaldorlar tizzagacha tushadigan *qabo*, ustidan to‘piqqacha tushadigan *jilbob* (uzun ko‘ylak) bellariga ipakdan belbog‘ bog‘lab, uning ustidan *jubba* (chakmon yoki chopon) oyoqlariga kavush yoki etik kiyganlar. Johiliyat davrida arab ayollari ko‘kragi ochiq ko‘ylak, boshlariga issiq kunlarda ba’zan hech narsa kiymas edilar. Faqatgina sovuq paytlarda ro‘moldan foydalanar edilar. Islom dini musulmon ayollariga sholvor, orqadan ochib-yopiladigan uzun ko‘ylak, sovuq paytlarda ko‘ylak ustidan kalta *rido*, ko‘chaga chiqadigan bo‘lsalar notanish kimsalarni o‘zlariga jalb qilmaslik maqsadida Yamanning uzun choponlari (*al-habra*)dan foydalanishni majbur etdi. Chunki, *al-habra* musulmon ayollarni tuproq va loydan saqlab, butun jismini o‘rab turgan. Musulmon ayollari boshlariga ro‘mol yopib, uni bo‘yinning tepa va past qismlarigacha o‘rab olganlar. Islom din sifatida shakllanayotgan davrda Arabiston yarimoroli arablari yarim badaviy elatlardan iborat bo‘lgan xalq edi. Ular zabit etilgan xalqlarning kiyinish madaniyatini tez o‘zlashtira boshladilar. Bu mushtarak madaniy jihatlarda Yunon elementi bilan bir qatorda Eron elementi ham kuchliligi shubhasizdir. Arablar Arabiston yarimorolidagi erkaklar uchun notanish bo‘lgan Yaman, Kufa va Iskandariyadan keltirilgan bezakli matodan ro‘mol, salsa, ko‘ylak va ridolar tikishda foydalana boshladilar.

Kiyinish madaniyati arablarda zabit etilgan xalqlar madaniyati bilan uyg‘unlashdi. Ammo, bosib olingan hududlardagi aholi ilk davrdayoq o‘z kiyimi va diniy urf-odatlarini tark etishga majbur bo‘ldilar. Chunki, zabit etilgan mamlakatlardagi *ahl az-zimma* musulmonlarga nisbatan tashqi ko‘rinishda, ulov minishda va kiyinishda ajralib turishlari shart etildi. Zimmiyarning tashqi ko‘rinishi: “*zunnor*” nomli belbog‘ bog‘lab yurishlari, otga egarsiz minishlari, qovulgan uzun qalpoq kiyib yurishlari shart

edi. Diniy urf-odatlardan esa, zabit etilgan hududlarda yangi ibodatxona qurmaslik, ibodat vaqtida qo'ng'iroq chalmaslik, xochni ochiq holatda taqib yurmaslik, yahudiylar sochlarini yonidan va oldidan tushirmay kalta qilib yurishlari lozim edi. Bozorlarda sharob, cho'chqa go'shti sotgan yoki mast holda qo'lga tushganlar katta jarima to'lar edilar. Shuningdek, har bir *zimmiy* bo'yniga qo'rg'oshindan qilingan muhr osib qo'yilar, zimmasidagi *jizya* solig'ini to'lagach, bu muhr olib tashlanar edi.

Arablarda ilk davrda oziq-ovqat masalasi ancha jo'n edi. Ular go'shtni xush ko'rар, aksariyat hollarda tuya sutini iste'mol qilar edilar. Arabiston yarimorolida keng tarqalgan ovqatlardan *as-sarid*⁶¹, *al-lamza*⁶², *al-kauson*⁶³, *al-atriya*⁶⁴, *ash-sha'iriya*⁶⁵, *ar-rabiika*⁶⁶, *al-jashish*⁶⁷, *al-akka*⁶⁸, *ash-shavo* va *al-basisa*⁶⁹, *al-xazir*⁷⁰, *al-xazira*⁷¹, *al-qadid*⁷², *as-saff*⁷³. Shahar aholisi sahro arablariga qaraganda oziq-ovqatga alohida e'tibor berar edilar. Ularni turli tartibda iste'mol etishga harakat qilar edilar. Arabiston yarimorolida dehqonchilik qilish uchun sharoitning yo'qligi tufayli sabzovotlarga kam e'tibor berilib, deyarli iste'mol qilinmas edi. Yurishlar natijasida arablar boshqa xalqlarning ovqat qilish san'atlaridan o'zlashtira boshladilar va arab ovqatlarining turlari bir muncha ko'paydi.

⁶¹ – *النبيذ* – non bo'laklarini sho'rvaga botirib, go'sht qo'shib yeyilgan.

⁶² – *اللمدة* – yog'ga to'gralgan non.

⁶³ – *الكوثان* – guruch va baliq.

⁶⁴ – *الأطريمة* – undan tayyorlangan ipga o'xshash ovqat.

⁶⁵ – *الشعيروية* – arpa kabi mayda ipga o'xshash ovqat.

⁶⁶ – *الربيكة* – bug'doy, xurmodan tayyorlanib, yog'ga qoriladi.

⁶⁷ – *الجشيش* – chala maydalangan bug'doyni go'sht yoki xurmo bilan pishiriladi.

⁶⁸ – *العكة* – unni yog' bilan qorib, qovuriladi.

⁶⁹ – *ال Shawāء، ال بيسية* – hayvon yog'i yoki saryog'ni un bilan qorib pishirilmasdan eyiladi.

⁷⁰ – *الخزير* – yog' va undan tayyorlangan atala.

⁷¹ – *الغزيرة* – suvda go'shtni pishirib bo'lgach, ustiga un solinadi. Agar suvdagi go'sht olib qo'yilsa, «*العصيدة*» deb atalgan.

⁷² – *القديد* – go'sht mayda yoki yupqa to'g'rab solingan sho'rva.

⁷³ – *الصفيف* – go'shtni katta-katta to'g'rab solingan sho'rva.

Arab madaniyati deb nom olgan madaniyat musulmon xalqlarining an'analari asosida islomga moslashtirib mujassamlashtirilgan madaniyat bo'lib xizmat qildi. Arab tili – islom dini birlashtirgan xalq va elatlarning aloqa tiliga aylandi. Arablar Vizantiyaga qaram bo'lgan Suriya, Misr va Eronda mavjud ijtimoiy va siyosiy davlat tizimi, ma'muriy tashkilotlar, moddiy va ma'naviy hayot udumlarini o'zlashtirdilar. Shuningdek, Sosoniylar davlatidan markazlashgan davlat idorasi, soliq siyosati va ishlab chiqarish usulini qabul qildilar. Davlatdagi taraqqiyot darajasi turlicha bo'lgan mamlakatlar va xalqlarning bir davlatga birlashuvi, ular o'rtasida yaqin aloqalarning o'rnatilishi, iqtisodiy hayotning ravnaq topishi ichki va tashqi savdo aloqalarining rivojiga turtki berdi. Natijada xalifalikni tashkil etgan xalqlar madaniyati evropadagi tarqoq davlatlar, mamlakatlar madaniyatidan yuqori darajaga etdi.

Takrorlash uchun savollar

1. *Islom madaniyati deganda nimani tushunasiz?*
2. *Arab xat turlaridan qaysilarini bilasiz?*
3. *Qur'on nima sababdan yozma xolatga keltirildi?*
4. *Qadimgi arab kiyimlarini bilasizmi?*
5. *Masjid al-harom va masjid an-Nabaviyni qaysi davrdan boshlab kengaytirildi?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Arab-musulmon madaniyatiga Yunon va Eron elementlarining ta'siri.*
2. *Arab yozuvining shakllanish bosqichlari.*
3. *Ilk islom tarixida ta'lif sohasining rivojlanishi.*
4. *Islom tarixida ilk shaharlar qurilishi.*
5. *Usmon mus'hafi tarixi.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abd al-Aziz Solim. Tarix ad-daula al-arabiya. – Iskandariya. Shabob al-jomi'a, s.y. – T. 2.Richards D.S. Papers on Islamic History: Islamic Civilisation. 950-1150. – Oxford, 1973.
2. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira. s.y.
3. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633. (1989).
4. Большаков О.Г. История халифата. Том 2. Эпоха великих завоеваний. 633-656. (1993)
5. Большаков О.Г. История халифата. Том 3. Между двух гражданских войн. 656-696. (1998)
6. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
7. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
8. Donner F. The Early Islamic Conquests. – New York: Princeton University Press, 1977.

11-BOB. DAVLATDAGI ICHKI ZIDDİYATLAR

Tayanch iboralar: *xavorij, alaviylar, umaviylar, al-jamal, sho'ro, xaruriy, shia, umaviy, siffin, Kufa, Basra, ahl al-bayt, Muoviyah ibn Abi Sufyon, Ali ibn Abu Tolib, Amr ibn Os.*

11.1. UMAVIYLAR VA ALI TARAFDORLARINING PAYDO BO'LISHI

Hokimiyat uchun siyosiy guruuhlar o'rtasidagi kurash xalifalarning o'limlari, davlat tepasiga yangi kuchlar kelishi, ayrim hollarda esa fuqarolar urushlari bilan davom etib turdi. Bu mojarolar bevosita ulamolar ishtirokida yuz berib turdi va shu sababli, islom ta'limotidagi rivojlanishlarga o'z ta'sirini o'tkazdi. G'oyaviy kurash nafaqat Qur'on atrofida, balki Payg'ambar (s.a.v.) sunnati masalalariga ham ko'chdi. Har bir masalada bir tarafdan dunyoviy hokimiyat, ikkinchi tarafdan esa – muxolif ulamolar o'z dalillarini ro'kach etib chiqdilar.

Islomdagi eng asosiy bo'linish hokimiyat masalasida yuz berdi. Islom ta'limotining bundan so'nggi rivoji ham shu tayanch masala atrofida jamlandi, markazlashdi. Keyinchalik unga yangi-yangi qatlam masalalar kelib qo'shilaverdi. Bu o'rinda yorqin misol sifatida ijmo' va qiyos yo'li bilan qabul qilingan hukmlarni keltirishimiz mumkin.

Xalifa Usmon ibn Affon davrida davlat ishlarini boshqarishda ziddiyatli hollar ko'paya boshladi. U Banu Umayya urug'idan bo'lganligi sababli davlat ishlarida qarindosh-urug'chilikka yo'l qo'ya boshladi. Bu markazlashgan islom davlati ichki siyosatida qarama-qarshiliklarning paydo bo'lismiga va muxolif kuchlar orasida noroziliklarning chuqurlashuviga sabab bo'ldi. Xalifa Usmon ibn Affon o'z davridagi hokimiyat uchun kurash qurboni bo'ldi (656 y.). Uning o'limi Arab xalifaligida uzoq davom etgan urush olovini yoqdi. Bu keskin siyosiy holat "jamoa rahbari" (imom) va "dunyoviy davlat boshlig'i" (xalifa) haqidagi bir necha bir-biriga zid diniy ta'limotlarning shakllanishiga olib keldi.

Xalifalik Ali ibn Abu Tolib qo‘l ostiga o‘tganda davlat tizimi anchagini izdan chiqqan edi. Birinchi marta Aliga bay’at Abu Bakr, Umar va Usmon kabi umumiy bo‘lmadi. Xalifalikka tayinlangan Ali Shom hududlari va Muoviyta tomonidan bosib olingan yerlarni Madina nazorati ostiga olish va davlatning ichki va tashqi siyosatini mustahkamlash maqsadida kurash boshladi. Ali viloyat hokimlarini ishdan olib, ularning o‘rniga boshqalarini tayinladi.

Banu Umayya urug‘idan bo‘lmish Shom voliysi Muoviyta ibn Abi Sufyon Ali ibn Abu Tolibning xalifaligini tan olmay, o‘zini Damashqda xalifa deb e’lon qildi. Buning oqibatida islom-arab jamiyatni siyosiy va iqtisodiy jihatdan umaviyalar (Muoviyta tarafdarlari) va *alaviylar* (Ali tarafdarlari)ga bo‘lindi. Keyinchalik Alining xatti-harakatlardan norozi bo‘lgan siyosiy-diniy guruh – *xorijiyalar* ham paydo bo‘ldilar.

Oliy hokimiyat uchun kuchayib ketgan keskin kurash davomida diniy ta’limot ichida jamoa rahbari masalasida uch xil yondashuv shakllandi.

Ulardan birinchisi xalifa Ali muxoliflari – xorijiyalarga tegishlidir. Unda hokimiyat fuqaroviylari jamiyatga (*umma*) tegishli ekanligi, uning dunyoviy xarakteri alohida ta’kidlanadi. *Xorijiyalar* (*al-Xavorij* – ajralib chiqqanlar) Ali va Muoviyta o‘rtasidagi *Siffin* jangidan so‘ng (657 y.) islom tarixida ilk yuzaga kelgan siyosiy partiya. Ularning ta’limotiga ko‘ra, xalifa sof dunyoviy davlat rahbari bo‘lishi kerak. Imomlikka (xalifalikka) qul yoki ozod kishi, Quraysh yoki boshqa bir qabiladan bo‘lishidan qat’iy nazar bu lavozimga loyiq inson o‘z nomzodini qo‘yishi mumkin. Ular bu mansabni shialardek muqaddaslashtirish (sakrallashtirish) shart emas, chunki “*Hokimiyat – Allohniki*” (*al-mulk li-l-loh*), degan xulosaga kelganlar. Xorijiyalar avvalgi xalifalar Abu Bakr va Umar ibn al-Xattobni haqiqiy davlat rahbari hisobladilar. O‘zlari “noqonuniy” (adolatsiz) deb topgan xalifalarga qarshi qurolli kurash olib borish ular ta’limotining asosini tashkil etdi.

Ali tarafdarlari – shialar esa bu masalada o‘z ta’limotlarini ishlab chiqdilar. Unda hokimiyatning Muhammad (s.a.v.) avlodlariga oilaviy-urug‘lik prinstipi asosida meros yo‘li bilan o‘tishi ta’kidlanadi. Bu ta’limotda avvalgisiga nisbatan diniylik

prinstipi ustuvordir. *Ash-Shia* oqimining g‘oyasiga ko‘ra, Payg‘ambar (s.a.v.)dan keyin o‘rnbosar faqatgina *Ahl al-bayt*dan tayinlanishi lozim. Bu mansabga eng loyiq odam Ali ibn Abu Tolib va uning avlodlari deb topildi. Bu g‘oya Abu Bakr xalifa etib saylangan paytlardayoq paydo bo‘ldi. Bu kichik guruh g‘oyalari keyinchalik islam dinida shialik yo‘nalishining shakllanishiga to‘liq va sunniylik g‘oyalariqa qisman ta’sir qildi. Usmon ibn Affon vafotidan keyin bu guruh siyosiy faoliyatini ochiqdan-ochiq olib bordi. Ular xalifani dunyoviy hokim (podshoh) deb hisoblab, diniy jihatdan jamoaga “*imom*” rahbarlik qilishi lozim deb hisobladilar. Ularning fikricha, imomning vazifalari – Qur’onne tafsir qilishi, diniy ahkomlarni belgilashdan iborat. Shialar hukmron bo‘lgan hududlarda davlatni faqatgina diniy rahnamogina boshqaradi.

Muoviya tarafdlari Banu Umayya avlodidan bo‘lgan xalifa Usmon ibn Affonning to‘kilgan qoni uchun Ali va uning tarafdlaridan intiqom olishga undadilar. Xalifalik Banu Umayya urug‘ida qolmoqligi lozim.

Mazkur g‘oyalari hokimiyatga muxolif tabaqalar va ularning rahnamolari ulamolar orasida shakllanganligi va rivojiana borganligi sababli xalifaga dunyoviy vazifalarni aniq bajarish bilan bir qatorda diniy talablar, ya’ni ulamolar va jamoa manfaatlarini aks ettiruvchi jihatlar ham qo‘sila boshladi. Bu nazariya diniy va dunyoviy – davlatni boshqarish vazifalarini birlashtirish talabi edi.

Yuqoridagi tahlillarga xulosa etib, aytish mumkinki, Ichki Arabiston tarixida birinchi markazlashgan davlat tuzish jarayonida Muhammad (s.a.v.) o‘z siyosiy hukmronligini islam dini vositasida sakrallashtirdi. Yangi davlat asoschisi faoliyatida payg‘ambarlik bilan bir qatorda jamoa-davlat boshlig‘i vazifalarini birlashtirganligi keyinchalik shakllangan islam diniy nazariyasida dunyoviy va diniy unsurlarning birlashib ketishiga olib keldi. Uning ijtimoiy-siyosiy faoliyatida teokratik jihatlar bilan bir qatorda ko‘plab dunyoviy jihatlarni ham uchratamiz.

Ilk xalifalar bo‘lgan Payg‘ambar (s.a.v.) o‘rnbosarlari faoliyatlarida dunyoviy vazifalar ustuvor bo‘la boshladi. Bunga musulmon davlatining tez sur’atlar bilan rivojlanishi asosiy

sabab bo‘ldi. Diniy sohadagi rivojlanishlar, diniy bilimlar hajmi va sohalarining murakkablashib borishi bu jabhada mutaxassislar (ulamolar) guruuhlarining shakllanishiga olib kela boshladi. Natijada musulmon davlati ilk to‘rt xalifalar faoliyatida dunyoviy va diniy sohalarning amalda ajralishi yuz berdi.

Bu davrda sof teokratik (islom) davlati tushunchasi mazmun-mohiyatini yo‘qota boshladi va musulmonlar tomonidan zabt etilgan davlatlar islom davlati deb tushunildi. Ammo davlat boshqaruvi hali dunyoviy va diniy nazariyalarga aniq bo‘lingan emas edi.

11.2. XALIFA USMON IBN AFFONNING O‘LDIRILISHI VA FUQAROLAR URUSHINING BOSHLANISHI

Hokimiyat organlarini tashkil etish, a’zolarni tayinlash, ta’sir doiralarini bo‘lib olishda turli guruuhlar o‘rtasida yuz bergen tortishuvlar fan predmetining asosiy siyosiy mohiyati ning biri hisoblanadi. Harakat etayotgan siyosiy kuchlarning birinchi guruuhini *Abd Shams* (yoki *Banu Umayya*) avlodni namoyandalari tashkil etdilar. Avvalgi davrda Payg‘ambar (s.a.v.)ga qarshi kurash olib borgan rahbarlar (Ikrima ibn Abi Jahl, Abu Sufyon, Muoviya ibn Abi Sufyon, Xolid ibn al-Valid, Amr ibn al-Os va boshqalar) islomni majburan qabul qilganlaridan keyin tez orada o‘zlarining eski ijtimoiy-siyosiy mavqelarini yangi sharoitlarda qayta tiklab oldilar. Ular Payg‘ambar (s.a.v.) vafotidan so‘ng boshlangan hokimiyat uchun kurashda real kuchga aylandilar. Ayniqsa Umaviylar urug‘idan bo‘lgan Usmon ibn Affon davrida ularning mavqelari juda mustahkamlandi: Marvon ibn al-Hakam davlat ishlarini yakka o‘zi boshqarib, hukumat mansablariga o‘z qarindoshlarini tayinlay boshladi. Bu esa, o‘z navbatida, ta’sir doirasi chegaralana boshlagan harbiy-siyosiy guruuhlarning qarshi harakatini tug‘dirdi. 656 yili xalifa Usmonning olib borayotgan siyosatiga qarshi Misr, Basra, Kufa va boshqa viloyatlardan kelgan musulmonlar Madinada qo‘zg‘olon ko‘tardilar. Usmon qo‘zg‘olonchilarga kafolat xati yozib berdi. Dashtda ketayotgan qo‘zg‘olonchilar tuyada yelib

ketayotgan choparni to‘xtatib, tintganlarida uning yonidan xalifa Usmon muhri bosilgan xat chiqadi. Xatda Misr voliysi Abdulloh Ibn Sa’dga qo‘zg‘olonchilarni Misrga kirishlari bilan jazolashni va ularning boshlig‘i Muhammad ibn Abu Bakr va Muhammad ibn Abi Xuzayfani o‘ldirish buyurilgan edi. Yuzaga kelgan ziddiyat tinch yo‘l bilan hal qilina olmadi. Usmondan bu holatni tushuntirishni talab etadilar. U qul va tuya o‘ziniki ekanligi, ammo xatni u yozmaganligini aytadi. Qo‘zg‘olonchilar xatni Usmonning kotibi Marvon ibn al-Hakam yozganligini anglab, Usmondan uni berishni talab etadilar. Rad javobini olgach, Usmonning uyini qamal eta boshlaydilar. Manfaatdor taraflarning keskin harakati xalifa Usmonning qatl etilishi bilan tugadi. Xalifa Usmonning qotili kim ekanligi haqida tarixchilar aniq bir to‘xtamga kelmaganlar.

Hokimiyat uchun kurash asosida kelib chiqqan bu ziddiyatning harbiy masalaga aylanib, jang maydoniga chiqishi birinchi fuqarolar urushining (556–661) yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Bu esa markaziy hokimiyatning Madinadan butkul olib chiqib ketilishi bilan tugadi. Avval Ali poytaxtni o‘z tarafдорлари ko‘p bo‘lgan Kufaga, so‘ngra uni yenggan Muoviya esa – Umaviylar tayanch markazi Damashqqa ko‘chirdi.

Talha ibn Ubaydulloh, az-Zubayr ibn al-Avom va Muoviya ibn Abi Sufyon kabi guruh rahbarlari Aliga qarshi chiqib, bu holatni shunday talqin qildilar: “Ali qo‘zg‘olonchilarga qarshi kurashda Usmonga yordam bermadi, qodir bo‘la turib, odamlarni bu ishdan qaytarmadi, bundan tashqari u xalifalik mansabiga ko‘tarilganidan keyin Ibn Affonning qasosini olmadi, balki u Usmonning qatl etilishidan manfaatdor bo‘ldi”.

Uch sahaboning bunday fikrga kelishlariga ulariing har biri xalifalikka Alidan ko‘ra o‘zini loyiqliq deb hisoblash turtki bo‘ldi. Ular o‘z da‘volari haq ekanligini turli yo‘llar bilan isbotlardilar: Talha va Zubayr “Umar vafotidan oldin xalifa saylash xususida kengashga (sho‘ro) chaqirilgan olti kishidan birimiz”, deyishsa, Muoviya esa Usmonga yaqin qarindosh (ularning ikkisi ham Quraysh qabilasining Umayya urug‘idan edilar) va uning qasosini olishga loyiqlik ekanligini ro‘kach qildi.

Talha va Zubayr “al-Jamal” (Tuya) jangida halok bo‘ldilar. Shundan so‘ng Ali o‘rniga xalifalikka da’vogarlardan birgina Muoviya ibn Abi Sufyon (660–680) qoldi. 657 yili Suriyada Muoviya va Ali o‘rtasida bo‘lib o‘tgan Siffin jangi Ali tarafdarlarining ikki guruhga ajralib chiqishiga sabab bo‘ldi. Ali ibi Abi Tolib qarshi tomon Umaviylar (660–750) bilan o‘zaro bitim tuzib, urushni to‘xtatishga rozi bo‘ldi. Alining tutgan bunday murosasozlik siyosatidan uning qo‘smini orasidagi bir guruh kishilar norozi bo‘lib, ajralib chiqdilar. Aliga itoat etishdan bosh tortganlar “xavorij” deb, Muoviyaga qo‘shilmay Ali atrofiga to‘planganlar keyinchalik “shia” deb nomlana boshlandi. Bu guruhlar shu tariqa islomdagagi ikki katta yo‘nalishga asos soldilar. O‘z navbatida har bir toifaning o‘ziga xos diniy-siyosiy nuqtai nazar, ta’limot va amaliyotlari shakllana boshladi.

Ali bilan Muoviya o‘rtasida tuzilgan bitimdan Kufa yaqinida turgan 12 ming kishidan iborat qo‘shtinning bir qismi norozi bo‘ldi. Ular “hukm chiqarish faqat Allohnинг qo‘lidadir”, degan shior bilan qo‘shtinni tark etib, Kufa yaqinidagi Harura qishlog‘iga ketdilar. Bu firqanining Kufadagi “xuruj” (bo‘ysunmaslik) voqeasi ularning “xavorij” (qarshi chiquvchilar) nomlanishlariga sabab bo‘ldi. Bu voqealarda Harura qishlog‘ida yuz berganligi bois avvaliga ularni “haruriylar” deb ham ataganlar. Ular o‘zlarini “shurot” (jonlarini Alloh yo‘lida tikkan kishilar) deb nomlaganlar. Yana ularning “muhakkima” (“hukm Allohnинг qo‘lida” deguvchilar) degan nomlari ham bor.

Xavorijlar o‘zlariga Abdulloh ibn Vahb ar-Rosibiyni amir etib saylab, Ali va Muoviyani yo‘q qilish payiga tushdilar. Xalifa Alini xorijiy Abdurrahmon ibn Muljam o‘ldirgach, ular ikki firqaga bo‘linib, biri Iroqda qoldi, ikkinchisi Arabiston yarimoroliga ketdi. Umaviylar davrida xavorijlarga qarshi keskin kurash olib borildi. Chunki, ular Umaviylar davlatiga katta xavf solardilar. Bu davrda xavorijlar kuchayib, Kirmon, Fors, Yamoma, Xadramavt, Toif, Yaman kabi shahar va o‘lkalarni egalladidar.

Muhammad (s.a.v.) vafotidan so‘ng davlatni qisman teokratik-avtoritar uslubda boshqarishda tub o‘zgarishlar ro‘y berishi muqarrar edi. Chunki Muhammad (s.a.v.) – payg‘ambarlarning so‘ngisisi, muhri (*Xotam al-anbiyo*) edi. Demak, siyosiy va

ijtimoiy jarayonlarni bevosita ilohiyat amri ila boshqarish, unga tub o‘zgartirishlar kiritish bundan so‘ng mumkin bo‘lmay qoldi. Boshqacha aytganda, islam tarixida teokratiya davri nazariy jihatdan o‘z yakuniga yetgan edi. Bunday sharoitda islam rasmiy din sifatida e’tirof etilgan jamiyatda dunyoviylik va diniylikning mutlaqo yangi muvozanati jadallik bilan shakllana boshladi. Sof teokratik (islom) davlat tushunchasida dastlabki mazmun-mohiyat kamaya boshladi. Shu o‘rinda Payg‘ambar (s.a.v.) ning xalifalik o‘ttiz yil davom etishi va undan so‘ng davlat boshqaruvida amirlik, podsholik (*sultonlik*) tizimi paydo bo‘lishini bashorat qilishi amalda o‘z tasdig‘ini topdi.

Demak, ko‘rib chiqilgan davr jamiyati doirasida dunyoviylik va diniylik muvozanati shakllandi. Bunda davlat boshqaruvida dunyoviy jihatlar ko‘proq namoyon bo‘ldi. Muhammad (s.a.v.) kelajakda islam davlati boshqaruvida teokratik tizimdan dunyoviy davlatga o‘tish sodir bo‘lishi, davlatni boshqaruvchi shaxs endi diniy usuldan ko‘ra dunyoviy usullardan foydalanishi shartligini bashorat qilganlar. Shuning uchun ham o‘zidan keyin kelishi kerak bo‘lgan davlat rahbarini tayin etmagan. Hozirgi kunda “Hizb at-tahrir” va shunga o‘xshash radikal qiyofadagi ayrim diniy-ekstremistik tashkilotlarning “islom davlati”, “xalifalik” tuzishga qaratilgan reakstion harakatlari umuman islam mafkurasiga va tarixiy haqiqatga ziddir. Chunki tarixda Muhammad (s.a.v.)ning boshqaruv davrini teokratik g‘oya elementlari mavjud bo‘lgan davlat deb hisoblash mumkin. Mazkur tizimning mavjudligi faqat Alloh tomonidan yuborilgan Rasul – Muhammad ibn Abdulloh al-Hoshimi (s.a.v.) shaxsi bilan bog‘liqidir.

Takrorlash uchun savollar

1. *Nima uchun Ali ibn Abu Tolib Madinadan chiqib ketdi?*
2. *Muoviya ibn Abi Sufyonning Ali ibn Abu Tolibga munosabati qanday bo‘ldi?*
3. *Ali ibn Abu Tolibni kim o‘ldirdi?*
4. *Usmon ibn Affonning qotili kim?*
5. *Xorijiyalar kimlar?*

Mustaqil ish mavzulari

1. *Ali ibn Abu Tolibning Kufaga ko‘chib ketish sabablari.*
2. *Siffin jangi.*
3. *Jamal voqeasi.*
4. *Xorijiyalar.*
5. *Ilk islom tarixidagi ichki ziddiyatlar.*

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Abd al-Aziz Solim. Tarix ad-daula al-arabiya. – Iskandariya. Shabob al-jomi'a, s.y. – T. 2.
2. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomiy al-omm. – al-Qohira. s.y.
3. Большаков О.Г. История халифата. Том 1. Ислам в Аравии, 570-633. (1989).
4. Большаков О.Г. История халифата. Том 2. Эпоха великих завоеваний. 633-656. (1993)
5. Большаков О.Г. История халифата. Том 3. Между двух гражданских войн. 656-696. (1998)
6. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство ACT», 2004.
7. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.
8. Donner F. The Early Islamic Conquests. – New York: Princeton University Press, 1977.
9. Richards D.S. Papers on Islamic History: Islamic Civilisation. 950-1150. – Oxford, 1973.
10. Donner F. The Formation of the Early Islamic State // Journal of the American Oriental Society, 1986.

ILOVALAR

Ilova № 1

MUHAMMAD (S.A.V.)NING MADINA YAHUDIYLARI BILAN TUZGAN SHARTNOMA

(*Ibn Xishom. As-Siyra an-Nabaviya. – Bayrut. Dor al-kutub al-arabiya. 1996. – B. 143-146*)

بِسْمِ اللَّهِ الرَّحْمَنِ الرَّحِيمِ

هذا كتاب من محمد النبي بين المؤمنين وال المسلمين من قريش ويثير و من
تِبْعِهِمْ فَلَحِقُّهُمْ وَجَاهَهُمْ إِنَّهُمْ أَمَّةٌ وَاحِدَةٌ مِّنْ دُونِ النَّاسِ، الْمَهَاجِرُونَ مِنْ قَرِيشٍ
عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ بَيْنَهُمْ، وَهُمْ يَفْدُونَ عَانِيهِمْ^(١) بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ،
وَبْنُو عَوْفٍ عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ مَعَاقِلَهُمْ^(٢) الْأُولَى، وَكُلُّ طَائِفَةٍ تَقْدِي عَانِيهَا
بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ؛ وَبْنُو سَاعِدَةَ عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ مَعَاقِلَهُنَّ الْأُولَى،
وَكُلُّ طَائِفَةٍ مِّنْهُمْ تَقْدِي عَانِيهَا بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ، وَبْنُو الْحَارِثَ عَلَى
رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ مَعَاقِلَهُنَّ الْأُولَى، وَكُلُّ طَائِفَةٍ تَقْدِي عَانِيهَا بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ
الْمُؤْمِنِينَ، وَبْنُو النَّجَارَ عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ مَعَاقِلَهُنَّ الْأُولَى، وَكُلُّ طَائِفَةٍ مِّنْهُمْ تَقْدِي
عَانِيهَا بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ، وَبْنُو عَمْرُو بْنِ عَوْفٍ عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ
مَعَاقِلَهُنَّ الْأُولَى، وَكُلُّ طَائِفَةٍ تَقْدِي عَانِيهَا بِالْمَعْرُوفِ وَالْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ / وَبْنُو
الْأَوْسَ عَلَى رَبِيعِهِمْ يَتَعَاوَلُونَ مَعَاقِلَهُنَّ الْأُولَى، وَكُلُّ مِنْهُمْ تَقْدِي عَانِيهَا بِالْمَعْرُوفِ وَ
الْقَسْطِ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ، وَإِنَّ الْمُؤْمِنِينَ لَا يَتَرَكُونَ مَفْرَحاً بَيْنَهُمْ أَنْ يُعْطَوْهُ بِالْمَعْرُوفِ فِي
فَدَاءِ أَوْ عَقْلِ.

وَإِنَّ لَا يَحَالُفُ مُولَى مُؤْمِنٍ دُونَهُ، وَإِنَّ الْمُؤْمِنِينَ الْمُتَقِّنِينَ عَلَى مَنْ بَغَى
مِنْهُمْ، أَوْ ابْتَغَى دُسِيْعَةً^(٣) ظُلْمًا، أَوْ إِثْمًا عَدْوَانًا، أَوْ فَسَادَ بَيْنَ الْمُؤْمِنِينَ، وَإِنَّ أَيْدِيهِمْ
عَلَيْهِ جَمِيعًا، وَلَوْ كَانَ أَحَدُهُمْ، وَلَا يُقْتَلُ مُؤْمِنٌ مُؤْمِنًا فِي كَافَرًا، وَلَا يَنْصُرُ كَافِرًا
عَلَى مُؤْمِنٍ، وَإِنَّ ذَمَّةَ اللَّهِ وَاحِدَةٌ يَجْبَرُ عَلَيْهِمْ أَدْنَاهُمْ، وَإِنَّ الْمُؤْمِنِينَ بِعِضْهُمْ مَوَالِي
بَعْضِ دُونِ النَّاسِ، وَإِنَّهُ مَنْ تَبَعَّنَا مِنْ يَهُودٍ فَإِنَّ لَهُ النَّصْرُ وَالْأَسْوَةُ، غَيْرُ مَظْلُومِينَ وَلَا
مُتَنَاصِرِينَ عَلَيْهِمْ، وَإِنَّ سَلْمَ الْمُؤْمِنِينَ وَاحِدَةٌ لَا يَسْلِمُ مُؤْمِنٌ دُونَ مُؤْمِنٍ فِي قَتْلٍ فِي
سَبِيلِ اللَّهِ، إِلَّا عَلَى سَوَاءٍ وَعَدْلٍ بَيْنَهُمْ، وَإِنَّ كُلَّ غَازِيَةَ غَزَتْ مَعَنَا يَعْقِبُ بَعْضًا،
وَإِنَّ الْمُؤْمِنِينَ يَبْيَعُونَ بَعْضَهُمْ عَلَى بَعْضٍ بِمَا نَالَ دَمَاءَهُمْ فِي سَبِيلِ اللَّهِ، وَإِنَّ الْمُؤْمِنِينَ
الْمُتَقِّنِينَ عَلَى أَحْسَنِ هَذِهِ وَأَقْوَمِهِ، وَإِنَّهُ لَا يَجْبَرُ مَشْرِكَ مَالًا لِقَرِيشٍ وَلَا نَفْسًا، وَلَا يَحُولُ

^١ عَانِيهِمْ: أَسِيرُهُمْ.

^٢ الْمَعَاقِلُ: الْدِيَاتُ.

^٣ الدُّسِيْعَةُ: الْعَظِيمَةُ

دونه على مؤمن، وإنه من اعتبط^(٤) مؤمناً قتلاً عن بيته فإنه قُوَّد به إلى أن يرضي ولـي المقتول، وإن المؤمنين عليه كافة، ولا يحل لهم إلا قيام عليه، وإنه لا يحل لمؤمن أقر بما في هذه الصحيفة وأمن بالله واليوم الآخر، أن ينصر محدثاً ولا يزويه، وأنه من نصره أو آواه، فـان عليه لعنة الله وغضبة يوم القيمة، ولا يؤخذ منه صرف ولا عدل، وإنكم مهما اختلافتم فيه من شيء، فإن مردء الله عز وجـلـ، وإلى محمد، وإن اليهود ينفقوـنـ مع المؤمنين ما داموا مـاحـارـبـينـ، وإنـ يـهـودـ بـنـيـ عـوفـ أـمـةـ مـعـ المـؤـمـنـينـ،ـ لـلـيهـودـ دـيـنـهـ وـلـلـمـسـلـمـينـ دـيـنـهـمـ،ـ مـوـالـيـهـمـ وـأـنـفـسـهـمـ،ـ إـلـاـ مـنـ ظـلـمـ وـأـثـمـ،ـ فـإـنـهـ لـاـ يـوـتـغـ^(٥)ـ إـلـاـ نـفـسـهـ،ـ وـأـهـلـ بـيـتـهـ،ـ وـإـنـ لـيـهـودـ بـنـيـ النـجـارـ مـثـلـ مـاـ لـيـهـودـ بـنـيـ عـوفـ،ـ وـإـنـ لـيـهـودـ بـنـيـ الـحـارـثـ مـثـلـ مـاـ لـيـهـودـ بـنـيـ عـوفـ،ـ وـإـنـ لـيـهـودـ بـنـيـ سـاعـدـ مـثـلـ مـاـ لـيـهـودـ بـنـيـ عـوقـ،ـ وـإـنـ لـيـهـودـ بـنـيـ جـسـمـ،ـ وـبـنـيـ الـأـوـسـ،ـ وـبـنـيـ ثـلـبـةـ،ـ إـلـاـ مـنـ ظـلـمـ وـأـثـمـ،ـ فـإـنـهـ لـاـ يـوـتـغـ إـلـاـ نـفـسـهـ وـأـهـلـ بـيـتـهـ،ـ وـإـنـ جـفـنـةـ بـطـنـ مـنـ ثـلـبـةـ كـأـنـفـسـهـمـ،ـ وـإـنـ لـبـنـيـ الشـطـبـيـةـ مـثـلـ مـاـ لـيـهـودـ بـنـيـ عـوفـ،ـ وـإـنـ الـبـرـدـونـ الـإـثـمـ،ـ وـإـنـ مـوـالـيـ الـثـلـبـةـ كـأـنـفـسـهـمـ،ـ وـإـنـ بـطـانـةـ يـهـودـ كـأـنـفـسـهـمـ،ـ وـإـنـهـ لـاـ يـخـرـجـ مـنـهـ أـحـدـ إـلـاـ بـادـنـ مـحـمـدـ،ـ وـإـنـهـ لـاـ يـنـحـجـرـ عـلـىـ تـارـ جـرـحـ،ـ وـإـنـهـ مـنـ فـتـكـ،ـ وـأـهـلـ بـيـتـهـ،ـ إـلـاـ مـنـ ظـلـمـ،ـ وـإـنـ اللهـ عـلـىـ أـبـرـ هـذـاـيـ أـلـيـ الرـضـابـيـهـ،ـ وـإـنـ عـلـىـ الـيـهـودـ نـفـقـهـمـ وـعـلـىـ الـمـسـلـمـينـ نـفـقـهـمـ،ـ وـإـنـ بـيـنـهـمـ النـصـوـ عـلـىـ مـنـ حـارـبـ أـهـلـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ،ـ وـإـنـ بـيـنـهـمـ الـنـصـحـ وـالـنـصـيـحـةـ،ـ وـالـبـرـ دـوـنـ الـإـثـمـ،ـ وـإـنـهـ لـمـ يـأـتـمـ اـمـرـوـ بـحـلـيفـهـ،ـ وـإـنـ النـصـرـ لـلـمـلـظـلـمـ،ـ وـإـنـ الـيـهـودـ يـنـفـقـوـنـ مـعـ المـؤـمـنـينـ مـاـ دـاـمـوـ مـاـحـارـبـيـنـ،ـ وـإـنـ بـثـرـ حـرـامـ جـوـفـهـ لـأـهـلـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ،ـ وـإـنـ الـحـارـ كـالـنـفـسـ غـيـرـ مـضـارـ وـلـاـ أـثـمـ،ـ وـإـنـهـ لـاـ تـجـارـ حـرـمـةـ إـلـاـ بـادـنـ أـهـلـهـ.ـ وـإـنـهـ مـاـ كـانـ بـيـنـ أـهـلـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ مـنـ حـدـثـ أـوـ اـشـتـجـارـ يـخـافـ فـسـادـهـ،ـ فـإـنـ مرـدـهـ إـلـىـ اللهـ عـزـ وـجـلـ،ـ وـإـلـىـ مـحـمـدـ رـسـوـلـ اللهـ،ـ وـإـنـ اللهـ عـلـىـ أـنـقـىـ مـاـ فـيـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ وـأـبـرـهـ.ـ وـإـنـهـ لـاـ تـجـارـ قـرـيـشـ وـلـاـ مـنـ نـصـرـهـ.ـ وـإـنـ بـيـنـهـمـ الـنـصـرـ عـلـىـ ذـهـنـ بـثـرـ،ـ وـإـذاـ دـعـواـ إـلـىـ صـلـحـ يـصـالـحـوـنـهـ وـيـلـبـسـوـنـهـ،ـ فـإـنـهـمـ يـصـالـحـوـنـهـ وـيـلـبـسـوـنـهـ،ـ وـإـنـهـمـ دـعـواـ إـلـىـ ذـلـكـ فـإـنـهـ لـهـمـ عـلـىـ الـمـؤـمـنـينـ،ـ إـلـاـ مـنـ حـارـبـ فـيـ الدـيـنـ،ـ عـلـىـ كـلـ أـنـاسـ حـصـنـهـمـ مـنـ جـانـبـهـمـ الـذـيـ قـبـلـهـ.ـ وـإـنـ يـهـودـ الـأـوـسـ،ـ مـوـالـيـهـمـ وـأـنـفـسـهـمـ،ـ عـلـىـ مـثـلـ لـأـهـلـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ،ـ مـعـ الـبـرـ الـمـحـضـ مـنـ أـهـلـ هـذـهـ الصـحـيـفـةـ.

مع البر المحسن من أهل هذه الصحيفة. وإن البر دون الإثم، لا يكسب إلا على نفسه، وإن الله على أصدق ما في هذه الصحيفة وأبره، وإنه لا يحول هذا الكتاب دون ظالم واثر، وإنه من خرج آمن، ومن قد آمن بالمدينة، إلا من ظلم أو أثم، وإن الله جار لمن بـرـ وـأـنـقـىـ،ـ وـمـحـمـدـ رـسـوـلـ اللهـ.

^٤: اعتبط: قتل بلا جنابة

^٥: يوتنغ: يهـلـكـ

RASULULLOH (S.A.V.)NING YAHUDIYLAR BILAN KELISHUVLARI

(Ibn Hishom al-Ma’ofiriyy, Abdumalik. As-Siyra an-nabaviyya. Birinchi jild. 1-2 kitoblar. (Payg‘ambar (a.s.)ning tarix va hayot yo‘llari). – T.: “Sharq”, 2011. – B. 393-397)

Ibn Is’hoq: Rasululloh (s.a.v.) muhοjir va anσorlar o‘rtasida bitim tuzdilar. Ushbu bitimda yahudiylar bilan o‘zaro kelishib, ahplashildi. Ular o‘z dinlarida qolib, mol-mulklariga tegmadilar. Ularning huquq va majburiyatлari belgilab berildi.

“Bismillahir rohmanir rohim. Bu Muhammad (s.a.v.)ning qurayshlik va yasriblik mo‘minlar va muslimonlar hamda ularga ergashgan, ularga kelib qo‘shilgan, ular bilan birga jang qilganlar o‘rtasidagi bitimdir. Yuqorida zikr etilganlar o‘zga insonlardan farqli ravishda yagona ummatdir. Qurayshlik muhοjirlar islomga qadar bo‘lgan mavqe’larida qoladilar, o‘zaro bir-birlariga oqila (xun to‘lovchi)dirlar. Ular o‘z asirlariga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu Avf (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu So‘ida (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu-l-Horis (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek o‘ldirilgan kishiga diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu Jusham (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek o‘ldirilgan kishiga diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu-n-Najjor (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu Amr ibn Avf (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu-n-Nabiyt (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Banu-l-Avs (ahli) o‘z mavqe’larida qolib, ular ham avvalgidek diya (xun)larini to‘layveradilar. Har bir toifa o‘z asiriga mo‘minlar o‘rtasida o‘zaro yaxshilik va tenglik bilan fidya to‘laydilar.

Albatta, mo‘minlar o‘z oralaridagi qarzga botgan, ayolvand kimsani unga yaxshilik bilan fidya to‘lash yoki diya to‘lashda yolg‘iz tashlab qo‘ymaydilar.

Bir mo‘min boshqa mo‘minning quli bilan uning xojasini ruxsatsiz bitim tuzmaydi.

Taqvodor mo‘minlar oralarida kim zolimlik (bog‘iylik) qilsa, katta zulmni, katta gunohni, adovatni, mo‘minlar orasida fasod (buzg‘unchilik)ni niyat qilsa, bu shaxs qaysi birlarining o‘g‘li bo‘lsa ham barcha mo‘minlar unga qarshi bo‘ladilar.

Bir mo‘min boshqa mo‘minni mushrik (kofir)ni deb o‘ldirmaydi va mo‘minning zarariga unga yordam bermaydi. Albatta Allohnинг zimmasi birdir. Ularning (mo‘minlar) barchalarini zararlariga bo‘lsa-da, eng darajasi pastlarini ham o‘z panohiga oladi. Albatta mo‘minlar o‘zga odamlardan tashqari bir-birlari uchun do‘stdirlar.

Yahudiylardan kim bizga ergashsa, ularga yordam va yaxshi muomala qilinadi, ularga zulm qilinmaydi va zararlariga yordam berilmaydi.

Tinchlik (silm) barcha mo‘minlar uchun yagonadir. Alloh yo‘lidagi urushda bir mo‘min boshqa mo‘minsiz sulh tuzmaydi. Tinchlik barcha mo‘min uchun adolatli va barobar bo‘lishi kerak.

Biz bilan birga jang qiluvchi har bir jangchi (g‘oziy) biri ikkinchisini o‘rnini (hujumda) to‘ldiradi. Albatta, mo‘minlar bir-birlarini Alloh yo‘lida to‘kiladigan qonlari uchun himoya qiladilar (qasos oladilar).

Albatta, taqvodor mo‘minlar eng to‘g‘ri va eng go‘zal hidoyatdadir.

Biron-bir mushrik Qurayshga tegishli mol yoki jonni o‘z panohiga olmaydi va uni mo‘minning zarariga himoya qilmaydi.

Kim bir mo‘minni qasddan nohaq o‘ldirsa, uning valiysi roziligesiz (o‘ldirilmaydi) qasos olinmaydi. Barcha mo‘minlar unga qarshi bo‘ladilar. Mo‘minlar uchun unga qarshi turishdan boshqasi halol emas (to‘g‘ri bo‘lmas). Ushbu sahfadan xabardor bo‘lgan va Allohga, oxirat kuniga iyomon keltirgan mo‘minlar uchun ushbu qoidalarni buzuvchi kimsaga yordam berish va uni o‘z panohiga olish halol (to‘g‘ri) bo‘lmas. Kim unga yordam bersa va panohiga olsa, albatta unday kimsaga Allohnинг la’нати va qiyomat kunida g‘azabi bo‘ladi hamda uning tavbasi qabul qilinmaydi va (guvohlikda)adolati tan olinmaydi. Agarda sizlar biror masalada tortishib qolsangiz, Allohga va (uning rasuli) Muhammad (s.a.v.)ga murojaat eting.

Mo‘minlar bilan (bir safda) kurashayotgan (ittifoqdosh) yahudiylar (urushga ketadigan) sarf-xarajatlarni o‘rtada qiladilar. Banu Avf yahudiylari mo‘minlar bilan bir jamoat (ummatt) dir. Yahudiylar uchun o‘z dinlari, musulmonlar uchun ham o‘z dinlari bor. Ularning o‘zlari va quyllari mo‘minlar uchun birdir. Biror jinoyat (zulm) yoki gunoh qilgan kimsa, faqatgina o‘ziga va oilasiga ziyon yetkazadi.

Banu-n-Najjor yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabidir.

Banu-l-Horis yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabidir.

Banu So‘ida yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabidir.

Banu Jusham yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabidir.

Banu-l-Avs yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabidir.

Banu Sa'laba yahudiylariga ham aynan Banu Avf yahudiylari kabitidir. Biror jinoyat (zulm) yoki gunoh qilgan kimsa, faqatgina o'ziga va oilasiga ziyon yetkazadi.

Albatta Jafna, Sa'laba qabilasining bir urug'i bo'lib, ushbu huquq va majburiyatlardan foydalanadilar.

Banu ash-Shutayba ham Banu Avf kabi ushbu huquqlardan foydalanadi. Yaxshilik gunoh (yomonlik)lardan qaytaradi (saqlaydi). Sa'labaning qo'lostidagilar ham mazkur huquq va majburiyatlardan foydalanadilar. Yahudiylarga yaqin kimsalar ham ushbu huquq va majburiyatlardan to'liq foydalanadilar. Ulardan hech kimsa Muhammad payg'ambar (s.a.v.) ruxsatisiz hech qayerga ketmaydi. Biror kimsaning jinoyati uchun butun urug' (qabila) jazolanmaydi. Yomonlik qilgan kimsaning o'zi va uning oila a'zolari gunohkor bo'ladilar. Zulm qilgan kishi bundan mustasnodir. Alloh ushbu sahifa (shartnoma)da hammaga barobar va adolatli huquqlargagina rozidir. Yahudiylarning sarflari o'z zimmalariga va musulmonlarning sarflari o'z zimmalarigadir. Ushbu hujjat ahliga qarshilik ko'rsatgan dushmanga qarshi birgalikda kurashadilar. Ular bir-birlariga ishda va maslahatda o'zaro samimiy bo'lib, yomonlikdan qaytarib yaxshilik qilishlari shart. Biror kimsa ittifoqdoshining gunohi uchun javob bermaydi. Albatta mazlumga yordam ko'rsatiladi. Mo'minlar (dushmanga qarshi) urushayotgan paytda yahudiylar sarf-xarajatni teng qoplaydilar. Yasrib (shahri) bu sahifa ahli uchun (bosib olish) haromdir. Qo'ni-qo'shnilar bir-birlariga ziyon va yomonlikni ravo ko'rmaydilar. Homiyning ruxsatisiz biron kimsa himoyaga olinmaydi (ayollarga faqatgina erlarining ruxsati bilan himoya haqi beriladi). Sahifa ahli orasida uni tuzilgungacha bo'lgan va uni buzishga olib keluvchi tortishuvlar va ixtiloflar Allohga va uning rasuli Muhammad (s.a.v.) hukmiga havoladir. Alloh ushbu sahifadagi to'g'ri va adolatli hukmlar tarafdiridir. Qurayshga va unga yordam bergen kimsaga himoya yo'q. Shartnoma ishtirokchilari Yasribga qarshi kurashayotgan kimsalarga qarshi birga kurashishlari shart. Suh huzishga chaqirilsalar (birga) suh tuzib, unga amal qiladilar. Agar boshqa dingga (islom) qarshi bo'lmagan biror kimsa mo'minlarni suh tuzishga chaqirsa, ular suh tuzadilar. Har bir guruh o'zining biron kimsa bilan tuzgan shartlashuvi uchun javobgardir.

Avs yahudiyilari va ularning qullari bu sahifa ahlining huquqlaridan foydalanadilar. Ularga ushbu sahifa ahli tomonidan yaxshilik ko'rsatiladi. Taqvodorlik gunohdan saqlaydi. Biror jinoyat (zulm) yoki gunoh qilgan kimsa, faqatgina o'ziga va oilasiga ziyon yetkazadi. Alloh ushbu sahifadagi to'g'ri va adolatli hukmlar tarafdiridir. Ushbu sahifani zolim yoki gunohkor kimsagina rad etadi. Zulm yoki gunoh qilganlardan tashqari barcha kimsalar Madinada ham, undan tashqariga chiqsa ham omonda bo'ladi. Albatta Alloh va uning rasuli Muhammad (s.a.v.) yaxshilik va taqvo qilgan kimsalarni o'z panohiga oladi⁷⁸"

⁷⁸ Abu Ubayd "Kitob al-amvol" asarida ta'kidlashicha, Rasululloh (s.a.v.) bu kelishuvni jizya farz bo'lishidan oldin yozgan edilar. Zero, islom bu paytda zaif holda edi. Agar yahudiyilar musulmonlar bilan birga jang qilsalar o'ljadan hissa olishardi. Shuningdek, bu kelishuvda yahudiylarga musulmonlar bilan birga jang qilganda surʼat-xarajatda ham sherik bo'lish majburiyatida ekanliklari shart qilingan.

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

Uslubiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoillari // Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir: Ma’ruzalar, nutqlar, suhbatlar. – T.: O‘zbekiston, 1995. – B. 172-220.
2. Karimov I.A. Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir // Vatan sajdahoh kabi muqaddasdir: Ma’ruzalar, nutqlar, suhbatlar. – T.: O‘zbekiston, 1995. – B. 239-250.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q. – T.: Sharq, 1998. – 31 b.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari // Xavfsizlik va taraqqiyot yo‘lida. – T. 6. – T.: O‘zbekiston, 1998. – B. 31-261.
5. Karimov I.A. Olloh qalbimizda, yuragimizda. – T.: O‘zbekiston, 1999. – 32 b.
6. Karimov I.A. Tinchlik va barqarorlik – mintaqamiz taraqqiyotining bosh omili // Ozod va obod Vatan, erkin hayot – pirovard maqsadimiz. – T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000. – B. 32-38.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin hayot – pirovard maqsadimiz // Ozod va obod Vatan, erkin hayot – pirovard maqsadimiz. – T. 8. – T.: O‘zbekiston, 2000. – B. 330-350.

Manbalar

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjimasi. Mansurov A. tarjimasi. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004.
2. al-Buxoriy Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. al-Jomi’ as-sahih: 4 jildli. – T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1997.
3. Abd al-Vahhab an-Najjar. al-Xulafo ar-roshidun. – Bayrut.: Dor al-qalam, 1986. – 504 b.
4. Абу Йусуф Яъкуб ибн Иброҳим ал-Куфи. Китаб ал-

- харадж / перевод с арабского и комментарии А.Э. Шмидта; супракоммент. к пер. А.С. Боголюбова; подготовка к изданию А.А. Хисматулин. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001.
5. al-Balazuriy. *Futuh al-buldon*. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiyya, 1403 h. – 563 b.
 6. al-Jahshiyoriy. *al-Vuzaro va-l-kuttab*: 2 jildli. – al-Qohira: Mustafo al-Bobiy al-Halabiy, 1981.
 7. Ibn al-Asir. *al-Komil fi-t-tarix*: 4 jildli. – Bayrut: Dor as-sadr, 1986.
 8. Muhammad al-Xudariy. *Itmom al-vafo fi-sirat al-xulafo*. – T.: Movarounnahr, 1996.
 9. Muhammad al-Xudariy. *ad-Daula al-umaviya*. – Bayrut: Dor al-qalam, 1986.
 10. Ibn Kasir. *al-Bidoya va-n-nihoya*. 8 jildli. – al-Qohira, 1982.
 11. Ibn Sa'd. *at-Tabaqot al-kubro*: 8 jildli. – Bayrut: Dor as-sadr, 1984-1988.
 12. Ibn Xaldun. *al-Muqaddima*. – Bayrut: Dor al-fikr.
 13. Ibn Hishom al-Ma'ofiri, Abdumalik. *As-Siyra an-nabaviyya*. Birinchi va ikkinchi jild. 1-4 kitoblar. (Payg'ambar (a.s.)ning tarix va hayot yo'llari). – T.: "Sharq", 2011.
 14. Ibn Hishom. *as-Sira an-nabaviya*: 4 jildli. – Bayrut, 1993.
 15. Rizouddin ibn Faxriddin. *Xulafoi roshidin*. – T.: Movaraunnahr, 1992. – 128 b.
 16. Sog'uniy Alixonto'ra. *Tarixi Muhammadiy*: 2 jildli. – Toshkent, 1991.
 17. at-Tabariy. *Tarix al-umam va-l-muluk*: 8 jildli. – al-Qohira, 1982.
 18. Xalifa ibn Xayyot. *at-Tarix*. – ar-Riyod: Dor toyiba, 1968. – 612 b.
 19. Xuzariy M. Nur-ul yaqin / M. Solihning arab tilidan o'girgan matn asosida E. Usmon o'zbekchalishtirgan. – T.: Cho'lpion-Kamalak, 1992. – 288 b.
 20. al-Ya'qubiy. *at-Tarix*: 2 jildli. – Bayrut: Tibo'at an-Najaf, 1960.

Tadqiqotlar

1. Irisov A. Chahoryorlar. Mashhur to‘rt xalifa haqida risola. – T.: Fan, 1993. – 59 b.
2. Ismoil Maxdum. Toshkentdagি Usmon Mushafining tarixi. – T.: Movaraunnahr, 1995. – 80 b.
3. Muhammedov H. Islom va davlat nazariyasi muammolari. – T.: Adolat, 1999. – 38 b.
4. Usmonov M. Qur’oni karim va janobi Rasulullohning amallari. – T.: Nur, 1992. – 79 b.
5. Hasanov A. Makka va Madina tarixi. – T.: Mehnat, 1992. – 77 b.
6. Hasanov A. Qadimgi Arabiston va ilk islom: I kitob. Johiliya asri. – T.: Toshkent islom universiteti, 2001. – 256 b.
7. Hasanov A. Ilk islom jamiyat: diniylikdan dunyoviylikka o‘tish// Islom va dunyoviy-ma’rifiy davlat(xalqaro anjuman tezislari). – T.: Imom Buxoriy xalqaro jamg‘armasi, 2003. – B. 26-30.
8. Zohidov Q. Ilk islom davlatida xalifalik institutining vujudga kelishi. /Sharqshunoslik, ToshDShI, 1999. – № 3, - B. 54-67.
9. Zohidov Q. Muhammad payg‘ambarning Madinaga hijrati va Yasrib aholisi bilan diplomatik aloqalar / O‘zbekiston yosh sharqshunoslaringning I ilmiy-amaliy maktabi, ToshDShI, 1999. 3-4 iyun, – B. 116-119.
10. Zohidov Q. Ilk arab davlatchiligining shakllanish jarayonida dunyoviy va diniy unsurlarning o‘zaro ta’siri / O‘zbekiston va Kuvayt o‘rtasidagi munosabatlar rivojining XXI asrdagi istiqbollari, ToshDShI, 2004. – B. 76-77.
11. Zohidov Q. Arab xalifaligi davrida diniylik va dunyoviylik tamoyillarining muvozanati (632-661 yy.) / TIU ning ilmiy-tahliliy axboroti, 2004. – № 2, – B. 21-23.
12. Zohidov Q. Arab muslimmon davlatining madaniy taraqqiyotiga fors va Yunon elementlarining ta’siri / Sharqshunoslik, ToshDShI, 2004. – № 1, – B. 102-106.

13. Zohidov Q. Ilk islom davlatchiligi va uning shakllanish jarayonlari. Tarix fanlari ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertasiya. 2005.
14. Бартольд В.В. Сочинение. – Том VI. – М.: Наука, 1966.
15. Беляев Е.А. Арабы, ислам и Арабский халифат в раннем средневековье. – М.: Наука, 1966. – 279 б.
16. Большаков О.Г. Очерки истории арабской культуры (V-XV вв.) -М.: ГРВЛ, 1982. – 438 б.
17. Большаков О.Г. История халифата: в 3 томах. – М.: ГРВЛ, 1989, 1993, 1998.
18. Большаков О.Г. Средневековый город Ближнего Востока: VII-середина XIII в.: Социально-экономические отношения – М.: ВЛ, 2001. – 344 б.
19. Босворт К.Э. Мусулманские династии / Справочник по хронологии и генеалогии. Пер. с англ. П.А. Грязневича. – М.: ГРВЛ, 1971. – 324 б.
20. Грязневич П.А. Ислам и государство // Ислам. Религия, общество, государство. – М.: ГРВЛ, 1984. – Б. 189-203.
21. фон Грюнебаум Г.Э. Классический ислам. Очерк истории (600–1258). Пер. с англ. И.М.Дижура. – М.: ГРВЛ, 1988. – 216 б.
22. Колесников А.И. Завоевание Ирана арабами (Иран при «праведных» халифах). – М.: ГРВЛ, 1982. – 269 б.
23. Мень А. История религии. В 2-х томах. – М.: Ф-ИНФРА, 2000. – 224 б.
24. Мец А. Мусульманский ренессанс. Изд. 2-е / пер. с нем., предисл., библиограф. и указатель Д.Е. Бертельса. Отв. ред. В.И. Беляев. – М.: ГРВЛ, 1973. – 473 б.
25. Мюллер А. История ислама: От доисламской истории арабов до падения династии аббасидов: Пер. с нем. / А. Мюллер. – М.: «Издательство Астрель»: ООО «Издательство АСТ», 2004.
26. Пиотровский М.Б. Коранические сказания. – М.: ГРВЛ, 1991. – 219 б.
27. Резван Е.А. Коран и его мир. – СПб.: Петербургское востоковедение, 2001. – 608 б.

28. Akram Diyo al-Umariy. Asr al-xilofa ar-roshida. – ar-Riyod, 1998. – 530 b.
29. Ahmad Ibrohim Sharif. Makka va-l-Madina fi johiliya va-ahd ar-Rasul. – al-Qohira.
30. Abd al-Aziz Solim. Tarix al-arab qabla-l-islom. – Iskandariya, s.y. – T. 1. – 483 b.
31. Abd al-Aziz Solim. Tarix ad-daula al-arabiya. – Iskandariya. Shabob al-jomi'a, s.y. – T. 2. – 487 b.
32. Ali Ibrohim Hasan. at-Tarix al-islomi al-om. – al-Qohira. – 614 b.
33. Muhammad Rido. Abu Bakr as-Siddiq – avval al-xulafo ar-roshidin. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1983. – 215 b.
34. Muhammad Rido. al-Foruq Umar ibn al-Xattob – soni al-xulafo ar-roshidin. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1993. – 340 b
35. Muhammad Rido. Zi-n-nurayn Usmon ibn Affon – al-xalifa as-solis. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1982. – 240 b.
36. Muhammad Rido. Imom Ali ibn Abi Tolib, karram Alloh vajhah – robi' al-xulafo al-roshidin. – Bayrut: Dor al-kutub al-ilmiya, 1982. – 354 b.
37. Hasan Ibrohim Hasan. Tarix al-islom as-siyosiy va-d-diniy va-s-saqofiy va-l-iijtimo'iyy: 4 jildli. – Bayrut, 1996.
38. Abdur Rehman Shad. ‘Umar Faruq. – Lahore: Kazi publication, 1979. – 95 b.
39. Ameer A. A short history of the Saracens. – Lahore, 1993. – 650 b.
40. Gayyar H.M. al-Faruq ‘Omar ibnul-Khattab. – Lebanon, 1992. – 227 b.
41. Muhammad. Encyclopedia of Seerah. The Muslim schools trust. London. 1981. – 912 b.
42. Захидов К. Проблемы исламской государственности: история и современность / Маяк Востока ТашГИВ 2004. – №1.

43. Arnold Th. The Preaching of Islam . 3d edition / ed. Reynold A. – London, 1935.
44. Donner F. The Early Islamic Conquests. – New York: Princeton University Press, 1977.
45. Donner F. The Formation of the Early Islamic State // Journal of the American Oriental Society, 1986.
46. Humphreys R.S. Islamic History. A Framework for Inquiry. – London, New York: I.B. Tauris, 1991.
47. Khurshid A. Islam: Basic Principles and Characteristics // Islam. Its Meaning and Message. – London, 1980.
48. Muhammad. Encyclopedia of Seerah. The Muslim Schools Trust. London. 1981.
49. Muir W. The Caliphate. – Oxford, 1924.

TEST

1. al-Xulafo ar-roshidun davrini aniqlang

- a) 632–661 yillar
- b) 621–632 yillar
- c) 632–650 yillar
- d) 661–750 yillar

2. Muhammad Payg‘ambar tirikliklarida payg‘ambarlikni da’vo qilgan shaxslarni aniqlang

- a) Musaylima, Tulayha, Sajoh
- b) Asvat al-Ansiy, Musaylima
- c) Asvat al-Ansiy, Musaylima, Tulayha
- d) Sofiy, Asvat al-Ansiy, Musaylima, Sajoh

3. Abu Bakr (r.a.) xalifalik qilgan davrda “ridda” harakatining mohiyati nimadan iborat bo‘lgan?

- a) Xalifalik yerlarini kengaytirish
- b) Mushriklarga qarshi kurash
- c) Ba’zi qabilalarning markazdan qochish harakati
- d) Maxfiy sariyyalar tashkil qilish

4. Soxta Payg‘ambarlikni da’vo qilgan – mutanabbiylardan bo‘lgan Musaylima qaysi qabila vakili edi?

- a) Quraysh
- b) Bani Bakr
- c) Bani Xanifa
- d) Bani Tag‘lib

5. As-Sahifada birinchi dushman etib qaysi qabila ko‘rsatilgan?

- a) Avs qabilasi
- b) Bani Nadir qabilasi
- c) Xazraj qabilasi
- d) Quraysh qabilasi

6. Abu Bakrni xalifaligiga birinchi bo‘lib bay’at bergan inson kim?

- a) Salmoni Forsiy
- b) Usmon bin Affon
- c) Umar ibn al-Xattob
- d) Ali bin Abi Tolib

7. Payg‘ambar (s.a.v.)dan keyingi davlat rahbari Abu Bakrning tituli (lavozimi) qanday atalgan?

- a) imom
- b) rasululloh xalifasi
- c) amir
- d) sulton

8. Nima uchun birinchi to‘rt xalifani “Roshid xalif”lar yoki o‘zbekchada “chahoryor”lar deb atalgan?

- a) Payg‘ambarga qarindoshligi uchun
- b) Kuchli harbiy salohiyati uchun
- c) Payg‘ambar sunnatigi qat’iy rioya qilganliklari uchun
- d) Islomni kuch bilan tarqatganliklari uchun

9. To‘rt xalifdan qaysi biri yirik islohotchi sifatida tanilgan?

- a) Abu Bakr Siddiq
- b) Umar ibn al-Xattob
- c) Usmon ibn al-Affon
- d) Ali ibn Abu Tolib

10. Islom tarixida birinchi ajralib chiqqan ekstremistik yo‘nalish qaysi?

- a) Shia
- b) Murjia
- c) Mu’tazila
- d) Xavorij

11. Qaysi xalifa davrida Qur’oni karim yozma (suhuf) shakliga keltirildi?

- a) Usmon ibn Affon
- b) Abu Bakr
- c) Umar ibn Abdulaziz
- d) Xorun ar-Rashid

12. Qaysi xalifa davrida Qur’oni karim kitob (mus'haf) shakliga keltirildi?

- a) Abu Bakr
- b) Usmon ibn Affon
- c) Umar ibn Xattob
- d) Muoviya ibn Abu Sufyon

13. Tarixda qaysi xalifalik davri “Damashq xalifaligi” ham deb ataladi?

- a) al-Xulafo ar-roshidun
- b) Abbosiylar
- c) Ummaviylar
- d) Fotimiylar

14. “Amir al-mu’mun” tituli qaysi xalifadan boshlab qo’llanila boshlandi ?

- a) Abu Bakr
- b) Umar ibn Xattob
- c) Usmon ibn Affon
- d) Xorun ar-Rashid

15. Umaviylar xalifaligi qaysi sulolalar davriga bo‘linadi?

- a) Sufyoniyilar va marvoniylar
- b) Sufyoniyilar va umaviylar
- c) Umaviylar va marvoniylar
- d) Umaviylar

16. Kufa shahriga qaysi xalifa davrida qurildi?

- a) Abu Bakr
- b) Umar ibn Xattob
- c) Ali ibn Abu Tolib
- d) Abul Abbas Saffoh

17. al-Xulafo ar-roshidunlarning qaysi birlari o‘ldirildi?

- a) Abu Bakr, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib
- b) Umar ibn Xattob
- c) Usmon ibn Affon
- d) Umar ibn Xattob, Usmon ibn Affon, Ali ibn Abu Tolib

18. Islom tarixida dengiz floti qaysi davrda paydo bo‘ldi?

- a) Umar ibn Xattob davrida
- b) Usmon ibn Affon davrida
- c) Ali ibn Abu Tolib davrida
- d) Umar ibn Abdulaziz davrida

19. Islom tarixida askarlik tizimi qaysi davrda paydo bo‘ldi?

- a) Ali ibn Abu Tolib davrida
- b) Muoviyah ibn Abu Sufyon davrida
- c) Umar ibn Xattob davrida
- d) Xorun ar-Rashid davrida

20. Umaviylar davrida eng ko‘p islohotlarni amalga oshirgan xalifa nomini aniqlang

- a) Yazid ibn Muoviyah
- b) Marvon ibn Hakam
- c) Muoviyah ibn Abu Sufyon
- d) Umar ibn Abdulaziz

21. Hijriy taqvim qaysi xalifa tomonidan joriy qilingan?

- a) Abu Bakr
- b) Umar ibn Xattob
- c) Usmon ibn Affon
- d) Ali ibn Abu Tolib

22. Ummaviylar davrida Makka va Madina shaharlari va Abdulloh ibn Zubayrni Damashq xalifaligi hukmronligiga qayta bo‘sundirgan xalifa nomini aniqlang

- a) Marvon ibn Hakam
- b) Abdulmalik ibn Marvon
- c) Muoviyah ibn Abu Sufyon
- d) Umar ibn Abdulaziz

**23. Ilk islom davlati bo‘lgan Madinada hijratning bиринчи
yili konstitutsiya (qомус) vazifasini nima o‘tagan?**

- a) Qur’он
- b) Hadis
- c) As-Sahifa
- d) Sunnat

**24. Qur’онning 9 sura, 60 oyatidagi to‘plangan zakotdan
ulush oladigan «Muallfat qulubuhum»ga ulush berishning
tamoaman to‘xtatilishi qaysi xalifa davrida bo‘ldi?**

- a) Usmon ibn Affon
- b) Abu Bakr
- c) Umar ibn Xattob
- d) Muoviya ibn Abu Sufyon

**25. Muhammad payg‘ambar sahabalariga moyanalar tayin
etilishiga qaysi xalifa davrida asos solindi ?**

- a) Umar ibn Xattob
- b) Muoviya ibn Abu Sufyon
- c) Marvon ibn Hakam
- d) Usmon ibn Affon

26. Ilk islom davrida “zakot” qanday nomlangan?

- a) Soliq
- b) Zakot
- c) Sadaqa
- d) Ehson

**27. Payg‘ambar (s.a.v)ning vafot etgan kunlari va yillarini
aniqlang**

- a) 631 yil 9 iyun
- b) 631 yil 8 yanvar
- c) 632 yil 8 iyun
- d) 633 yil 11 iyun

28. Movarunnahrga islomni kirib kelishi qaysi sulola davrida amalga oshdi?

- a) al-Xulafo ar-roshidun davrida
- b) Umaviylar davrida
- c) Abbosiylar davrida
- d) Fotimiylar davrida

29. Umaviylar sulolasi xalifaligi davorini aniqlang

- a) 750–1120 yillar
- b) 661–750 yillar
- c) 651–661 yillar
- d) 700–1250 yillar

30. Umar ibn Xattob davrida dirhamning dinorga nisbatini aniqlang

- a) 1 ga 11
- b) 1 ga 12
- c) 1 ga 15
- d) 1 ga 20

31. «Zot as–salosil» jangining ma’nosи nima?

- a) Zanjirli jang
- b) Salosil maydonidagi jang
- c) Zot maydonidagi jang
- d) Zot as–salosil maydonidagi jang

32. Nima uchun Musaylima «al–kazzob» (yolg‘onchi) laqabini olgan

- a) Payg‘ambarlikni da’vo qilganligi uchun
- b) Muhammad payg‘ambar tomonidan shunday laqab berilgan
- c) Uni qabiladoshlari shunday deb ataganlar
- d) Qadimgi Arabistonda qabila yetakchilari shunday atalgan

33. Umaviylardan Abbosiylarga hokimiyat o‘tishida qo‘zg‘olon qilgan shaxs nomini aniqlang

- a) Abu Muslim
- b) Abu Ubayda ibn Jarroh
- c) Abdulloh ibn Sabo
- d) Amr ibn Os

34. Ali ibn Abu Tolib va Muoviya ibn Abu Sufyon o‘rtasidagi Siffin jangidan keyin ajralib chiqqan guruuh nomini aniqlang

- a) Xorijiyalar
- b) Shialar
- c) Xashshoshiyalar
- d) Murji’iyalar

35. Ali ibn Abu Tolib va Oisha bint Abu Bakr o‘rtasida bo‘lib o‘tgan jang nomini toping

- a) Jamal
- b) Xandaq
- c) Zot salosil
- d) Siffin

36. Davlat boshqaruviga devonlar tizimini kiritgan xalifa nomini aniqlang

- a) Umar ibn Xattob
- b) Usmon ibn Affon
- c) Muoviya ibn Abu Sufyon
- d) Marvon ibn Hakam

37. Yazid ibn Muoviya xalifaligi davrida Hijozda o‘zini rahbar e’lon qilgan insonni toping

- a) Abdulloh ibn Zubayr
- b) Abdurahmon ibn Avf
- c) Zubayr ibn A’vom
- d) Muoviya ibn Abu Sufyon

38. Islom tarixida Ka'baga manjaniqdan tosh otgan shaxs nomini aniqlang

- a) Hajjoj ibn Yusuf
- b) Marvon ibn Hakam
- c) Muoviya ibn Abu Sufyon
- d) Abdulloh ibn Sabo

39. Vizantiya hududiga dengiz orqali jang olib bora boshlagan xalifa nomini aniqlang

- a) Muoviya ibn Abu Sufyon
- b) Usmon ibn Affon
- c) Marvon ibn Hakam
- d) Valid ibn Yazid

40. Umar ibn Xattobni «Islom davlatchiligi arxitektori» deb atagan tadqiqotchi nomini aniqlang

- a) Bolshakov O.G.
- b) Aydin Ali Zade
- c) Bartold V.V.
- d) Abu Ja'far at-Tabariy

41. Musulmon askarlari Eronning mashhur Rustam askarlari bilan qaysi jangda to‘qnashdilar?

- a) Zot salosil
- b) Yarmuk
- c) Siffin
- d) Qodisiya

42. Xalifa Ali ibn Abu Tolib kim tomonidan o‘ldirildi?

- a) Abdurahmon ibn Muljam
- b) Amr ibn Os
- c) Feyruz Abu Lu’lua
- d) Abdulloh ibn Sabo

43. Husayn ibn Ali qaysi xalifa davrida o‘ldirildi?

- a) Muoviya ibn Abu Sufyon
- b) Yazid ibn Muoviya
- c) Marvon ibn Hakam
- d) Qusam ibn Abbos

44. Umar ibn Xattob vafotidan keyin xalifalik uchun bo‘lgan saylovga rahbarlik qilgan sahoba nomini aniqlang

- a) Abdurahmon ibn Avf
- b) Usmon ibn Affon
- c) Ali ibn Abu Tolib
- d) Talha ibn Zubayr

45. Misrda qurilgan «Fustot» shahrining ma’nosini aniqlang

- a) o‘ralgan shahar
- b) arablar har bir qurilgan shaharni «fustot» deb ataganlar
- c) chodir
- d) past tekislik

46. Nima uchun xalifa Ali ibn Abu Tolibning qabri oshkor qilinmaganligining sababini aniqlang

- a) Xorijiylar tomonidan vayron qilinmasligi uchun
- b) Shialar uni muqaddaslashtirib yubormasliklari uchun
- c) Uni masjidda o‘ldirganliklari uchun
- d) Payg‘ambarga yaqinligi uchun

47. Xalifa Umar ibn Xattob davlatchilikda «Devon»lar tizimini joriy etgandan so‘ng mintaqalarda qaysi tillarda ish yuritildi?

- a) Arabiston yarim orolida – arab, Eronda – fors, Misrda – qibtiy, Vizantiyada – yunon tillarida
- b) Arabiston yarim orolida – arab, Eronda – fors, Misrda – qibtiy, Vizantiyada – yunon, Afrikada – barbar, Hindistonda – hind tillarida

- c) Arabiston yarim orolida – arab, Misr va Vizantiyada – yunon, Hindistonda – hind, Andalusiyada – ispan tillarida
- d) To‘g‘ri javob yo‘q

48. «Ash–Shurta» polisiya tizim qaysi xalifa davrida paydo bo‘ldi?

- a) Umar ibn Xattob
- b) Usmon ibn Affon
- c) Ali ibn Abu Tolib
- d) Muoviya ibn Abu Sufyon

49. Xorijiyarning ilk rahbari nomini aniqlang

- a) Abdulloh ibn Vahb ar–Rosibiy
- b) Abdurahmon ibn Muljam
- c) Abdulloh ibn Sabo
- d) Amr ibn Os

50. Xalifa Umar ibn Xattobning qotili kim?

- a) Feyruz Abu Lu’lua
- b) Vahshiy
- c) Abdurahmon ibn Muljam
- d) Abdulloh ibn Sabo

51. Abu Bakrga bunday nisbatni (kuniya) berilishiga sabab nima edi?

- a) Har kuni erta tongda uyg‘onganligi uchun
- b) Payg‘ambar bilan har tong bomdod namozini birga o‘qiganligi uchun
- c) Payg‘ambarni merojga chiqqanligiga ishonganligi uchun
- d) Otasi shunday ataganligi uchun

52. «Xalifatu Rosulluloh» titulining «Xalifatulloh» ga almashinishi qaysi xalifa davrida yuz berdi?

- a) Umar ibn Xattob
- b) Muoviya ibn Abu Sufyon
- c) Marvon ibn Hakam
- d) Xorun ar–Rashid

53. O‘ziga birinchi bo‘lib saroy qurdirgan xalifani aniqlang

- a) Muoviya ibn Abu Sufyon
- b) Usmon ibn Affon
- c) Marvon ibn Hakam
- d) Horun ar-Rashid

54. Umar ibn Xattob qatl etilgandan keyingi xalifalikka saylovda Umar ibn Xattob tomonidan 6 kishining nomi qoldirgan edi. Saylovda ulardan 2 kishi qatnashmadi ularning nomini aniqlang

- a) Talha va Abdurahmon ibn Avf
- b) Talha va Zubayr ibn A’vom
- c) Sa’d ibn Abu Vaqqos va Abdurahmon ibn Avf
- d) Usmon ibn Affon va Sa’d ibn Abu Vaqqos

55. “Johiliya” deb Arabiston tarixining qaysi davri ataladi?

- a) islomdan oldingi
- b) islomdan keyingi
- c) islom paydo bo‘lgan davr
- d) islom paydo bo‘lgan davr

56. Qusay davrida Makka idorasida eng muhim tarmoq qaysi bo‘lgan?

- a) Ka’ba va uning nazorati (Sidona)
- b) Hojilarni suv bilan ta’minalash
- c) Maslahat kengashi (Dor an-Nadva)
- d) Hojilarni oziq-ovqat bilan ta’minalash (Rifoda)

57. Madina (Yasrib) shahrining islomdan oldingi idora usuli qanday edi?

- a) Podshohlik
- b) Polis tuzumi
- c) Qabilalar ittifoqi
- d) Bir qabila hukmronligi

58. Hudaybiya sulhiga binoan musulmonlar qaysi qabilani, qurayshiyalar qaysi qabilani o‘z himoyasiga oldilar?

- a) musulmonlar – Huzoa; quraysh – Banu bakr;
- b) musulmonlar – Banu Muharib; quraysh - Banu Sa’laba;
- c) musulmonlar – Hazraj; quraysh – Banu Nazir;
- d) musulmonlar – Banu Qurayza; quraysh – Davs.

59. Hamza ibn Abdulmuttolib qayerda va kim tomonidan o‘ldirilgan?

- a) Badr jangi. Abu Jahl.
- b) Qaynuqo’ jangi. Jubayr.
- c) Handaq jangi. Abu Sufyon.
- d) Uhud jangi. Vaxshiy.

60. Qurayshiyalar hech qanday natijaga erisha olmay qaytib ketishga majbur bo‘lgan jang qaysi?

- a) Badr jangi
- b) Uhud jangi
- c) Handaq jangi
- d) Haybar jangi

61. Hijratgacha Madinada yashagan 3ta yahudiy qabilalarning nomini toping?

- a) Banu Qurayza, Banu Qaynuqqa, Banu Xazraj
- b) Banu Qurayza, Banu Avs, Banu Qaynuqqa
- c) Banu Hazraj, Banu Avs, Banu Qaynuqqa
- d) Banu Qurayza, Banu Qaynuqqa, Banu Nazir

62. Makka qachon “fath” qilindi?

- a) 622 yilda
- b) 624 yilda
- c) 630 yilda
- d) 656 yilda

63. Muhammad payg‘ambar (s.a.v)ning “vidolashuv haji” qachon bo‘lgan?

- a) 628 yili
- b) 629 yili
- c) 630 yili
- d) 632 yili

64. Abu Bakrning xalifaligi nech yil davom etdi?

- a) 2 yil
- b) 3 yil
- c) 4 yil
- d) 5 yil

FAN BO‘YICHA TAVSIYA ETILAYOTGAN REFERAT MAVZULARI

1. Islom tarixi fanining ilmiy va amaliy ahamiyati
2. Islom dinining tarixiy ahamiyati
3. Islom va boshqa dinlar tarixi haqidagi fikrlar
4. Sharqshunoslik adabiyotida islom tarixi
5. Islom tarixi bo‘yicha manba va adabiyotlar
6. Ibn Is’hoq-Ibn Hishomning sira kitobi (Sirat Rasulalloh)
7. Muhammad Xuzariyning “Nur ul-yaqin” kitobi (o‘zbek tilida)
8. Alixonto‘ra Sog‘uniyning “Tarixi Muhammadiy” kitobi
9. Zamonaviy “Sira” kitoblari
10. O.G.Bolshakovning “История халифата” kitobi
11. M.B.Piotrovskiyning “Южная Аравия в раннее средневековье. Становление средневекового общества” kitobi
12. N.V.Pigulevskayaning “Арабы у границ Византии и Ирана в IV-VI вв.” asari
13. Qur’on va Qadimgi Arabiston tarixi
14. Qur’oni karimning jamlanish tarixi
15. Makka va Madina shaharlарining islomdan oldingi xolati
16. Umar ibn Xattob islohotlari
17. Muhammad payg‘ambarning Makkadagi faoliyati
18. Habashistonga hijrat
19. Madinaga hijrat
20. Madina ahdnomasi
21. Xudaybiya sulhi
22. Muhammad payg‘ambarning diplomatik aloqalari
23. Sunniylikda “Xalifa”, “Xilofa”, “Imom” tushunchalari
24. Davlat boshqaruvida diniylik va dunyoviylikning o‘zaro uyg‘unlashuvi
25. Umaviy va abbosiy xalifalar. Hokimiyatning dunyoviylashuvi
26. Xalifa va Sulton

GLOSSARIY

- Abu Lahab*** (olov otasi, do‘zaxga tushuvchi) laqabi Qur’ondagi 111 sura nozil bo‘lgandan keyin paydo bo‘ldi.
- Ayyom al-arab*** (Arab kunlari) Islomdan oldingi va ilk islom davri arab qabilalari o‘rtasida bo‘lib o‘tgan urushlar haqidagi hikoyalarga nisbatan qo‘llanilgan. Arab xalq qissachilari bo‘lib o‘tgan urushlar, ularda qahramonlar ko‘rsatgan jasoartni vasf etganlar. Har bir qissachi o‘z qabilasining yoki o‘zi ittifoqdosh bo‘lgan qabilaning urushdagi g‘alabasi, uning sababi, mazkur vabilaning oliv jangovor qobiliyati va qahramonlarning favqulodda bahodirligi bilan faxrlangan. Ushbu hikoyalalar xalq o‘rtasida “Ayyom al-arab” nomi bilan shuhrat qozonib, og‘izdan-og‘izga ko‘chib naql qilingan.
- Al-Ahlof*** (الاحلاف) – Qasam ichganlar. So‘yan qurbonliklarining qoniga qo‘llarini botirib, Ka’ba devoriga surtganlar
- Banu Tag‘lib*** Furot va Dajla daryolarining quyi tarafida yashaydigan arab-xristian qabilasi.
- al-Ubulla*** Dajla daryosi sohilida joylashgan shahar
- al-Hira*** Kufa shahrining janubida (3 mil) joylashgan shahar. Laxmiylar davlatining poytaxti
- Tabaqot*** (tabaqaning ko‘pligi) ma’lum bir vaqt oralig‘ida yashagan shaxslar, “avlodlar tarjimai holi”
- Qusayy*** Muhammad payg‘ambarning beshinchi bobosi

Hilf al-mutiyyibin	– (Half the beneficiaries) Muattar islilar ittifoqi. Bir idishdagи xushbo‘y moddaga qo‘lni botirib, so‘ng Ka‘ba devoriga surtganlar
Harb al-fujjor	(War of the Caravans) – Noqonuniy urush. Urushning “al-Fujjor” (noqonuniy, harom) deb atalishiga urush harom qilingan oylarda Makkada bo‘lib o‘tganligiga dalolat
Hilf al-fudul	(Half the distressed) al-fujjor urushi tugagandan keyin Quraysh qabilasi urug‘lari Banu Hoshim, banu al-Muttolib, banu Asad, banu Zuhra va banu Taym o‘zaro do‘stlik va birdamlik ittifoqini tuzdilar. Bu ittifoqning tuzilishiga Muhammad payg‘ambar guvoh bo‘lgan. Ibn Hishomning ta’kidlashicha, ushbu ittifoqni bunday nomlanishiga sabab, Quraysh qabilasidan bir paytlar bir bitim tuzilgan bo‘lib, Fadl ibn Fudola, Fadl ibn Vado‘a va Fadl ibn Qudo‘a ismli kishilar amalga oshirganlar. Mazkur ittifoq ham aynan avvalgisiga o‘xshagini uchun unga ham shu nom berilgan
Devon	fors tilida “ro‘yxat”, “qayd qilish” yoki “daftар” ma’nolarini anglatadi
Jilvoz	(Gloves) – politsiyachi
Al-Mudir	(Administrator) – Viloyat (provinsiya) boshlig‘i – boshqaruvchi
Al-Muhofaza	(Governorate) – ma’muriy - teritorial o‘lchov birligi. Boshlig‘i “muhofiz” (Administrator) deb atalgan. Viloyat (provinsiya) boshlig‘i - gubernator
Ma’muriya	(Administration) - ma’muriy teritorial o‘lchov birligi. Boshlig‘i “al-ma’mur” (Administrator) deb atalgan
Al-Havliy	(Hawli) – dala qarovuli yoki bog‘bon

<i>Al-Mufattish az-zira'iy</i>	(المفتش الزراعي) – dala ekinlari taftishchisi (revizor)
<i>Dinor</i>	yunoncha so‘z (Deni) bo‘lib, o‘n (10) ma’nosini anglatadi
<i>Irdobb</i>	(اردوب) – Misrdan keng tarqalgan boshoqli o‘simgiliklar uchun o‘lchov birligi 90 litr yoki bug‘doyning 69,6 kilogrammga teng vazn o‘lchovi = 37,44 gr.= unsiya
<i>Uqiya</i>	Rivoyatlarga ko‘ra bu masjid yaqinidagi g‘orda Ibrohim payg‘ambar tug‘ilgan va bu masjidning o‘zida 700 yoki 7000 payg‘ambar qabrlari mavjud.
<i>Halab</i>	Aleppo – Halab Ibrohim, ya’ni Ibrohim payg‘ambarning bir-necha qo‘y-qo‘zilari bo‘lib, yo‘lovchilarni ularning sutidan mehmon qilib turganligi uchun <i>Ibrohim suti</i> nomi bilan mashhur bo‘lgan
<i>al-Masjid al-aqdam</i>	Damashqdan 2 milya janubda joylashgan masjid. Bu masjidda Muso Payg‘ambarning qadam izlari qolgan tosh saqlanadi
<i>ar-Rabi‘a al-adaviya</i>	Qabriston, rivoyatlarga ko‘ra bu yerga Iso payg‘ambarning onasi Maryam dafn etilgan
<i>al-Masjid al-Aqso</i>	Falastinda joylashgan masjid. Makka va Madina shaharlaridan keyingi haram kompleksi, ilk qibla
<i>al-Masjid al-abyd</i>	Falastin yaqinidagi ar-Ramla shahridagi Oq masjid. Bu masjidning janubiy davozasi yoniga 300 ta payg‘ambar qabri mavjud

Jahannam vodiysi	Rivoyatlarga ko‘ra, Iso al-Masihning ruhi shu yerdan osmonga ko‘tarilgan
Siffin	Furot daryosining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan joy nomi. Shu yerda 657 yili xalifa Ali ibn Abu Tolib va Muoviya ibn Abu Sufyon tarafдорлари о‘rtasida urush bo‘lib o‘tgan
Balad al-harb	Musulmonlar bilan urush holatida turgan davlat
ushr	arab tilidan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda o ‘ndan bir ma’nosini anglatadi
ahl az-zimma	Musulmon bo‘limgan aholi. Bu jamoa a’zolari ni urushda talafot ko‘rmasliklarini, mol-mulki, uylari, hayotlari, ibodat erkinliklari va cherkovlarining himoyasini ta’minlashga va’da berdi
Jizya	jizya jon solig‘i. bu soliqni to‘lovchilar uch toifaga bo‘lindilar: 1) boylar – 48 dirham; 2) o‘rtahollar – 24 dirham; 3) kambag‘allar – 12 dirham. Birinchi toifani yuqori tushumga ega bo‘lgan sarroflar, gazlama sotuvchilar, yirik savdogarlar, katta yer egalari, tabiblar, ikkinchi toifani esa hunarmandlar, tikuvchilar, bo‘yoqchilar va kosiblar tashkil qildilar. Uchinchi toifani kam daromadli aholi tashkil etgan. <i>Jizya</i> solig‘i ishga yaroqsizlar, qariyalar, nogironlar, ko‘zi va aqli ojizlar, rohiblar, ayollar va bolalardan olinmagan. <i>Jizya</i> aholidan har yilda bir marta yoki har oyda qisman to‘lab borish orqali yig‘ib olingan.
Qist	قططع – suyuqliklar sig‘im o‘lchov birligi = 1,2 litr
Jarib	جريب – maydon o‘lchov birligi = 1592 M ²

Mudd	مۇد - sochiluvchan jismlar uchun sig‘im o‘lchov birligi = 1,15 litr, Arabiston yarimorolida 1,053 litr; Misrda 2,5 l litr
So‘	صاع - Boshqoli o‘simliklarni o‘lchov birligi – 4 mudd yoki 4,2125 litr (taxminan 2,5 kg)
Maxtum	مختوم - sochiluvchan jismlar uchun sig‘im o‘lchov birligi: maxtum xoshimi = 17 litr, maxtum Xajjaja = 4,2 litr
Qafiz	قېزىز - sochiluvchan jismlar uchun sig‘im o‘lchov birligi = 55 litr
Vasq	وسق - vazn o‘lchov birligi, tuya ko‘tara oladigan yuk = 275 kg.
Dirham	درهم - 3,13 gramga teng kumush tanga, vazn o‘lchovi = 3,125 gr.
Misqol	مققال - vazn o‘lchov birligi = 4,235 gramm. Misr misqoli – 4,68 gr. Damashq misqoli – 4,62 gr. Iroq misqoli – 4,3 gr.
Ratl	رطل - vazn o‘lchov birligi = 406 kg.
Uqqa	عقة - 6,240 kg.
Rub’ al-hoshimiyy	ربع الهاشمي - vazn o‘lchov birligi = tax. 2 kg.
Qantor	قططار - vazn o‘lchov birligi = 44, 928 kg.
Doniq	دانق - mayda pul birligi 1/6 dirham. Misr kvadrat o‘lchov birligi. 1/6 qirotga teng. Pul birligi sifatida ham qo‘llanilgan.
qiyyrot	Misr yer o‘lchov birligi. $\frac{1}{24}$ fadanga teng (1 fadan 6368 kv m. ga teng)
Faddon	فدان - yer o‘lchov birligi 1830 yilgacha – 6368 M ² teng, 1830 yildan keyin 4200,833 M ² .
Ziro‘	ذراع - yer o‘lchov birligi – 54 sm.

monofelit	Xristianlikda Iso Masih targ‘ibotida insoniy va ilohiy tabiat mavjud, deb bilguvchilar
Monofisit	Iso Masihda faqatgina ilohiy tabiat mavjud, deb bilguvchilar
Ar-Riqq	الرق – oq yupqa teri
Al-Adiyim	الأديم – har qanday teri. Ba’zida qizil teri, oshlangan teri deb nomlangan. Mana shu teri Muhammad payg‘ambar davrida keng foydalanilgan. Qur’oni ham shu teriga yozilgan
Al-Qazim	القضيم – oq teri, oppoq sahifa
As-Sariyd	الثريد – non bo‘laklarini sho‘rvaga botirib, go‘sht qo‘shib yeyilgan
Al-Lamaza	اللمذة – yog‘ga to‘gralagan non
Al-Kavson	الكوثان – guruch va baliq
Al-Atriya	الأطريمة – undan tayyorlangan ipga o‘xhash ovqat
Ash-Sha’iriya	الشعرية – arpa kabi mayda ipga o‘xhash ovqat
Ar-Rabiyyka	الربيبة – bug‘doy, xurmodan tayyorlanib, yog‘ga qoriladi
Al-Jashish	الجشيش – chala maydalangan bug‘doyni go‘sht yoki xurmo bilan pishiriladi
Al-‘ukka	العكة – unni yog‘ bilan qorib, qovuriladi
Ash-Shava’, al-Basisa	الشواء, البسيسة – hayvon yog‘i yoki saryog‘ni un bilan qorib pishirilmasdan yeyiladi
Al-Xazir	الخزير – yog‘ va undan tayyorlangan atala

- Al-Xazira* الخزيرة – suvda go'shtni pishirib bo'lgach, ustiga un solinadi. Agar suvdagi go'sht olib qo'yilsa, «al-asida» deb atalgan
- Al-Qadid* القديد – go'sht mayda yoki yupqa to'g'rab solingan sho'rva
- As-Safif* الصفيف – go'shtni katta-katta to'g'rab solingan sho'rva

MUNDARIJA

Kirish.....	3
1-BOB. ISLOM TARIXIGA OID ILK MANBALAR TAHLILI	
1.1. Siyra va tarix kitoblari	5
1.2. Taboqot va davlat boshqaruviga oid asarlar.....	19
1.3. Zamonaviy tadqiqotlar	24
2-BOB. MARKAZIY ARABISTONDAGI QADIMGI DAVLATLAR	
2.1. Arabiston yarimorolidagi qadimgi davlatlar	28
2.2. Makka shahar-davlati.....	29
2.3. Muhammad (s.a.v.)ning makkadagi targ‘ibot davri.....	34
3-BOB. MADINAGA HIJRAT	
3.1. Madina shahar-davlati.....	41
3.2. Madinaga hijrat	43
3.3. Madinada tuzilgan “as-sahifa” (madina konstitutsiyasi)	46
4-BOB. ISLOM TARIXIDAGI ILK JANGLAR	
4.1. Badr jangi.....	51
4.2. Uhud jangi.....	52
4.3. Xandaq jangi	53
5-BOB. DIPLOMATIK MUNOSABATLARNING KENGAYISHI	
5.1. Hudaybiya sulhi	56
5.2. Muhammad (s.a.v.)ning diplomatik siyosati.....	57
5.3. Hudaybiya sulhining makkaliklar tomonidan buzilishi va makka fathi	59
6-BOB. MARKAZLASHGAN MAKKA-MADINA DAVLATIGA ASOS SOLINISHI	
6.1. Davlat boshqaruvining shakllanishi	62
6.2. Xalifalik institutining shakllanishi va saylov usullari.....	64
6.3. Rahbarlik titullarining o‘zgarishi	66
6.4. Yangi boshqaruv tizimlarining paydo bo‘lishi	67
7-BOB. RIDDA VOQEASI, DINDAN QAYTISH VA MUTANABBIYLIK HARAKATLARI	
7.1. Soxta payg‘ambarlar (mutanabbiylar) harakati	73
7.2. Zakotni inkor etish va dindan qaytish harakati	78

8-BOB. YANGI TASHKIL TOPGAN ARAB-MUSULMON DAVLATIDAGI IQTISODIY ISLOHOTLAR

8.1. Zakot	84
8.2. Xaroj	85
8.3. Jizya	88
8.4. Ushr	92
8.5. Bayt al-mol institutining tashkil topshi	93
8.6. Bayt al-mol xarajatlari	95
8.7. Pul birliklari va vazn o'chovlari	97

9-BOB. ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGI RIVOJIDA HARBIY OMILNING O'RNI

9.1. Askarlik devonining tashkil topishi	101
9.2. Harbiy sohada boshqaruv tizimining shakllanishi	103
9.3. Arab yurishlari, ularning sabab va natijalari	106

10-BOB. ARAB-MUSULMON DAVLATCHILIGI RIVOJIDA MADANIY-MA'RIFIY OMILLARNING O'RNI

10.1. Yangi shaharlar qurilishi	114
10.2. Madina shahridagi ichki qurilishlar	117
10.3. Arab xatining shakllanishi va qur'onning jamlanishi	120
10.4. Ta'lim sohasining rivojanishi	124
10.5. Kiyinish va taom madaniyati	127

11-BOB. DAVLATDAGI ICHKI ZIDDIYATLAR

11.1. Umaviylar va ali tarafdarining paydo bo'lishi	132
11.2. Xalifa usmon ibn affonning o'ldirilishi va fuqarolar urushining boshlanishi	135

ILOVALAR

Muhammad (s.a.v.)ning madina yahudiylari bilan tuzgan shartnoma	140
Rasululloh (s.a.v.)ning yahudiylari bilan kelishuvlari	142

FOYDALANISH UCHUN TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR

Uslubiy adabiyotlar	147
Manbalar	147
Tadqiqotlar	149
Test	153
Fan bo'yicha tavsiya etilayotgan referat mavzulari	166
Glossariy	167

ISLOM TARIXI

(Xulafoi roshidun davri – 632-661 yillar)

(O‘quv qo‘llanma)

«Toshkent islom universiteti»
nashriyot-matbaa birlashmasi
Toshkent – 2013

Muharrir: **J. Jo’rayev**
Sahifalovchi: **F. Sobirov**

Nashriyot guvohnoma raqami AI № 224. 2012-yil 16-noyabr.
Bosishga 2013-yil 30-dekabrdan ruxsat etildi.
Bichimi 84×108 ½. Shartli b.t. 9,24. Nashr t. 9,24.
Adadi 50 dona. Buyurtma № 12.
Bahosi shartnomaga asosida.

«Toshkent islom universiteti» nashriyot-matbaa
birlashmasi bosmaxonasida chop etildi.
100011. Toshkent sh. A.Qodiriy, 11.